

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**Sh. Z. Jumaxanov, A. M. Toshpo'latov**

**GEOGRAFIYA**

*(uslubiy ko'rsatma)*

**N a m a n g a n – 2 0 18**

Ushbu uslubiy ko'rsatma Geografiya mutaxassisligi bo'lmagan oliy o'quv yurtlarining 5120100– Filologiya va tillarni o'qitish, 5111400– Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) bakalavr yo'nalishlari dasturlariga kiritilgan Geografiya fanini o'qitishda talabalarga foydalanish uchun mo'ljallangan.

Shuningdek, ushbu uslubiy qo'llanmadan mutaxassislik yo'nalishi talabalari hamda boshqa qiziquvchilar ham foydalanishlari mumkin.

**Jumaxanov Sh., Toshpo'latov A.** Geografiya: Oliy o'quv yurti talabalari uchun uslubiy ko'rsatma. –Namangan, 2018. -254 b.

**Mas'ul muharrir:**

**Mirzaahmedov X. S.**

Geografiya fanlari nomzodi, dotsent

**Taqrizchilar:**

**Mo'minov M.** Namangan viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakisini oshirish instituti, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

**Soliyev E.A.** Namangan davlat universiteti Geografiya kafedrasida katta o'qituvchisi, geografiya fanlari nomzodi

Namangan davlat universiteti ilmiy- uslubiy kengashining 2018- yil **28- may kuni** **8- sonli** yig'ilish bayonnomasi qaroriga muvofiq nashr etishga ruxsat berilgan.

© Jumaxanov Sh. Z., Toshpo'latov A.M.

©“Namangan”, 2018.

### So`z boshi

Mamlakatimiz ta'lim- tarbiya tizimining hozirgi davrdagi asosiy vazifalaridan biri yosh avlodni vatanparvar, milliy istiqlolimiz g'oyalariga sadoqatli, zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni puxta o'zlashtirgan hamda jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallashga qodir bo'lgan barkamol shaxslarni tarbiyalab yetishtirishdir.

Ushbu uslubiy ko'rsatma geografiya mutaxassisligi bo'lmagan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda talabalar Yer shari va uning shakllanishi, Yerdagi hayotning vujudga kelishi, turli tabiiy va ijtimoiy- iqtisodiy geotizimlar haqida ma'lumotlar beriladi. Uslubiy ko'rsatmada masala va mashqlarning bajarilishi ham keltirilgan bo'lib, ularning kompleks tahlili orqali talabalarning geografik dunyoqarashlari yanada kengayadi, voqea- hodisalarning tarqalish qonuniyatlarini tushunishda ko'nikma va malakalar hosil qilinadi. Shuningdek, insoniyat tomonidan Yer shari tabiatining o'zlashtirilishi, turli darajada rivojlangan mintaqalar, davlatlarning tarkib topishi, jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni, tabiiy sharoiti va resurs salohiyati, aholisi; jahon miqyosidagi demografik jarayonlar va muammolar, xo'jalik tarmoqlarining joylashuvi, ixtisoslashuvi, jahon xo'jaligi va globallashtirish, davlatlarning tashqi iqtisodiy aloqalari haqida tushunchaga ega bo'lishadi.

Uslubiy ko'rsatma bilan tanishish jarayonida talabalar jahon xo'jaligi mintaqalarga ajratilishi makromintaqa davlatlarining jahon xo'jaligida tutgan tabiiy, iqtisodiy va geosiyosiy o'rni, tabiiy boyliklari va ularning zaxiralari, iqtisodiy- ijtimoiy rivojlanish xususiyatlari va muammolari to'g'risida bilim oladilar.

Uslubiy ko'rsatma ma'lumotlarini o'rganish jarayonida talabalarda inson yashab turgan Yer shari tabiati, uning xilma- xilligi, inson xo'jalik faoliyatida ulardan foydalanish, tabiat va jamiyat munosabatlari, Yer sharida turli darajada rivojlangan davlatlarning shakllanishi, jahon taraqqiyoti, uning ayrim mintaqalari

va davlatlarning ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlari turli shakldagi masala va mashqlar misolida uslubiy jihatdan o'z aksini topgan. Uslubiy ko'rsatmaning asosiy vazifasi talabalarga:

- ✓ yer sharining shakllanishi, o'lchamlari, harakati, unda tabiat va jamiyat munosabatlarining tarixiy davrlar davomida o'zgarib borishi;
- ✓ yer yuzi tabiiy va ijtimoiy- iqtisodiy sharoitining xilma- xilligi, geografik o'rin tushunchasi, uning asosida jahon siyosiy kartasida turli darajada rivojlangan mintaqalar, davlatlar va iqtisodiy rayon yoki qismlarning shakllanishi;
- ✓ turli mintaqalar va davlatlarning rivojlanish xususiyatlari, iqtisodiy va ijtimoiy salohiyati, rivojlanish darajasiga ko'ra tiplari, jahon taraqqiyotiga ularning qo'shayotgan hissasi va rivojlanish muammolari;
- ✓ jahonda sodir bo'layotgan tabiiy, iqtisodiy- ijtimoiy voqea- hodisalarning geografik jihatlarini, sabab- oqibatlarining mohiyatini tushuntirishdan iborat.

Qo'llanmada keltirilgan uslubiy fikrlar va unda berilgan amaliy mashg'ulot savollari oliy o'quv yurtlari 5120100– Filologiya va tillarni o'qitish, 5111400– Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) bakalavr yo'nalishlari talabalariga geografiya fanidan bilim va tarbiya berishda mas'uliyatli va mashaqqatli ishlariga oz bo'lsa-da yordam beradi, degan umiddamiz.

## Amaliy mashg'ulot № 1

### • Geografiya fanining hozirgi zamon mazmuni va vazifalari

#### Topshiqalar:

1. Geografiyaning o'rganish obyekti va predmeti.
2. Yer shari va unda hayotning shakllanishi.
3. Yer sharining Quyosh tizimida tutgan o'rne, shakllanishi, harakati, o'lchamlari va tuzilishi.
4. Yer sharida aholining o'rnashishi, turli tarixiy davrlardagi mintaqaviy sivilizatsiya, uning asosiy markazlari va tarqalishi. Ilk davlatlar.
5. Yevropa, "Ikkinchi dunyo", Sharq sivilizatsiyasi. Buyuk Ipak yo'lining jahon taraqqiyotidagi roli.

#### Qo'shimcha topshiriqlar:

1. Kemadan exolot orqali dengizga signal berildi va tovush 3 sekundda qaytgan bo'lsa, ushbu dengizning chuqurligini (suvda tovush tezligi 1500 m/sek. ekanligini unutmagan holda) aniqlang.

2. Yillik yog'in miqdori 200 mm, bug'lanish 2000 mm ga teng bo'lsa, namlik koeffitsiyenti qanchaga teng bo'ladi?

3. Berilgan ma'lumotlarga ko'ra, bir sutka davomida ob- havo quyidagicha o'zgargan bo'lsa, sutka ichidagi o'rtacha haroratni aniqlang.

soat 01:<sup>00</sup> da -6°C, soat 04:<sup>00</sup> da -9°C, soat 07:<sup>00</sup> da -8°C, soat 10:<sup>00</sup> da -3°C, soat 13:<sup>00</sup> da +4°C, soat 16:<sup>00</sup> da +2°C, soat 19:<sup>00</sup> da -4°C, soat 22:<sup>00</sup> da -4°C.

4. Janubiy Amerikaning ekvatorial o'rmonlar tabiat zonasi jadvalini to'ldiring.


| № | O'simlik dunyosi | Hayvonot dunyosi | Tuproqlari |
|---|------------------|------------------|------------|
|   |                  |                  |            |

5. Quyidagi geografik atama va tushunchaning lug'aviy ma'nosini yozing.

- Litosfera
- Dengiz havo massasi
- Mutloq balandlik
- Izoterma
- Daryo manbai

### Javoblar:

1. *Exolot*- suv tubiga tovush yuborib, qaytgan tovush tezligini hisoblash orqali suv havzalarining chuqurligini o'lchovchi asbob. Ishi kemaga o'rnatilgan ultratovushni uzatuvchi va qabul qiluvchi qurilma(vibrator)dan uzatilgan tovush signallari suv tubiga borib, qaytib kelguncha o'tgan vaqtni o'lchashga asoslangan. Maxsus elektr generator vibratorga dam-badam elektr impulslarini yuborib turadi, vibrator ularni akustik tebranishlar(tovush)ga aylantirib uzatadi. Suv tubidan qaytgan akustik tebranishlarni o'sha vibratorning o'zi qabul qilib, ularni elektr impulslariga o'zgartiradi. Kuchaygan impulslar chuqurlik indikatoriga kelib tushadi. Bu indikator impulslarning borib kelishi uchun ketgan vaqtni aniqlaydi. Ya'ni suvda tovush tezligi 1500 m/sek.ga teng. Bu qiymatni formulaga qo'yib, suv havzasining chuqurligini aniqlaydi.



## AMALIY MASHG'ULOTLAR

---

- I. Agar tovush yuborilib, qaytib chiqqan vaqti ma'lum bo'lsa, quyidagidek proporsiya usulidan foydalaniladi:

$$1 \text{ sek.} \text{ ----- } 1\,500 \text{ m/sek.}$$

$$\Delta \text{ sek.} \text{ ----- } x$$

Masalan, agar Atlantika okeanining g'arbidagi botiqqa exolot orqali yuborilgan tovush 11,656 sekundda qaytib chiqqan bo'lsa, ushbu botiqning chuqurligini aniqlang.

*Yechish:* Yuborilgan tovush qaytib chiqqanda, suvda tovush tarqalish tezligiga ko'paytirishdan avval vaqtni 2 ga bo'lish kerak. Chunki tovush yuborilganda suv tubiga tegib, urilib qaytadi. Demak, chuqurlik bir tomonlik masofaga 1 500 ni ko'paytirish orqali topiladi.

$$1) \quad 11,626 \text{ sekund} : 2 = 5,828 \text{ sekund}$$

$$2) \quad 1 \text{ sek.} \text{ ----- } 1\,500 \text{ m.}$$

$$5,828 \text{ sek.} \text{ ---} x = 8\,742 \text{ m.}$$

Demak, botiq chuqurligi 8 742 metr ga teng bo'lib, bu Atlantika okeanining eng chuqur joyi Puerto- Riko botig'iga to'g'ri keladi.

- II. Agar suv havzasining chuqurligi ma'lum bo'lsa-yu, bu chuqurlikni exolotdan yuborilgan tovush qancha vaqtda bosib o'tishi so'ralgan bo'lsa, quyidagi usuldan foydalaniladi:

$$1 \text{ sek.} \text{ ----- } 1\,500 \text{ m.}$$

$$x \text{ ----- } \Delta \text{ m (bizga ma'lum chuqurlik)}$$

Masalan, agar Kermadek botig'ining chuqurligi 10 047 metrliki ma'lum bo'lsa, yuborilgan tovush botiqning tubiga qancha vaqtda yetib tushadi?

$$1 \text{ sek.} \text{ ----- } 1\,500 \text{ m.}$$

$$6,698 \text{ sek.} = x \text{ ----- } 10\,047 \text{ m.}$$

Demak, exolotdan yuborilgan tovush Kermadek botig'ining tubiga 6,698 sekundda yetib tushar ekan.

III. E'tibor berish lozimki, agar mashqlarda yuborilgan tovush faqat suv tubiga yetib tushgani ta'kidlansa, avvalgidek vaqtni 2 ga bo'lmaymiz. Aksincha, bir yo'la 1500 ga ko'paytiriladi.

Masalan, Baykal ko'lining eng chuqur joyiga exolotdan yuborilgan tovush 1,08 sekunda yetib tushganligi ma'lum bo'lsa, ko'l chuqurligini aniqlang.

1 sek. ----- 1 500 m.

1,08 sek. ---  $x = 1\ 620$  m

Demak, ko'lining eng chuqur joyi 1 620 metrga teng bo'ladi.

2. Namlik koeffitsiyenti- bu ma'lum bir hududdagi havoning namlik bilan qanchalik ta'minlanganlik darajasini bildiradi. U yog'in miqdorining bug'lanuvchanlikka yil davomidagi nisbati hisoblanadi. O'zi havoning namligi deyilganda, havoda mavjud bo'lgan mavjud suv bug'lari tushuniladi.

Namlik koeffitsiyenti quyidagi formula yordamida topiladi:

$K = Y / B$  Bunda, K- namlik koeffitsiyenti;

Y- yillik yog'in miqdori;

B- mavjud bug'lanish miqdori.

Bunda, koeffitsiyent yog'inning bug'lanishga nisbati bo'lanligi uchun yillik yog'in miqdorining qiymati bug'lanish miqdoriga bo'linadi.

Masalan, agar San- Fransiskoda yillik yog'in miqdori 500 mm. ni, bug'lanish esa 1000 mm. ni tashkil etsa, namlik koeffitsiyenti qanchaga teng bo'ladi?

Yechish:

$$K = 500 \text{ mm} : 1000 \text{ mm} = 0,5$$

Demak, San- Fransisko joylashgan hudud 0,5 ga teng qiymatli, ya'ni o'rtacha qurg'oqchil mintaqada joylashgan ekan.

Dunyodagi mintaqalarning qanchalik namlik bilan ta'minlanganligiga bog'liq holda, quyidagicha klassifikatsiyani ajratish mumkin:

- *Namchil*- namlik koeffitsiyenti 1,0 dan ortiq. Masalan, Amazoniya va h.z
- *Qurg'oqchil*:



- 1) kuchsiz qurg'oqchil- 0,55 dan 1,0 gacha. Masalan, Yakutiya va h.z
- 2) o'rtacha qurg'oqchil- 0,33 dan 0,55 gacha. Masalan, Gobi va h.z
- *Quruq*- namlik koeffitsiyenti 0,33 dan kam. Masalan, Sahroi Kabir va h.z

3. Havoning harorati deb, havoning qanchalik isigani yoki soviganiga aytiladi. Havo harorati yerdan 2 metr balandda maxsus psixorometrik qutiga o'rnatilgan termometr orqali aniqlanadi. Termometr ("thermos"- harorat, "metros"- o'lchamoq) quyosh nuri tushmaydigan soya joyga o'rnatiladi. Ob-havoning holati, xususan, harorati har 3 soatda, sutkada 8 marta o'lchanadi.

Sutkalik o'rtacha havo haroratini aniqlash uchun sutka davomida o'lchangan barcha haroratlar yig'indisini o'lchangan muddatlar soniga bo'linadi.

Masalan, quyidagi misolni ham shunday hisoblash mumkin.

soat 01:<sup>00</sup> da  $-6^{\circ}\text{C}$ , soat 04:<sup>00</sup> da  $-9^{\circ}\text{C}$ , soat 07:<sup>00</sup> da  $-8^{\circ}\text{C}$ , soat 10:<sup>00</sup> da  $-3^{\circ}\text{C}$ ,  
soat 13:<sup>00</sup> da  $+4^{\circ}\text{C}$ , soat 16:<sup>00</sup> da  $+2^{\circ}\text{C}$ , soat 19:<sup>00</sup> da  $-4^{\circ}\text{C}$ , soat 22:<sup>00</sup> da  $-4^{\circ}\text{C}$ .

*Yechish:* Agar o'lchangan haroratlar orasida manfiy(-) va musbat(+) qiymatlilari bo'lsa, ularni alohida- alohida hisoblanadi (1-usul) yoki umumiy holatda hisoblash amalga oshiriladi (2-usul).

1) alohida- alohida qiymatlilarni hisoblash usuli:

I.  $-6^{\circ}\text{C} + (-9^{\circ}\text{C}) + (-8^{\circ}\text{C}) + (-3^{\circ}\text{C}) + (-4^{\circ}\text{C}) + (-4^{\circ}\text{C}) = -34^{\circ}\text{C}$

II.  $+4^{\circ}\text{C} + 2^{\circ}\text{C} = +6^{\circ}\text{C}$

III.  $+6^{\circ}\text{C} + (-34^{\circ}\text{C}) = -28^{\circ}\text{C}$

IV.  $-28 : 8 \text{ (o'lchangan muddatlar soni)} = -3,5^{\circ}\text{C}$       Javob:  $-3,5^{\circ}\text{C}$

2) I.  $-6^{\circ}\text{C} + (-9^{\circ}\text{C}) + (-8^{\circ}\text{C}) + (-3^{\circ}\text{C}) + 4^{\circ}\text{C} + 2^{\circ}\text{C} + (-4^{\circ}\text{C}) + (-4^{\circ}\text{C}) = -28^{\circ}\text{C}$

II.  $-28^{\circ}\text{C} : 8 = -3,5^{\circ}\text{C}$

Demak, o'rtacha sutkalik havo harorati  $-3,5^{\circ}\text{C}$  ga teng ekan.

4. Janubiy Amerika eng sernam materik hisoblanadi. Chunki uning juda katta yuqori markaziy qismlari ekvatorial nam o'rmonlar- selva (portugalcha "o'rmon")dan iborat. Ushbu zona ekvatorning ikki tomonida joylashgan.

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

Amazonka havzasidagi o'rmonlar zonasi Amazoniya deb ataladi. Selva juda namchil va ko'p yarusli bo'lib, florasi nuqtai nazaridan "sayyoramiz o'pkasi" deb ataladi. Chunki bitta fasl kuzatilib, o'simliklar yil davomida CO<sub>2</sub> (karbonat anhidrid)ni yutib, O<sub>2</sub> (kislород) ishlab chiqaradi.

Zonaning flora va faunasi, pedosferasi quyidagi jadvalda berilgan:

| O'simlik dunyosi     | Hayvonot dunyosi   | Tuproqlari                                  |
|----------------------|--------------------|---------------------------------------------|
| Kauchukli geveya     | Yalqov             | Laterit tuproqlar:<br>qizil- sariq ferrolit |
| Palma                | Karibar            |                                             |
| Kakao daraxti        | Tapir              |                                             |
| Seyba(paxta daraxti) | Yaguar             |                                             |
| Qovun daraxti        | Kayman             |                                             |
| Bals daraxti         | Alligator          |                                             |
| Sedrella             | Toshbaqa           |                                             |
| Pay brazil           | Kaltakesak         |                                             |
| Sutli daraxt         | Piranya balig'i    |                                             |
| Qizil rangli mango   | To'tilar           |                                             |
| Braziliya yong'og'i  | Katta shaftolixo'r |                                             |
|                      | Kolibri            |                                             |
|                      | Anakonda           |                                             |

Ma'lumki, tog' qaysi tabiat zonasida joylashgan bo'lsa, asosi o'sha zonadan boshlanadi. Xususan, And tog'laridagi balandlik mintaqalaridan eng pastdagisi nam ekvatorial o'rmonlar bo'lib, tizmaning 1000 metrgacha balandlikdagi qismini o'z ichiga oladi. Bu zonada kauchukli daraxtlar, palma va chirmoviqlar ko'p tarqalgan. Yillik yog'in miqdori 3000 mm dan ortiq bo'lib, harorat o'rtacha +24, +25° C ni tashkil etadi.

5. Atamalarga ta'rif bering.

**1) litosfera** (yunoncha “litos”- tosh, “sphaira”- qobiq)- Yerning tosh qobiq'i. U o'z ichiga yer po'sti va yuqori mantiyaning bir qismini oladi. Demak, uning quyi chegarasi astenosferaga qadar davom etadi. Yerning uzoq yillik geologik- genetik taraqqiyoti davomida yerosti moddalarining saralanishi tufayli geosferalar shakllangan. Og'ir moddalar pastga cho'kkan, yengillari yuqorida joylashgan. Natijada yer ostidagi kristallangan qaynoq zich moddalardan tuzilgan qatlamlardan nisbatan g'ovakligi va yengilligi bilan farqlanuvchi yer po'sti shakllangan. Xususan, Yer po'sti tuzilishi va qalinligiga ko'ra, ikki tipga bo'linadi:



Materik yer po'sti yoki kontinental yer po'sti quruqliklarda tarqalgan bo'lib, qalinligi tekisliklarda 35- 40 km, yosh tog'larda 55- 70 km.dan Himolay tog'larida 80 km.gacha boradi. U, asosan, uch qatlam- cho'kindi, granit va bazaltdan tuzilgan bo'lib, zichligi o'rtacha  $2,65 \text{ g/sm}^3$  ga teng. Yer po'stining kontinental tipi eng qadimiy shakllangan jinslardan tuzilgan bo'lib, yoshi 3,8- 4,1 mlrd yilga teng.

Okean yer po'sti 5-10 km qalinlikka ega. Ustida ulkan suv massasi mavjudligi uchun zichligi yuqori, o'rtacha  $2,85 \text{ g/sm}^3$  ga teng. Okean yer po'stining eng yuza qatlami yupqa 600- 1000 metr qalinlikdagi cho'kindi jinslar bilan qoplangan. Kontinental tipdan farqli ravishda, granitli qatlam uchramaydi. Lekin bazalt qatlamidan pastda qalinligi 3,5- 5,0 km.ga boradigan magmatik jinslar mavjud. Okean yer po'sti nisbatan yosh hisoblanib, 100- 150 mln yil muqaddam shakllangan jinslardan tarkib topgan.

Demak, umumiy holatda, litosfera okean tubida 50- 60, quruqliklarda 100- 200 km qalinlikkacha boradigan yer ichki qismining yuqori bir qismi hisoblanar ekan.

**2) dengiz havo massasi-** bu dengiz yoki okeanlar ustida tarkib topgan katta hajmdagi havo to'plamlaridir. Umumiy olganda esa, asli havo massalari bu atmosferaning quyi qatlami- troposferaning bir xil xususiyatga ega bo'lgan katta hajmdagi havo to'plamlari bo'lib, ma'lum joydagi havo massasi boshqa joydagidan harorati, namligi, bosimi va shamollari kabi elementlari orqali farqlanib turadi. Ular hosil bo'lishiga ko'ra, quruqlik ustida tarkib topsa, kontinental, okean yoki dengiz ustida vujudga kelsa, dengiz havo massalariga bo'linadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, dengiz havo massasi suvlik ustida tarkib topganligi uchun undagi havo namlikka to'yingan bo'ladi va o'zida harorat va namlik migratsiyasini amalga oshirish xossasini shakllantiradi. Shu bois dengiz havo massasi hukmron bo'lgan hudud iqlimi yumshoq va namchil bo'ladi. Masalan, G'arbiy Yevropada Atlantika okeanidan keladigan nam g'arbiy shamollar ta'sirida mo'tadil iqlim mintaqasining dengiz tipi shakllangan. Natijada qishi iliq, o'rtacha  $0^{\circ}\text{C}$  atrofida; yozi esa salqin, o'rtacha  $+15, +20^{\circ}\text{C}$ .

**3) mutloq balandlik** deb, quruqlikdagi ma'lum nuqtaning okean sathidan yoki quruqlik bilan tutashgan dengiz sathidan tik balandligiga aytiladi. Mutloq balandlik ko'p davlatlar, xususan, O'zbekistonda ham Boltiq dengizi sathidan o'lchanadi. Bunda hayolan sathiy yuza sifatida yuzasi tekis bo'lganligi uchun me'yorga olingan Boltiq dengizining yuzasi quruqliklar ostidan o'tkaziladi. Hisob- kitoblar orqali shu sathdan vertikal ravishda balandlik o'lchanadi.

Yer yuzasida mutloq balandligi bir xil bo'lgan nuqtalarni tutashtiruvchi chiziqlar gorizantallar deyiladi va ular relyef shakllarining bevosita akslantirmalari hisoblanadi. Gorizantallar oralig'ini ranglar bilan tasvirlash natijasida esa tabiiy xaritalar vujudga keladi.

Yer yuzidagi mutloq balandligi eng balang nuqta Jomolungma(Everest) bo'lib, dengiz sathidan balandligi 8 848 metrni tashkil etadi. Bu borada O'zbekistondagi eng baland nuqta sifatida Hazrati Sulton cho'qqisini ko'rsatish mumkin. U Hisor tizmasida joylashgan bo'lib, mutloq balandligi 4 643 metrga teng.

**4) izoterma** (yunoncha “isos”- teng, “thermos”- harorat) havo harorati bir xil bo'lgan nuqtalarni tutashtiruvchi chiziqli hisoblanadi. U kuzatishlar natijasida havo haroratining bir xil qiymatlarini birlashtirib, o'sha hududlarda bir xil harorat ketayotganligidan dalolat beradi. Iqlim xaritalarida izotermalardan keng foydalaniladi. Shuningdek, izotermalar yilning eng issiq(iyul) va eng sovuq(yanvar) oylari uchun mo'njallangan bo'lib, asosan, havorang bilan yanvar izotermalari, qizil rang bilan esa iyul izotermalari beriladi. Aytaylik, ma'lum hududga (1)iyul izotermasi(+25°C) tasvirlandi, uning ichiga yana (2) izoterma +30°C berildi, oxirida yana eng markazga +35°C qiymatga ega (3)izoterma berilgan bo'lsa, bunda 1- va 2- izotermalar orasidagi havo harorati +25, +30°C oralig'ida o'zgaradi. Chiziqlar esa aynan keltirilgan harorat kuzatilgan nuqtalarni o'zaro tutashtiradi.

**5) daryo manbai** bu daryoning boshlanadigan joyi bo'lib, muzlik, ko'l, buloq, botqoqlik tarzida namoyon bo'ladi. Daryo shu kabi tabiiy obyektlardan boshlanib, suv olib, oqim hosil qiladi va lentasimon chuqurlik(o'zan)da harakatlanadi. Ayniqsa, daryolarning manbai suv rejimiga katta ta'sir ko'rsatadi. Daryolar manbai ham sersuv, ham kamsuv bo'lishi mumkin:

- *sersuv mabalardan* oqib chiquvchi daryolar boshidanoq katta bo'ladi. Bunday manbalarga ko'l (Angara Baykal ko'lidan, Kongoning Lukuga irmog'i Tanganika ko'lidan, Oq Nil Viktoriya ko'lidan oqib chiqadi, ya'ni ularda suv rejimida ko'proq rolni bosh manba- ko'l bajaradi) va muzliklar (Amudaryo, Yukon, Reyn, Rona, Adije, Drava daryolari tog' muzliklaridan boshlanadi. Shu bois ularning eng suvi ko'paygan davri yozga- muzlar erigan paytlarga to'g'ri keladi) kiradi;
- *kamsuv manbalar* daryoni shakllanishi, vujudga kelishida ahamiyat kasb etadi, xolos. Ko'p hollarda bunday manbalardan boshlanuvchi daryolar yuqori oqimida suvi oz bo'lib, asosan, daryo suv rejimi havzaning tabiiy

sharoitiga bog'liq bo'lib qoladi. Shu kabi manbalarga buloq (Volga, Dnepr, Jinnidaryo), kichikroq ko'l (G'arbiy Dvina, Don) va botqoqliklar kiradi. Bir narsani unutmaslik kerakki, daryo manbai bilan to'yinish manbai alohida-alohida kategoriyalardir. Daryo manbai, ya'ni boshlanish joyi oqimni boshlanish nuqtasi bo'lsa, to'yinish manbai boshlanish joyi hamda oqim yo'lidagi daryoni to'yintiruvchi meteorologik element hisoblanadi. Unga suvning turli agregat shakldagi ko'rinishlari kirib, ular muz, qor, yomg'ir yoki yerosti suvi ko'rinishida namoyon bo'ladi.

### Nazorat uchun savollar:

1. Dengiz va okeanlar chuqurligi qaysi asbob yordamida o'lchanadi?
2. Eng sernam materik qaysi?
3. Ob- havo deb nimaga aytiladi?
4. Namlik koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?
5. Janubiy Amerikaning ekvatorial o'rmonlar zonasida qanday o'simliklar o'sadi?
6. Litosfera nima?

### Test savollari:

1. Suvda tovush tezligi qanchani tashkil etadi?  
A) 1500 m/sek.                      B) 340 m/sek.  
C) 1750 m/sek.                      D) 300 000 m/sek.
2. Yog'in miqdori 240 mm, bug'lanish 1000 mm ni tashkil etsa, namlik koeffitsiyenti qanchaga teng bo'ladi?  
A) 4,16                                  B) 0,76  
C) 5,12                                  D) 0,24
3. Janubiy Amerikadagi nam ekvatorial o'rmonlar nima deb ataladi?

A) gileya

B) selva

C) pampa

D) lianos

4. Okean po'stining shakllanganiga o'rtacha qancha vaqt bo'lgan?

A) 3,8- 3,5 mlrd yil

B) 200- 220 mln yil

C) 100- 150 mln yil

D) 40- 130 ming yil

5. Kongo daryosining qaysi irmog'i Tanganika ko'lidan oqib chiqadi?

A) Lukuga

B) Lualoba

C) Kasai

D) Ubangi

Mustaqil ta'lim

• Uy sharoitida o'rtacha sutkalik havo haroratini aniqlash

**Bilasizmi???**

- Dunyodagi eng ko'p ko'priklar shahri Sankt- Peterburg hisoblanadi;
- Avstraliyadagi quyonlar soni Xitoydagi odamlar sonidan ko'p;
- Eng zaharli o'rgumchak Braziliyadagi sayohatchi o'rgumchakdir.

### Amaliy mashg'ulot № 2

#### • Tabiiy sharoit va tabiiy resurslar

#### Topshiriqlar:

1. Tabiiy sharoit va tabiiy resurslar haqida tushuncha.
2. Tabiiy resurslar omili va hududiy mehnat taqsimotiga ta'siri.
3. Tabiiy geografik komponentlarga iqtisodiy baho berish SWOT– tahlil usuli.
4. O'zbekistonning tabiiy resurslari.

### Qo'shimcha topshiriqlar:

1. Velvichiya, arakuariya, marabu, adeli, kazuara, dingo, bizon, qo'yho'kiz, ravanella, puma, oq ayiq, emu, nandu, lama, zirxlilar, vombat, buk, eman, sekvoyya, baobab, opossum, laterit, podzol, ferralit, torfli, botqoq, piraniya, evkalipt, saksavul, oq qayin kabilarni qaysi tabiat zonasiga tegishli ekanligiga bog'liq holda jadvalni to'ldiring.

| <i>O'simlik dunyosi</i> | <i>Hayvonot dunyosi</i> | <i>Tuproqlari</i> |
|-------------------------|-------------------------|-------------------|
|                         |                         |                   |

2. Dunyoning yirik foydali qazilma konlari jadvalini (*temir, nikel, oltin, uran, boksit, toshko'mir, qo'ng'ir ko'mir* kabi foydali qazilmalar misolida) to'ldiring.

| <i>Foydali qazilma konlari nomi</i> | <i>Foydali qazilma turi</i> | <i>Joylashgan mamlakati</i> |
|-------------------------------------|-----------------------------|-----------------------------|
|                                     |                             |                             |

3. Quyidagi geografik atamalarga ta'rif yozing.

- Gorizont (ufq)
- Havo fronti
- Paralellar
- Gorizontallar
- Aglomeratsiya

*Javoblar:*



## AMALIY MASHG'ULOTLAR

1. Berilgan flora, fauna va pedosfera elementlarini jadvalga mos ravishda ravishda joylashtirishda materik va okeanlar hayvon hamda o'simlik xaritalaridan foydalanish mumkin. Ayrimlari bir harfga farq qilib, mazmuni bir- biridan tubdan farq qiladi. Masalan, kazuar- kazuara. Bunda *kazuar*- Okeaniyada yashovchi emu oilasiga kiruvchi tovuq turi bo'lsa, *kazuara*- Avstraliya savannalarida o'suvchi daraxtdir. Shu bois yaxshilab e'tibor berish lozim:

*Velvichiya, arakuariya, marabu, adeli, kazuara, dingo, bizon, qo'yho'kiz, ravanella, puma, qo'ng'ir, oq ayiq, emu, nandu, lama, zirxlilar, vombat, gleyli, buk, eman, sekvoyya, baobab, opossum, laterit, podzol, ferralit, torfli, botqoq, piraniya, evkalipt, saksavul, oq qayin*

| <i>O'simliklar</i> | <i>Hayvonlar</i> | <i>Tuproqlar</i> |
|--------------------|------------------|------------------|
| Velvichiya         | Marabu           |                  |
| Araukariya         | Adeli            |                  |
| Kazuara            | Dingo            | Qo'ng'ir         |
| Ravanella          | Bizon            | Gleyli           |
| Buk                | Qo'yho'kiz       | Laterit          |
| Eman               | Puma             | Podzol           |
| Sekvoyya           | Oq ayiq          | Ferralit         |
| Baobab             | Emu              | Torfli           |
| Opossum            | Nandu            | Botqoq           |
| Evkalipt           | Lama             |                  |
| Saksavul           | Zirxlilar        |                  |
| Oq qayin           | Vombat           |                  |
|                    | Piraniya         |                  |

Materik hamda okeanlar bo'yicha o'simlik va hayvonot dunyosi komponentlarini puxta bilish tabiat zonalari elementlarini bimalol farqlashni shakllantiradi hamda tabiatni hudud sharoitiga bog'lab tushunishni osonlashtiradi.

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

2. Foydali qazilmalar tarkibida foydali minerallari bo'lgan, hozirgi texnika imkoniyatlari bilan tarkibidagi moddalarni ajratib olish imkoniyati mavjud resurslar bo'lib, quyida jahondagi ayrim yirik foydali qazilma konlarining qayerda joylashganligi, kondan qanday resurs qazib olinishiga doir jadval berilgan bo'lib, jadval strukturasi qabul qilishni osonlashtiradi, qaysi davlatlarda ko'pchilik resurs konlari joylashganligi haqida tushunarliroq ma'lumot olish mumkin.

| <i>Foydali qazilma konlari<br/>nomi</i> | <i>Foydali qazilma turi</i> | <i>Joylashgan mamlakati</i> |
|-----------------------------------------|-----------------------------|-----------------------------|
| Kirunavara                              | Temir                       | Shvetsiya                   |
| Lotaringiya                             |                             | Fransiya                    |
| Krivoy Rog                              |                             | Ukraina                     |
| Kerch                                   |                             |                             |
| Belozyosk                               |                             |                             |
| Sokolov- Sarbay                         |                             | Qozog'iston                 |
| KMA                                     |                             | Rossiya                     |
| Maunt- Ueylbek                          |                             | Avstraliya                  |
| Minas- Jerays                           |                             | Braziliya                   |
| Serra- dus- Karajas                     |                             |                             |
| Grinveyl                                | Nikel                       | Avstraliya                  |
| Kambalda                                | Oltin                       |                             |
| Leonora                                 |                             |                             |
| Nabarlek                                | Uran                        |                             |
| Ueypa-York                              | Boksit                      |                             |
| Rur                                     | Toshko'mir                  | GFR                         |
| Saar                                    |                             |                             |
| Donbass                                 |                             | Ukraina                     |
| Sikuanshan                              |                             | XXR                         |

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

|                |                 |             |
|----------------|-----------------|-------------|
| Ekibastuz      | Qo'ng'ir ko'mir | Qozog'iston |
| Qarag'anda     |                 |             |
| Tikibuli       |                 | Gruziya     |
| Balxatuv       |                 | Polsha      |
| Shimoliy Nesh  |                 | Chexiya     |
| Post- Lauziya  |                 | GFR         |
| Galle- Leypsig |                 |             |

3. Geografik atamalarga ta'rif berishda uni iloji boricha to'laroq yoritib, kompleks ma'lumot berishga harakat qilish ahamiyatli hisoblanadi.

1) **gorizont** (lotincha "horizont"- chegaralayman) yoki ufq- bu ochiq joyda yer yuzasining osmon sferasi bilan tutashgan chegarasi. Ufqqa bo'lgan masofa ufq tekisligi deyiladi. Gorizont chegarasi hamda gorizont tekisligi yuqoriga ko'ratilgan sari ortib boradi, ya'ni balandga ko'tarilganda yanada uzoqroqni ko'rish imkoniyati kengayadi.

Yer sharsimon bo'lganligi uchun ufqni ko'rish chegarasi chegaralangan. Shu bois insonning (bo'yi o'rtacha 2 metr deb qabul qilingan) ma'lum bir balandlikda qancha masofani ko'rish quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$H = 3,86 \cdot \sqrt{h}$$

Bunda,  $H$  = ma'lum balandlikda ufqni ko'rish chegarasi (km hisobida);

$\sqrt{h}$  = berilgan balandlik (m hisobida);

3,86 = o'rtacha bo'yli odam tekis joyda ko'radigan masofa (km hisobida).

- Agar balandlik berilsa-yu, ko'rish masofasi so'ralsa, berilgan formulaning aynan shu qolipidan foydalaniladi. Masalan, Chogori cho'qqisida turgan kutazuvchi qancha masofani ko'ra olishini hisoblash kerak bo'lsa, ishni bajarish tartibi quyidagicha bo'ladi:

Yechish: 1) avval berilgan cho'qqining balandligi aniqlanadi, ya'ni Chogori cho'qqisining balandligi 8 611 metrga teng;

2) hisoblash uchun qiymatlar formulaga solinadi:

$$H = 3,86 \cdot \sqrt{8\,611} = 3,86 \cdot 92,8 \approx 358,2 \text{ km}$$

Demak, kuzatuvchi cho'qqidan turib, o'rtacha 358,2 km masofani ko'ra olar ekan. Bunda berilgan balandlik ildizdan chiqarilib, 3,86 ga ko'paytirilsa, ufqni ko'rish chegarasi kelib chiqadi. Tekshirib ko'rish uchun esa ildizdan chiqqan qiymat (masalan,  $92,8^2 \approx 8\,611$ ) kvadratga ko'tariladi.

- Agar ufq(gorizont)gacha, umuman, ma'lum predmetgacha bo'lgan masofa aniq bo'lsa-yu, shu masofani qancha balandlikdan ko'rish mumkinligi so'ralsa, quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Masalan, Bering bo'g'ozining kengligi 85 km.ligi ma'lum bo'lsa, bir qirg'oqdan turib, ikkinchi qirg'oqni ko'rish uchun qancha balandlikka ko'tarilish kerak?

$$\sqrt{h} = H : 3,86$$

Bunda,  $\sqrt{h}$  = berilgan balandlik (m. hisobida);

$H$  = ma'lum balandlikda ufqni ko'rish chegarasi (km hisobida);

3,86 = o'rtacha bo'yli odam tekis joyda ko'radigan masofa (km hisobida).

$$\sqrt{h} = 85 : 3,86 = 22,02$$

$$22,02^2 \approx 484,9$$

Demak, Bering bo'g'ozining ikkinchi qirg'og'ini ko'rish uchun 484,9 (deyarli 485) metr yuqoriga ko'tarilish kerak bo'ladi.

*Oriyentirlash* (yunoncha "sharqlash")- o'zi turgan joyni ufq tomonlariga nisbatan aniqlash bo'lib, asosan, 4 ta asosiy- shimol, janub, sharq va g'arb tomonlariga nisbatan aniqlash asosida amalga oshiriladi. Negiz sifatida sharq olinadi. Chunki Quyosh sharqdan chiqqanligi uchun unga tayanib, boshqa tomonlar topiladi.

**2) havo fronti-** turli xususiyatga ega bo'lgan atmosfera havo massalarining to'qnashgan joyidagi oraliq zona. Xususiyati jihatidan har xil bo'lgan havo massalari doimo harakatda bo'lib, bir- biri bilan yaqinlashadi, oqibatda kengligi 500- 900 km, uzunligi 2000- 3000 km keladigan frontal zona vujudga keladi. Bu

zonadagi o'sha havo massalarining ajratib turuvchi qismini frontal yuza deyiladi. Iliq havo yengil va siyrak bo'lganligi tufayli frontal yuza(sovuq havo)dan yuqorida bo'ladi. Sovuq va issiq havoni ajratib turuvchi chiziqqa frontal chiziq yoki atmosfera fronti deyiladi. Front harorati har xil bo'lgan ikkita havo massasini ajratib turganligidan, u har doim gorizont tekisligiga nisbatan qiya bo'ladi: iliq havo yuqoriga ko'tarilib, sovuq havo usti tomonga oqadi, sovuq havo esa yer yuzasi bo'ylab harakat qilib, iliq havo ostiga kirib boradi. Ya'ni qaysi havo massasining kuchli ekaniga qarab, iliq yoki sovuq frontning ta'siriga bog'liq holda ob- havo o'zgaradi. Xususan, sovuq frontda haroratning keskin pasayishi va yog'in- sochinning bo'lishi kuzatiladi. Frontning qiyaligi katta bo'lmaydi, ya'ni 1 km masofaga 1 m. dan 10 m. gacha boradi. Shunday qilib, frontda havo massalari faqat yonma- yon joylashib qolmasdan, biri ikkinchisining ustida ham joylashadiva surulib turadi. Iliq havoning sovuq havo ustida ham atrofga, ham yuqoriga siljishi ko'tarilma sirg'anish deyiladi. Ko'tarilma sirg'anish boshlanadigan joyda siklon vujudga keladi. Yer yuzidagi asosiy front mintaqalariga arktika, mo'tadil, passat va tropik frontlar kiradi.

**3) *parallellar***- qutblardan teng uzoqlikda o'tkazilgan, Yerni teng ikkiga bo'lib turuvchi ekvator ("tenglashtiruvchi") chizig'iga parallel, ya'ni yonma- yon o'tkazilgan chiziqlar. Parallellar Yer yuzidagi geografik kengligi bir xil bo'lgan nuqtalarni birlashtirish vazifasini bajaradi va uning qiymati orqali nuqtalarning geografik kengligi aniqlanadi.

Geografik kenglik Yer yuzidagi istalgan nuqtadan Yer markaziga tushirilgan chiziq bilan ekvator tekisligi orasida hosil bo'lgan burchak bo'lib, 0 dan 90° gacha o'lchanadi. Yuqorida aytilganidek, shunday nuqtalarni parallellar o'zaro tutashtiradi. Yer sharsimon ko'rinishga ega bo'lganligi sababli parallellarning uzunligi ekvatoridan qutblarga tomon qisqarib boradi. Turli geografik kengliklardagi 1° parallel yoyining uzunliklari quyidagicha aniqlanadi:

$$l = 111,3 \cdot \cos\varphi$$

Bu yerda,  $l = 1^\circ$  parallel yoyining uzunligi;

$111,3 =$  ekvatoridagi o'rtacha  $1^\circ$  yoyining uzunligi (km.da);

$\cos \varphi =$  geografik kenglik qiymatining  $\cos$  bo'yicha qiymati.

Masalan,  $60^\circ$  kenglikda joylashgan, geografik uzunlik jihatidan bir- biridan  $10^\circ$  ga farq qiladigan A va B nuqtalarning orasidagi haqiqiy masofani topish jarayonida quyidagicha tartibda ish amalga oshiriladi:

1) formulaga asosan  $60^\circ$  kenglikdagi  $1^\circ$  yoy uzunligi topiladi.

$$l = 111,3 \cdot \cos 60^\circ$$

$$111,3 \cdot 0,5 = 55,65 \text{ km.ga teng.}$$

Demak,  $1^\circ$  yoy  $60^\circ$  kenglikda 55,65 km.ni tashkil etadi :

2)  $60^\circ$  parallelda:  $1^\circ$  yoy ----- 55,65 km

$10^\circ$  yoy-----x= 556,5 km

Shunday qilib,  $60^\circ$  paralleldagi A va B nuqtalar orasi xaritada  $10^\circ$  ga farq qilsa, bu ko'rsatkich yer yuzida 556,5 km.ga teng bo'ladi.

**4) gorizontallar-** (lotincha “horizont”- chegaralayman) yer yuzidagi mutloq balandligi bir xil bo'lgan nuqtalarni tutashtiruvchi izochiziq bo'lib, boshqacha nom bilan izogipslar deb ham atalishi mumkin. Gorizontallarni, mantiqan, relyef shakli (xoh u balandlik, xoh botiq)ning soylashtirilgan proyeksiyasi deyish mumkin. Bunda tepalik bo'lsa, mutloq balandligi bir xil yonbag'irlari, agar botiq bo'lsa, yon qirg'oqlaridan proyeksiya tushirilib, chiziqlar orqali akslantiriladi.

Joy plani va topografik kartalarda gorizontallar yana ham aniqlik bilan tushuriladi. Relyef shaklining qiya tomonini ko'rsatish uchun bergshtrixdan foydalaniladi. Agar berilgan relyef shakli balandlik bo'lsa, bergshtrix tashqi tarafga, ya'ni qiya tarafga yo'naltiriladi. Buning aksi, xususan, chuqurlik bo'lsa, bergshtrix gorizantalning ichiga tushuriladi. Gorizontallarning zich (bir- biriga yaqin) yoki siyrak (bir- biridan uzoq)ligiga qarab, ushbu hududning qanchalik tik yoki qiyaligini bilish mumkin. Tabiiy xaritalarda asosiy yirik gorizontallar oralig'i

---

<sup>1</sup> Trigonometrik hisob- kitoblarga ko'ra,  $\cos 60^\circ$  da  $1/2$  (0,5) ga teng

ranglar orqali to'ldirilsa, relyef yanada aniq namoyon bo'ladi. Ya'ni dengiz sathidan past hudud(pasttekislik va katta maydonni egallagan botiq)lar to'q yashil, tekisliklar yashil, qirlar och sariq, past tog'lardan eng baland tog'larga sari och jigarrangdan to'q jigarranggacha ranglar bilan ifodalaniladi. Shunda tabiiy xaritada qaralganda, insonning ko'z o'ngida notekisliklar yanada aniq namoyon bo'ladi.

**5) aglomeratsiya** (lotincha “aglomerat”- to'planmoq) bu shahar va boshqa aholi punktlarining yirik shahar atrofida to'planish jarayoni hisoblanadi. Ko'p funksiyali shahar juda tez rivojlanadi, natijada atrofida yo'ldosh shaharlar to'plana boradi. Bora- bora unga yaqin radiusdagi hududda shahar turmush- tarzi rivojlana boradi. Jarayon davom etgani sayin ular bir- biri bilan tutashib ketadi. Shahar aglomeratsiyalarining o'zagi vazifasini, odatda, poytaxtlar hamda muhim sanoat markazlari, yirik dengiz portlari bajaradi. Jahondagi juda yirik shahar aglomeratsiyalari Tokio, Boston- Vashington, Chikago- Pitsburg, Reyn daryosining o'rta oqimidagi shaharlar tuguni, London- Liverpool, San- Diyeo, San-Fransisko, Mexiko, San- Paulu, Nyu- York va Kalkutta shaharlari atrofida shakllangan. Yuqorida ta'kidlanganidek, bunday shaharlar atrofidagi punktlar tutashib ketib, megalopolislar( yunoncha “mega”- katta, “lo”-uzun, “polis”-shahar) ni hosil qiladi.

O'zbekistonda ham yirik Toshkent aglomeratsiyasi shakllangan. U aholi soni, hududining kattaligi va xo'jalikdagi ahamiyatiga ko'ra, O'rta Osiyoda shakllangan shahar va qishloqlarning eng yirik, murakkab hududiy tizimidir. Aglomeratsiya hududi o'rtacha 6,4 ming km<sup>2</sup> bo'lib, uning doirasida 4,0 mln. ga yaqin aholi yashaydi. Shundan 2,88 mln, ya'ni 72% i shahar aholisi (urbanistik tarkib)dir. Uning tarkibiga 10 ta shahar (Toshkent, Chirchiq, Yangiyo'l, G'azalkent, Keles, Parkent, Oqqo'rg'on, Do'stobod, Chinoz, To'ytepa) va 17 ta shaharcha (Alimkent, Bo'zsuv, Gulbahor, Iskandar, Olmazor, Salor, Tuyabo'g'iz, Ulug'bek, Chorbog', Chig'iriy, Eshonguzar, Yangibozor, Yangihayot, Yangi Chinoz, O'rtaovul, Qibray, Qiziltog') hamda 600 dan ortiq qishloq kiradi.

Aglomeratsiya monosentrik tipda bo'lib, poytaxt shahar negizida, sug'orma dehqonchilik hududida vujudga kelgan. U Chirchiq daryosi bo'ylab polosasimon ko'rinishda janubi- g'arbdan shimoli- sharqqa 130 km.dan ortiq masofaga cho'zilgan, ko'ndalang diametri 40 km.ga yetadi. Bunday urbanistik markazlarning ko'payishi iqtisodiy rivojlanishni tezlatadi va shaharcha hayotni rivojlantiradi.

1. Tabiat zonalari nima?
2. O'simliklar dunyosi umumiy holatda qanday atama bilan yuritiladi?
3. Minas- Jerayas konidan nima qazib olinadi?
4. Ufq va ufq tekisligi nima?
5. Gorizantallarning zich yoki siyrakligi nimani bildiradi?
6. Megalopolislar qanday vujudga keladi?

1. Emu tuyaqushi qaysi materikda yashaydi?
- A) Avstraliya                                      B) Janubiy Amerika
- C) Shimoliy Amerika                            D) Afrika
2. Kazuara nima?
- A) Okeaniyada tarqalgan tovuq turi      B) Yerqazir hayvonining turdoshi
- C) Avstraliyada o'suvchi daraxt          D) Palauning pul birligi
3.  $H = 3,86 \cdot \sqrt{h}$  formulasidagi 3,86 nimani bildiradi?
- A) ma'lum balandlikda doimiy kuzatiladigan xatolik ko'effitsiyenti
- B) o'rtacha bo'yli odam ko'ra oladigan km qiymatidagi masofa
- C) yerning aylanishidan vujudga keladigan ko'rish illuziyasi
- D) berilgan balandlikni  $\pi$  ga nisbati



4. Turli kengliklardagi  $1^\circ$  parallel yoyining uzunligi qaysi formula yordamida aniqlanadi?

A)  $S = \pi \cdot (360 : 111,3) + \cos \varphi$

B)  $r = (\sin \Delta : 111,3) + \pi$

C)  $k = 111,3 \cdot \operatorname{tg}^2 \lambda$

D)  $l = 111,3 \cdot \cos \varphi$

5. Aglomeratsiya so'zi lotinchadan tarjima qilinganda, nima degan ma'noni bildiradi?

A) burgut qanoti

B) katta qishloq

C) samara

D) to'planmoq

Mustaqil ta'lim

• O'zbekiston o'simlik va hayvonot dunyosi kartasini ishlash

**Bilasizmi???**

- Kichik hajmli, diametri 5- 10 m bo'lgan aysberg parchalarini dengizchilar grouler deb atashadi;
- Nyufaundlend dunyodagi eng sertuman joy hisoblanadi;
- Dunyodagi birinchi yerosti yo'li- tunnel miloddan avvalgi 3000- yilda Iyerussalim shahrida qurilgan.

### Amaliy mashg'ulot № 3

- **Jahon tabiiy xaritasi va uning shakllanish bosqichlari**

#### Topshiriqlar:

1. Hozirgi zamon siyosiy xaritasining shakllanish bosqichlari.

2. Birinchi va Ikkinchi jahon urushi va 90- yillardagi o'zgarishlar hamda uning siyosiy xaritaga ta'siri. Yangi shakllangan davlatlar.
3. Davlatlarning boshqaruv tizimi va unda ro'y berayotgan o'zgarishlar. Jahon mamlakatlarning geosiyosiy o'rni, holati va qarashlari.
4. Markaziy Osiyoning geosiyosiy vaziyati.

### Qo'shimcha topshiriqlar:

1. Toshkentda soat 12:<sup>00</sup> bo'lganda, 30<sup>0</sup> g'arbiy uzunlikda joylashgan A nuqtada soat nechchi bo'ladi?
2. Dengizga chiqish imkoniyati bo'lmagan davlatlarni o'zi joylashgan mintaqaga mos ravishda quyidagi jadvalga joylashtiring.

| <i>№</i> | <i>Mintaqalar</i> | <i>Dengizga chiqish imkoniyati yo'q davlatlar</i> |
|----------|-------------------|---------------------------------------------------|
| 1        | MDH               |                                                   |
| 2        | Yevropa           |                                                   |
| 3        | Osiyo             |                                                   |
| 4        | Afrika            |                                                   |
| 5        | Lotin Amerikasi   |                                                   |

3. Deydagi maydoni bo'yicha eng yirik davlatlar (Rossiya, Kanada, Xitoy, AQSh, Braziliya, Avstraliya, Hindiston, Argentina, Qozog'iston)ning maydonini quyidagi jadvalga muvofiq holda joylashtiring.

| <i>Davlatlar nomi</i> | <i>Maydoni<br/>( km kv hisobida)</i> | <i>Maydoni bo'yicha dunyodagi salmog'i<br/>(% da)</i> |
|-----------------------|--------------------------------------|-------------------------------------------------------|
|                       |                                      |                                                       |

4. Jahon siyosiy xaritasidagi *federativ davlatlar* jadvalini quyidagi me'yorlar asosida shakllantiring:

- ✓ federativ tuzilishga ega davlatlar nomi;
- ✓ aholisi (mln kishi hisobida);
- ✓ davlat tili;
- ✓ qaysi til guruhiga mansubligi;
- ✓ mamlakatdagi asosiy ustuvor din.

5. Quyidagi geografik atamalarga ta'rif bering.

- Yillik termik amplituda
- Kombinatlashtirish
- Iqtisodiy rayon
- Mutloq namlik
- Fermer xo'jaligi

### *Javoblar:*

1. Vaqt- falsafiy tushuncha bo'lib, moddiy dunyo mavjudligining (fazo bilan birga) asosiy shaklidir. Vaqt materiya va harakatning zamondagi holatini, ularning yashash muddatini tavsiflaydi. U davomiy, takrorlanmas va ma'lum muddat bo'yicha o'rtacha bir o'lchamga ega o'lchov- hisoblash birligidir.

Vaqt dunyo bo'yicha barcha jarayonlarni ma'lum sikl va tartib bo'yicha bajarilishini tartiblaydi. U Yerning aylanishiga asoslangan. Shu sababli vaqtni hisoblashda Quyosh va yulduzlarga nisbatan Yerning holati inobatga olinadi. Vaqt o'lchovidan xalqaro miqyosda foydalanishni osonlashtirish maqsadida quyidagi birliklar kiritilgan:

- dunyo (xalqaro) vaqti;
- mintaqa vaqti;
- mahalliy vaqt.

1) *dunyo (xalqaro) vaqti*- Bosh (Londondagi Grinvich rasadxonasidan o'tgan) meridian kesib o'tgan hududda qabul qilingan,  $7^{\circ}30'$  sharqqa va  $7^{\circ}30'$  g'arbga qadar, ya'ni  $15^{\circ}$  uzunlikdagi vaqt mintaqasi. Dunyoning boshqa hududlaridagi vaqt o'lchov birligi ushbu mintaqaga nisbatan belgilanganligi uchun bu joy 0 yoki 24- mintaq deb belgilangan. Uni "X" bilan belgilanadi;

2) *mintaqa vaqti*- o'rtasidan o'tgan meridianning qiymati qabul qilingan vaqt hisobi. Aytaylik, Bosh meridiandan  $7^{\circ}30'$  sharq va  $7^{\circ}30'$  g'arbgacha zona bitta mintaq hisoblanadi. Bunda aslida eng sharqida vaqt  $10:^{30}$ , g'arbida  $9:^{30}$  bo'ladi. Quyoshning tushish holati ham shunga xos bo'ladi, aslida. Lekin chalkashlik kelib chiqmasligi uchun o'rtasidan o'tgan  $0^{\circ}$  Bosh meridiandagi vaqt, ya'ni  $10:^{00}$  qabul qilinadi. Yana olaylik, sharqdagi  $22^{\circ}30'$  va  $37^{\circ}30'$  meridianlar orasi I mintaq. Vaqt hisobida esa o'rtasidan o'tgan  $15^{\circ}$  meridian vaqti qabul qilinadi. Shu kabi vaqt kategoriyasi mintaq vaqti deyiladi va "M" bilan belgilanadi;

3) *mahalliy vaqt*- shimoliy qutbdan janubiy qutbgacha bitta meridianning hamma joyida bir xil bo'lgan vaqt hisobi. Masalan,  $90^{\circ}$  g'arbiy uzunlikdan o'tgan meridianning  $80^{\circ}$  shimoliy kenglikdagi qismida soat  $11:^{00}$  bo'lsa, ushbu meridianning  $80^{\circ}$  janubiy kenglikdagi qismida ham soat  $11:^{00}$  bo'ladi. Mahalliy vaqt "m" bilan belgilanadi.

➤ Yuqoridagilardagi vaqtni topish quyidagi formulalardan topiladi:

✓ dunyo vaqti:  $X = M - N$        $N$  = soat mintaqasining raqami

✓ mintaq vaqti:  $M = N + m - f$        $f$  = joyning vaqt hisobidagi uzunligi

✓ mahalliy vaqt:  $m = M - N + f$        $f$  = joyning vaqt hisobidagi uzunligi

➤ Sharqiy yarimshardagi nuqtalarning qaysi soat mintaqasida joylashganligini aniqlash formulasi:

$$S_{\text{shq}} = (\lambda - 7^{\circ}30') : 15^{\circ}$$

Bunda,  $\lambda$  = joyning geografik uzunligi;

$7^{\circ}30'$  = har bir soat mintaqasining o'rtasidan o'tuvchi geografik meridiandan o'rtasidan o'tuvchi geografik meridiandan g'arb va sharqqa tomon hisoblanadigan qiymat;

$15^\circ$  = Yerning o'z o'qi atrofida bir soat mobaynida aylanishining burchak tezligining qiymati.

- G'arbiy yarimshardagi nuqtalarning qaysi soat mintaqasida joylashganligini aniqlash formulasi:

$$S_g = 24 - (\lambda - 7^\circ 30') : 15^\circ$$

Bunda, 24 = soat mintaqalari soni.

Berilgan topshiriqni bajarish:

Yechish: Toshkent shahri  $69^\circ$  sharqiy uzunlikda joylashgan. Uning nechanchi soat mintaqasida joylashganligini hisoblaymiz:

$$S_{shq} = (\lambda - 7^\circ 30') : 15^\circ = (69^\circ - 7^\circ 30') : 15^\circ$$

- 1)  $69^\circ - 7^\circ 30' = 61^\circ 30'$
- 2)  $61^\circ 30' : 15^\circ = 4$  (4,1 aslida. Agar qoldikli chiqsa, qoldiq asosiy qiymatga qo'shilib, 5- soat mintaqasi bo'lishi kerak. O'zbekiston aslida 4- va 5- soat mintaqasida joylashgan. Lekin chalkashlik chiqmasligi uchun yagona 4- soat mintaqasiga kiritilgan).

Demak, Toshkent shahri 4- soat mintaqasiga kirar ekan.

❖  $30^\circ$  g'arbiy uzunlikda joylashgan A nuqtadagi vaqtni hisoblash:

- 1) A nuqtaning nechanchi soat mintaqasida joylashganligini topiladi:

$$S_g = 24 - (\lambda - 7^\circ 30') : 15^\circ = 24 - (30^\circ - 7^\circ 30') : 15^\circ$$

- a)  $30^\circ - 7^\circ 30' = 22^\circ 30'$
- b)  $22^\circ 30' : 15^\circ = 2$  (aslida 1,5; qoldiq chiqqani uchun yaxlitlangan)
- c)  $24 - 2 = 22$

Demak, A nuqta 22- soat mintaqasida joylashgan.

- 2) A nuqtadagi soat necha bo'lganligini hisoblash:

- a) avval, Bosh meridiandagi vaqtni hisoblaymiz. Bunda dunyo vaqtini hisoblash formulasidan foydalaniladi:

$$X = M - N; \quad X = 12^{00} - 4 = 8^{00}$$

- b) endi A nuqtada nechchi bo'lganligini hisoblaymiz:

- har bir mintaqa oralig'i 1 soatga farq qiladi. A nuqta Bosh meridiandan (24-22) 2 soat mintaqasiga farq qiladi. U g'arbda joylashganligi uchun  $8^{00}$  dan ayiriladi.  $8^{00} - 2 = 6^{00}$

Demak,  $30^\circ$  g'arbiy uzunlikdagi 22- soat mintaqasida joylashgan A nuqtada soat ertalabki  $6^{00}$  ekan. U Toshkentdan 6 soatga farq qiladi ( $6^{00} + 2 + 4 = 12^{00}$ ).

3) Geografik o'rin muayyan obyektning ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan boshqa obyektga nisbatan joylashuvi bo'lib, mohiyatan 3 guruhga bo'linadi:

- ✓ tabiiy geografik o'rin;
- ✓ iqtisodiy geografik o'rin;
- ✓ siyosiy geografik o'rin.

Shundan, tabiiy geografik o'rin tabiiy obyektlarga nisbatan joylashuvni ifodalaydi. Ayniqsa, qulay dengiz bo'yida joylashgan hududlar rivojlanishi tezroq bo'ladi. Ya'niykim, ko'p hollarda dengizga chiqa olmaydigan mamlakatlarning tabiiy va iqtisodiy geografik o'rni noqulaylik kasb etadi. Quyida jahondagi dengizga chiqa olmaydigan mamlakatlar keltirilgan.

| <i>№</i> | <i>Mintaqalar</i> | <i>Dengizga chiqish imkoniyati yo'q mamlakatlar</i>                                                                                             |
|----------|-------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1        | MDH               | Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston                                      |
| 2        | Yevropa           | Avstriya, Andorra, Vatikan, Vengtiya, Lixtenshteyn, Lyuksemburg, Makedoniya, San- Marino, Slovakiya, Chexiya, Shvetsariya                       |
| 3        | Osiyo             | Afg'oniston, Butan, Laos, Mo'g'uliston, Nepal                                                                                                   |
| 4        | Afrika            | Botsvana, Burkina- Faso, Burundi, Zambiya, Janubiy Sudan, Zimbabve, Lesoto, Malavi, Mali, Niger, Ruanda, Svazilend, Uganda, MAR, Chad, Efiopiya |
| 5        | Lotin Amerikasi   | Boliviya, Paragvay                                                                                                                              |

Yuqorida, ko'p hollarda, dengizga chiqa olmaydigan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga ichkarida joylashganlik muammosi salbiy ta'sir ko'rsatishi keltirib o'tildi. Lekin bu hamma payt ham to'g'ri bo'lavermaydi. Iqtisodiyotga, ma'lumki, yuqori malakali mehnat resurslari, iqtisodiy muhim markazlarga yaqinligi, asosiy aloqa yo'llarining o'tganligi va boshqa ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi. Misol tariqasida Yevropadagi shunday mamlakatlarni keltirish mumkin.

3. Jahonda hozirgi kunda 227 ta<sup>2</sup> mamlakat mavjudligi qayd etilgan. Ular hududining ko'lami, aholisining soni, iqtisodiy ko'rsatkichlari va boshqa ko'plab ko'rsatkichlari bo'yicha klassifikatsiya qilinadi.

Shulardan hududining ko'lami(kattaligi) bo'yicha mitti, kichik, o'rtacha, katta va ulkan mamlakatlar guruhini olaylik. Hudud jamiyat faoliyati amalga oshiradigan geografik muhitning muhim omillaridan biridir. Hudud qancha katta bo'lsa, u xilma- xil tabiiy resurslarga shuncha boy bo'ladi. Bu esa aholi va ishlab chiqarishni oqilona joylashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Quyida jahondagi eng ulkan mamlakatlar keltirilgan.

| <i>N<sup>o</sup></i> | <i>Davlatlar nomi</i> | <i>Maydoni<br/>( km kv hisobida)</i> | <i>Maydoni bo'yicha<br/>quruqlikdagi salmog'i<br/>(% da)</i> |
|----------------------|-----------------------|--------------------------------------|--------------------------------------------------------------|
| 1                    | Rossiya               | 17 075 400                           | 11,46                                                        |
| 2                    | Kanada                | 9 971 000                            | 6,69                                                         |
| 3                    | Xitoy                 | 9 600 000                            | 6,44                                                         |
| 4                    | AQSh                  | 9 372 600                            | 6,29                                                         |
| 5                    | Braziliya             | 8 547 400                            | 5,74                                                         |


<sup>2</sup> “Jahon iqtisodiy- ijtimoiy geografiyasi”, A. Qayumov, I. Safarov, M. Tillaboyeva. –T.: O'zbekiston, 2014. -224 b.

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

|    |             |           |      |
|----|-------------|-----------|------|
| 6  | Avstraliya  | 7 692 000 | 5,16 |
| 7  | Hindiston   | 3 287 000 | 2,21 |
| 8  | Argentina   | 2 780 000 | 1,86 |
| 9  | Qozog'iston | 2 700 100 | 1,81 |
| 10 | Jazoir      | 2 381 700 | 1,59 |

Ushbu yuqoridagi 10 ta mamlakat jami quruqlikning 49,25 % (deyarli yarim qism)ini egallaydi. Ularning juda ko'plari tabiiy resurs va imkoniyatlarning ko'pligi tufayli iqtisodiyoti yaxshi rivojlangan, shu bilan birga jahonda katta mavqega ega.

4. Jahon siyosiy xaritasida bugungi kunda 227 ta mamlakat mavjud bo'lib, ularni klassifikatsiya qilinganda, davlat tuzilish shakliga ko'ra bo'linishi ham inobatga olinadi. Umuman olganda, davlat tuzilishi davlatning ma'muriy- hududiy bo'linish tamoyillari va tuzilishini hamda ma'muriy- hududiy birliklarning yuridik maqomini, davlatning markaziy organlari bilan joylardagi mahalliy organlarning munosabatlarini qamrab oluvchi kategoriyadir. Jahondagi davlatlarning tuzilish shakllari, asosan, ikkiga bo'linadi:



1) *unitar davlat* (lotincha “unitas”- yagona) qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimyat tarkibidagi barcha ma'muriy- hududiy bo'linmalar uchun umumiy bo'lgan mamlakat bo'lib, davlat tuzilishida yaxlitlik kasb etadi.

2) *federativ davlat* (lotincha “foederatio”- ittifoq, birlashma)- federal qonunlar bilan bir qatorda, o'zining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud



## AMALIY MASHG'ULOTLAR

organlari mavjud ma'muriy- hududiy tuzum shakliga ega mamlakat. U federatsiya suyektlari- shtat, provinsiya, respublikalardan tashkil topgan bo'ladi. Quyidagi jadvalda jahondagi federativ davlatlar keltirilgan:

| <i>№</i> | <i>Davlatlar nomi</i> | <i>Aholisi (mln kishi)</i> | <i>Davlat tili</i> | <i>Qaysi til guruhiga kirishi</i> | <i>Ustuvor Dini</i> |
|----------|-----------------------|----------------------------|--------------------|-----------------------------------|---------------------|
| 1        | BAA                   | 4,6                        | arab               | semit                             | islom               |
| 2        | Pokiston              | 193,2                      | urdu, ingliz       | hind- eron                        |                     |
| 3        | Hindiston             | 1 221,0                    | hind, ingliz       |                                   |                     |
| 4        | Malayziya             | 27,0                       | malay              | avstroneziya                      | induizm             |
| 5        | Myanma                | 50,2                       | birman             | tibet- birman                     | buddizm             |
| 6        | Rossiya               | 142,0                      | rus                | slavyan                           | xristian            |
| 7        | Avstriya              | 8,2                        | nemis              | german                            |                     |
| 8        | Shveysariya           | 8,0                        | nemis, italyan     |                                   |                     |
| 9        | Ispaniya              | 40,9                       | ispan              | roman                             |                     |
| 10       | Bosniya va Gesogovina | 4,2                        | bosniya, serb      | slavyan                           |                     |
| 11       | Belgiya               | 10,4                       | flamand, nemis     | roman                             |                     |
| 12       | GFR                   | 81,0                       | nemis              | german                            |                     |
| 13       | AQSh                  | 314,7                      | ingliz             |                                   |                     |
| 14       | Kanada                | 38,5                       | ingliz, fransuz    | german, roman                     |                     |
| 15       | Meksika               | 107,3                      | ispan              | roman                             |                     |
| 16       | Braziliya             | 201,3                      | portugal           |                                   |                     |
| 17       | Argentina             | 41,6                       | ispan              |                                   |                     |
| 18       | Venesuela             | 27,0                       |                    |                                   |                     |
| 19       | Sent-Kits va          | 0,04                       |                    |                                   |                     |

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

|    |                                       |       |                     |                         |       |
|----|---------------------------------------|-------|---------------------|-------------------------|-------|
|    | Nevis                                 |       |                     |                         |       |
| 23 | Avstraliya                            | 21,6  | ingliz              | german                  |       |
| 21 | Mikroneziya<br>Federativ<br>Shtatlari | 0,125 |                     |                         |       |
| 22 | Efiopiya                              | 82,1  | amxar               | semit, kushit           |       |
| 23 | JAR                                   | 43,8  | ingliz,<br>afrikans | german,<br>niger- kongo |       |
| 24 | Tanzaniya                             | 40,2  | ingliz, suaxili     | niger- kongo            |       |
| 25 | Nigeriya                              | 170,1 | ingliz, fransuz     | niger- kongo,<br>chad   | islom |
| 26 | Komor<br>orollari                     | 0,7   | fransuz, arab       | avstroneziya            |       |

Federativ davlatlarni barpo etishda ularning tarixiy rivojlanganlik xususiyatlari (AQSh, GFR, BAA va h.z), hududining benihoya kattaligi (Kanada, Avstraliya, Braziliya va h.z), hududining sochilib ketganligi (Mikroneziya Federativ Shtatlari, Komor orollari Respublikasi va h.z) yoxud aholisining ko'p millatliligi (Hindiston, Nigeriya, JAR va h.z) inobatga olingan.

### 5. Atamalarga ta'rif yozish.

**1) yillik termik amplituda** (lotincha “amplitude”- miqor)- ma'lum muddat bo'yicha belgilangan vaqt davomida o'lchangan eng yuqori harorat bilan eng past harorat orasidagi tafovut. Demak, yillik amplituda yil davomida kuzatilgan eng yuqori harorat bilan eng past harorat orasidagi farqdir.

✓ Agar o'lchangan eng yuqori harorat musbat(+) qiymatga, eng past harorat manfiy(-) qiymatga ega bo'lsa, amplituda quyidagicha aniqlanadi:

- eng yuqori ( $T_{\uparrow}$ ) harorat + 34° C;
- eng past ( $T_{\downarrow}$ ) harorat - 12° C;

- havo haroratining amplitudasi ( $H_a$ ) ?

$$H_a = T_{\uparrow} - T_{\downarrow}$$

Masalan, yanvarda kuzatilgan eng past harorat  $-24^{\circ}\text{C}$ , iyulda kuzatilgan eng yuqori harorat  $+42^{\circ}\text{C}$  bo'lsa, termik amplituda qanchaga teng bo'ladi?

$$H_a = +42^{\circ}\text{C} - (-24^{\circ}\text{C})$$

Bunda, qavsdan oldingi ishora minus bo'lganligi uchun ayirilayotganda, minus bilan minus arifmetikada pilus bo'lib ketadi, chunki harorat  $0^{\circ}\text{C}$  dan  $+42^{\circ}\text{C}$  gacha yuqoriga 42 marta tebrangan;  $0^{\circ}\text{C}$  dan  $-24^{\circ}\text{C}$  gacha esa pastga yana 24 marta tebrangan, umuman olganda, jami 66 marta tebrangan. Mana shu amplituda deyiladi, ya'ni  $+42^{\circ}\text{C} + 24^{\circ}\text{C} = \underline{66^{\circ}\text{C}}$ .

- ✓ Agar o'lchangan ikkala qiymat ham musbat bo'lsa, bu ham quyidagi formulaga asosan hisoblanadi:

$$H_a = T_{\uparrow} - T_{\downarrow}$$

Masalan, o'lchangan eng yuqori harorat  $+45^{\circ}\text{C}$ , eng past harorat  $+6^{\circ}\text{C}$  bo'lsa, termik amplituda qanchaga teng bo'ladi?

$$H_a = +45^{\circ}\text{C} - 6^{\circ}\text{C} = +39^{\circ}\text{C}$$

Demak,  $+6^{\circ}\text{C}$  dan  $+45^{\circ}\text{C}$  gacha harorat 39 marta tebranib, ko'tarilgan. Amplituda esa  $39^{\circ}\text{C}$  ga teng bo'ladi.

- ✓ Agar o'lchangan ikkala qiymat ham manfiy bo'lsa, bu ham quyidagi formulaga asosan hisoblanadi:

$$H_a = T_{\uparrow} - T_{\downarrow}$$

Masalan, o'lchangan eng yuqori harorat  $-9^{\circ}\text{C}$ , eng past harorat  $-51^{\circ}\text{C}$  bo'lsa, termik amplituda qanchaga teng bo'ladi?

$$H_a = -9^{\circ}\text{C} - (-51^{\circ}\text{C})$$

Bunda, qavsdan oldingi ishora minus bo'lganligi uchun ayirilayotganda, minus bilan minus arifmetikada pilus bo'lib ketadi, chunki harorat  $-9^{\circ}\text{C}$  dan  $-51^{\circ}\text{C}$  gacha 42 marta pasaygan, ya'ni  $-9^{\circ}\text{C} + 51^{\circ}\text{C}$ . Lekin yana ishoralar ikki xil bo'lganligi uchun kattasidan kichigi ayirilib, kattasini ishorasi qo'yiladi.

$$51 - 9 = 42.$$

Demak, termik amplituda 42° C ga teng bo'ladi.

**2) geografik determinizm-** (lotincha “determino”- aniqlayman) insoniyat taraqqiyotida tabiiy sharoitning ahamiyatini bo'rttirib ko'rsatuvchi yondashuv. Geografik determinizmning nazariy asosi va bunyodga kelishi fransuz faylasufi Sharl Monteskye nomi bilan bog'liq. Lekin aslida bu yondashuv g'oya sifatida juda qadimdan mavjud. Bunday g'oya tarafdorlari tomonidan ko'rsatib berilgan tabiiy muhit unsurlari orasida, aynan, iqlim insonlar xulq- atvorining shakllanishi va davlatlarda mavjud siyosat xususiyatlarini yuzaga kelishiga sababchi bo'lgan omil sifatida qaralgan. Xususan, quyida ayrim geografik determenistik g'oya tarafdorlarining fikrlari keltirilgan:

✓ *Aristotel* (Arastu mil. avv. 384- 322-yy) qadimgi yunon faylasufi.

U o'zining “Siyosat” asarida geografik muhitning inson siyosiy hayotiga ta'siri haqida quyidagicha yozadi:

- “Iqlimi sovuq bo'lgan mamlakatlarda istiqomat qiluvchi kishilar dovyurak bo'lishadi, ammo ularda xayoliy orzular va ixtirolar qilishga moyillik yo'q. Shuning uchun ham ular boshqa xalqlarga nisbatan ko'proq vaqt ozodlikni saqlab turishadi, biroq o'z qo'shinlariga boshchilik qilish va ularni boshqarish qobiliyatiga ega emas, ular siyosiy rahbarlikka muhtojdirlar. Janubiy xalqlar, aksincha, chuqur o'ylaydigan va qiyin holatlardan chiqib ketishga ustadirlar. Ammo ular g'ayratli emaslar. Shuning uchun ham qullik va tobelik ularga xos “tabiiy holat”dir. Oraliq mintaqalarda istiqomat qiluvchi yunonlar esa o'zlarida Shimol hamda Janub xalqlariga xos bo'lgan eng yaxshi xislatlarni jo qilganlar”.

✓ *Jan Boden* (1530- 1596- yy) fransuz faylasufi:

- “Insonning rivojlanishiga geografik muhit xalq xarakteri va ruhiyati orqali ta'sir ko'rsatadi”;

- “Inson hayoti uchun eng qulay va yaxshi sharoitlar mo'tadil mintaqada, 40-50° shimoliy kengliklar oralig'ida mavjud”;
- “Mustaqil davlatlarning kuch- qudrati va taraqqiyoti ularni o'rab turgan tabiiy sharoitning ta'siriga bevosita bog'liq”.

✓ *Sharl Monteskye* (1689- 1755- yy) fransuz faylafufi:


- “Ijtimoiy hayot shakllarining rivojlanishida iqlim hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi”;
- “Iqlim hukmronligi barcha hukmronlikdan ustundir. Issiq iqlimli o'lka xalqlari qariyalardek sust, sovuq iqlimli o'lka xalqlari esa yoshlardek harakatchandir”.

**3) iqtisodiy rayon-** tabiiy va iqtisodiy sharoitlari bir xil va xalq xo'jaligi tarixan tarkib topgan, ixtisoslashgan ishlab chiqarishga ega bo'lgan va mamlakatning hududiy ishlab chiqarish majmuidan iborat bir qismi.

Mamlakat miqyosida iqtisodiy rayon quyidagi omillar ta'sirida shakllanadi:

- o'ziga xos geografik o'rni;
- xo'jaligining ixtisoslashuvi;
- rayon hosil qiluvchi markazlarning mavjudligi;
- tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari;
- transportning va boshqa infratuzilmalarning rivojlanganligi;
- demografik vaziyati va mehnat resurslari;
- joyning tarixiy rivojlanish xususiyatlari.

Hozirgi davrda O'zbekistonda quyidagidek, 6 ta iqtisodiy rayon ajratiladi:



Shunday bo'lsa-da, bugungi kunda respublikamiz iqtisodiy rayonlari soni va ularning tarkibiga qaratilgan boshqa yondashuvlar ham yo'q emas. Lekin yuqoridagi bo'linish mintaqalar integratsiyalashuvi va rayonlar iyerarxiyasini, ayniqsa, o'zida to'liq aks ettira oladi:

- 1) *Toshkent IR*- Toshkent viloyati va Toshkent shahridan;
- 2) *Farg'ona IR*- Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlari;
- 3) *Mirzacho'l IR*- Jizzax va Sirdaryo viloyatlaridan iborat;
- 4) *Zarafshon IR*- Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlari;
- 5) *Janubiy IR*- Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari;
- 6) *Quyi Amudaryo IR*- Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidan iborat.

Boshqa mamlakatlar hududini iqtisodiy rayonlarga bo'lishda ham o'ziga xos iqtisodiy ixtisoslashuv va integratsiyalashuv bo'yicha iyerarxialangan holda rayonlashtirishni amalga oshirish iqtisodiyot va xavfsizlikning bir butunligi va yanada samaraliroq rivojlanishni ta'minlaydi<sup>3</sup>.

<sup>3</sup> Soliyev A. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. –T.; “Universitet”, 2014. 404 b.

**4) mutloq namlik-**  $1 \text{ m}^3$  havoda mavjud bo'lgan va gramm hisobida o'lchanadigan suv bug'lari miqdori. O'zi havoning namligi bu ma'lum joydagi havoda mavjud bo'lgan suv bug'lari miqdoridir.

Havoning namligi maxsus gigrometr (yunoncha “hygro”- nam, “metros”- o'lchamoq) asbobi orqali o'lchanadi. Asbobga asos qilib olingan usulga bog'liq holda, gigrometr quyidagi xillarga bo'linadi: absorbsion, tarozili yoki mutloq soch tolali, tasmali, diffuzion manometrlil, kondetsatsion, elektrolitik, spektral gigrometr va psixrometr. Masalan, tarozili gigrometr yordamida mutloq namlik ( $\text{g/m}^3$ ) gigroskopik moddaning nam havodan suv bug'ini o'ziga singdirishiga asosan aniqlansa; soch tolali gigrometrda yog'sizlantirilgan soch tolasi havo namligining o'zgarishi natijasida uzayadi yoki qisqaradi. Uning shkalasi 0 dan 100 gacha bo'laklarga bo'lingan. Havoning namligi ortsa, gigrometrdagi soch tolasi uzayadi va asbob mili o'ngga buriladi. Havoda namlik, ya'ni suv bug'i kamayganda esa soch tolasi qisqarib, asbob mili chapga buriladi. Undagi shkala ko'rsatkichlariga qarab ma'lum havodagi suv bug'i miqdori, ya'ni havo namligi aniqlanadi.

Shu kabi tajribalarga tayangan holda, ma'lum haroratli havoda qancha suv bug'i bo'lishi mumkinligini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

| Havo harorati ( $^{\circ}\text{C}$ )       | -30 | -20 | -15  | -10 | -5   | 0 | +5  | +10 | +15  | +20 | +25  | +30 |
|--------------------------------------------|-----|-----|------|-----|------|---|-----|-----|------|-----|------|-----|
| $1 \text{ m}^3$ havodagi suv bug'i (gramm) | 0,5 | 1,1 | 1,61 | 2,4 | 3,42 | 5 | 5,8 | 9   | 12,8 | 17  | 23,1 | 30  |

Demak, mutloq namlikning birligi  $\text{g/m}^3$  ekan. Havo namligiga oid masalalarni yechish davomida nisbiy namlik ham eng asosiy faktorlardan hisoblanadi. Mutloq va nisbiy namlik deyarli bir butun. Biri  $1 \text{ m}^3$  havoda qancha

gramm suv borligi bilan qiziqsa, ikkinchisi o'sha havodagi suv bug'lari miqdorini meyordagiga taqqoslab, foiz hisobida talqin etadi.

Nisbiy namlik- muayyan haroratli havoda mavjud bo'lgan suv bug'lari miqdorining xuddi shunday haroratli havoda mavjud bo'lishi kerak bo'lgan meyoriy suv bug'lari miqdoriga nisbati. Masalan, harorati  $+10^{\circ}\text{C}$  li  $1\text{ m}^3$  havoda o'rtacha 9 gramm suv bug'i bo'lishi me'yor, ammo bizga ma'lum bir boshqa  $1\text{ m}^3$  havoda 4,5 gramm suv bug'i bor. Demak, taqqoslasak, yarmi- 50 %. Shu foiz hisobidagi taqqoslama qiymat nisbiy namlik bo'ladi.

- ❖ agar harorati  $+20^{\circ}\text{C}$  ga teng bo'lgan  $1\text{ m}^3$  havoning nisbiy namligi 47 % ga teng bo'lsa, mutloq namlik qanchaga teng bo'ladi?

Yechish:  $+20^{\circ}\text{C}$  -----  $1\text{ m}^3$  ----- 17 gr ----- 100 %

7,99 gr = x ----- 47 %

Demak, bunda mutloq namlik miqdori  $7,99\text{ g/m}^3$  ga teng ekan.

- ❖ agar harorati  $0^{\circ}\text{C}$  ga teng bo'lgan  $3\text{ m}^3$  havoda 12 gramm suv bug' mavjud bo'lsa, nisbiy namlik qanchani tashkil etadi?

- 1) avval  $3\text{ m}^3$  havoda qancha suv bug'i bo'lishi kerakligini aniqlaymiz:

$0^{\circ}\text{C}$  -----  $1\text{ m}^3$  ----- 5 gramm

$3\text{ m}^3$  ----- x= 15 gramm

- 2) endi nisbiy namlikni keltirib chiqaramiz:

$3\text{ m}^3$  ----- 15 gr ----- 100 %

12 gr -----x= 80 %

Demak, nisbiy namlik 80 % ga teng ekan.

**5) tabiiy resurs-** (fransuzcha “resurs”- imkoniyat ) tabiat elementlari bo'lib, ijtimiy ishlab chiqarishning hozirgi rivojlanish darajasida jamiyat, xususan, inson ehtiyojlarini qondirishda foydalaniladigan yoki foydalanishi mumkin bo'lgan tabiiy sharoitlar majmuasining bir qismi, tabiiy muhitning muhim komponentlari. Tabiiy resurslarning paydo bo'lishini tabiiy jarayon ekanligini va uning ulkan iqtisodiy ahamiyatini hisobga olib, quyidagicha klassifikatsiya shakllantirilgan:



- genetik klassifikatsiya:
  - ✓ mineral (foydali qazilmalar);
  - ✓ suv;
  - ✓ yer (shu jumladan tuproq);
  - ✓ biologik (o'simlik va hayvonot dunyosi);
  - ✓ iqlimiy va kosmik (Quyosh nur va issiqligi, shamol va h.z).
- ekologik klassifikatsiya:
  - ✓ tugamaydigan (Quyosh energiyasi, shamol, havo, geotermal);
  - ✓ tugaydigan:
    - tiklanadigan (suv, o'simlik, hayvon, tuproq);
    - tiklanmaydigan (mineral resurslar).
- foydalanish xarakteriga ko'ra klassifikatsiya:
  - ✓ moddiy ishlab chiqarishda foydalaniladigan;
  - ✓ nomoddiy ishlab chiqarishda foydalaniladigan.
- salohiyatiga ko'ra klassifikatsiya:
  - ✓ real (hozirda foydalanilayotgan);
  - ✓ potensial (zaxiraviy, ya'ni kelajakda foydalaniladigan).

Tabiiy resurslar yer yuzi bo'ylab notekis joylashgan. Ayniqsa, Fos ko'rfazi mamlakatlari neft va gazga, And mamlakatlari mis va polimetallga, shimoliy yarimsharning o'rta kengliklari va ekvatorial mintaqalar hududlari o'rmonlarga ancha boy. Rossiya, AQSh, Xitoy, Kanada, Braziliya, Avstraliya kabi yirik mamlaklar tabiiy resurslarning deyarli barcha xillari bilan yaxshi ta'minlangan. Davlatning iqtisodiy rivojlanishida tabiiy resurslarning ham ahamiyati beqiyos. Industriyalash jarayonining dastlabki bosqichlarida asosiy xo'jalik tarmog'i bo'lmish sanoatning joylashishi tabiiy resurslar, dastavval, foydali qazilmalar geografiyasi tomonidan aniqlangan. Jumladan, og'ir sanoat tarmoqlari toshko'mir va temir rudasi mavjud konlar hamda havzalarga joylashtirilgan. FTI davrida esa bu jarayon birmuncha o'zgargan bo'lsa-da, tabiiy resurslarning ahamiyati va

iqtisodiyotdagi roli pasaygani yo'q. Mamlakat qancha resurslarga boy bo'lsa, uning salohiyati va iqtisodiyotining rivojlanishi yuqori bo'ladi.

### Nazorat savollari:

1. Dunyo miqyosida qanday vaqt birliklari joriy etilgan?
2. Janubiy Amerikadagi qaysi davlatlar dengizga chiqa olmaydi?
3. Maydoniga ko'ra "Katta o'nlik" mamlakatlari qaysilar?
4. Jahonda nechta federativ tuzilish shakliga ega davlat mavjud?
5. Amplituda nima?

### Test savollari:

1. Mahalliy vaqt qaysi formula orqali aniqlanadi?  
A)  $M = N + m - f$                       B)  $m = M - N + f$   
C)  $m = X - M$                               D)  $M = f - N \cdot M$
2. Quyida keltirilgan Yevropa davlatlaridan qaysilari dengizga chiqish imkoniyati bo'lmagan quruqlik mamlakati hisoblanadi?  
A) Shveysariya, Albaniya              B) Chexiya, Bosniya va Gersogovina  
C) Avstriya, San- Marino              D) Vengriya, Bolgariya
3. Maydoniga ko'ra "Katta o'nlik" mamlakatlari jami quruqlik maydoning qancha qismini egallaydi?  
A) 23,51 %                                  B) 67,87 %  
C) 49,25 %                                  D) 36,5 %
4. Qaysi davlatlarda federativ tuzilmalarni shakllantirishda aholisining ko'p millatli ekanligini inobatga olingan?  
A) BAA, AQSh, GFR                      B) Indoneziya, Xitoy, Yaponiya  
C) Rossiya, Fransiya, KDR              D) Nigeriya, Hindiston, JAR

5. Qaysi olim geografik determinizmning ifodasi sifatida “Ijtimoiy hayot shakllarining rivojlanishida iqlim hal qiluvchi ahamiyatga ega” deb hisoblagan?

- A) *Sharl Monteskye*
- B) Jan Boden
- C) Karl Ritter
- D) Fridrix Ratsel

Mustaqil ta'lim

- Siyosiy xaritadagi davlatlarni tuzilish shakliga ko'ra ajratish

**Bilasizmi???**

- 1 gr radiyning narxi 25 kg oltinning narxiga teng;
- O'rdakburun va yexidna tuxum qo'yib, bolasini suti bilan boqadi;
- Dunyodagi eng katta neft koni Saudiya Arabistonidagi *Gavr* hisoblanadi.

### Amaliy mashg'ulot № 4

#### • Davlatlarning tiplari

#### Topshiriqlar:

1. Jahon siyosiy xartasining shakllanishi va davlatlarning vujudga kelishi.
2. Mamlakatlarni klassifikatsiya qilish:
  - maydoniga ko'ra;
  - aholisiga ko'ra;
  - iqtisodiy ahvoliga ko'ra;
  - aholi jon boshiga YMD miqdoriga ko'ra va h.z.
3. O'zbekistonning jahon siyosiy kartasida tutgan o'rni.

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

### Qo'shimcha topshiriqlar:

1. O'rta Osiyo daryolaridan Amudrayo, Sirdaryoga quyidagi reja asosida ta'rif yozing:

- daryoning qayerda joylashganligi, etimologiyasi, manbai va mansabi, havzasi, irmoqlari, daryoning to'yinish manbasi, daryodan qazilgan kanallar va bunyod etilgan mavjud suv omborlari.

2. Yevropa davlatlari jadvalda to'ldiring.

| Mitti<br>davlatlar | O'rta va yirik mamlakatlar       |                                  |                                   |                                       |
|--------------------|----------------------------------|----------------------------------|-----------------------------------|---------------------------------------|
|                    | Maydoni                          |                                  |                                   |                                       |
|                    | 50 ming km <sup>2</sup><br>gacha | 50 - 100 ming<br>km <sup>2</sup> | 100 - 500<br>ming km <sup>2</sup> | 500 ming km <sup>2</sup><br>dan katta |
|                    |                                  |                                  |                                   |                                       |

3. Berilgan jadvalga Yevrosiyodagi monarxiya boshqaruv shaklidagi davlatlarni yozing.

| № | Davlat nomi | Poytaxti | Aholisi<br>(ming kishi) | Davlat tili | Boshqaruv<br>shakli |
|---|-------------|----------|-------------------------|-------------|---------------------|
|   |             |          |                         |             |                     |

4. Rossiya, AQSh, Kanada, Yaponiya, Braziliya, GFR, Ispaniya, Eron, Hindiston, Avstaliya kabi davlatlarga oid jadvalni quyidagi to'ldiring.

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

| <i>№</i> | <i>Davlatlar<br/>nomi</i> | <i>Aholisi<br/>(mln kishi)</i> | <i>Poytaxti</i> | <i>Davlat boshqaruv<br/>shakli</i> | <i>Davlat<br/>tili</i> |
|----------|---------------------------|--------------------------------|-----------------|------------------------------------|------------------------|
|          |                           |                                |                 |                                    |                        |

5. Quyidagi geografik atamalarga ta'rif yozing.

- Geosiyosat
- Jahon xo'jaligi
- Investitsiya
- Yaylov
- Yo'lining o'tkazish imkoniyati

### Javoblar:

1. O'rta Osiyoda 12 000 ga yaqin daryo bo'lib, ularning 10 000 dan ortiq qismi tog' va tog'oldi mintaqasiga to'g'ri keladi. Daryolarning roli juda katta bo'lib, ayniqsa, inson xo'jalik faoliyatida muhim ahamiyatga ega.

**a) Amudaryo-** O'rta Osiyodagi eng sersuv daryo. Uzunligi 2 540 km ga teng (Vahjir- Vohondaryo bilan birga), havzasining maydoni 309 000 (ba'zi adabiyotlarda 465 000) km<sup>2</sup>, shundan 227 300 km<sup>2</sup> havzasi tog'li hududga to'g'ri keladi. Daryo Afg'onistonda Hindukush tog'larining shimoliy yonbag'ridan 4 950 metr balandlikdagi muzlikdan boshlanadi. Vohondaryo Pomirdagi Zo'rko'ldan chiqib keladigan Pomir daryosi qo'shilgandan keyin Panj deb ataladi. Panjga o'ngdan G'unt, Bartang, Yazg'ulom, Vanj, Qizilsuv irmoqlari kelib qo'shiladi, nihoyat, eng yirik va sersuv irmog'i- Vaxsh daryosi qo'shilgandan keyin Amudaryo nomini oladi. Shu qismida chapdan Qunduzdaryo, o'ngdan Kofirnihon, Surxondaryo qo'shiladi. Sheroboddaryo suvi esa Amudaryoga ahyon- ahyonda yetib boradi, undan g'arbdagi Ko'hitangdaryo suvi (447 km) ham yo'l- yo'lakay sug'orishga sarf bo'ladi. Qashqadaryo va Zarafshon esa Amudaryoning qadimiy

irmoqlaridir. Daryoning Surxondaryogacha bo'lgan qismi- yuqori oqim, shu joydan Pitnakkacha bo'lgan irmoq qo'shilmaydigan qismi- o'rta oqim, Pitnakdan mansabigacha esa quyi oqimi hisoblanadi. Oxiri Orol okrugi hududida Orol ko'li(dengizi)ga quyiladi.

Daryo haqida qadimgi manbalarda ham juda ko'p ma'lumotlar keltirilgan. Yunonlar va rimliklar Oksus(Oks), arablar Jayhun, mahalliy aholi O'kuz, Balx, Vaxshiyon, so'ngra Amul(Omul) deb ataganlar. U quyi va o'rta to'rtlamchi davrda Qoraqum orqali oqib, Kaspiy dengiziga quyilgan. Abu Rayhon Beruniy "Amudaryo tarixi" asarida daryoning tog'lardan jinslarni oqizib kelib, yotqizishi natijasida qum va qumliklar paydo bo'lganligini ta'kidlagan. Daryo mingyillik boshida yana hozirgi o'zanidan oqqan. XIII- XVII aslar davomida Kaspiyga yana o'z suvini quygan. A. Bahodirxon o'zining "Shajarai turk" asarida Amudaryoning Kaspiy dengiziga quyilganligini yozib qoldirgan. XVII asrda chap qirg'og'iga to'siqlar qo'yilishi natijasida daryo yana o'ngga burilib, hozirgi o'zanidan yana oqa boshlagan.

Daryo muz va qordan to'yinadi. Shu bois eng ko'p suv davri iyun- iyul oylariga, eng kami dekabr- fevral oylariga to'g'ri keladi. Qish mavsumida faqat grunt va zovur suvlari hisobiga to'yinadi. O'rtacha ko'p yillik suv oqimi  $68,1 \text{ km}^3$  ga teng bo'lib, o'rtacha bir yillik suv sarfi  $2010 \text{ m}^3/\text{sek.}$ ni tashkil etadi.

Amudaryoning O'rta Osiyodagi ahamiyati juda katta. Yuqori qismida Vaxsh, Kofirnihon, Surxondaryo kabi irmoqlaridan kanallar chiqarilib, Tojikiston va O'zbekistondagi yangi yerlar o'zlashtirilgan. O'rta oqimida 1954- yilda Qoraqum kanali qurilishi boshlandi. U daryoning 1/3 qism suvini Turkmaniston tarafga oqizib ketadi. O'zbekiston yerlarini sug'orish uchun esa Amu- Buxoro, Amu- Qorako'l, Qarshi magistral kanallari qazilgan. Quyi oqimida esa Toshsoqa, Shovot, Qilichniyozboy, Suelli, Paxtaarna, Qizketgan, Kegeyli, Quvonishjarma irrigratsiya tizimlarining ta'mirlanishi, Taxiatosh (1974- yil) va Tuyamo'yin (1978- yil) gidrouzellarining qurilishi natijasida daryo suvi keskin kamaygan. Qolavesa, quyi oqimida Tuyamo'yin suv ombori qurilgan. Panj va Vaxsh

irmoqlarida esa Nurek va Rog'un GES va suv omborlari qurilgan. Natijada suvidan ko'p foydalanish tufayli Orol dengiziga uning suvi deyarli yetib bormayapti.

**b) Sirdaryo-** O'rta Osiyodagi eng uzun va sersuvligiga ko'ra, Amudaryodan so'ng ikkinchi o'rinda turadigan daryo. Uzunligi 3019 (2918) km.ni tashkil etadi. U Markaziy Tyanshandan boshlanuvchi Norin hamda Oloy- Farg'ona tizmalaridan boshlanuvchi Tor va Qora G'ulja irmoqlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan Qoradaryoning Baliqchi tumanida birlashishidan Sirdaryo nomini oladi. Keyin g'arbga oqib, Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlaridan g'arbga oqib, So'g'd viloyatiga o'tadi. Keyin shimoli- g'arbga burilib, Toshkent va Sirdaryo viloyatlarining ma'muriy chegarasi bo'ylab oqadi va yana shimolga burilib, Janubiy Qozog'iston viloyatiga boradi. So'ng Qizilo'rda viloyatidan yana g'arbga oqib, Qizilqumning shimoliy chegarasi bo'ylab, Orol dengiziga yo'naladi.

Sirdaryo qadimdan turli nomlar bilan atalgan. Xususan, Yahartes(Yaksart) qadimgi yunon tarixchilarining asarlarida va o'rta asrlarda G'arbiy Yevropa manbalarida uchraydigan nomi. Pliniyning ma'lumotiga ko'ra, baqtriyaliklar Laksat (Yaksart), skiflar Silis deb atashgan. Ptolomeyning "Geografiyadan qo'llanma" asarida yozishicha, Yaksart daryosi sohillari yaqinida yaksart qabilalari yashaganligidan daryo nomi kelib chiqqan ekan. Yaksartning paxlaviycha Yaxshart shaklidagi nomini sharqshunos I. Makvart *Yaxsha arta*- "haqiqiy", "toza", ya'ni gavhar deb ataydi. "Yaxsha"- gavhar so'zi xitoycha Chinchuxe va turkiycha Yinchu o'giz (O'rxun- Enasoy yodgorliklarida Inju o'g'uz) nomlarida ham keladi. Yaksartning xitoycha transkripsasi- Yaosha, Yausha yoki Yosha. Daryo nomini Beruniyning "Qonuni Mas'udiy" asarida va fors manbalarida Xashart tarzida uchratish mumkin. Yana aytish joizki, u qaysi yerdan oqib o'tishiga qarab Obi Farg'ona, O'zgan daryosi, Obi Xo'jand, Nahr ash- Shosh, Banokat daryosi ham deb atalgan. Sirdaryo atamasi, dastlab, Rim tarixchisi Pliniy asarida (mil I asr) "Silis" shaklida uchraydi. Ta'kidlashicha, "Silis" daryo qirg'oqlarida yashagan qabilalar nomidan olingan ekan. Keyinchalik "Silis"

mahalliylashib, asrorlarga boy talqinida “Sir” bo’lib ketgan va Sirdaryo nomi shakllangan.

Daryo qor va muzlardan suv oladi. Yuqori qismidagi havza qismida 1600 dan ortiq maydoni  $2200 \text{ km}^2$  ga yetadigan muzliklar bor. Havzasining umumiy maydoni  $462\,000 \text{ km}^2$ , asosiy suv hosil bo’ladigani  $219\,000 \text{ km}^2$ . Yillik suv oqimi  $23 \text{ km}^3$  ga teng. O’rtacha suv sarfi  $732 \text{ m}^3/\text{sek.}$  ga teng. Eng ko’p suv sarfi may-iyun, eng kami yanvar- fevral oylariga to’g’ri keladi.

Sirdaryo havzasida qadimdan insonlar yashab kelgan. Lekin insonning daryoga ta’siri XX asrdan so’ng keskin ortib ketdi. Sug’orish, xo’jalikda foydalanish maqsadida daryodan Katta Farg’ona, Shimoliy Farg’ona, Janubiy Farg’ona, Katta Andijon, Oxunboboyev nomli, Katta Namangan va Qizilqum kanallari qazilgan. Daryo havzasidagi sug’orish tizimlarining umumiy uzunligi  $65\,000 \text{ km.}$  dan ortib ketdi. Undan tashqari Norin irmog’ida To’xtag’ul, Qoradaryo irmog’ida Andijon, Chirchiq irmog’ida Chorvoq, Ohangaron irmog’ida Tuyabo’g’iz (Toshkent dengizi), Sirdaryoning o’zida Qayroqqum va Chordara suv omborlarining bunyod etilishi suv miqdorini keskin kamaytirib yubordi. Natijada mansabi bo’lmish Orol dengiziga yetib borolmayapti. Xususan, 1983- 1985-yillardayoq daryo Orol dengiziga bir tomchi ham suv bermagan. Daryo suvidan samarali foydalanish muhim bo’lib, shu bilan birgalikda, uning tozaligini ham ta’minlash kerak. Chunki daryolar transport vazifasini bajaradi. Bir joydagi zararli moddalarni ikkinchi joyda eltadi. Ularni toza saqlash va samarali foydalanish ham farz, ham kelajak avlod oldidagi qarzdir.

2. Yevropa- Yevrosiyo materigining g’arbiy qismini egallagan qit’a. Maydoni  $10,0 \text{ mln km}^2$  ni tashkil etadi. Yevropa bugungi kunda dunyoda iqsodiy, fan- texnika va madaniy salohiyatining ulkanligi va serqirraligi, industrial tarmoqlar, aholi va shaharlarning juda yuqori darajada konsentratsiyalashganligi, rivojlangan infratuzilmasi bilan alohida ajralib turadi. Yevropada qadimgi va yangi davrlar, an’anaviy sohalar va eng yangi texnologiyalar, tarixiy shaharlar va o’ta



## AMALIY MASHG'ULOTLAR

madaniy landshaftlar, ulkan aeroportlar va transkontinental tezyurar magistrallar o'zining yuqori ifodasini topgan. Bu kabi infrastrukturalar Yevropa qit'asida mujassamlangan bo'lib, davlatlarning umumiy soni 46 tani tashkil etadi<sup>4</sup>. Quyida esa Yevropadagi mamlakatlarning maydoniga ko'ra guruhlanishi berilgan:

| <i>Mitti</i><br><br><i>davlatlar</i> | <i>O'rta va yirik mamlakatlar</i>       |                                         |                                          |                                              |
|--------------------------------------|-----------------------------------------|-----------------------------------------|------------------------------------------|----------------------------------------------|
|                                      | <i>Maydoni</i>                          |                                         |                                          |                                              |
|                                      | <i>50 ming km<sup>2</sup><br/>gacha</i> | <i>50 - 100 ming<br/>km<sup>2</sup></i> | <i>100 - 500<br/>ming km<sup>2</sup></i> | <i>500 ming km<sup>2</sup><br/>dan katta</i> |
| Andorra                              | Albaniya                                | Avstriya                                | B. Britaniya                             | Fransiya                                     |
| Farer o-lari                         | Belgiya                                 | Bosniya                                 | Belorus                                  | Ispaniya                                     |
| Gibraltar                            | Daniya                                  | Irlandiya                               | Bolgariya                                | Rossiya                                      |
| Lixtenshteyn                         | Estoniya                                | Latviya                                 | Finlandiya                               | Ukraina                                      |
| Lyuksemburg                          | Makedoniya                              | Litva                                   | Germaniya                                |                                              |
| Malta                                | Moldova                                 | Portugaliya                             | Gretsiya                                 |                                              |
| Monako                               | Niderlandiya                            | Serbiya                                 | Islandiya                                |                                              |
| San- Marino                          | Shveysariya                             | Vengriya                                | Italiya                                  |                                              |
| Vatikan                              | Slovakiya                               | Xorvatiya                               | Norvegiya                                |                                              |
|                                      | Sloveniya                               | Chexiya                                 | Polsha                                   |                                              |
|                                      | Chernogoriya                            |                                         | Ruminiya                                 |                                              |
|                                      |                                         |                                         | Shvetsiya                                |                                              |

Yevropaning xalqaro geografik mehnat tizimidagi o'rni va ahamiyati 200 yildan ziyod davr mobaynida sanoat orqali belgilanadi. Hozirgi vaqtda ham sanoat yuqori sur'atlarda rivojlanishda davom etmoqda.

<sup>4</sup> Amaliy geografiya (10- sinf darsligi)da 44 ta davlat berilgan

3. Monarxiya- (yunoncha “monarchia”- yakka hokimlik) boshqaruv shakli, bunda davlat boshlig'i monarx bo'lib, davlat rahbarligi ajdoddan avlodga o'tadi. Monarxiya boshqaruvining quyidagi ko'rinishlari mavjud:

- *mutloq monarxiya*- davlat boshlig'i, ya'ni monarx cheksiz hokimyatga egalik qiladigan monarxiya ko'rinishi. Bunda hukumat yoki boshqa hokimyat organlari faqat davlat boshlig'i bo'lgan monarx oldida javobgar, odatda, parlament bo'lmaydi, bo'lgan taqdirda ham u maslahat kengashi vazifasini bajaradi, xolos. Masalan, Bruney va h.z.
- *konstitutsion monarxiya*- monarx hokimiyati konstitutsiya bilan cheklangan boshqaruv shakli. Bunda qonun chiqaruvchi hokimyat organi vazifasini parlament bajaradi, boshqaruvchi organ esa hukumat bo'ladi. Konstitutsion monarxiya o'z o'rnida ikki xil ko'rinishda bo'ladi:
  - ✓ dualistik monarxiya- (lotincha “dualis”- qarama- qarshi) monarx hokimiyati konstitutsiya bilan cheklangan bo'ladi, lekin shunga qaramasdan, monarx o'zining hokimyat uchun keng imkoniyatlarini saqlab qoladi. Masalan, Kuvayt va h.z.
  - ✓ parlamentar monarxiya- (fransuzcha “parlement”- rasmiy so'zlashish joyi) monarx vakolatlari o'ta cheklangan, hukumat va hukumat organlari monarx oldida emas, balki parlament oldida javob beradi. Masalan, Buyuk Britaniya va h.z.
- *teokratik monarxiya*- (yunoncha “theos”- Xudo<sup>5</sup>, “kratos”- hokimyat) monarx davlat boshlig'i bo'lishi bilan birga, bir vaqtning o'zida diniy rahbar hisoblanadigan monarxiya boshqaruv shakli. Masalan, Saudiya Arabistoni va h.z.

Quyida esa Yevropa qit'asidagi monarxiya davlatlari keltirilgan:

---

<sup>5</sup> Din ma'nosini ifodalab kelgan, ya'ni diniy manbalarga tayanib, Xudo naql qilgan amallar asosida davlatni boshqarish

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

| <i>№</i> | <i>Davlat nomi</i> | <i>Poytaxti</i> | <i>Aholisi<br/>(ming kishi)</i> | <i>Davlat tili</i> | <i>Monarxiya<br/>shakli</i> |
|----------|--------------------|-----------------|---------------------------------|--------------------|-----------------------------|
| 1        | Andorra            | La- Velya       | 7,0                             | kotolon            | konstitutsion               |
| 2        | B. Britaniya       | London          | 61 100,0                        | ingliz             | konstitusion                |
| 3        | Belgiya            | Bryussel        | 10 400,0                        | flamand            | konstitutsion               |
| 4        | Daniya             | Kopengagen      | 5 400,0                         | daniya             | konstitutsion               |
| 5        | Ispaniya           | Madrid          | 40 900,0                        | ispan              | konstitutsion               |
| 6        | Lixtenshteyn       | Vaduts          | 350,0                           | nemis              | konstitusion                |
| 7        | Lyuksemburg        | Lyuksemburg     | 460,0                           | nemis, fr.         | konstitusion                |
| 8        | Monako             | Monako          | 32,0                            | fransuz            | konstitutsion               |
| 9        | Niderlandiya       | Amsterdam       | 16 400,0                        | golland            | konstitutsion               |
| 10       | Norvegiya          | Oslo            | 5 000,0                         | norveg             | konstitutsion               |
| 11       | Vatikan            | Vatikan         | 1,0                             | italyan            | teokratik                   |
| 12       | Shvetsiya          | Stokgolm        | 9 000,0                         | shved              | konstitutsion               |

Jahonda mavjud 45 ta monarxiya boshqaruvidagi davlatdan 12 tasi Yevropada joylashgan, ya'ni ularning 11 tasi konstitutsion, 1 tasi teokratik monarxiya ekan.

4. Hozirgi kunda dunyo siyosiy xaritasida 227 ta mamlakat mavjud<sup>6</sup>. Ular iqtisodiy, demografik, geografik, geosiyosiy va hududiy salohiyatiga ko'ra guruhlashtiriladi. Quyida esa iqtisodiy qudratiga ko'ra jahondagi eng ulkan “Katta sakkizlik”ka kiruvchi mamlakatlar (AQSh, Yaponiya, GFR, Kanada, Rossiya), tayanch mamlakatlar (Braziliya, Hindiston), “ko'chirilgan kapitalistik” (Avstraliya) va boshqa rivojlangan (Ispaniya), rivojlanayotgan (Eron) mamlakatlardan misollar keltirilgan.

| <i>№</i> | <i>Davlatlar<br/>nomi</i> | <i>Aholisi<br/>(mln kishi)</i> | <i>Poytaxti</i> | <i>Davlat<br/>boshqaruv</i> | <i>Davlat tili</i> |
|----------|---------------------------|--------------------------------|-----------------|-----------------------------|--------------------|
|----------|---------------------------|--------------------------------|-----------------|-----------------------------|--------------------|

<sup>6</sup> Qayumov A., Safarov I., Tillaboyeva M. Jahon iqtisodiy- ijtimoiy geografiyasi: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9- sinfi uchun darslik. –T.; “O'zbekiston”, 2014. -224 b.

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

|    |            |         |            | <i>shakli</i> |             |
|----|------------|---------|------------|---------------|-------------|
| 1  | AQSh       | 314,7   | Vashington | respublika    | ingliz      |
| 2  | Avstraliya | 21,6    | Kanberra   | monarxiya     | ingliz      |
| 3  | Braziliya  | 201,0   | Brazilia   | respublika    | portugal    |
| 4  | Eron       | 80,0    | Tehron     | respublika    | fors        |
| 5  | Germaniya  | 81,0    | Berlin     | respublika    | nemis       |
| 6  | Hindiston  | 1 221,0 | Dehli      | respublika    | hind        |
| 7  | Ispaniya   | 40,9    | Madrid     | monarxiya     | ispan       |
| 8  | Kanada     | 38,5    | Ottava     | monarxiya     | ingliz, fr. |
| 9  | Rossiya    | 142,0   | Moskva     | respublika    | rus         |
| 10 | Yaponiya   | 127,0   | Tokio      | monarxiya     | yapon       |

Bejiz bu mamlakatlar berilmagan bo'lib, ular o'z mintaqasida, qolaversa, dunyo mamlakatlari orasida katta mavqe va ahamiyatga ega:

- AQSh- dunyodagi eng rivojlangan davlat;
- Avstraliya- Avstraliya va Okeaniyadagi eng rivojlangan davlat;
- Braziliya- tayancha mamlakatlardan biri;
- Eron- prognozlariga ko'ra, kelajakda Janubi- g'arbiy Osiyoning yetakchi davlatiga aylanishi mumkin;
- Germaniya- G'arbiy Yevropadagi eng rivojlangan davlat;
- Hindiston- Janubiy Osiyodagi katta qudratga ega davlat;
- Ispaniya- "Katta sakkizlik"dan so'nggi rivojlangan davlatlar yetakchisi;
- Kanada- iqtisodiy qudratli "Katta sakkizlik"ka kiruvchi davlat;
- Rossiya- hududiy va harbiy jihatdan "super" davlat;
- Yaponiya- Osiyodagi eng rivojlangan iqtisodiy qudratli tipik sharq davlati.

5. Geografik atamalarga ta'rif yozish.

**1) *geosiyosat***- turli siyosiy jarayonlarning tabiiy sharoit (muhit) bilan bog'liq holda rivojlanishini o'rganadigan fan. Geosiyosat atamasini fanga shved olimi Rudolf Chellen 1916-yil kiritgan. Uning fikricha, har qanday davlat bir butun organizm sifatida qaralmog'i lozim.

XX asrda dunyo siyosiy xaritasining tubdan o'zgarishi, hududiy, ijtimoiy-ekologik va demografik muammolarning keskinlashuvi geosiyosat faniga bo'lgan e'tiborni kuchaytirib yubordi. Geosiyosatning obyekti bo'lib, dunyoning geosiyosiy tuzilishi va xalqaro dunyoviy targ'ibot tushunilsa, jamiyatda kechayotgan har xil darajadagi ijtimoiy- siyosiy jarayonlar, ularning yuzaga kelishi, harakatlanishi va o'zgarib borishini o'zida aks ettiruvchi voqealar rivojini tahlil qilish uning predmetini tashlik etadi. Fan siyosiy geografiya asosida shakllandi va rivojlandi. Siyosiy geografiya jahondagi davlatlarning turg'un (statik) holatdagi tavsifini tuzish bilan shug'ullanadi. Zamonaviy Geosiyosatning asosiy vazifasi esa sayyoraviy makonni nazorat qilishdir. Bunda geosiyosiy omillarni o'rganish va baholash muhim ahamiyatga ega. Geosiyosiy omillarga esa quyidagilar kiradi:

- ✓ *geografik* (geografik o'rni, tabiiy resurslari);
- ✓ *siyosiy* (siyosiy tuzumi, davlat chegaralari, jamiyatning ijtimoiy tarkibi, asosiy erkinliklarning mavjudligi);
- ✓ *iqtisodiy* (ishlab chiqarish kuchlarining quvvati va tarkibi, aholining turmush darajasi, strategik zaxiralar va mobilizatsion quvvatlar);
- ✓ *harbiy* (qurolli kuchlarning qudrati va harbiy kadrlar salohiyati);
- ✓ *ekologik* (cheklangan resurslarga bo'lgan demografik bosim, xomashyo resurslarining kamayishi va tugashi);
- ✓ *demografik* (aholi soni, o'sish sur'ati, zichligi va tarkibi);
- ✓ *madaniy- ma'rifiy* (konfessalar, millat va elatlar, mehnat an'analari, ilm- fan, ta'lim, sog'likni saqlashning rivojlanganligi, urbanizatsiya darajasi va boshqalar).

Geosiyosiy nuqtai nazardan insoniyat tarixini turli geosiyosiy davrlarning qat'iy ketma- ketligidan iborat. Dunyo geosiyosiy tizimining shakllanishida Vestfal, V ena, Versal, Potsdam va Belovej geosiyosiy bosqichlarning ahamiyati katta. Ularning har birida ulkan siyosiy voqealar bo'lib o'tgan, natijada yillar davomida dunyoning hozirgi geosiyosiy muhiti shakllana borgan.

**2) jahon xo'jaligi-** bir- biri bilan umumjahon iqtisodiy munosabatlari bilan bog'langan dunyodagi barcha mamlakatlar milliy xo'jaliklarining majmui.

Jahon xo'jaligining shakllanishi va rivojlanishida xalqaro geografik mehnat taqsimotining o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Geografik mehnat taqsimoti- bu ijtimoiy mehnat taqsimotining hududiy shaklidir. Xalqaro geografik mehnat taqsimoti ayrim mamlaktlarni ma'lum turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishga, shular bilan keyinchalik ayirboshlashga ixtisoslashganligini bildiradi. Asosiy transport yo'llari turli mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi va ularni iste'mol qiluvchi davlatlar o'rtasida tashkil qilingan. Odatda, Afrika, Lotin Amerikasi, Osiyo hamda Avstraliyadan turli sanoat va qishloq xo'jalik xomashyolari, asosan, Yevropa, Yaponiya, Shimoliy Amerika mamlakatlariga, ulardan esa aholi va xalq xo'jaligi uchun turli iste'mol mahsulotlari dunyoning barcha iste'molchi hududlariga yetkazib beriladi. Shunday qilib, XIX asrning II yarmida keng miqyosda temiryo'llarning barpo qilinishi va dengiz transportining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi quruqliklar va materiklarni bog'ladi hamda jahon savdosi va jahon xo'jaligining shakllanishini ta'minladi. Bora- bora XIX asr oxiri XX asr boshida yirik mashinalashgan sanoat- dengiz transporti va jahon bozorining taraqqiyoti natijasida vujudga keldi.

Jahon xo'jaligidagi asosiy markazlar quyidagi iqtisodiy qutblardir:

- ✓ Yevropa;
- ✓ Shimoliy Amerika;
- ✓ Yaponiya;
- ✓ Xitoy;

- ✓ Janubi- sharqiy Osiyo;
- ✓ Braziliya;
- ✓ Janubi- g'arbiy Osiyo (Fors ko'rfazidagi mamlakatlar);
- ✓ Rossiya;
- ✓ Avstraliya;
- ✓ Hindiston.

Umuman olganda, barcha davlatlarning o'rgumchak to'ri hosil qilib bir- biri bilan xo'jaliklararo tovar almashinuvi natijasida yangi mahsulotlar dunyo bo'yicha tarqaladi, umumiste'mol mahsulotiga aylanib, bir hududda ishlab chiqarilgan mahsulot ikkinchi hududga yetkazilib, bamisoli makroqo'shnichilik jarayoni vujudga keladi.

**3) investitsiya-** (lotincha “investio”- o'rash) foyda, ya'ni daromad olish maqsadida xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik qilib, mamlakatlar ishlab chiqarish kuchlarini modernizatsiya qilish va yangilash uchun chet el sarmoyasini kiritish shakli.

Investitsiyalar kim tomonidan kiritilishiga qarab ikki turga bo'linadi:

- *ichki investitsiya-* mamlakat hududida ichki investorlar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiya;
- *tashqi investitsiya-* ikki tomonlama foyda olish maqsadida chet el investorlari tomonidan boshqa davlat iqtisodiyotiga kiritiladigan investitsiya

Ma'lum hudud uchun sarmoya, ayniqsa, katta muddatga kiritilganda inflatsiya, ya'ni pulning qadrsizlanib borishining ham dinamikasi o'rganilib, har tomonlama o'rganilib shartnoma tuziladi.

**4) yaylov-** chorva mollari o'tlaydigan keng maydon(1), ilmiy manbalarda tog'larning yuqori qismidagi past bo'yli o'tloqzorlardan iborat mintaq(2). Yaylov (jaylau, jaylov) umumturkiy so'z. Jay-ey qadimgi turk tilida yoz- yaz deb bahorni

aytishgan, yaylag'- "yozloq", "yozda ko'chib chiqib yashaydigan keng maydon", turkmanlarda yayla yoki yaylag- "yozgi maydon", qrimliklarda yayla- "tog' o'tlog'i", ozarbayjon va turklarda ham (yayla, yaylag, eylag) "yassi tog'lik", forslarda yayloq, yaylo "yozda ko'chib chiqiladigan joy" ma'nosini ifodalaydi.

Tojikistonda ayloq, yayloq va devlox bir ma'no- "tog' o'tlog'i" ni bildiradi. Qirg'iziston, Oltoy va Kavkazda 2000 metrdan balandda joylashgan tog' yaylovlari mahalliy aholi bilan birga, rus adabiyotida ham jeylav, djaylau deyiladi. Bu so'zning aylaq- ayloq shakli geomuloqotlarda va tarixiy yodgorliklarda saqlanib qolgan. Geografiya nuqtai nazaridan qaralganda, tog' va tog'oldidagi o'tloqzor deyish mumkin. Xususan, akademik K. Z. Zokirov O'zbekistonning balandlik mintaqalarini 4 ta: cho'l (400 metrgacha), adir (400- 1200 metr), tog' (1200- 2700 metr) va yaylov (2700 metrdan yuqorida joylashib, tarkibida subalp va alp o'tloqlari) mintaqasiga bo'ladi<sup>7</sup>.

- *Subalp mintaqasi*- o'tlar juda zich o'sadi, bo'yi past bo'lsa ham, ularning turi ko'p, gullari yirik va rang- barang bo'ladi. Bu yerda ko'proq yarim g'allagulli va sovuqqa chidamli o'simliklar o'sadi.
- *Alp mintaqasi*- subalp va nival mintaqalari oralig'ida bo'lib, yoz juda qisqa va salqin, qish sovuq va qor ko'p yog'adi. Shu bois o'simlik qoplami siyrak, asosan, kserofit(sovuqqa chidamli (kserofit o'zi chidamli o'simlik muhiti bo'lib, cho'lda tarqalganlari qurg'oqchilik va issiqqa chidamli, sovuq joydagilari sovuqqa chidamli bo'ladigan)) o'simliklar o'sadi.

Cho'llardagi o'tloq mintaqalar ham cho'l yaylovlari deb yuritiladi. Ulardan, asosan, chorvalarni boqishda foydalaniladi. Demak, yaylovlar baland bo'lmagan o'tlar o'sadigan mintaqalar hisoblanib, ularning ham ahamiyati juda kattadir.

---

<sup>7</sup> Karim Zohidovich Zokirov balandlik mintaqalarini ajratishda o'simliklarni asos qilib olgan. Nival(qor-muzlik) zonasining ajratilmaganligining boisi ham o'simliklar o'smaganligi sabablidir



**5) yo'lning o'tkazish imkoniyati-** temiryo'ldan bir kecha- kunduzda o'tishi mumkin bo'lgan bo'lgan poyezdlar miqdori. Ikki izli temiryo'llarning o'tkazish imkoniyati bir kecha- kunduzda 150 juft poyezdga yetishi mumkin. Bundan tashqari bu ko'rsatkich bir izli temiryo'lda 30 juft poyezdni tashkil qiladi. Temiryo'llarning elektrlashtirilishi va elektrovozlarning ishlatilishi bilan poyezdlarning qatnov tezligi, yo'llarning o'tkazish imkoniyati, demakki, ish unumi ortadi.

### Nazorat savollari:

1. Amudaryo qayerdan boshlanadi?
2. Yevropada qaysi davlatlarning maydoni  $100\,000\text{ km}^2$  dan  $500\,000\text{ km}^2$  gacha boradi?
3. Monarxiya boshqaruv tizimining qanday ko'rinishlari mavjud?
4. Eronda qaysi til davlat tili hisoblanadi?
5. Jahon xo'jaligi nima?

### Test savollari:

1. Amudaryoning umumiy uzunligi qanchani tashkil etadi?  
A) 3 019 km                      B) 4 950 km  
C) 2 540 km                      D) 1 500 km
2. Yevropadagi maydoni  $50\,000\text{ km}^2$  dan kichik davlatlarni aniqlang.  
A) Nidelandiya, Serbiya        B) Shveysariya, Daniya  
C) Litva, Portugaliya          D) Moldova, Vengriya
3. Qaysi davlat dualistik monarxiyaga misol bo'la oladi?  
A) Kuvayt                          B) Saudiya Arabistoni  
C) Buyuk Britaniya              D) Yaponiya

4. Olimlarning prognozlariga qaraganda, qaysi davlat XXI asr o'rtalarida Janubi-g'arbiy Osiyodagi yetakchi davlatga aylanishi mumkin?

- A) Turkiya                                      B) BAA  
C) Saudiya Arabistoni                      D) Eron

5. Geosiyosat atamasini fanga kim olib kirgan?

- A) Fridrix Ratsel                              B) Karl Xausxofer  
C) Rudolf Chellen                            D) Semyuel Xangtington

### Mustaqil ta'lim

- Jahon mamlakatlarini iqtisodiy, harbiy, demografik jihatdan klassifikatsiya qilish

### Bilasizmi???

- Baykal ko'lini turkiylar- boyko'l, xitoylar- shimoliy ko'l deb atashadi;
- Quyoshning pochta markasi hajmicha keladigan qismining o'ziyoq 1,5 mln dona lampochka quvvatidek yorug'lik beradi;
- Har yili qishda shimoliy yarimsharga qor yog'ishi natijasida Yer 10 trln tonnaga og'irlashadi.

## Amaliy mashg'ulot № 5

### • Jahon aholisi va aholi migratsiyasi

#### Topshiriqlar:

1. Aholi sonining takror barpo bo'lishi va tabiiy ko'payishi. Aholi ko'payishining ikki turi.
2. Demografik portlash va demografik siyosat.
3. Aholi ko'payishining an'anaviy turidan zamonaviy turiga o'tishi.

4. Aholi migratsiyasining sabablari, yo'nalishlari.
5. Shimoliy Amerika, Yevropa, Avstraliya mamlakatlari immigratsiyasi.

### Qo'shimcha topshiriqlar:

1. Andorradan Vadutsgacha bo'lgan 820 km li masofa birinchi xaritada 5,5 sm.ga, huddi shu masofa ikkinchi xaritada 2,5 sm ga teng bo'lsa, ushbu xaritalarning masshtabini aniqlang. Xo'sh, aniqlangan masshtablardan qaysi biri yirikroq?

2. Havo namligini o'lchash usullarini yozing.

3. Abdulaziz mohir bo'lib, u o'zining hovlisida qurayotgan xonaning uzunligi 5 metr, balandligi 2,5 metr va eni 4 metr ga teng. Qisqa fursatda u xonani bitirdi. Bu paytda kuzning salqin kunlari boshlanib, uy ichidagi harorat esa  $+10^{\circ}\text{C}$  ni ko'rsatardi. Aytaylik, ushbu xona o'zida qancha suv bug'ini sig'dira olishi mumkinligini (harorat  $+10^{\circ}\text{C}$  da  $1\text{ m}^3$  havoda 9 gr suv bug'i mavjudligini unutmagan holda) aniqlang.

4. Xristian dinining quyidagi turli guruhlariga asosiy aholisi e'tiqod qiluvchi davlatlardan na'munalar yozing.

| <i>N<sup>o</sup></i> | <i>katolik</i> | <i>protestant</i> | <i>lyuteran</i> | <i>kalvinist</i> | <i>monofizit</i> | <i>provaslav</i> |
|----------------------|----------------|-------------------|-----------------|------------------|------------------|------------------|
| 1                    |                |                   |                 |                  |                  |                  |
| 2                    |                |                   |                 |                  |                  |                  |
| 3                    |                |                   |                 |                  |                  |                  |

5. Islom, buddaviylik va boshqa dinlarga asosiy aholisi e'tiqod qiluvchi davlatlardan na'munalar yozing.

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

| <i>Nº</i> | <i>sunniy</i> | <i>shia</i> | <i>maxayanist</i> | <i>lamaizm</i> | <i>txeravadin</i> | <i>konfutsiylik</i> | <i>sintoizm</i> |
|-----------|---------------|-------------|-------------------|----------------|-------------------|---------------------|-----------------|
| 1         |               |             |                   |                |                   |                     |                 |
| 2         |               |             |                   |                |                   |                     |                 |
| 3         |               |             |                   |                |                   |                     |                 |

### Javoblar:

1. Masshtab- (nemischa “mass”- uzunlik, “stab”- tayoq) plan, chizma va xaritada ma’lum nuqtalar orasidagi masofaning yer yuzasidagi uzunligiga nisbati. Boshqacha qilib aytganda, ikki nuqta oralig’ini necha marta kichraytirilganligini ko’rsatuvchi kasr sonidir va u  $\frac{1}{m}$  ko’rinishida ifodalanadi.

Bu yerda, 1- xaritada ikki nuqta orasidagi masofa (sm hisobida),

m- shu ikki nuqta orasidagi masofaning yer yuzasidagi haqiqiy uzunligi (sm hisobida), ya’ni asliga nisbatan necha marta kichraytirilganligi. Masalan 1: 300 000 masshtabli xarita berilgan bo’lsa, xaritada istalgan 1 sm joy yer yuzida qancha uzulikka teng ekanligi quyidagicha topiladi:

- berilishi bo’yicha, ikki nuqta orasidagi masofa xaritada 1 sm, yer yuzida 300 000 sm ga teng bo’lsa,

1) santimetr birlikdan metr birlikka o’tib olamiz:

$$1 \text{ m} \text{ ----- } 100 \text{ sm}$$

$$\underline{3\ 000\ \text{m}} = x \text{ ---- } 300\ 000 \text{ sm}$$

2) metr birlikdan kilometr birlikka o’tib olamiz:

$$1 \text{ km} \text{ ----- } 1000 \text{ m}$$

$$\underline{3\ \text{km}} = x \text{ ----- } 3000 \text{ m.}$$

Demak, 1: 300 000 masshtabli kartada 1 sm masofa yer yuzida 3 km ga teng ekan.

Masshtab, asosan, 3 xil bo'ladi<sup>8</sup>, ya'ni quyidagicha:

- ✓ sonli masshtab;
- ✓ nomli masshtab;
- ✓ chiziqli masshtab.

Masshtab qiymatidagi sonlar qanchalik katta bo'lsa, masshtab shuncha kichik bo'ladi. Masalan, 1: 1 000 000 mashtab(a) 1: 100 000 masshtab(b)dan kichik. Chunki  $a$  masshtabda 1 sm masofa asliga nisbatan 1 mln marotaba kichraytirilgan bo'lsa,  $b$  masshtabda 1 sm masofa 100 ming marta kichraytirilgan, ya'ni tasavvurga keltirish uchun aytish mumkinki,  $a$  masshtab asosida tuzilgan karta  $b$  ga nisbatan ancha marta kichraytirilgan va maydon, obyektlar ko'rinishi maydalashib ketgan. Quyida shunday mazmunga ega masshtabga oid masala keltirilgan:

✚ *Andorradan Vadutsgacha bo'lgan 820 km.li masofa birinchi xaritada 5,5 sm ga, xuddi shu masofa ikkinchi xaritada 2,5 sm ga teng bo'lsa, ushbu xaritalarning masshtabini aniqlang. Xo'sh, aniqlangan masshtablardan qaysi biri yirikroq?*



**Yechish:** Masalani yechish davomida quyidagicha ketma- ketlikka e'tibor berilsa, ish tartibli va unumli bo'ladi:

- I. Ikki obyekt orasidagi masofa aniqlanadi: 820 km;
- II. Xaritalarning masshtablari aniqlanadi:
  - 1) I xaritaning masshtabi aniqlanadi:
    - a) 820 km masofa I xaritada qanchaga teng bo'lishi aniqlanadi: 5,5 sm;
    - b) masshtab aniqlanadi<sup>9</sup>:

<sup>8</sup> Masshtabning yana *murakkab ko'ndalang chiziqli* va *yuzalama masshtab* turlari bor. Ko'pincha, murakkab ko'ndalang chiziqli masshtab chiziqli masshtabning tarkibidagi turi sifatida qaraladi, yuzalama masshtab esa maydon yuzalarini hisoblashda ishlatiladi. Bunda masshtabning qiymati kvadratga ko'tarilib, keltirib chiqariladi

- ✓ 1 sm masofa qanchaga teng ekanligi topiladi:

$$820 \text{ km} \text{ ----- } 5,5 \text{ sm}$$

$$149 \text{ km} \approx x \text{ ----- } 1 \text{ sm}$$

- ✓ kilometrdan metr qiymatga o'tiladi:

$$1 \text{ km} \text{ ----- } 1\,000 \text{ m}$$

$$149 \text{ km} \text{ ---} x = 149\,000 \text{ m}$$

- ✓ metr qiymatdan santimetr qiymatga o'tiladi:

$$1 \text{ m} \text{ ----- } 100 \text{ sm}$$

$$149\,000 \text{ m} \text{ ---} x = \underline{14\,900\,000 \text{ sm}}$$

➤ masshtab 1: 14 900 000

### 2) II xaritaning masshtabi aniqlanadi:

- a) 820 km masofa II xaritada qanchaga teng bo'lishi aniqlanadi: 2,5 sm;

- b) masshtab aniqlanadi:

- ✓ 1 sm masofa qanchaga teng ekanligi topiladi:

$$820 \text{ km} \text{ ----- } 2,5 \text{ sm}$$

$$328 \text{ km} = x \text{ ---- } 1 \text{ sm}$$

- ✓ kilometrdan metr qiymatga o'tiladi:

$$1 \text{ km} \text{ ----- } 1\,000 \text{ m}$$

$$328 \text{ km} \text{ --- } x = 328\,000 \text{ m}$$

- ✓ metr qiymatdan santimetr qiymatga o'tiladi:

$$1 \text{ m} \text{ ----- } 100 \text{ sm}$$

$$328\,000 \text{ m} \text{ ---} x = \underline{198\,000\,000 \text{ sm}}$$

➤ masshtab 1: 32 800 000

### III. Masshtablarning qaysi biri yirikligi aniqlanadi:

- ✓ yuqoridagi fikrga muvofiq qancha qiymat katta katta bo'lsa, masshtab shuncha mayda bo'ladi.

---

<sup>9</sup> Berilgan qiymatni kilometrdan to santimetrgacha o'tib olinishining sababi nisbatni aniqlash bo'lib, bunda xaritada 1 sm ga teng bo'lgan masofa yer yuzida qanchaga teng bo'lishini topish uchun muhim, buning uchun ikkovining ham birligi bir xil bo'lishi kerak

Demak,  $1: 14\,900\,000 > 1: 32\,800\,000$

➤ I karta masshtabi yirikroq

Masshtab va uning xossalari puxta o'rganish juda muhim hisoblanadi. Unga oid masalalar va topshiriqlar nafaqat geografiya, balki umuman, hamma vaqt kerakli hisoblanadi.

2. Havoda har doim ma'lum miqdorda namlik mavjud bo'ladi. Havoning namligi gigrometr asbobi orqali aniqlanadi. Bunda, haroratga bog'liq ravishda,  $1\text{ m}^3$  havoga qancha namlik sig'ishi inobatga olinadi. Issiq havoda gazlar siyrakroq bo'ladi, shu bois havo o'ziga ko'p miqdorda namlikni sig'dira oladi va namga to'yinishi uchun ko'proq namlik talab etiladi. Aksincha, sovuq havoda gazlar zichroq bo'lib, kamroq namlikni tutib turadi.

Havo namligini o'lchash uchun har turli usullardan foydalaniladi: mutlaq (tarozili), psixrometrik, havo namligini soch tolali yoki pardali gigrometr, shudring nuqtasi bo'yicha va h.k.

*Psixrometrik usul.* Meteorologik stansiyalarda havo namligini psixrometrik usul bilan o'lchash qabul qilingan. Bu usulda havo namligini o'lchash ikkita termometrdan iborat asbob - psixrometr (yunoncha "ψυχρός: psixros"- sovuq) yordamida olib boriladi. Psixrometrik termometrlardan birining qabul qismi (rezervuar) ho'l holatda bo'lgan batist (ho'llangan termometr) bilan o'ralgan. Ho'llangan termometr rezervuari ustidan bug'lanish sodir bo'lib, ma'lum issiqlik sarflanadi. Psixrometrning boshqa termometri quruq bo'lib, u havoning haroratini ko'rsatadi. Ho'llangan termometr o'zining haroratini ko'rsatadi. Bu harorat rezervuar yuzasidagi suvning bug'lanishi shiddatiga bog'liqdir. Namlik taqchilligi qanchalik katta bo'lsa, shunchalik shiddat bilan bug'lanish bo'ladi va natijada ho'llangan termometr ko'rsatishi past bo'ladi. Havo namligini o'lchash uchun ikki turdagi psixrometr: *muqim va aspiratsion psixrometr*lar ishlatiladi.

*Muqim psixrometr.* Ikkita bir xil termometrlardan iborat bo'lib, ular psixrometrik qutida shtativda vertikal o'rnatiladi, termometrdagi bo'linmalar har

0,2° ga bo'lingan. O'ng tomondagi termometr batist bo'lakchasi bilan zich o'raladi va uning pastki uchi distillangan suv bilan to'ldirilgan stakanga tushiriladi. Stakanga batist tushiriladigan yorig'i qopqoq bilan berkitiladi. Termometrlardan sanoq olish iloji boricha tezroq bajariladi, chunki kuzatuvchining termometrga yaqinlashishi bilan sanoq o'zgarishi mumkin. Avval o'nliklardan, so'ngra butun graduslardan sanoq olinadi. Psixrometr bo'yicha kuzatish har qanday musbat haroratda ham olib boriladi, ammo manfiy haroratda faqat -10° gacha, chunki past haroratdagi sanoqlar ishonchsiz deb hisoblanadi. Kuzatish paytida batistning suvli yoki muzlaganiga e'tibor beriladi, chunki psixrometrik formulaga kiruvchi suv bug'ining maksimal elastikligi (uprugost) suv va muz ustida har turlidir.


*Aspiratsion psixrometr*(Assman psixrometri)ning ishlash tartibi xuddi muqim psixrometridek. Bu psixrometrning afzalligi shundaki, havoning doimiy silanish tezligi (2 m/s)ga sunoiy ventilyatsiya yordamida erishiladi. Asbobda ikkita psixrometrik termometr metall g'ilof ichiga joylashtirilgan. Termometrlar bo'linmalari qiymati 0,2°, g'ilof ikki trubkadan iborat bo'lib, ular pastda bo'linadi va ikki tomondan yon himoyalovchidan iborat. Trubkalarining yuqorigi qismi aspirator bilan birlashgan. Aspirator ikki trubka yordamida tashqi havoni so'rib oladi va termometr rezervuarlarini havo bilan ta'minlaydi. Aspirator prujinali mexanizmga ega, prujina kalit yordamida buraladi. Termometrlarning biri (o'ng tomondagisi)ga batist o'ralgan. Psixrometr usti nikellangan va yaxshi tekkislanganligi sababli, u quyosh nurlarini yaxshi qaytaradi. Shu sababli psixrometrga qo'shimcha quyosh nurlaridan himoyaning keragi yo'q, u ochiq havoda o'rnatilishi mumkin. Aspiratsion psixrometrdan meteorologik stansiyalarda gradient kuzatishlarini olib borishda hamda dala sharoitida mikroiqlimiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalaniladi. Psixrometr kuzatishdan oldin qishda 30 minut, yozda esa 15 minut xonadan tashqariga chiqariladi. O'ng tomondagi termometr batisti rezinkali noksimon bilan ho'llaniladi. Ho'llash kuzatishdan yozda 4 minut, qishda 30 minut oldin bajariladi. Ho'llab bo'lgach, aspirator buriladi va u sanoq olguncha to'xtamasdan ishlashi zarur. Aspiratsion



psixrometrdan olingan sanoqlar bo'yicha psixrometrik jadval yordamida havo namligi aniqlanadi.

*Shudring nuqtasi* - havodagi suv bug'ining to'yinish holatiga yetishishi uchun zarur bo'lgan haroratdir.

Aytalik, kunduzi  $+30^{\circ}\text{C}$  li havoning mutlaq namligi  $12,8\text{ g/m}^3$  bo'lsin. Bunday haroratda suv bug'lari to'yinmagan bo'ladi (A nuqta), to'yinish uchun  $30\text{ g/m}^3$  bo'lishi kerak (B nuqta). Lekin tunda havo harorati pasayib, tongga yaqin  $+15^{\circ}\text{C}$  ga tushishi mumkin. Bunday haroratda havodagi mavjud suv bug'lari ( $12,8\text{ g/m}^3$ ) to'yingan holatga o'tadi (C nuqta) va ular qisman kondensatsiyalanib, yerga shudring bo'lib tushadi. Bu holatda nuqtaga to'g'ri kelgan harorat shudring nuqtasidir. Bunda shudring tushgandagi haroratga muvofiq holda, havodagi namlikni aniqlash mumkin.




*Gigrometrlar.* Hozirgi paytda meteorologik stansiya tarmog'ida havoning nisbiy namligini aniqlashda bir necha turdagi gigrometrlar (vesovoy, soch tolali, plyonkali va boshqa)lardan foydalaniladi:

*Soch tolali gigrometrning* asosiy qismi yog'sizlangan odam sochidir. U nisbiy namlik o'zgarishi bilan o'z uzunligini o'zgartiradi. Sochning tepadagi uchi boshqaruvchi vintga mahkamlanadi. Uning yordamida strelkaning holati gigrometr shkalasida o'zgarishi mumkin. Sochning pastki uchi blok yordamida ulangan. Bu blokda yuk sochning tartibli turishini ta'minlaydi. Blokning o'zagiga



strelka mahkamlangan, uning bo'sh tomoni havo namligi o'zgarganda shkala bo'ylab harakat qiladi. Gigrometr havo harorati  $-50^{\circ}\text{C}$  dan  $+55^{\circ}\text{C}$  gacha bo'lganda ishlatishga moslashgan.

*Plyonkali gigrometr*ning ishlash sharti havo namligining ko'payishi va kamayishi bilan plyonkaning tarangligi o'zgarishiga asoslangan. Asbob namlikka



ta'sirchan elementlar (teri) o'zgaruvchi tizim, strelka, shkala va metall dan qilingan ramkadan iborat. Ramkaga asbobning barcha qismlari mahkamlanadi. Plyonkaning deformatsiyasi strelkani harakatga keltiradi. Plyonkaning

doimiy tarangligini ta'minlaydigan asbob shkalasi teng bo'linmalarga ega. Gigrometr  $-60^{\circ}$  dan  $+35^{\circ}$  gacha bo'lgan havo haroratida ishlash uchun mo'ljallangan. Gigrometr (sochli yoki plyonkali) muqim psixrometr o'rnatilgan psixrometrik qutining orqa devoriga osib qo'yiladi. Gigrometrdan sanoq psixrometrik termometrlar bilan birga bir vaqtda olinadi. Gigrometrdan olingan sanoqqa tuzatma maxsus gigrometr tuzatmalari grafigidan topiladi.

Yuqoridagi kabilar asnosida havo namligi o'lchanadi va tahlil qilinadi. Havo namligiga oid quyidagi III topshiriqda mashqdan na'muna keltirilgan.

**3. Havo namligi-** ma'lum haroratli havoda mavjud suv bug'lari miqdoridir. Uning mutloq va nisbiy ko'rinishlari mavjud:

\* *Mutloq namlik*-  $1\text{ m}^3$  havoda mavjud bo'lgan barcha suv bug'lari miqdori bo'lib,  $\text{gr}/\text{m}^3$  qiymatda aniqlanadi. O'lchashlar natijasida ma'lum haroratlar bo'yicha  $1\text{ m}^3$  havoga qancha suv bug'i sig'ishi mumkinligi aniqlangan. Undan ortiqchasi yog'in tariqasida yer yuziga tushadi. Masalan,  $+10^{\circ}\text{C}$  haroratga ega  $1\text{ m}^3$  havo o'zida 9 gr suv bug'ini sig'dira oladi.

\* *Nisbiy namlik*- muayyan haroratli havoda mavjud bo'lgan suv bug'lari miqdorining aynan shunday haroratli havoda mavjud bo'lishi kerak bo'lgan suv bug'lari miqdoriga nisbati bo'lib, namlik % hisobida o'lchanadi. Masalan,  $+10^{\circ}\text{C}$

havoda 9 gr suv bug'i bo'lsa, nisbiy namlik 100% bo'ladi, agar 4,5 gr bo'lsa, nisbiy namlik 50% bo'ladi va h.z.

Shularni inobatga olgan holda, ma'lum haroratli biror hajmli joyda qancha suv bug'i borligini aniqlash mumkin. Masalan, *Abdulaziz mohir bo'lib, u o'zining hovlisida qurayotgan xonaning uzunligi 5 metr, balandligi 2,5 metr va eni 4 metrga teng. Qisqa fursatda u xonani bitirdi. Bu paytda kuzning salqin kunlari boshlanib, uy ichidagi harorat esa  $+10^{\circ}\text{C}$  ni ko'rsatardi. Aytaylik, ushbu xona o'zida qancha suv bug'ini sig'dira olishi mumkinligini (harorat  $+10^{\circ}\text{C}$  da  $1\text{ m}^3$  havoda 9 gr suv bug'i mavjudligini unutmagan holda) aniqlang.*

Bu masalada harorat, xonaning hajm elementlari berilgan bo'lib, tartib asosida ishni bajarilsa, ortiqcha muammo kelib chiqmaydi.

- I. Xona harorati aniqlanadi:  $+10^{\circ}\text{C}$
- II.  $+10^{\circ}\text{C}$  haroratli  $1\text{ m}^3$  havo uchun mutloq namlik miqdori aniqlanadi:  
9 gr
- III. Xonaning hajmi aniqlanadi:

1) xonaning o'lchamlarini bir- biriga ko'paytiriladi:

☞ a- uzunligi: 5 metr;

☞ b- eni: 4 metr;

☞ c- balandligi: 2,5 metr

$$a \cdot b \cdot c (5\text{ m} \cdot 4\text{ m} \cdot 2,5\text{ m}) = 50\text{ m}^3$$

- IV. Mavjud suv bug'i miqdorini proporsiya qilib aniqlanadi:

$$+10^{\circ}\text{C} \text{ ----- } 1\text{ m}^3 \text{ ----- } 9\text{ gr} \text{ ----- } 100\%$$

$$50\text{ m}^3 \text{ ---}x= 450\text{ gr/m}^3$$

Demak, harorati  $+10^{\circ}\text{C}$  ga teng bo'lgan  $50\text{ m}^3$  hajmli xonada  $450\text{ gr/m}^3$  suv bug'i mavjud ekan.

4. Ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi va dastlabki davlatlarning yuzaga kelishi bilan ajdodlar ruhiga topinish, dehqonchilik va chorvachilikka xos ibodatlar muhim ahamiyat kasb eta boshladi, ruhlarning iyerarxiyasi paydo bo'ldi, alohida

tabaqa sifatida koxinlik ajralib chiqdi. Jamiyat sinfiy tabaqalashuvi shunda ham o'z aksini topdiki, din oliy va quyi xudolarga (politeizm: “poli”- ko'p, “tesos”- xudo) bo'lindi, keyinchalik bu jarayonlar yakkaxudolikni (monoteizm: “mono”- bir, “tesos”- xudo) keltirib chiqardi.

Miloddan avvalgi II ming yillikda hozirgacha saqlanib qolgan dinlar tashkil topdi. Eng qadimiy shunday dinlardan biri Old Osiyoda yuzaga kelgan iudaizm (yahudiylik) bo'lib, u dastlab, politezmga asoslangan, keyinchalik monoteizmga o'tgan. Miloddan avvalgi I ming yillik boshlarida Markaziy Osiyoda boshqa din – zardushtiylik (uning asosida dualizm – yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash haqidagi tasavvur yotadi)



rivojlana boshladi, milodning XI asrida uning tarmoqlaridan biri – yazidizm paydo bo'ldi. Osiyoning boshqa hududlarida politeistik dinlar shakllandi.

Yer yuzi bo'ylab juda katta hududlarda tarqalgan ayrim dinlar jahon dinlari nomini olgan (bular xristian, islom, budaviylik va h.z.).

Milodiy I ming yillik boshlarida Old Osiyo, xususan, Falastinda Iso payg'ambarga ilohiy vahiy kelishi natijasida monoteistik din – nasroniy(xristian)lik yuzaga keldi. Dastlab, Iso payg'ambar boshqa payg'ambarlar qatori insonlarni budlarga sig'inishdan qaytarib, Xudoning birligiga da'vat etgan. Din insonni ezgulik va yaxshilikka chorlagan. Iso payg'ambar vafotidan so'ng esa sun'iy o'zgarishlar yuzaga keldi va Iso ham iloh darajasiga ko'tarib qo'yildi. 1054-yilda u ikki: pravoslav va katolik yo'nalishlariga ajraldi. XVI asrda katolik dinidagi islohotlar natijasida undan (Rim papasi hokimiyatini inkor qiluvchi va ilk nasroniylikka qaytishni yoqlovchi) protestantizm ajralib chiqdi. Protestantizm bir qancha mustaqil oqimlar (eng yiriklari: anglikanlar, lyuteranlik, kalvinizm, reformatlar va h.z.) ko'rinishida shakllandi va, o'z navbatida, ular ham mayda

bo'lakchalarga bo'linib ketdi. Xristianlik tarkibida yuqorida qayd etilgan uchta (pravoslav, katolik va protestant) asosiy tarmoqdan tashqari, yana ikkita nisbatan kam tarqalgan, V asrda shakllanib, diniy marosimlari pravoslavlarga yaqin bo'lgan monofisit va nestorian yo'nalishlari mavjud.

Nasroniylar, ya'ni xristian dini vakillarining umumiy soni dunyo bo'yicha – taxminan 2 173 180 000 kishidan ortiq bo'lib, shundan katoliklar – 700 mln., protestantlar – 400 mln. va pravoslavlar – 100 mln. kishi atrofida. Katoliklarning asosiy qismi Amerikada (ular umumiy sonining yarmidan ko'prog'i) to'plangan; Yevropada taxminan 200 mln. kishi, Osiyo va Afrikada – 100 mln. kishidan. Protestantlarning 40 foizi Amerikada, 1/3 qismi Yevropada (asosan, qit'aning shimoliy qismida), Afrika va Osiyoda mos ravishda 40 va 70 mln., Avstraliya va Okeaniyada, taxminan, 20 mln. kishi. Pravoslavlar va boshqa sharqiy cherkovlar izdoshlari Janubi- sharqiy Yevropa, Rossiya va Shimoli- sharqiy Afrika (Efiopiya) aholisi orasida keng tarqalgan.

Protestantlarning eng yirik guruhlaridan baptistlar – 75 mln., lyuteranlar – 70 mln., anglikanlar – 67 mln., reformatlar va presviterianlar – 52 mln., metodistlar – 43 mln., pyatidesyatniklar – 8 mln., Iegova guvohlari – 5 mln., “qutqarish armiyasi” izdoshlari – 5 mln., mormonlar – 4 mln., kongregasionalistlar – 3 mln., yettinchi kun adventistlari – 3 mln. kishini tashkil etadi. Sharqiy cherkovlar vakillari orasida, taxminan, 20 mln. monofisitlar va 100 ming kishi nestorianlardan iborat.

Quyida xristian dinining yirik guruhlariga asosiy aholisi e'tiqod qiladigan davlatlardan na'munalar keltirilgan:

| <i>Nº</i> | <i>katolik</i> | <i>protestant</i> | <i>lyuteran</i> | <i>kalvinist</i> | <i>monofizit</i> | <i>pravoslav</i> |
|-----------|----------------|-------------------|-----------------|------------------|------------------|------------------|
| 1         | Ispaniya       | AQSh              | Norvegiya       | Shotlandiya      | Efiopiya         | Rossiya          |
| 2         | Argentina      | Kanada            | Shvetsiya       | JAR              | Bosniya va       | Ukraina          |
| 3         | Polsha         | Zambiya           | Finlandiya      | Shveysariya      | Gersogovina      | Belarus          |

Xristian dini ham islom dini kabi yakkaxudolikka asoslangan bo'lib, yaratuvchi Alloh sifatida qaraladi. Muqaddas kitobi Injil Iso payg'ambar vafotidan 33 yildan so'ng ruhoniylar tomonidan o'zgartirilgandan bo'lib, buning natijasida uning asl mohiyati, mazmuni, talqini va ko'rsatmalari o'zgardi. Shunday bo'lsa-da, u ham islom, umuman, boshqa dinlar kabi insonlarni ezgulikka chorlaydi.

5. Din- (arabcha “ishonish”) insonlarni Oliy yaratuvchi yoki boshqa narsalarga e'tiqod qilishi bo'lib, ruh va qalb uyg'unligida amalga oshadi. Quyida eng yosh va mukammal islom dini hamda boshqa dinlar keltirilgan:

Eng yosh monoteistik (yunoncha “mono”- bir, “tesos”- Xudo) din – islom (arabcha “itoat etish”) bo'lib, u VII asrda arablarning Quraysh qabilasidan chiqqan payg'ambar Muhammad(s.a.v)ga ilohiy vahiy kelishidan so'ng vujudga keldi. Muqaddas kitobi- Qur'oni Karim. Bu din eng so'nggi davrda shakllangani bois, o'zidan oldingi dinlarning ezgu va pok amallarining ko'rinishlari uchraydi. Unda odam o'ldirish qoralanadi (“Nohaq bir kishining qonini to'kmoq butun insoniyatni o'ldirmoq bilan barobardir”), insonlarni ezgulikka va Xudoning birligiga ishonishni chorlab, bu dunyoda qilgan ishlari narigi dunyoda Maxshar maydoni va Chinvod ko'prigidagi jannat va do'zaxga kirishda inobatga olinishi uqtiriladi va insonlarni yaxshi ishlar qilishga boshlaydi.

Yangi din oradan ko'p o'tmay uchta: sunniy, shia va xorijiy yo'nalishlariga ajralib ketdi. Sunniylik va shialik o'rtasida siyosiy masalalarda, ayrim diniy marosimlar va an'analar bo'yicha tafovutlar mavjud. Siyosiy tafovut shundaki, agar sunniylar xalifalik hokimiyatini yoqlasalar, shialar esa imomat tarafdoridirlar. Diniy marosimlar va an'analardagi farqlar ham anchagina. Sunniylikda shialikda mavjud bo'lgan “Muta”, “Shaxsey- Vaxsey” va boshqa marosimlar yo'q. Sunniylar Makka va Madina shaharlarini muqaddas hisoblasalar, shialar Iroqdagi Karbalo va Najaf shaharlarini muqaddas deb biladilar. Sunniylar Sunnani butunligicha e'tirof etadilar, shialar esa uning ba'zi qismlarinigina tan olishadi. Bu oqimlar orasida bunday tafovutlar juda ko'p, shu bilan birga, ma'lum o'xshashliklar ham bor.

Masalan, mahdiylik – oxir zamon bo'lishi va Mahdiy (arabcha, Olloh tomonidan to'g'ri yo'lga yetaklovchi) kelishi haqidagi diniy ta'limot ikkala oqimda ham mavjud. Islom dini, ayniqsa, ilk xalifaliklar davri(VII- VIII asrlar)da keng yoyilgan bo'lib, hozirda Janubi- g'arbiy Osiyo, Markaziy va Old Osiyo, Shimoliy Afrika, Janubi- sharqiy Osiyo, ayrim MDH davlatlari hamda boshqa hududlarda tarqalgan. E'tiqod qiluvchilarning umumiy soni (2010- yil bo'yicha) 1 598 510 000 kishini tashkil etadi. Ularning taxminan, 90 foizi sunniylar, 9,5 foiziga yaqini shialar va 0,5 foizi xoriijylardan iborat. Hududlar bo'yicha Osiyo aholisining 26, Afrikaning 40,8, Amerikaning 1,9, Yevropaning 5,5, Avstraliya va Okeaniya aholisining 1,5 %i musulmonlar, ya'ni islom diniga e'tiqod qiluvchilardan iboratdir.

| <i>№</i> | <i>sunniy</i> | <i>shia</i> | <i>lamaizm</i> | <i>txeravadin</i> | <i>konfutsiylik</i> | <i>sintoizm</i> |
|----------|---------------|-------------|----------------|-------------------|---------------------|-----------------|
| 1        | O'zbekiston   | Eron        | Mongoliya      | Myanma            | Xitoy               | Yaponiya        |
| 2        | Turkiya       | Ozqarbayjon | Nepal          | Tailand           | Malayziya           |                 |
| 3        | Marokash      | Iroq        | Xitoy          | Kampodja          | Tailand             |                 |

Buddaviylik eng qadimiy dunyo dini hisoblanib, miloddan avvalgi VI asrda Hindistonda yuzaga kelgan, asoschisi- Siddhartha Gautama (Budda). Unda 2 ta asosiy yo'nalish mavjud: xiniyana va maxayana. Keyin yana juda ko'p sekta va mazhablarga bo'linib ketadi. Janubiy Osiyoda hukmron bo'lgan kasta tuzumi orqali shuhrat qozongan braxmanizm va kasta tuzumini inkor qiluvchi jayнизм (miloddan avvalgi VI- V asrlar) shakllandi. Miloddan avvalgi VI- V asrlarda Xitoyda ham deyarli bir vaqtda ikki falsafiy- axloqiy ta'limot: daotsizm va konfutsiylik yuzaga keldi. Keyinchalik, ular alohida dinlarga aylandi. Yaponiyada ibtidoiy jamoa tuzumi davridan buyon mamlakatda hukmron bo'lgan ajdodlarni hurmatlash va tabiatga topinish asosida sintoizm vujudga keldi.

Hindiston va Nepal induizm tarqalgan asosiy hududlardir. Induistlar Shri-Lanka, Bangladesh hamda Indoneziyaning Bali oroli aholisi orasida ham uchraydi.



Hindixitoy mamlakatlari va Shri- Lankada aholining ko'pchiligi buddistlardan iborat (Vyetnamda – maxayana mazhabi, boshqalarda – txeravadin). Shu bilan birga, ayrim Sharqiy Osiyo mamlakatlari aholisi maxayana buddizmidan tashqari, bir vaqtning o'zida boshqa dinlarga e'tiqod qiladilar. Mug'ulistonning xudojo'y aholisi – lamaist buddistlardir. Induizmga e'tiqod qiluvchilarning soni 1 033 080 000 dan ortiq kishini tashkil etgani holda, bu ko'rsatkich buddizmda 487 540 000 kishiga teng (ular orasida maxayanistlar – 60% atrofida). Shu jumladan, konfusiylar – 200 mln., sintoistlar – 100 mln., daosistlar – 30 mln., sikxlar – 15 mln., jaynlar – 4 mln., zoroastrizm tarafdorlari – 300 ming, yazidlar – 100 ming kishiga teng. Iudaistlar 15 mln. kishi atrofida bo'lib, ularning yarmidan ko'prog'i Amerika tub joy xalqlari hissasiga to'g'ri keladi.

### Nazorat savollari:

1. Masshtab deb nimaga aytiladi?
2. Havo namligi nima va uni qanday aniqlash mumkin?
3.  $1\text{ m}^3$  havoning o'zida qancha suv bug'ini sig'dira olishi nimaga bog'liq?
4. Xristian dini qachon vujudga kelgan?
5. Dinlarning qanday umumiy xususiyatlari mavjud?

### Test savollari:

1. Masshtab qaysi tildan tarjima qilinganda “uzunlik o'lchov tayog'i” degan ma'noni bildiradi?  
A) yunon  
B) nemis  
C) ingliz  
D) fransuz
2. Havodagi suv bug'ining to'yinish holatiga yetishishi uchun zarur bo'lgan harorat nima deyiladi?  
A) namlik indikatori  
B) koeffitsiyent termodinamikasi  
C) gigroprotsess  
D) shudring nuqtasi



3.  $1 \text{ m}^3$  havoda mavjud bo'lgan va gramm hisobida o'lchanadigan suv bug'lari miqdori nima deb yuritiladi?

- A) *mutloq namlik*                      B) *nisbiy namlik*  
C) *namlik koeffitsiyenti*              D) *namlik balansi*

4. Jahon bo'yicha necha kishi xristian diniga e'tiqod qiladi?

- A) 4 512 900 750 kishi              B) 2 173 180 000 kishi  
C) 1 598 510 000 kishi              D) 1 033 080 000 kishi

5. Myanma, Tailand va Kampodja davlatlari asosiy aholisi buddaviylik dinining qaysi yo'nalishiga e'tiqod qiladi?

- A) *maxanayist*                      B) *lamaist*  
C) *daotsizm*                      D) *txeravadin*

Mustaqil ta'lim

• O'zbekiston aholisi va diniy tarkibini o'rganish

**Bilasizmi???**

- Yevropaliklardan, dastlab, Hindistonga Afanasiy Nikitin borgan;
- Turkmanistonda yonib turuvchi gaz koni bo'lib, mahalliy aholi uni “do'zax darvozasi” deb ataydi;
- Kanada gerbida “dengizdan dengizgacha” deb yozib qo'yilgan.

## Amaliy mashg'ulot № 6

### • Jahon urbanizatsiyasi va uning mintaqaviy xususiyatlari

#### Topshiriqlar:

1. Shaharlar haqida tushuncha.
2. Global shaharlar, yirik aglomeratsiya va megalopolislar.
3. Urbanizatsiyaning tadrijiy o'zgarishlari.
4. Shaharlarning funksiyalari va klassifikatsiyasi.
5. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari.
6. O'zbekistonda urbanizatsiyani geografik o'rganish.

#### Qo'shimcha topshiriqlar:

1. Quyidagi dengizlarni qaysi okean havzasiga tegishli ekanligini aniqlang?

Qora, O'rta yer, Boltiq, Shimoliy, Kara, Qizil, Arabiston, Karib, Yapon, Sharqiy Xitoy, Janubiy Xitoy, Oxota, Norvegiya, Koro, Fidji, Sargasso, Grenlandiya, Bering, Barens, Laptevlar, Timor, Chukotka, Andaman, Tasman, Ueddell, Belinsgauzen, Oq, Qizil, Deyvis, Bofort, Balear, Kosmonavtlar, Dyurvill, Arafur, Mindanao, Banda, Alboran, Ioniya

2. Quyidagi qo'ltiqlarni qaysi okean havzasiga tegishli ekanligini aniqlang.

Gudzon, Meksika, Kaliforniya, Gvineya, Bengaliya, Alyaska, Fin, Botnik, Biskay, Adan, Kambey, Karpentariya, Shelixov, Siam, Katta Avstraliya, Mezen, Amundsen, Fors, Penjin

3. Quyidagi bo'g'ozlarni qaysi okean havzasiga tegishli ekanligini toping.

Mozambik, Dreyk, Bass, Malakka, Gudzon, Tatar, Florida, Bering, Gibraltar, La- Mansh, Makasar, Magellan, Bosfor, Kerch, Bob al- Mandeb, Torres, Karimata, Zond, Polk, Messina

#### *4. Quyidagi cho'llar qaysi materikda joylashgan?*

Kalaxari, Liviya, Taklamakan, Katta Qumli cho'li, Sahroi Kabir, Atakama, Nubiya, Qizilqum, Namib, Qarnob, Somali, Qoraqum, Gobi, Tar, Katta Viktoriya

#### *5. Quyidagi shaharlar qaysi davlatlar hududida joylashgan?*

Akkra, Ulan- Bator, Lxasa, Zagreb, Ryusselxaym, Genuya, Naxichevan, Birmingem, Surabaya, Oksford, Nokia, Shtutgart, Saragosa, Jaypur, Tegu, Shanxay, Bangkok, Sapporo, Beng'azi, San- Diyego, Detroyt, Monreal, Rio-de- Janeyro, Adelaida, Sochi, Gvadalaxara, Kalgari, Resifi, Ist- London, Port- Elizabet

### *Javoblar:*

1. Dengiz- okeanlarning kichik qismlari bo'lib, ochiq okeandan yariorollar, orollar va suvosti qirlari bilan ajralib turadi. Shunga bog'liq holda gidrologik, meteorologik, biologik va boshqa xususiyatlariga ko'r ochiq okeandan farq qiladi. Dengizlar yuqoridagi xususiyatlaridan tashqari yana geografik o'rniga ko'ra ham klassifikatsiya qilinadi:

- ✚ materiklar orasida joylashgan (masalan, O'rta yer dengizi va h.z.);
- ✚ materiklar ichkarisida joylashgan (masalan, Qora dengiz va h.z.);
- ✚ chekka dengizlar (masalan, Mouson va h.z.).

Dunyo okeanida 67 ta, quruqlikda shartli ravishda 2 ta (Kaspiy, Orol) dengiz ajratilgan. Xususan, quyida ayrim dengizlar (Qora, O'rta yer, Boltiq, Shimoliy, Kara, Qizil, Arabiston, Karib, Yapon, Sharqiy Xitoy, Janubiy Xitoy, Oxota, Norvegiya, Koro, Fidji, Sargasso, Grenlandiya, Bering, Barens, Laptevlar, Timor, Chukotka, Andaman, Tasman, Ueddell, Belinsgauzen, Oq, Qizil, Deyvis, Bofort,

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

Balear, Kosmonavtlar, Dyurvill, Arafur, Mindanao, Banda, Alboran, Ioniya)ning qaysi okeanda joylashganligi keltirilgan:

| <i>Tinch okean</i> | <i>Atlantika okeani</i> | <i>Hind okeani</i> | <i>Shimoliy Muz okeani</i> |
|--------------------|-------------------------|--------------------|----------------------------|
| Banda              | Alboran                 | Andaman            | Barens                     |
| Bellinsgauzen      | Balear                  | Arabiston          | Bofort                     |
| Bering             | Bolitiq                 | Arafur             | Chukotka                   |
| Fidji              | Ioniya                  | Deyvis             | Grenlandiya                |
| Janubiy Xitoy      | Karib                   | Kosmonavtlar       | Kara                       |
| Koro               | O'rta yer               | Dyurvill           | Laptevlar                  |
| Mindanao           | Qora                    | Qizil              | Norvegiya                  |
| Oxota              | Sargasso                | Qizil              | Oq                         |
| Sharqiy Xitoy      | Shimoliy                | Timor              |                            |
| Tasman             | Ueddell                 |                    |                            |
| Yapon              |                         |                    |                            |

Dengizlarning qo'ltiqlardan farqi uning ochiq okeandan ma'lum bir obyektlar (yarimorol, orol, hech bo'lmasa, suvosti qirlari) orqali ajralib turishida, chuqurligi hamda genetik va biologik xilma- xillikka ega ekanligidadir.

2. Qo'ltiq- okean, dengiz yoki ko'llarning quruqlik ichkarisiga kirib borgan sayoz kichik qismlari. Qo'ltiqlar ko'pincha sayoz va suvosti relyefi tekis bo'ladi. Qo'ltiqlar ham geografik o'rniga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- ✚ ochiq okean qo'ltiqlari (masalan, Hind okeanidagi- Bengaliya va h.z.);
- ✚ dengiz qo'ltiqlari (masalan, Oxota dengizidagi Shelexov va h.z.);
- ✚ materik ichkarisidagi ko'l qo'ltiqlari (masalan, Kaspiy ko'lidagi Qorabo'g'ozgo'l qo'ltig'i va h.z.).

Bunday gidrohavzalarning maydoni ham katta- kichik bo'ladi. Masalan, quyida har bir okeandagi eng yirik qo'ltiqlarning maydoni keltirilgan:

- Tinch okean: Alyaska qo'ltig'i, maydoni 384 000 km kv;
- Atlantika okeani: Meksika, maydoni 1 555 000 km kv;
- Hind okeani: Bengaliya, maydoni 2 191 000 km kv;
- Shimoliy Muz okeani: Gudzon, maydoni 1 230 000 km kv.

Quyidagi jadvalda esa ayrim qo'ltiqlar (Gudzon, Meksika, Kaliforniya, Gvineya, Bengaliya, Alyaska, Fin, Botnik, Biskay, Adan, Kambey, Karpentariya, Shelixov, Siam, Katta Avstraliya, Mezen, Amundsen, Fors, Penjin)ning qaysi okean havzasiga kirishi keltirib o'tilgan:

| Tinch okean | Atlantika okeani | Hind okeani      | Shimoliy Muz okeani |
|-------------|------------------|------------------|---------------------|
| Alyaska     | Biskay           | Adan             | Amundsen            |
| Kaliforniya | Botnik           | Bengaliya        | Gudzon              |
| Penjin      | Fin              | Fors             | Mezen               |
| Shelixov    | Gvineya          | Kambey           |                     |
| Siam        | Meksika          | Karpentariya     |                     |
|             |                  | Katta Avstraliya |                     |

Qo'ltiqlar quruqlikka ancha kirib borgan bo's, ta'siri ham kuchliroq bo'ladi. Ayniqsa, daryolar kelib quyiladigan qo'ltiqlarda tirregen jinslar ko'p bo'ladi. Masalan, Bengaliya qo'ltig'iga Gang daryosi yiliga millionlab tonna loyqa olib kelib yotqizaverganidan, suvosti cho'kindi jinslarining qalinligi 5,5 km. gacha yetgan. Meksika qo'ltig'ida ham shunday holat mavjud bo'lib, tirregen jinslar akumulatsiyasini Missisipi bajaradi, shu bilan birgalikda, Meksika qo'ltig'i neft va gazga eng boy hududlardan hisoblanadi.

3. Bo'g'iz- ikki quruqlikni bir- biridan ajratib turuvchi, shu bilan birgalikda, ikki suv havzasini bir- biridan ajratib turuvchi tor (ba'zan keng bo'lishi ham mumkin) suv yo'li. Bunda bo'g'iz quyidagi kombinatsiyalarda hosil bo'ladi: orol + orol (masalan, Sumatra va Yava orasida- Zond bo'g'izi), orol + yarimorol (masalan, Kuba va Yukattan orasida- Yukattan bo'g'izi), materik + materik (Shimoliy Amerika va Yevrosiyo orasida- Bering bo'g'izi), materik + orol (Afrika va Madagaskar orasida Mozambik bo'g'izi), yarimorol + yarimorol (Yutlandiya va Skandinaviya orasida- Skagerrak bo'g'izi) kabi.

Quyida ayrim bo'g'izlarning qaysi obyektlarni ajratib turishi keltirilgan:

- *Mozambik*- Hind okeanida, Afrika materigi va Madagaskar oroli orasida joylashgan. Dunyodagi eng uzun bo'g'iz bo'lib, uzunligi 1 760 km.
- *Dreyk*- Atlantika va Tinch okeanlari chegarasida, Antarktida va Janubiy Amerika materiklarini ajratib turadi. U dunyodagi eng keng bo'g'iz bo'lib, kengligi 820 km ni tashkil etadi.
- *Bass*- Hind va Tinch okeanlari chegarasida, Avstraliya materigi va Tasmaniya orolining orasida joylashgan.
- *Malakka*- Tinch okeanida, Malakka yarimoroli va Sumatra orolining orasida.
- *Gudzon*- Shimoliy Muz okeanida, Labrador yarimoroliga tegishli Ungava yarimoroli va Baffin Yeri oroli orasida joylashgan.
- *Tatar*- Tinch okeanida, Yevrosiyo (Rossiyaning Xabarovsk oblasti) va Saxalin oroli orasida joylashgan.
- *Florida*- Atlantika okeanida, Florida yarimoroli va Kuba oroli orasida.
- *Bering*- Shimoliy Muz va Tinch okeanlari chegarasida, Shimoliy Amerika va Yevrosiyo materiklari orasida joylashgan.
- *Gibraltar*- Atlantika okeanida, Yevropa (Pireniy yarimoroli) va Afrika qit'alari orasida joylashgan.
- *La- Mansh*- Atlantika okeanida, Britaniya oroli va Yevropa qit'asi orasida joylashgan. U dunyodagi eng serqatnov bo'g'iz bo'lib, bir kecha- kunduzda 500 tagacha kema o'tadi.

- *Makasar*- Tinch okeanida, Sulavesi va Kalimantan orollari orasida.
- *Magellan*- Atlantika va Tinch okeanlari chegarasida, Janubiy Amerika materigi va Olovli yer oroli orasida joylashgan.
- *Bosfor*- Atlantika okeanida, Marmar va Qora dengizlar chegarasida, Kichik Osiyo yarimoroli va Yevropa qit'asi orasida joylashgan.
- *Kerch*- Atlantika okeanida, Qora va Azov dengizi chegarasida, Qrim yarimoroli va Krasnodar o'lkasi orasida joylashgan.
- *Bob al- Mandeb*- Hind okeanida, Afrika materigi va Arabiston yarimoroli orasida joylashgan.
- *Torres*- Hind va Tinch okeanlari chegarasida, Avstraliya materigining shimoliy qismi, ya'ni Keyp- York yarimoroli bilan Yangi Gvineya orolining orasida joylashgan.
- *Karimata*- Tinch okeanida, Kalimantan va Sumatra, Banka, Belitung orollari orasida joylashgan.
- *Zond*- Hind va Tinch okeanlari chegarasida, Sumatra va Yava orollari orasida joylashgan.
- *Polk*- Hind okeanida, Hindiston yarimoroli va Shri- Lanka oroli orasida.
- *Messina*- Atlantika okeanida, Appenin yarimroli va Sitsiliya oroli orasida.

Yuqorida keltirilgan- geografik o'rniga ko'ra klassifikatsiyadan tashqari, bo'g'izlardan kemalar o'tish soniga qarab ham guruhlashtiriladi:

- ✚ Strategik ahamiyatga ega- bir kecha- kunduzda 100 tadan ko'p kema o'tadigan bo'g'izlar (masalan, La- Mansh).
- ✚ Aktiv- bir kecha- kunduzda 10 tadan 100 tagacha kema o'tadigan bo'g'izlar (masalan, Bosfor).
- ✚ Passiv- bir kecha- kunduzda 10 tadan kam kema o'tadigan bo'g'izlar (masalan, Daniya).

Ko'pchilik olimlarning taxminlariga ko'ra, qadimda, xususan, muzlik davrida okean suvlari muzlagan va suv sathi pasayib, bo'g'izlar yo'qolib, "kontinental ko'priklar" hosil bo'lgan va quruqliklar tutashib qolgan. Natijada

organizmlar migratsiyasi kengayib, tarqalish imkoniyati ortgan. Boshqa quruqliklar bilan tutashish imkoni bo'lmagan hududlardagi organizmlar esa tarqala olmagan, shu sababli endemikligicha qolgan.

4. Yer sharsimon bo'lganligi sababli kengliklar bo'yicha Quyosh nuri notekis taqsimlangan, turlicha bosimli mintaqalar shakllangan. Bundan tashqari okeanlardan uzoqlashgan sari namlik miqdori ham o'zgarib boradi. Ayrim hududlar iqlimi issiq, yuqori bosimli, qolaversa, materik ichkarisida ham joylashgan. Natijada namlik va yog'in kam, bug'lanish esa yuqori sharoitda quruq landshaft- cho'llar vujudga keladi. Dunyodagi asosiy cho'llar tropik iqlimli mintaqalarda bo'lib, bu joylarda bosim va harorat yuqori, lekin yog'in miqdori bug'lanishga nisbatan ancha kam. Shu bois quruqlik kasb etgan sharoit vujudga keladi. Ammo bu degani cho'llar faqat tropiklarda bo'ladi degani emas. Quyida cho'llarning regional tarqalish xususiyatlari berilgan:

- ❖ *tropik cho'llar*- yuqorida ta'kidlanganidek, yuqori bosim va harorat, kam yog'in ta'sirida shakllangan quruq landshaftli hududlar (M: Sahroi Kabir);
- ❖ *boshqa iqlim mintaqalaridagi cho'llar*- sektorlik (okean bo'ylaridan quruqlik ichkarisiga borgan sari iqlimning o'zgarib borishiga bog'liq holda tabiat komponentlarining o'zgarishi) bilan bog'liq bo'lib, nam havo massalaridagi namlikning quruqlik ichkarisiga yetib borguncha kamayib, yog'in kam keltirishidan hosil bo'ladigan mo'tadil va subtropik iqlim mintaqalaridagi quruq landshaftli hududlar (M: Qizilqum);
- ❖ *sovuq oqim o'tgan dengizbo'yi cho'llari*- qirg'oq yaqinidan sovuq oqim o'tishi ta'sirida shakllangan quruq landshaftli hududlar. Bunda mutloq namlik inobatga olinadi, ya'ni yog'inning taqsimlanishi quruqlik va sovuq suvli hududdagi harorat tafovutiga bog'liq bo'ladi. Harorat qancha yuqori bo'lsa, 1 m<sup>3</sup> havo o'ziga shuncha ko'p suv bug'ini sig'dira oladi, sovuq haroratda esa aksincha. Aytaylik, quruqlikda harorat +30° C, sovuq oqim o'tgan qirg'oqbo'yi suvlarida + 20° C. Ma'lumki, harorati + 30° C ga teng



bo'lgan  $1 \text{ m}^3$  havo o'ziga 30 gr suv bug'ini sig'dira oladi, ya'ni yog'in hosil bo'lishi uchun namlik 30 gr.dan ko'p bo'lishi kerak. Bu ko'rsatkich  $+ 20^\circ \text{C}$  li  $1 \text{ m}^3$  havoda 17 gr.ga teng. Endi okeandan havo massalari quruqlikka harakatlenganda, u quruqlik ustidagi havoni namlik bilan to'yintira olmaydi. Natijada namlik yetarli bo'lmagandan so'ng yog'in yog'maydi, bug'lanish yog'indan ortib ketadi va hudud quruqlashib, cho'l zonasi vujudga keladi (M: Namib, Atakama, Somali, G'arbiy Sahroi Kabir, Katta Qumli cho'li).

Quyidagi jadvalda ayrim cho'llar (Kalaxari, Liviya, Taklamakan, Katta Qumli cho'li, Sahroi Kabir, Atakama, Nubiya, Qizilqum, Namib, Qarnob, Somali, Qoraqum, Gobi, Tar, Viktoriya Katta cho'li) ning qaysi materikda joylashganligi keltirilgan:

| <i>Yevrosiyo</i>                                                | <i>Afrika</i>                                                       | <i>Avstraliya</i>                          | <i>Janubiy Amerika</i> |
|-----------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------|------------------------|
| Gobi,<br>Qizilqum,<br>Qarnob,<br>Qoraqum,<br>Taklamakan,<br>Tar | Kalaxari,<br>Liviya<br>Namib,<br>Nubiya,<br>Sahroi Kabir,<br>Somali | Katta Qumli,<br>Viktoriya<br>katta cho'li, | Atakama                |

Cho'llarning ham tabiatda ahamiyati katta. Tabiat bir butunlik qonuniyatiga ega. Hamma narsaning o'z funksiyasi bor. Xususan, cho'llarning ham. U shunday sharoitlga moslashgan organizmlarning makoni bo'lishi bilan birga, moddalar migratsiyasini amalga oshirishda ham katta ahamiyatga ega. Masalan, cho'l zonasi tuproqlarida fosfor ko'p bo'ladi. Namlik ko'p o'rmonlarda esa aksincha. Xususan, yiliga millionlab tonna fosfor Sahroi Kabirdan Amazoniyaga shamollar ta'sirida changlar bilan birgalik olib borib yotqiziladi. Bunda tabiatning o'zini o'zi ta'minlash qobiliyatini ham ko'rish mumkin. Chunki hech nima bekordan yaratilmagan, tabiatdagi barcha komponent va geotizimlarning o'z ahamiyati bor.

5. Shahar- aholisi ko'p, asosan, sanoat, savdo, shuningdek, xizmat ko'rsatish, boshqaruv, fan va madaniyat sohalarida band bo'lgan yirik aholi manzilgohi, ya'ni u bevosita qishloq xo'jaligi bilan band bo'lmagan aholi to'plangan, rivojlanishi yuqori va barcha infrastrukturallarga ega markaz.

Aholi punktlariga shahar maqomi berilishi uchun aholi soni, bajaradigan funksiyasi: sanoat ishlab chiqarish, madaniy- ma'rifiy, siyosiy, ma'muriy va tashkiliy- xo'jalik tizimi asosiy o'rin tutadi. Turli mamlakatlarda shahar maqomini olish mezoni turlicha. Masalan, Gruziya va Turkmanistonda 5 000 kishi, Rossiyada 5- 12 000 kishi, O'zbekistonda esa 7 000 kishi, Tojikiston va Qirg'izistonda 10 000 kishi, Yaponiyada 25 000 kishi, Daniya va Ispaniyada aholi soni 250 000 kishidan oshgan aholi punktlari funksiyalari ahamiyatli bo'lsa, shahar maqomini oladi. Quyida ayrim yirik shaharlar(Akkra, Ulan- Bator, Lxasa, Zagreb, Ryusselxaym, Genuya, Naxichevan, Birmingem, Surabaya, Oksford, Nokia, Shtutgart, Saragosa, Jaypur, Tegu, Shanxay, Bangkok, Sapporo, Beng'azi, San-Diyego, Detroyt, Monreal, Rio-de-Janeyro, Adelaida, Sochi, Gvadalaxara, Kalgari, Resifi, Ist- London, Port- Elizabet)ni qaysi mamlakatda joylashgani keltirilgan:

- AQSh: San- Diyego, Detroyt
- Armaniston: Naxichevan
- Avstraliya: Adelaida
- Braziliya: Rio-de Janeyro, Resifi
- Buyuk Britaniya: Birmingem, Oksford
- Finlyandiya: Nokia
- Gana: Akkra
- Germaniya: Ryusselxaym, Shtutgard
- Hindiston: Jaypur
- Indoneziya: Surabaya
- Ispaniya: Saragosa
- Italiya: Genuya
- JAR: Ist- London, Port-Elizabet

- Kanada: Monreal, Kalgari
- Koreya Respublikasi: Tegu
- Liviya: Beng'azi
- Meksika: Gvadalaxara
- Mongoliya: Ulan- Bator
- Rossiya: Sochi
- Tailand: Bankok
- Xitoy: Lxasa, Shanxay
- Xorvatiya: Zagreb
- Yaponiya: Sopporo

Aholi va ishlab chiqarish ham shaharlarda to'plana boradi. Natijada tez kattalashib ketadi. Endi shahar ta'siri ortib, atrofiga boshqa shahar va qishloqlarni to'play boshlaydi va aglomeratsiya jarayoni vujudga keladi. Bora- bora aglomeratsiyalar ham shunday kattalashib ketadiki, qo'shni aglomeratsiya bilan qo'shib, megalopolisni hosil qiladi. Megalopolislar ham tutashib ketishishdan esa oykumenapolislar shakllanadi.

Shahar aholisining ko'payishi va shaharda xo'jalik mahsulotlari, xizmat ko'rsatish sohalarining to'planishi hisobiga mamlakat miqyosida shahar roli va ahamiyatining oshishi, shahar turmush- tarzining keng yoyilish jarayoni urbanizatsiya (lotincha "urbus"- shahar) deyiladi. Hozir jahonning rivojlangan ko'plab mamlakatlarida urbanizatsiya jarayoni keng yoyilgan bo'lib, qishloqlar ham shahar ko'rinishini eslatadi, hatto, ayrim rivojlangan davlatlarda qishloqlar deyarli yo'q. O'zbekiston aholisining umumiy salmog'ida shaharliklarning hissasi 51 % dan yuqori bo'lib, shaharlashish jarayoni rivojlanib bormoqda.

### Nazorat savollari:

1. Qo'ltiq, dengiz va bo'g'iz deb nimaga aytiladi?
2. Tinch okeanidagi eng katta qo'ltiq qaysi?
3. Messina bo'g'izi qayerda joylashgan?

4. Nima uchun sovuq oqim o'tgan hudud yaqinida cho'l vujudga keladi?
5. Shahar bilan qishloq aholi punktlarining qanday farqlari bor?

### Test savollari:

1. Qo'ltiqlarni geografik o'rniga ko'ra necha guruhga bo'lish mumkin?

- |         |         |
|---------|---------|
| A) 2 ta | B) 3 ta |
| C) 4 ta | D) 5 ta |

2. Qaysi javobda Alyaska qo'ltig'ining maydoni to'g'ri keltirilgan?

- |                    |                    |
|--------------------|--------------------|
| A) 1 230 000 km kv | B) 587 300 km kv   |
| C) 384 000 km kv   | D) 2 191 000 km kv |

3. Polk bo'g'izi qaysi obyektlar orasida joylashgan?

- A) Hindiston yarimoroli va Shri- Lanka oroli orasida
- B) Kalimantan va Sulavesi orollari orasida
- C) Korsika va Sardiniya orollari orasida
- D) Grenlandiya va Baffin Yeri orollari orasida

4. Quyidagilar orasidan Afrikada joylashmagan cho'lni toping.

- |           |                       |
|-----------|-----------------------|
| A) Nubiya | B) Liviya             |
| C) Somali | D) Katta Qumli cho'li |

5. Braziliyada joylashgan shaharlarni ajratib oling.

- |                 |                      |                    |
|-----------------|----------------------|--------------------|
| 1) Ryusselxaym; | 2) Rio- de- Janeyro; | 3) Monreal;        |
| 4) Resifi;      | 5) Gvadalaxara;      | 6) Port- Elizabet. |
- |         |         |
|---------|---------|
| A) 2, 5 | B) 2, 4 |
| C) 3, 6 | D) 1, 3 |

### Bilasizmi???

- Qish(ayniqsa, 3- yanvar)da Yer Quyoshdan yil davomidagi eng yaqin masofada bo'ladi. Yoz(ayniqsa, 5- iyul)da esa eng uzoqda bo'ladi;
- Jahon siyosiy xaritasida davlatlarni bir- biridan ajratishda oq va qoradan tashqari barcha ranglardan foydalaniladi;
- Bag'dod shahriga 762- yilda asos solingan bo'lib, "Allohning tuhfası" degan ma'noni bildiradi.

### Amaliy mashg'ulot № 7

#### • Jahon xo'jaligining rivojlanishi

#### Topshiriqlar:

1. Jahon bozorining shakllanishi.
2. Sanoat inqilobining mintaqalar iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.
3. Iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning rivojlanish sur'atlari. Iqtisodiyotning globallasuvi.
4. Xo'jalik tarmoqlari: sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari, fan va maorif, madaniyat va san'at, boshqaruv.

#### Qo'shimcha topshiriqlar:

1. Jahon xo'jaligining ko'rinishi bo'lmish xalqaro savdodagi tovar mahsulotlari tarikibining 1960- 2012- yillar bo'yicha o'zgarishini: a) xomashyo va yarimfabrikat mahsulotlari; b) oziq- ovqat va qishloq xo'jalik xomashyolari; c)

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

yoqilg'i mahsulotlari hamda d) iste'molga tayyor mahsulotlar misolida aks ettiring.

2. Berilgan ma'lumotlarga asosan shamol guli grafigini chizing.

|    |   |     |           |   |     |    |           |            |    |            |            |            |    |    |           |           |           |     |     |
|----|---|-----|-----------|---|-----|----|-----------|------------|----|------------|------------|------------|----|----|-----------|-----------|-----------|-----|-----|
| 1  | 2 | 3   | 4         | 5 | 6   | 7  | 8         | 9          | 10 | 11         | 12         | 13         | 14 | 15 | 16        | 17        | 18        | 19  | 20  |
| sh | j | shq | j-<br>shq | j | shq | g' | j-<br>shq | sh-<br>g'r | sh | sh-<br>g'r | sh-<br>shq | sh-<br>shq | sh | j  | j-<br>g'r | j-<br>g'r | j-<br>shq | shq | shq |

3. Agar tog' etagida barometr 740 mm simob ustunini, tog' tepasida esa 440 mm simob ustunini ko'rsatsa, tog'ning mutloq(a) va nisbiy balandligi(b) qanchaga teng bo'ladi?

4. Tug'ilishning eng past darajasi Toshkent shahrida- 14,4 ‰. O'lim darajasining eng yuqori ko'rsatkichi ham Toshkent shahrida- 8,1 ‰. Shunga asoslangan holda, aholining tabiiy harakatining koeffitsientini aniqlang.

5. 2016- yil ma'lumoti bo'yicha, O'zbekiston aholisi o'rtacha 32 000 000 kishi bo'lib, shundan 4,5 mln kishi oliy va o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan. Umumiy aholi soniga nisbatan u necha foizni tashkil etishini aniqlang.

### *Javoblar:*

1. Jahon xo'jaligi- bir- biri bilan umumjahon iqtisodiy munosabatlari orqali bog'langan dunyodagi barcha mamlakatlar milliy xo'jaliklarining majmui. Jahon xo'jaligi mintaqalar bo'yicha mahsulotlarning ishlab chiqarilib, dunyo bo'yicha tarqalishi va ayirboshlanishi, xo'jalik nuqtai nazaridan "umumiy uy"ni tashkil etish kabilarda namoyon bo'ladi.


Bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda, kecha yaratilgan mahsulot bugun talabga javob bermasligi mumkin. Shu boisdan u doim o'zgarish va

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

rivojlanishda bo'ladi. Quyida xalqaro savdodagi tovar mahsulotlarining tarkibining o'zgarishiga oid jadval berilgan:

| <i>Nº</i> | <i>Mahsulot turlari</i>                     | <i>1960-yil</i> | <i>2012-yil</i> |
|-----------|---------------------------------------------|-----------------|-----------------|
| 1         | Xomashyo va yarimfabrikat mahsulotlari      | 15              | 9               |
| 2         | Oziq-ovqat va qishloq xo'jalik xomashyolari | 10              | 11              |
| 3         | Yoqilg'i mahsulotlari                       | 30              | 19              |
| 4         | Iste'molga tayyor mahsulotlar               | 45              | 61              |

Intensiv xo'jalikdan foydalanib borgan sayin, iste'molga tayyor mahsulotlardan foydalanish kuchayga. Mamlakatlar ham xomashyoni eksport qiluvchi davlat bo'lib qolmay, endilikda xomashyodan tayyor mahsulot yaratib, samarali darajada xo'jalik yurituvchi, eksport- import aloqalarida yanada faolroq ishtirok etuvchi bo'lib bormoqda.



*Jahondagi asosiy xalqaro savdo yo'nalishlari*

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning tayanch yo'nalishlaridan biri- xalqaro savdodir. Qadimdan ijtimoiy hayotda muhim rol o'ynab kelayotgan xalqaro savdo FTI (fan- texnika inqilobi) davrida yuksalishning yuqori darajasiga olib chiqa oladigan darajadagi globallashayotgan bosqichga qadam qo'ydi. Zamon rivojlangani sayin kishilarning ong-u tafakkuri, ehtiyoj-u istaklari ortib, mahsulotlarga qo'yiladigan talablar juda oshmoqda. Shuningdek, xalqaro savdning muhim xususiyatlaridan biri- unda tovarlar tarkibi, salmog'i va yo'nalishlarining doimo o'zgarib borishidir. Jahon savdosi ham geografik xilma- xillikka ega. Bunda ikki yo'nalish aralib turadi. Jahon bozorida qatnashadigan mintaqalar, davlatlar, ya'ni G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika, ayrim Osiyo mamlakatlari xalqaro savdoga, asosan, yuqori texnologiya asosida ishlab chiqarilgan turli mahsulotlar va aholi iste'mol buyumlari yetkazib bersa; Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlari turli yoqilg'i, mineral resurslar, xilma- xil qishloq xo'jalik mahsulotlaridan iborat xomashyo mahsulotlarini chiqaradi. Natijada birida yo'q mahsulot ikkinchisidan eksport- import orqali olinib, jahon bo'yicha bog'lanib ketgan o'rgumchak to'ridek xo'jalik shakllanadi. Bu esa mahsulotlarning hududlar bo'yicha sifat tafovutlarini kamaytiradi, bora- bora jahon rivojlangan bozorga ega zamonaviy "uy"ga aylanadi.

2. Yer shari o'zgacha tuzilish, tabiat va xossalarga ega. Xususan, Yerdagi ko'p jarayonlarga uning shakli- sharsimonligi asosiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, sharsimon yuzaga kengliklar bo'yicha quyosh nuri noteks taqsimlanadi: Quyosh tushish burchaklari ekvatoridan qutblar tomon kamayib boradi→ natijada haroratda tafovutlar yuzaga keladi→ natijada bosimli mintaqalar shakllanadi→ natijada turli bosimli mintaqalar, xususan, yuqori bosimli mintaqalardan past bosimli mintaqalarga havo oqadi va shamolni vujudga keltiradi.

*Shamol teziligi bo'yicha Boffort shkalasi*



## AMALIY MASHG'ULOTLAR

| Boffort ballari | Shamolning kuchi bo'yicha turlari | Shamolning o'rtacha tezligi, m/s | Shamolning o'rtacha tezligi, km/s | Shamolning o'rtacha tezligi, <a href="#">uzlov</a> | Shamol harakati                                                                  |
|-----------------|-----------------------------------|----------------------------------|-----------------------------------|----------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------|
| 0               | <a href="#">Shtil</a>             | 0—0,2                            | < 1                               | 0—1                                                | Shamolsiz. Tutun tiklik bo'ylab ko'ratiladi. Daraxtlarning bargi qimirlamaydi.   |
| 1               | Tinch                             | 0,3—1,5                          | 1—5                               | 1—3                                                | Shamol harakatini flyuger sezmasada, lekin tutun yo'nalishi nisbatan o'zgaradi.  |
| 2               | Yengil                            | 1,6—3,3                          | 6—11                              | 4—6                                                | Shamol yo'nalishi yuzga seziladi, barglar shitirlaydi, flyuger harakatga keladi. |
| 3               | Kuchsiz                           | 3,4—5,4                          | 12—19                             | 7—10                                               | Shamol yengil rivojlanadi, daraxtlarning barg va novdalari tebranadi.            |
| 4               | Mo'tadil                          | 5,5—7,9                          | 20—28                             | 11—16                                              | Daraxtlarning ingichka novdalari harakatga keladi, shamol chang-                 |

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

| Boffort ballari | Shamolning kuchi bo'yicha turlari | Shamolning o'rtacha tezligi, m/s | Shamolning o'rtacha tezligi, km/s | Shamolning o'rtacha tezligi, <a href="#">uzlov</a> | Shamol harakati                                                                     |
|-----------------|-----------------------------------|----------------------------------|-----------------------------------|----------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|
|                 |                                   |                                  |                                   |                                                    | to'zonni yuzaga keltiradi.                                                          |
| 5               | Svejiy                            | 8,0—10,7                         | 29—38                             | 17—21                                              | Shamol harakati qo'lga seziladi, daraxtlarning ingichka novdalari harakatga keladi. |
| 6               | Kuchli                            | 10,8—13,8                        | 39—49                             | 22—27                                              | Daraxtlarning yo'g'on shoxlari va elektr simlari tebranadi.                         |
| 7               | Qattiq                            | 13,9—17,1                        | 50—61                             | 28—33                                              | Daraxtlarning tanasi qimirlaydi                                                     |
| 8               | Juda qattiq                       | 17,2—20,7                        | 62—74                             | 34—40                                              | Shamolga qarshi yurish qiyinlashadi, daraxtlarning shoxlarini sindiradi.            |
| 9               | Dovul                             | 20,8—24,4                        | 75—88                             | 41—47                                              | Binolarning tomlarini buza boshlaydi, Shamol sezilarli zarar yetkazadi.             |

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

| Boffort ballari | Shamolning kuchi bo'yicha turlari | Shamolning o'rtacha tezligi, m/s | Shamolning o'rtacha tezligi, km/s | Shamolning o'rtacha tezligi, <a href="#">uzlov</a> | Shamol harakati                                                                                                 |
|-----------------|-----------------------------------|----------------------------------|-----------------------------------|----------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>10</b>       | Kuchli dovul                      | 24,5—28,4                        | 89—102                            | 48—55                                              | Qurilish binolariga yetarlicha zarar yetkazadi, daraxtlarning ildizi bilan qo'poradi.                           |
| <b>11</b>       | Qattiq dovul                      | 28,5—32,6                        | 103—117                           | 56—63                                              | Kamdan kam kuzatilib, atrof-muhitga katta zarar keltiradi.                                                      |
| <b>12</b>       | <a href="#">To'fon</a>            | > 32,6                           | > 117                             | > 64                                               | Binolar, uy va qurilishga jiddiy zarar yetkazib, daraxtlarni ildizi bilan qo'poradi, o'simliklar nobud bo'ladi. |

Demak, shamol havoning gorizantal oqimi bo'lib, bosim va havo zichligiga bog'liq bo'ladi.

Meteorologik stansiyalarda shamolning yo'nalishi (flyuger orqali) va kuchi (anemometr orqali) kuzatib turiladi. Shamol ufqning qaysi tomonidan essa, o'sha tomon nomi bilan yuritiladi. Masalan, janubdan esgan bo'lsa, janubiy shamol kabi. Har bir joyda kuchi va yo'nalishiga ko'ra eng ko'p esadigan tomoni bo'ladi. Agar haroratning o'zgarishi haqida harorat grafigiga qarab fikr bildirilsa, biror joyda


esadigan shamollarning asosiy yo'nalishlari "shamollar guli" orqali aks ettiriladi va tushinishni yanada osonlashtiradi. Uni chizishda shamolning qaysi yo'nalishdan esganligi haqida ma'lumotlar kerak bo'ladi.

Bunda o'rtacha 20 kun davomidagi kuzatishlar jadvalga solinganligi misol tariqasida berilgan, ya'ni shamolning qaysi tarafdin esganligi berilgan. Grafik tayorlashda, avval, har bir ufq tomonidan necha marta esganligi aniqlanadi, so'ng chizishmalar boshlanadi. Agar elektron "shamollar guli" tayyorlanadigan bo'lsa, qiymatlarni diagramma xossalarini aks ettiruvchi jadvalga yozib yoki *Word*, *Exceld*a tayyorlangan jadvalni blokka olib, *вставка* vkladkasidan diagrammaga kirib, mos shaklga qo'ysak, kompyuter chizmani avtomatik tayyorlab beradi. Agar qog'ozga chiziladigan bo'lsa, ufqning asosiy va oraliq tomonlari to'g'ri chiziq orqali koordinata boshida birlashadigan qilib chiziladi, tomonlarning nomlari yozib qo'yiladi. Qaysi tomondan necha marta esganligi aniqlanadi, so'ng, aytaylik, o'rtacha 1 kun oralig'i 0,5 sm.dan qilib bo'lingan chiziqchalar orqali bo'lib chiqiladi (bazida ufq tomonidan necha kun emas, necha foizdan esganligi berilishi mumkin. Bunda mos kelishiga qarab yo masshtab qabul qilib olinadi yoki 1% 0,5 sm oraliqqa teng 1 ta chiziqqa teng deb olinadi). Kunlar soniga mos ravishda chiziqchalar joylashtiriladi, ish yakunida oxirgi chiziqchalar nuqta bilan belgilanib, bir- birisiga tutashtirib qo'yiladi (ayrim hollarda o'rtasiga doira chizib o'rganilgan vaqt davomidagi shamolsiz kunlar yozib qo'yilishi ham mumkin). Masalan, quyidagicha:

|    |   |     |       |   |     |    |       |        |    |        |        |        |    |    |       |       |       |     |     |
|----|---|-----|-------|---|-----|----|-------|--------|----|--------|--------|--------|----|----|-------|-------|-------|-----|-----|
| 1  | 2 | 3   | 4     | 5 | 6   | 7  | 8     | 9      | 10 | 11     | 12     | 13     | 14 | 15 | 16    | 17    | 18    | 19  | 20  |
| sh | j | shq | j-shq | j | shq | g' | j-shq | sh-g'r | sh | sh-g'r | sh-shq | sh-shq | sh | j  | j-g'r | j-g'r | j-shq | shq | shq |

Aytilganidek, ufq tomonlari bo'yicha shamolning necha marta esaganligi aniqlanib, quyidagidek chizma shakllantiriladi:

“Shamollar guli” tayyorlashdan asosiy maqsad ma’lum bir hududda esayotdan shamolning qaysi tarafdin ko’p esayotganligini ko’rgazmali ko’rsatib berish bo’lib, bunda oddiy statistik ma’lumotdan



ko’ra, tushuncha va fikrlash boyib, aniq tasavvur shakllanadi. Chizma asosida ko’p ishlarni rejalashtirish ham mumkin. Masalan, Urganch shahrida shamolning yo’nalishi meteorologik kuzatishlar orqali ko’p kuzatilib, shamolning yo’nalishi muhandislik inshootlarini joylashtirishda inobatga olingan. Uy- joy massivlari, o’quv muassasalari, aholiga maishiy xizmat ko’rsatish punktlari Shaharning shimolida, ishlab chiqarish korxonalari va zavodlar shaharning janubiy qismiga joylashtirilgan. Chunki shamollar, asosan, shimoldan esadi. Demak, har bir narsaning, xususan, “shamollar guli”ning ham ahamiyati katta ekan.

**3. Atmosfera**-(yunoncha “atmos”-havo, “sphaira”-qobiq) Yerni o’rab turgan, gazlardan tashkil topgan havo qobig’i. U azot ( $N$ : 78 %), kislorod ( $O_2$ : 20,946 %), argon ( $Ar$ :0,93 %), karbonat angidrid ( $CO_2$  0,03 %), neon ( $Ne$ :  $1,818 \cdot 10^{-3}$  %), geliy ( $He$ :  $5,239 \cdot 10^{-4}$  %), kripton ( $Kr$ :  $1,14 \cdot 10^{-4}$  %), vodorod ( $H$ :  $5 \cdot 10^{-5}$  %), ksenon ( $Xe$ :  $8,7 \cdot 10^{-6}$  %), ozon ( $O_3$ :  $1,3 \cdot 10^{-6}$  %) va boshqa ( $9,14 \cdot 10^{-3}$  %) gazlardan tashkil topgan (bu qiymatlar, asosan, atmosferaning quyi- troposfera, nisbatan stratosfera va mezosfera qatlamlariga taalluqli bo’lib, gazlar miqdori o’zgarmasligi uchun- gomosfera qatlami deyiladi; 80 km balanddan esa gazlar tarkibi o’zgaradigan- geterosfera qatlami boshlanadi). Atmosferaning massasi, taxminan,  $5,15 \cdot 10^{15}$  tonnaga teng bo’lib, tortishish kuchi ta’sirida Yerga tortilib turadi va yuzaga kuch bilan bosib, bosimni vujudga keltiradi. Demak, havo bosimi havoning yer yuzasiga va undagi barcha narsalarga bergan gravitatsion kuchi- bosim deb ataladi va barometr (yunoncha “baros”- og’irlik, “metros”- o’lchamoq) asbobi orqali o’lchanadi. Barometr 2 xil: simobli va metall (aneroid) bo’ladi. Ko’p

tarqalgan- oddiy usulda simobli barometrdan foydalaniladi. Bunda idishga simob to'ldiriladi va unga diametri 1 sm, balandligi 1 m bo'lgan probirka- naycha tik o'rnatiladi; uning yuqorisi berk, botirilgan tomoni esa ochiq bo'ladi. Bunda idishdagi simobga havo kuch bilan bosadi va probirkaning og'zidan Arximed qonuni bo'yicha (qancha bossa, shuncha chiqadi) simob yuqoriga ko'tariladi va bu bosim kuchini bildiradi. Dengiz bo'yida normal sharoitda havo bosimi 760 mm simob ustuniga teng<sup>10</sup>. Chunki naycha millimetrlarga bo'lingan shkaladan iborat. Yuqoriga ko'tarilgan sari havodagi gazlar siyraklashadi hamda Yerning tortish kuchi kamayganligi bois bosim pasayadi. Bosimning 1 mm kamayishi uchun zarur bo'lgan balandlik- barik bosqich deyiladi. Dengiz sathida o'rtacha bosim har 10 metrda 1 mm dan pasayadi. Lekin yuqoriga ko'tarilgan sari havoning holati o'zgarib, gazlar tarqoqlasha borgan sari barik bosqich ham o'zgaradi, ya'ni 1000 metr balandda bosim har 11 metrda 1 mm, 2000 metr balandda har 12 metrda 1 mm, undan yuqorida 13,5 metr balandda 1 mm ga pasayadi. Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, 0 metr balandlikda normal bosim 760 mm s.u(simob ustuni) ga teng bo'lsa, 5 500 m balandlikda 380 mm s.u, 11 000 m balandlikda 190 mm s.u, 15 000 m balandlikda 95 mm s.u.ga tushib qolsa, 200 km balandlikda normal bosimdan  $10^9$  marotaba kichik bo'ladi.

Shunday bo'lsa-da, bosimga oid geografik masalalar yechayotganda muammoli vaziyat va tushinmovchilik kelib chiqmasligi uchun o'rtacha har 100 metr ko'tarilganda, bosim 10 mm s.u.ga pasayadi deb olsa bo'ladi.

Masalan, agar tog' etagida barometr 740 mm simob ustunini, tog' tepasida esa 440 mm simob ustunini ko'rsatsa, tog'ning mutloq va nisbiy balandligi qanchaga teng bo'ladi?

---

<sup>10</sup> Dengiz sathida, 0° C haroratda simobning zichligi 13,595 bo'ladi, shu sababli ko'ndalang kesimi 1 sm bo'lgan 760 mm simob ustunining massasi 1033,2 grammga teng. Chunki atmosfera har 1 sm<sup>2</sup> yuzaga 1 kg 330 gr kuch bilan bosib turadi. Bosimning qiymatliy birligi *dina* bo'lib, bu birlikda ifodalangan normal bosim 1 013 250 dina/sm<sup>2</sup> ga teng. 1 000 000 dina/ sm<sup>2</sup> bosim- *bar* deb ataladi va 750,1 mm simob ustuniga teng bo'ladi. Barning  $1/1 \cdot 10^3$  qismi millibar (mb) deb ataladi va u 0,75 mm ga teng bo'ladi: 1 mm simob ustuni 1,33 mb bo'lib, normal atmosfera bosimi 1013,2 mb yoki 760 mm simob ustuniga teng

Yechish: Bunda tog'ning etagi va cho'qqisidagi qiymatlar berilgan bo'lib, quyidagi amallarni bajarish orqali natijaga erishish mumkin:

✚ bosimlar orasidagi farqni aniqlanadi:

$$B_f = B_p - B_y$$

Bu yerda,  $B_f$  - atmosfera bosimlari orasidagi farq;

$B_p$  – pastdagi, ya'ni tog' etagidagi atmosfera bosimi;

$B_y$  – yuqori, ya'ni cho'qqidagi atmosfera bosimi.

$$B_f = 740 \text{ mm s.u.} - 440 \text{ mm s.u.} = \underline{300 \text{ mm s.u.}}$$

✚ bosimning 300 mm s.u.ga pasayishi uchun kerak bo'ladigan balandlik aniqlanadi:

$$100 \text{ metrda} \text{ ----- } 10 \text{ mm s.u.}$$

$$\underline{3\ 000 \text{ metr}} = x \text{ ----- } 300 \text{ mm s.u.}$$

! Mutloq balandlik- quruqlikdagi ma'lum bir nuqtaning okean sathidan yoki quruqlik bilan tutashgan dengiz sathidan tik balandligi. Ko'p hollarda, Boltiq dengizining yuzasi 0 metr deb olingan va nuqtalarning mutloq balandligi, taqriban, shu yuzaga nisbatan olinadi. Berilgan tog' cho'qqisida bosim 440 mm s.u.ga teng; agar balandlik keltirib chiqarilsa, 3 000 metr kelib chiqadi. Bu tog' cho'qqisining mutloq balandligiga to'g'ri keladi.

✚ tog' etagining o'zini dengiz sathidan necha metr yuqoridaligini hisoblash orqali nisbiy balandlikni keltirib chiqarish:

1) dengiz sathi va tog' etagidagi bosim farqini hisoblanadi:

$$B_f = N_b - B_p$$

Bunda,  $N_b$ - normal atmosfera bosimi- 760 mm s.u.

$$B_f = 760 \text{ mm s.u.} - 740 \text{ mm s.u.} = 20 \text{ mm s.u.}$$

2) bosimning 20 mm s.u.ga pasayishi uchun kerak bo'ladigan balandlik aniqlanadi:

$$100 \text{ metrda} \text{ ----- } 10 \text{ mm s.u.}$$

$$200 \text{ metr} = x \text{ ----- } 20 \text{ mm s.u.}$$

3) nisbiy balandlikni aniqlash:

$$N_h = M_h - Z_{h(\min)}$$

Bunda,  $N_h$ - nisbiy balandlik;

$M_h$ - mutloq balandlik, ya'ni 3 000 metr;

$Z_{h(\min)}$ - tog' etagining mutloq balandligi, ya'ni 200 metr.

$$N_h = 3\,000 \text{ metr} - 200 \text{ metr} = \underline{2\,800 \text{ metr}}$$

! Nisbiy balandlik- yer yuzidagi ma'lum nuqtaning boshqa nuqtadan tik balandligi, ya'ni bir- biriga taqqoslama balandligi. U oddiy usulda nivelir bilan o'lchanadi.

Yakuniy natijalar:

| <i>Tog' etagidagi<br/>bosim</i> | <i>Tog' cho'qqisidagi<br/>bosim</i> | <i>Mutloq balandlik</i> | <i>Nisbiy balandlik</i> |
|---------------------------------|-------------------------------------|-------------------------|-------------------------|
| 740 mm s.u.                     | 440 mm s.u.                         | 3 000 m.                | 2 800 m.                |

Umumiy qilib aytganda, bosimning o'zgarishi fizik (yunoncha “physis”- tabiiy) jarayon. Uning o'zgarishini o'rganish davomida ajobtovur sir- sinoatlarga guvoh bo'linadi. Bajarilayotgan ishning mohiyatini tushingan sayin javob kalavasining uchi chiqib kelaveradi. Bosimni o'zgarishini o'rganish ham ilmiy, ham amaliy jihatdan muhimdir. Chunki biz bosimni o'zimiz yashaydigan tekislikda sezmaymiz, sababi ichki bosimimiz bilan muvozanatlashgan. Lekin yuqoriga ko'tarilgan sayin bosim kamayib tog' kasalligi kelib chiqadi. Bilib qo'yish joizki, 3 000 metr yuqoriga ko'tarilganda- bosh aylanadi, 4 000- 5 000 metr yuqoriga ko'tarilganda- burun qonaydi, tomirlar yorilishi mumkin.

**4. Aholi-** (arabcha “ahl”- odam) ma'lum bir hududda yashayotgan kishilar yig'indisi. U tug'ilish, o'sish, ko'payish va o'lim kabi holatlarni namoyon qiladigan ongli mavjudud- insonlardan tarkib topgan bo'ladi.

Demografiya- (yunoncha “demos”-xalq, “graphos”-yozaman) aholining soni, takror barpo bo'lish qonuniyatlarini o'rgansa, Etnogeografiya- xalqlarning



turmushi va madaniyati, vujudga kelishi va geografiyasi, aholi mehnat faoliyati va madaniyatini o'rganadi. Aholi geografiyasi esa aholining tarkibi, dinamikasi va joylashuvidagi regional farqlarni, bu farqlarni vujudga keltirgan qonuniyatlarni, aholi punktlarining hududiy tizimlarini va ularning rivojlanish qonuniyatlarini, shuningdek, aholining yer shari bo'yicha xarakatini ham o'rganadi.

Har yili qandaydir sabablarga ko'ra vafot etgan aholi o'rnini yangidan dunyoga kelgan avlod hisobiga to'ldirilib borilishi- aholining takror barpo qilinishi deb ataladi. Tug'ilganlar soni o'lganlar sonidan ortiq bo'lgandagina aholi soni ko'payadi va bu tabiiy ko'payish deyiladi. Tug'ilish darajasini ifodalovchi eng ko'p qo'llaniladigan ko'rsatkich tug'ilishning umumiy koeffitsiyenti ( $T_k$ ) bo'lib, u ma'lum hudud va davr uchun ha 1000 ta aholiga nisbatan tug'ilganlar sonini ifodalaydi, ya'ni:

$$Tk = \frac{T_s}{\Sigma A} \cdot 1000$$

Bu yerda,  $T_k$  = tug'ilish koeffitsiyenti;

$T_s$  = bir yilda tug'ilganlar soni;

$\Sigma A$  = umumiy aholi soni.

Tug'ilish koeffitsiyentini aniqlagandan so'ng, o'lim koeffitsiyenti ham shu usul yordamida hisoblanadi:

$$O'_k = \frac{O'_s}{\Sigma A} \cdot 1000$$

Bu yerda,  $O'_k$  = o'lim koeffitsiyenti;

$O'_s$  = bir yilda o'lganlar soni;

Hisob- kitoblar 1000 kishiga nisbatan aniqlanayotganligi uchun qiymatlar birligi ‰ (promille- mingdan bir ulush)da belgilanadi. Tug'ilish va o'lim koeffitsiyentlari ma'lum bo'lgach, aholining tabiiy o'sish ko'rsatkichi quyidagicha topiladi:

$$A_{\phi\uparrow} = T_k - O'_k$$

Bunda,  $A_{\phi\uparrow}$  = aholining o'sish ko'rsatkichi.

Masalan, quyida aholining tabiiy ko'payish ko'rsatkichlariga bog'liq bo'lgan masala keltirilgan: Toshkent shahrida aholining yillik tug'ilish koeffitsiyenti 14,4‰ ni, o'lim koeffitsiyenti esa 8,1‰ ni tashkil etgan bo'lsa, aholining o'sish ko'rsatkichi qanday bo'ladi?

Yechish: Javobni topish jarayonida quyidagi ketma- ketlikka e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1) tug'ilish va o'lim koeffitsiyentlari aniqlanadi:

- $T_k = 14,4 \text{ ‰}$ ;
- $O'_k = 8,1 \text{ ‰}$ .

2) ular asosida o'sish ko'rsatkichini aniqlash formulasidan foydalaniladi:

$$A_{\phi\uparrow} = T_k - O'_k$$
$$A_{\phi\uparrow} = 14,4 \text{ ‰} - 8,1 \text{ ‰} = 6,3 \text{ ‰}$$

Demak, Toshkent shahrida yillik aholining o'sishi 6,3 ‰ yoki har 1000 kishiga nisbatan 6,3 kishini tashkil etar ekan.

5. O'zbekiston- Markaziy Osiyodagi aholisi eng ko'p davlat. Doimiy aholisi 2018- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, 32,650 mln kishini tashkil etib, 2017- yil boshiga nisbatan 533,4 ming kishiga yoki 1,7 %ga o'sgan<sup>11</sup>. Jumladan, shahar aholisi soni 16,53 mln kishini (umumiy aholining 50,6% ini), qishloq aholisi soni 16,12 mln kishini (umumiy aholining 49,4% ini) tashkil etdi.

Quyida ma'lum kishilar guruhining umumiy aholi soniga nisbatan ulushi qanchani tashkil etishini topishga oid masala berilgan: 2016- yil ma'lumoti bo'yicha, O'zbekiston aholisi o'rtacha 32,0 mln kishi bo'lib, shundan 4,5 mln kishi oliy va o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan. Umumiy aholi soniga nisbatan u necha foizni tashkil etishini aniqlang. Bunda quyidagicha ish bajariladi:

✓ Avvalo, berilgan qiymatlar aniqlab olinadi:

---

<sup>11</sup> Davlat statistika qo'mitasi axborot xizmati ma'lumotlari bo'yicha

- 4 500 000 kishi -----x= 14,06%



2. “Binolarning tomlarini buza boshlaydi, sezilarli zarar yatkazadi”.

Yuqoridagi ta’rif shamolning Bofort shkalasi bo’yicha qaysi turiga tegishli?

- A) juda qattiq                                      B) *dovul*  
C) kuchli dovul                                      D) svejiy

3. Atmosfera (Troposferaning quyi qismini inobatga olgan holda) gaz tarkibining qanchasini ksenon (Xe) gazlari tashkil etadi?

- A)  $8,7 \cdot 10^{-6} \%$                                       B)  $5 \cdot 10^{-5} \%$   
C)  $1,14 \cdot 10^{-4} \%$                                       D)  $3 \cdot 10^{-2} \%$

4. Dengiz sathida,  $0^{\circ} \text{C}$  haroratda simobning zichligi qanchani tashkil etadi?

- A) 10,332                                              B) 17,750  
C) 13,595                                              D) 76,175

5. O’zbekiston aholisining soni 2018- yil 2017- yilga nisbatan qanchaga o’sgan?

- A) 2,2 %                                              B) 1,7 %  
C) 0,75 %                                              D) 3,12 %

Mustaqil ta'lim

• Jahon xo'jaligining iqtisodiy qutblarini o'rganish

**Bilasizmi???**

- Tripoli shahri yunoncha “uch shahar” degan ma’noni bildiradi, buning boisi shahar uchta shaharcha o’rnida tashkil topganligidir;
- Barens dengizidagi Kuldin orolida besh qavatli ko’l- Mogilnoye joylashgan;
- Dunyodagi eng baland bino Dubay shahrida joylashgan “Burj Dubay” yoki “Burj Xalifa” bo’lib, balandligi 828 metrni tashkil etadi.

### Amaliy mashg'ulot № 8

#### • Jahon sanoati

##### Topshiriqlar:

1. Sanoatning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati.
2. Sanoatning tarmoq xususiyatlari: yoqilg'i- energetika, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo va neftni qayta ishlash, qurilish, o'rmon va yengil sanoat, oziq- ovqat sanoati.
3. Mashinasozlik, kimyo, o'rmon sanoati, yengil va oziq- ovqat sanoatlarida yetakchi davlatlar.

##### Qo'shimcha topshiriqlar:

1. Antarktida materigidagi ilmiy stansiyalarning tegishli davlatlarini toping.  
1) Bellinsgauzen;      2) Mak- Merdo;      3) Amundsen- Skott;      4) Mouson;  
5) Belgrano- II;      6) Sanae;      7) Maytri;      8) Signyu;  
9) Palmer;      10) Vostok;      11) Mirniy;      12) Xalli;  
13) Dyumon- d'Yurvil;      14) Keysi;      15) Syova;      16) Roteru;
2. Jahon bo'yicha oltin qazib oluvchi eng yirik davlatlarni yozing.
3. OPEK davlatlari jadvalini to'ldiring.

| № | Davlatlar nomi | Poytaxti | Boshqaruv shakli | Davlat tili | Ustuvor dini |
|---|----------------|----------|------------------|-------------|--------------|
|   |                |          |                  |             |              |

4. Korxona 150 dona maxsulot ishlab chiqarish uchun 40 000 so'mlik elektr-energiya, 120 000 so'mlik xomashyo, 20 000 so'mlik boshqaruv xarajatlarini amalga oshirgan bo'lsa, ushbu mahsulotning 1 donasi tannarxi qancha bo'ladi?

5. Quyidagi balandliklarga mos tog' cho'qqilari nomini yozing.

- 4165 metr;
- 8611 metr;
- 6723 metr;
- 7439 metr;
- 3794 metr.

### *Javoblar:*

1. Antarktida- (yunoncha “anti”- qarama-qarshi, “arktikos”- shimoliy, ya'ni shimolning teskari tomoni) Janubiy qutb atrofida joylashgan muzli materik. Uning atrofidagi orollar, Janubiy okean (Tinch, Atlantika va Hind okeanlarining




Antarktidaga tutash qismlari)ni egallagan akvatoriya Antarktika mintaqasini tashkil qiladi. U eng keyin, 1820- yil 16- yanvar kuni rossiyalik dengizchilar F. F. Bellinsgauzen va M. P. Lazarev tomonidan kashf qilingan. Bunga sabab sifatida qit'aning doimiy muz bilan qoplanganligi va janubga o'tishga aysberglarning halaqit berishi, boshqa materiklardan ancha uzoqdaligi va, ayniqsa, yevropaliklar ongida janubga o'tish xatarli ma'nosidagi miflarning keng tarqalganligi kabilarni keltirish mumkin.

Antarktidani keng ko'lamda mukammal o'rganish Xalqaro geofizik yil dasturini joriy qilish (1957- 1958- yillar) munosabati bilan boshlangan. 1959- yil

11 ta mamlakat o'rtasida "Antarktida to'g'risida shartnoma" qabul qilindi. Unga ko'ra, materikdan faqat ilmiy va turistik maqsadlarda foydalanishga kelishib olindi.

Ayni paytda 16 ta mamlakat olimlari materik tabiatini va atmosfera sirkulatsiyasini o'rganishmoqda.

Antarktida bironta mamlakatga vassal sifatida tegishli bo'lmagan va tinchlik, ilmiy maqsadlarda



foydalaniladigan hududdir. Bu materikda ko'plab ilmiy tatqiqot stansiyalari bo'lib, quyida ularning qaysi davlatlar tomonidan boshqarilishiga oid na'munalar berilgan:

### 1.1

| Rossiya          | AQSh            | Buyuk Britaniya | Avstraliya |
|------------------|-----------------|-----------------|------------|
| Bellinsgauzen    | Mak- Merdo      | Signyu          | Mouson     |
| Vostok           | Amundsen- Skott | Xalli           | Keysi      |
| Mirniy           | Palmer          | Rotera          |            |
| Novolozaravskaya |                 |                 |            |
| Molodyojnaya     |                 |                 |            |

### 1.2

| Yaponiya | Fransiya        | Hindiston | Argentina   | JAR   |
|----------|-----------------|-----------|-------------|-------|
| Syova    | Dyumon d'Yurvil | Maytri    | Belgrano II | SANAE |

Antarktidadagi ilmiy stansiyalarning ahamiyati katta. Ayniqsa, janubiy qutbda joylashganligi, katta pozitsiyalarga ega qurilmalarning mavjudligi

natijasida sun'iy yo'ldoshlar uzatgan va stansiyada kuzatilgan ob- havo elementlariga qarab ob- havo, iqlim ko'rsatkichlari va o'zgarishi, muzlikning inson yashaydigan muhitlarga ta'siri o'rganiladi va baholab, prognoz qilinadi.

2. Oltin- rangli metallar guruhining qimmatbaho turiga mansub rangli metall. Yer ostida ham, namlikda ham o'z xususiyatini yo'qotmaydi. U zargarlikdan tashqari, elektronika, kompyuter ishlab chiqarish, kosmik kema va atom reaktorlarida ishlatiladi. Oltin radiaktiv nurni o'tishiga to'sqinlik qiladi va zararini kamaytiradi, shu bois atom reaktorlarining ichi (16 kg) oltin bilan qoplanadi. Oltin elektr tokini yaxshi o'tkazadi, korroziyaga berilmaydi. U, ko'proq, tog' va tog'oldi, qadimgi vulqonlar ta'sirida vujudga kelgan hozirda yemirilib, pasayib qolgan yassi va past tog'larda tarqalgan. Chunki u faqat endogen (ichki jarayonlar) ta'sirida paydo bo'ladi va yer ostidan vulqonlar, yer po'stining ko'tarilishi ta'sirida chiqib kelgan.

Quyida dunyodagi eng ko'p oltin qazib oluvchi davlatlar keltirilgan:

- *Xitoy*- 369 tonna qazib chiqaradi, eng yirik konlar mamlakatning shimoli-sharqiy va shimoli- g'arbiy qismlarida joylashgan;
- *Avstraliya*- 270 tonna qazib chiqaradi, eng yirik konlar mamlakatning g'arbiy, markaziya va shimoliy qismlarida joylashgan;
- *AQSh*- 237 tonna qazib chiqaradi, eng yirik konlar Kordilyera tizmasi o'tgan, ya'ni g'arbiy qismlarida joylashgan;
- *Rossiya*- 214 tonna qazib chiqaradi, eng yirik konlar Sibir va Uzoq Sharqdagi qismlarida joylashgan;
- *JAR*- 190 tonna qazib chiqaradi, eng yirik konlar markaziy va shimoliy qismlarida joylashgan<sup>12</sup>.


---

<sup>12</sup> 9- sinf geografiya o'quv atlasidagi qora va rangli metallurgiya mavzusida undiruvchi sanoatlarga misol tariqasida ayrim qora va rangli metall rudalari qazib oluvchi davlatlar berilgan. Ular orasida oltin qazib oluvchi davlatlar guruhiga oid diagramma bo'lib, unda 190 tonna oltin qazib oluvchi davlat sifatida Shimoliy Afrika berilgan. Lekin Shimoliy Afrika davlati yo'q bo'lganligi bois, mantiqan, dunyoda qazib olinadigan oltinning 20% ini beradigan davlat sifatida Janubiy Afrika Respublikasi, ya'ni JAR Shimoliy Afrika bilan almashtirildi



- *Peru*- 178 tonna qazib chiqaradi, eng yirik konlar markaziy qismida And tog' tizmasining g'arbiy va mamlakatning janubi- sharqida esa sharqiy yonbag'rida joylashgan;
- *Kanada*- 110 tonna qazib chiqaradi, eng yirik konlar Kordilyera tizmasi kesib o'tgan- g'arbiy va Buyuk ko'llar havzasi<sup>13</sup> mintaqasida joylashgan;
- *Indoneziya*- 100 tonna qazib chiqaradi, oltin konlari yirik orollaridagi yassi va baland tog' mintaqalarida, xususan, vulkanik tog'lar yaqinida joylashgan;
- *O'zbekiston*- 90 tonna qazib chiqaradi, eng yirik konlar markaziy va sharqiy qismlarida joylashgan;
- *Papua- Yangi Gvineya*- 70 tonna qazib chiqaradi, eng yirik konlar orolning janubiy va janubi- sharqiy qismlarida joylashgan.

Keltirilgan davlatlardagi kon qazib olish qiymat ko'rsatkichlari haqida yanada yaxshiroq tasavvur uyg'otish maqsadida quyida ustunsimon diagramma berilgan bo'lib, bunda taqqoslash yanada osonlashadi va xotirada mustahkamroq joy egallaydi:



O'zbekiston ham oltin qazib oluvchi yirik davlatlardan biri hisoblanadi. Xususan, oltin qazib olish bo'yicha jahon bo'yicha VII, zaxirasi bo'yicha IV; qazib olishda yana MDH bo'yicha II, Markaziy Osiyoda I o'rinda turadi. Samarqand va Buxoro oralig'ida ikki ming yil oldin ham oltin qazib olinganligi

<sup>13</sup> janubiy qismlarida yoysimon yo'nalishda

haqida ma'lumotlar bor. X- XIII asrlarda kon sanoati o'z zamonasiga xos yuksak rivojlangan; XIX asrda Rossiya imperiyasi Turkistonni bosib olgach, mavjud konlarni xaritaga tushirilgan. 1969- yil dastlabki oltin yombisi quyilgan. XX asr davomida yana ko'plab oltin konlari topilgan. Quyida O'zbekistondagi asosiy oltin konlari keltirilgan:

| <i>Rangli metall</i> | <i>Joylashgan viloyati</i> | <i>Qazilma konlarining nomi</i>                                                                                                       |
|----------------------|----------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <i>oltin</i>         | Buxoro                     | Yangiqazg'an                                                                                                                          |
|                      | Jizzax                     | Konsoy, Kattang, Marjonbuloq                                                                                                          |
|                      | Namangan                   | Karalevskaya, Oqbuloq                                                                                                                 |
|                      | Navoiy                     | Qoraqo'ton, Beshquduq, Jelsoy, Aytimtov, Muruntov, Ko'kpatas, Turboy, Balpantov, Davgiztov, Omontoytov, Aristantov, Qumli, Kosmonachi |
|                      | Qashqadaryo                | Zarmas                                                                                                                                |
|                      | Samarqand                  | Oqbel, Zarmitan                                                                                                                       |
|                      | Toshkent                   | Qizilolmasoy, Qo'shbuloq, Kauldi                                                                                                      |

Konlar orasida Muruntov alohida ahamiyatga ega bo'lib, nafaqat O'zbekiston, balki butun Yevrosiyodagi eng yirik oltin konidir. Ruda qazib olinadigan joyning uzunligi 4 km, kengligi 2 km, chuqurligi 400 metrdan ortiqdir. O'zbekistonda tarkibida oltin va kumush bo'lgan 30 dan ortiq kon mavjud.

3. OPEK- integratsion uyushmalardan biri bo'lib, Neftni eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti hisoblanadi. OPEK, ya'ni NEQDT (Neftni eksport qiluvchi

davlatlar tashkiloti) 1960- yil tashkil qilingan bo'lib, shtab kvartirasi Vena shahrida joylashgan. Unga a'zo davlatlar hozirda 13 ta bo'lib, quyida qit'alar bo'yicha tashkilotga kiruvchi davlatlar keltirilgan<sup>14</sup>:

| <i>No</i> | <i>Davlatlar nomi</i> | <i>Poytaxti</i> | <i>Boshqaruv shakli</i> | <i>Davlat tili</i> | <i>Ustuvor Dini</i> |
|-----------|-----------------------|-----------------|-------------------------|--------------------|---------------------|
| 1         | BAA                   | Abu- Dabi       | monarxiya               | arab               | islom               |
| 2         | Eron                  | Tehron          | respublika              | fors               | islom               |
| 3         | Indoneziya            | Jakarta         | respublika              | indonez            | islom               |
| 4         | Iroq                  | Bag'dod         | respublika              | arab               | islom               |
| 5         | Kuvayt                | Al- Kuvayt      | monarxiya               | arab               | islom               |
| 6         | Qatar                 | Doxa            | monarxiya               | arab               | islom               |
| 7         | Sa. Arabistoni        | Ar- Riyod       | monarxiya               | arab               | islom               |
| 8         | Gabon                 | Librevil        | respublika              | fransuz            | xristian            |
| 9         | Jazoir                | Jazoir          | respublika              | arab               | islom               |
| 10        | Liviya                | Tripoli         | respublika              | arab               | islom               |
| 11        | Nigeriya              | Abuja           | respublika              | ingliz             | islom               |
| 12        | Ekvador               | Kito            | respublika              | ispan              | xristian            |
| 13        | Venesuela             | Karakas         | respublika              | ispan              | xristian            |

Jahonda neftni qazib chiqarish va eksport qilishda OPEK mamlakatlari muhim rol o'ynamoqda. Hozirgi paytda bu mamlakatlar guruhi jahonda aniqlangan neft zaxiralarining salkam 80% iga, qazib chiqarilayotgan neftning esa deyarli 50% iga egalik qilmoqda.

**4.** Har bir tayyor mahsulotni tayyorlash va iste'molchiga yetkazib berish, albatta, mablag' va vaqt talab qiladi. Shu tarafdin olganda, mahsulotlarning

<sup>14</sup> 9- sinf o'quv atlasining yoqilg'i sanoati mavzusidagi kartada OPEKga a'zo davlatlar qatoriga Janubiy Amerikadan Ekvador, Afrikadan Gabon kiritilmagan

iste'molga tayyor tovar qiymatidagi narxi uning tannarxiga bog'liq ravishda belgilanadi.

Mahsulot tannarxi- masulot birligi (aytaylik, 1 tonna neft qazib chiqarish) uchun ketadigan pulda ifodalangan hamma xarajatlar miqdori. Masalan, neftning tannarxi u qanday chuqurlikdan olinayotganligidan ko'ra, konning neftga qanchalik boyligiga bog'liq. Shunday bo'lsa-da, neft qazib chiqarish xarajati ko'mirni qazib chiqarish xarajatidan o'rta hisobda 4 barobar kam. Chunki neft qazib chiqarishning eng arzon usuli fontan usuli bo'lib, bunda neft quduqlardan kondagi bosim tufayli otilib chiqadi. Bosim kamaygan holda uni turli usullar bilan ko'tarilib turiladi. Neftni nasoslar yordamida chiqarib olish ham keng tarqalgan. Gaz kabi neftni ham quvurlar orqali yuborish uni tashishning eng arzon va xavfsiz usulidir, xossatan, quvur orqali yuborish temiryo'lda tashishga nisbatan 4 marta arzon tushadi. Demak, hududlar bo'yicha neftning narxidagi farq iste'molchiga yetkazib berish va tayyor mahsulot ishlab chiqarish davomidagi unga sarflangan xarajatlarga bog'liq bo'ladi.

Quyida mahsulot tannarxiga oid masaladan na'muna keltirilgan. Masalan, korxona 150 dona mahsulot ishlab chiqarish uchun 40 000 so'mlik elektr-energiya, 120 000 so'mlik xomashyo, 20 000 so'mlik boshqaruv xarajatlarini amalga oshirgan bo'lsa, ushbu mahsulotning 1 donasining tannarxi qancha bo'ladi?

*Yechish:* Mahsulot tannarxi uning birlik qiymati bilan belgilanadi. Bu masalada 150 dona mahsulot uchun ketgan xarajatlar berilgan. Natijaga erishish uchun quyidagi ketma- ketlikka amal qilgan holda ish olib boramiz:

- 1) jami tayyorlangan mahsulot miqdori aniqlanadi- 150 ta;
- 2) jami mahsulotga ketgan umumiy xarajat miqdori aniqlanadi:  
 $40\,000 \text{ so'm} + 120\,000 \text{ so'm} + 20\,000 \text{ so'm} = \underline{180\,000 \text{ so'm}}$ ;
- 3) jami mahsulotga ketgan xarajat asosida bitta mahsulotga ketgan xarajadni proporsiya qilib chiqariladi:

150 donaga ----- 180 000 so'm

1 donaga -----  $x = \underline{1\,200 \text{ so'm}}$

- 4) demak, bitta mahsulot tayyorlash uchun 1 200 so'm sarflangan bo'lsa, 1 200 so'mlikdan 150 ta mahsulot tayyorlanib, jami 180 000 so'm sarflangan. Bu yerda bitta mahsulotning *tannarxi 1 200 so'mga* teng.

Mahsulot tannarxi tovarning kamyobligiga hamda ishlab chiqarishni to'g'ri yo notog'ri joylashtirilganligiga bog'liq. Chunki, o'zi kam uchraydigan noyob mahsulot qimmat bo'ladi, qo'shimcha ravishda, unga ishlov berish yana mablag' talab etadi, demak tabiiyki, tannarxi ham yuqori bo'ladi. Endi yana boshqa tarafdin, korxonaning oqilona yoki noto'g'ri joylashtirilgani ham ahamiyatli bo'lib, asli unchalik qiymatga ega bo'lmagan tovar ishlab chiqarish uchun ko'p mablag' sarflanishi mumkin. Masalan, yurtimizda, ko'pincha, ishlab chiqarish korxonasi xomashyo va iste'molchi o'rtasida yoki ular yaqinida joylashtirilgan, ya'ni ish unumi yuqoriroq bo'ladi. Lekin, masalan, Qozog'istonda neft, asosan, mamlakatning g'arbiy qismida, elektr stansiyalari esa shimoliy qismida joylashtirilgan. Bu esa mamlakat bo'yicha neft va elektr energiyani yetkazib berishni qiyinlashtiradi. Bunda iste'molchiga yetkazib kelish uchun ko'p mablag' sarflanadi, natijada mahsulot tannarxi ham yuqoriroq bo'ladi. Noqulaylik asosida mahsulot tannarxining yuqoriligi kelib chiqmasligi uchun foydali ish koeffitsiyentini inobatga olish va ishlab chiqarishni oqilona joylashtirish lozim.

5. Yer yuzi milliard yillar davomida ro'y bergan va berayotgan jarayonlar, ichki va tashqi kuchlar ta'sirida shakllangan bo'lib, o'ziga xos relyefga ega. Relyef- (fransuzcha "relief"- do'nglik) yer yuzining kelib chiqishi, rivojlanish tarixi, kattaligi va boshqa xususiyatlariga ko'rsa farq qiluvchi notekis shakllarining umumiy ko'rinishi bo'lib, quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- *geotektura*- yer po'stining eng yirik relyef shakllaridir. Ularga materik ko'tarilmalari va okean botiqlari, ya'ni o'rni kiradi;
- *morfostruktura*- sayyoraviy, xususan, quruqliklar doirasidagi eng yirik relyef shakllari. Ularga yirik tekislik (Amazonka, Sharqiy Yevropa,

Turon kabi)lar hamda yirik tog' va tog' tizmalari (Himolay, And, Kordilyera kabilar) kiradi;

- *morfoiskulptura*- morfostrukturalarni tashkil qilgan, asosan, tashqi (ekzogen) kuchlar ta'sirida shakllangan relyef shakllari. Ularga daryo vodiylari, morena va alluvial tekisliklari, jar kabilar kiradi.

Shulardan tog'lar haqida fikr yuritadigan bo'lsak, ular quruqlik maydonining deyarli 40 %ini tashkil qilgan bo'lib, baykal, kaledon, gersin, mezazoy (kimmeriy, laramiy, nevadiy) va alp tog' hosil qilish bosqichlarida ko'tarilgan. Tog'lar mutloq balandligi 500 metrdan ortiq bo'lgan, atrofidagi yassi va tekis joylardan konussimon, piramidasimon yoki gumbazsimon ko'tarilib qolgan relyef shakllaridir. Yer yuzidagi asosiy baland tog'lar so'nggi- alp tog' hosil qilish bosqichida shakllangan bo'lib, asosan, burmali tog'lardir. Quyida materiklar bo'yicha ayrim tog' cho'qqilaridan na'munalar keltirilgan:

- 4165 metrli cho'qqi Afrikaning shimoli- sharqida joylashgan Atlas tog'laridagi Tubkal cho'qqisi bo'lib, Marokash hududida joylashgan;
- 8611 metrli cho'qqi dunyodagi eng yosh yirik tog' tizmasi- Qoraqurumda joylashgan Chogori bo'lib, Markaziy Osiyo tabiiy geografik o'lkasining eng baland joyi hisoblanadi;
- 6723 metrli cho'qqi And tog' tizmasida joylashgan Lyulyaylko bo'lib, u dunyodagi eng baland harakatdagi vulqon hisoblanadi;
- 7439 metrli cho'qqi Tyanshan tog' tizmasining eng baland joyi Xontagri tog' tugunidagi G'alaba bo'lib, Qirg'iziston- Xitoy chegarasida joylashgan va u Qozog'iston tabiiy geografik kichik o'lkasining eng baland joyi hisoblanadi;
- 3794 metrli cho'qqi Antarktida qit'asidagi Ross dengizi qirg'og'ida joylashgan Erebus vulqoni hisoblanadi.

Tabiatda har bir narsaning katta ahamiyati bor. Bu borada tog'larning o'rni ham beqiyosdir. Ular iqlim hosil bo'lishida katta rol o'ynaydi, o'simlik va hayvonot, inson yashashi uchun qulay sharoitni o'zida mujassam etadi, bag'rida

to'plangan yog'inlar tufayli oqar suvlarni vujudga keltirib, chuchuk suv bilan ta'minlab turadi va h.z. Shu bilan birgalikda, vulqonlar ham beqiyos kuchga ega. Xususan, atmosferadagi gazlar ham, olimlarning taxminlariga ko'ra, yer ostidan vulqonlar ta'sirida chiqib kelib, yuqoriga ko'tarilgan va asta- sekin atmosfera shakllana borgan. Qolaversa, yer yuzida muzlik davrining tugashiga ham ma'lum ma'noda vulqonlarning roli bo'lib, ulardan chiqayotgan CO<sub>2</sub> iqlimni ilitib bergan. Ahamiyatli tomonlaridan yana biri mineral resurslar bilan bog'liq bo'lib, yerning ichki qismidagi modda va minerallar magma bilan chiqib keladi va lava yotqiziqlari bilan birgalikda, ayniqsa, rangli metallar yotqiziladi.

### Nazorat savollari:

1. Antarktida materigi qanday tabiiy sharoitga ega materik?
2. Oltin qanday sohalarda ko'p ishlatiladi?
3. OPEK qanday tashkilot?
4. Mahsulot tannarxi deb nimaga aytiladi?
5. Yer yuzi relyefining qanday shakllari mavjud?

### Test savollari:

1. Quyidagilar orasidan Buyuk Britaniyaga tegishli ilmiy stansiyalarni aniqlang.

|            |            |            |           |
|------------|------------|------------|-----------|
| 1) Palmer; | 2) Keysi;  | 3) Mouson; | 4) Xalli; |
| 5) Mirniy; | 6) Signyu; | 7) Sanae;  | 8) Roter. |

|            |            |
|------------|------------|
| A) 4, 6, 8 | B) 1, 3, 8 |
| C) 2, 5, 7 | D) 2, 4, 6 |
2. Qaysi davlat o'rtacha yiliga 214 tonna oltin qazib chiqaradi?

|               |                |
|---------------|----------------|
| A) Avstraliya | B) Peru        |
| C) Rossiya    | D) O'zbekiston |
3. OPEK qachon tashkil etilgan va shtab- kvartirasi qaysi shaharda joylashgan?

A) 1960- yil, Vena

B) 1942- yil, Tehron

C) 1997- yil, Jazoir

D) 1913- yil, Abu- Dabi

4. Neftni quvur orqali tashish temiryo'l orqali tashishdan necha marta arzon tushadi?

A) 6

B) 4

C) 2

D) 7

5. Antarktidadagi Erebus vulqoni qaysi dengiz qirg'og'ida joylashgan?

A) Mouson

B) Ross

C) Bellinsgauzen

D) Dyurvill

Mustaqil ta'lim

• Jaxon sanoatini tarmoqlar tarkibi bo'yicha klassifikatsiya qilish

**Bilasizmi???**

- Shimoliy qutbda joylashgan uyning hamma tomoni janubga qaragan bo'ladi, janubiy qutbda esa aksincha;
- AQSh bayrog'idagi 50 ta yulduz mamlakatdagi shtatlar sonini; 13 ta oq- qizil chiziq esa dastlabki birlashgan 13 ta shtatni ifodalaydi;
- Reykyavik Islandiyaning poytaxti bo'lib, islandcha "reykya"- bug', "vik"- qishloq, ya'ni *qaynar buloqlar ko'pligidan bug' otilib turadigan joy* degan ma'noni bildiradi.

### Amaliy mashg'ulot № 9

#### • Jahon xo'jaligi va uning tarmoqlari



### Topshiriqlar:

1. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Agrosanoat majmuasi, agrosanoat integratsiyasi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni rivojlantirish shakllari.
3. Qishloq xo'jaligi tarmoqlari va ularni joylashtirishga ta'sir etuvchi omillar.
4. Dehqonchilik va chorvachilikni hududiy tashkil qilish.
5. Oziq- ovqat hamda ocharchilik muammolarini hal etishda qishloq xo'jaligining roli.

### Qo'shimcha topshiriqlar:

1. Agar yakka turgan daraxtning azimuti  $279^\circ$  bo'lsa, uning rumb burchagi nechichiga teng bo'ladi?

2. O'zbekistonning geografik o'rniga oid quyidagi jadvalni to'ldiring.

| <i>Iqtisodiy georafik o'rni<br/>(IGO') ko'rinishlari</i> | <i>IGO' ga ta'sir etuvchi<br/>ijobiy omillar</i> | <i>IGO' ga ta'sir etuvchi<br/>salbiy omillar</i> |
|----------------------------------------------------------|--------------------------------------------------|--------------------------------------------------|
| <i>Mikro IGO'</i>                                        |                                                  |                                                  |
| <i>Mezo IGO'</i>                                         |                                                  |                                                  |
| <i>Makro IGO'</i>                                        |                                                  |                                                  |


3. O'zbekistonning tabiiy geografik okruglarini yozuvsiz xaritada tasvirlang.

4. Atlantika okeani dengizlarini yozing.

5. Bosimli mintaqalar: siklon va antisiklonga ta'rif bering.

### Javoblar:

1. Meridianning shimoliy qismi va berilgan predmet yo'nalishi orasida hosil bo'lgan burchak *azimut burchagi* deb ataladi va  $0^\circ$  dan  $360^\circ$  gacha soat strelkasi yo'nalishida o'lchanadi.



Rumb burchagi deb, meridianning shimoliy yoki janubiy uchidan berilgan predmet yo'nalishigacha o'lchanadigan o'tkir gorizontal burchakka aytiladi. Rumblar  $r$  harfi bilan belgilanib  $0^\circ$  dan  $90^\circ$  gacha bo'ladi. Chiziq yo'nalishini rumb bilan ko'rsatishda uning son qiymatidan oldin chiziq joylashgan chorak nomi ham ko'rsatiladi.

Azimut umumiy holatda nuqtaning o'rnini 4 ta chorak bo'yicha talqin etadi. Rumb burchagi esa faqat 1 ta chorak doirasida bo'ladi. Shu bois u  $0^\circ$  dan  $90^\circ$  gacha o'lchanadi va joylashgan choragini ham inobatga olinadi. Agar nuqtaning azimut burchagi ma'lum bo'lsa, rumb burchagi quyidagicha aniqlanadi:

| <i>Azimutlar</i>        | <i>Rumblar</i>          | <i>Choraklar</i>             |
|-------------------------|-------------------------|------------------------------|
| $0^\circ - 90^\circ$    | $r_1 = A_1$             | I- Sh- shq (shimoli-sharq)   |
| $90^\circ - 180^\circ$  | $r_2 = 180^\circ - A_2$ | II- J- shq (janubi- sharq)   |
| $180^\circ - 270^\circ$ | $r_3 = A_3 - 180^\circ$ | III- J- g'r (janubi- g'arb)  |
| $270^\circ - 360^\circ$ | $r_4 = 360^\circ - A_4$ | IV- Sh- g'r (shimoli- g'arb) |

Masalan, A nuqtaning azimuti  $279^\circ$  bo'lsa shu nuqtaning rumbini aniqlash uchun quyidagicha ishlar amalga oshiriladi:

- ✓ azimut qiymati topiladi:  $A = 279^\circ$ ;
- ✓ nuqtaning nechanchi chorakda joylashgani topiladi: qiymat  $270^\circ$  dan katta bo'lganligi uchun bunda joylashgan o'rni IV chorak;

✓ IV chorak bo'yicha azimutdan rumbga o'tish formulasi aniqlanadi:

$$r_4 = 360^\circ - A_4$$

$$r_4 = 360^\circ - 279^\circ = \underline{81^\circ}$$

Demak, A nuqtaning azimut burchagi  $279^\circ$  ni tashkil etsa, rumb burchagi IV-  $81^\circ$ - Sh- g'r bo'lar ekan.

Rumb burchagi  $90^\circ$  dan kichik bo'lishining sababi, obyektни meridianning qaysi tomoni(shimol yoki janub)ga yaqin joylashganligidadir. Chunki meridian yoyiq burchak ( $180^\circ$ )ni hosil qiladi. Meridianni sharq- g'arbni aniqlash gorizantal chizig'i bilan kesilganda,  $90^\circ$  dan ikkita chorakka ajraladi. Shu bois meridianning qaysi tomoniga yaqin bo'lsa,  $90^\circ$  dan kichik qiymatda, chorakni inobatga olgan holda, qiymat topiladi.

Agar joyning rumb burchagi aniq bo'lsa-yu, azimut burchagi aniqlanishi kerak bo'lsa, quyidagi misollarga bog'lagan holda, amallar bajariladi:

| <i>Rumblar</i>           | <i>Hisoblamalar</i>                  | <i>Azimutlar</i> |
|--------------------------|--------------------------------------|------------------|
| I- $45^\circ$ – sh- shq  | $A_1 = r_1$                          | $45^\circ$       |
| II- $78^\circ$ – J- shq  | $A_2 = 180^\circ - r_2$              | $102^\circ$      |
| III- $12^\circ$ – J- g'r | $A_3 = 180^\circ + r_3$              | $192^\circ$      |
| IV- $63^\circ$ – Sh- g'r | $A_4 = (90^\circ - r_4) + 270^\circ$ | $297^\circ$      |

Yuqoridagi hisob- kitoblarni bilgan holda, to'g'ri azimut va rumb burchaklarining qiymatlariga oid har qanday hisoblash ishlarini bajarish qulay hisoblanadi.

2. Geografik o'rin yer yuzidagi biror obyektning boshqa obyektga nisbatan joylashgan o'rni bo'lib, mohiyatan tabiiy, iqtisodiy va siyosiy geografik o'rinlarga bo'linadi. Ular joylashish o'rning nima bilan bog'lab izohlanishiga ko'ra bo'lsa, ko'lam jihatidan mikro, mezo va makrogeografik o'rinlar ajratiladi.

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

O'zbekiston Markaziy Osiyo subregionining markazida joylashgan bo'lib, tabiiy geografik nuqtai nazardan, okean va dengizlarga ikki marta chiqa olmaydigan (to'rt tarafdin ham okeanlarga chiqish uchun ikkitadan davlatni bosib o'tishi kerak bo'lgan) davlat. Lekin tabiiy sharoiti va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, iqtisodiy geografik o'rni yaxshi ko'rsatkichlarga erishmoqda. Siyosiy geografik o'rnida qo'shnichilik munosabatlariga katta e'tibor berilmoqda hamda bu muammo ham o'z yechimini topish bosqichiga deyarli yetib kelmoqda.

Quyida ko'lam jihatidan mamlakatimiz geografik o'rni berilgan:

| <i>Iqtisodiy georafik o'rni<br/>(IGO') ko'rinishlari</i>                    | <i>IGO' ga ta'sir etuvchi<br/>ijobiy omillar</i>                                                                                                                                                                                                                                                                                                            | <i>IGO' ga ta'sir etuvchi<br/>salbiy omillar</i>                                |
|-----------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------|
| <b><i>Mikro IGO'</i></b><br><i>(qo'shni davlatlarga<br/>nisbatan o'rni)</i> | Markaziy Osiyoda subregionining qoq markazida joylashganligi, barcha mintaqa davlatlari bilan to'g'ridan to'g'ri chegaradoshligi, qo'shni respublikalar bilan barcha turdagi quruqlik transporti (avtomobil, temiryo'l, quvur) tizimlari bilan yaxshi bog'langanligi. Natijalari: Mintaqada aholisi eng zich, yirik shaharlarga boy va nisbatan rivojlangan | Transchegaraviy daryolar va yo'llar kabi muammolarini hal qilishni taqazo etadi |
| <b><i>Mezo IGO'</i></b><br><i>(yaqin mintaqalarga)</i>                      | O'rtacha qulayliklarga ega. Sababi O'zbekiston Kavkaz Respublikalari,                                                                                                                                                                                                                                                                                       | Afg'oniston, Eron kabi davlatlari bilan har tomonlama keng ijtimoiy             |

|                                                                    |                                                                                                                                                                               |                                                                                                                                                             |
|--------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <i>nisbatan tutgan o' rni)</i>                                     | ayniqsa, Rossiya bilan zamonaviy transport vositalari orqali samarali bog'langan va bu davlatlar bilan yaqin iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'ygan                              | aloqada bo'lib kelgan bo'lsa-da, hozirda mavjud siyosiy qiyinchiliklar ulardan o'tib, okeanga chiqishga to'siq bo'lib turibdi                               |
| <b><i>Makro IGO'</i></b><br><i>(jahon miqyosida tutgan o' rni)</i> | Mustaqillik yillaridan so'ng turli yo'nalishlarda O'zbekistonni Dunyo okeani bilan bog'lovchi xalqaro yo'l loyihalarida faol ishtirok etishi davlatlararo birdamlikni oshirdi | O'zbekiston eng yaqin okeanga chiqish uchun kamida ikki davlat hududidan bosib o'tishi kerak. Dengizga chiqish imkoniyati bunda yanada pastligini anglatadi |

O'zbekistonning geografik o'rni qay yo'sinda tahlil etilmasin, sekin- asta barcha tomondan ko'rsatkichlarini yaxshilab bormoqda. Hududi yadroviy quroldan xoli bo'lgan, qo'shilmaslik siyosatini qo'llab- quvvatlovchi davlatga aylanishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan O'zbekiston siyosiy, ijtimoiy- iqtisodiy muammolarni hal qilish, iqtisodiy rivojlanishga erishish uchun qator davlatlar bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Atrofidagi qo'shni davlatlardan tashqari, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy kabi ulkan salohiyatga ega davlatlar bilan yaqin aloqalarni o'rnatgan. Shu bilan birgalikda ShHT, MDH kabi tashkilotlarning faoliyatida doimiy faol ishtirokchi hisoblanadi.

3. Yer sayyorasining tabiati o'ziga xos va yagonadir. Boshqa sayyoralarda kuzatilmaydi, albatta, undagi hodisa- jarayonlar. Tabiat komponent(tog' jinslari, suv, havo, tuproq, o'simlik, hayvon)larining o'zaro uzviy aloqasi va bir- biriga

ta'siri natijasida geotizimlar shakllangan. Geotizimlarni katta- kichikligi bo'yicha, ya'ni pog'onasimon qo'yib chiqilsa, quyidagi taksonomik birliklar ajratiladi: geografik qobiq- suvlik va quruqlik – materiklar- tabiiy geografik o'lkalar- tabiiy geografik zonalar- tabiiy geografik provinsiyalar- *tabiiy geografik okruglar*- tabiiy geografik rayonlar- landshaft- joy- urochishe- fatsiya. Lekin geotizimlar, odatda, yuqorida aks ettirilganidek, birin- ketin emas, balki kichik geotizimlar birgalikda kattalarini, ular esa, o'z navbatida, undan kattaroqlarini hosil qiladi, ya'ni “kattasining ichida kichiklari” joylashgan.

Tabiiy geografik okrug tabiiy xususiyatlariga ko'ra ajratilgan, tabiat komponentlaridan iborat hudud hisoblanadi. O'zbekistonning hududi ikki qism- tekislik hamda tog' va tog'oldi mintaqalariga bo'linadi. Ularning tarkibida esa tabiiy geografik okruglar mavjud bo'lib, ular quyidagichadir:


➤ *Tog' va tog'oldi mintaqasiga kiruvchi okruglar:*

- Farg'ona tabiiy geografik okrugi;
- Chirchiq- Ohangaron tabiiy geografik okrugi;
- Mirzacho'l tabiiy geografik okrugi;
- O'rta Zarafshon tabiiy geografik okrugi;
- Qashqadaryo tabiiy geografik okrugi;
- Surxondaryo tabiiy geografik okrugi.

➤ *Tekislik mintaqasi tarkibiga kiruvchi okruglar:*

- Quyi Zarafshon tabiiy geografik okrugi;
- Qizilqum tabiiy geografik okrugi;
- Quyi Amudaryo tabiiy geografik okrugi;
- Orol tabiiy geografik okrugi;
- Ustyurt tabiiy geografik okrugi.

Tabiiy geografik okruglar yuqoridagilardan iborat bo'lib, quyida O'zbekistonning qaysi okruglardan tashkil topganligiga oid o'rgazmali ravishda karta asosida yoritib berilgan<sup>15</sup>.



*O'zbekistonning tabiiy geografik okruglarga bo'linishi*

Okruglarning tabiiy va geografik xususiyatlari, albatta, hududining geografik o'rni, relyefi, havo massalariga o'ng yoki teskariligi, yer usti qoplami, shuningdek, antropogen omilga bog'liq. Shulardan kelib chiqqan holda, ularda o'ziga xos o'simlik, hayvonot dunyosi, tuproq tiplari va mezoiklim shakllangan. Masalan, Ustyurt tabiiy geografik okrugi O'zbekistonning eng shimoli- g'arbida joylashgan. Geografik o'rniga bog'liq holda, qishda harorat past( yanvarda o'rtacha -10, -11° C, eng sovug'i -38° C), yozda esa shamolli va nisbatan yog'inli (okrugdagi yillik yog'inning 23 % qismi, ya'ni deyarli 25,3 mm) bo'ladi. Mamlakatimizdagi eng janubiy okrug bo'lmish Surxondaryoda esa buning aksi. Shimoldan, sharq va

<sup>15</sup> Berilgan kartadagi okruglar atlasdagi O'zbekiston rayonlashtirish kartasidagi okruglarga shakl jihatidan o'xshamasligi mumkin. Chunki darslik va atlasda ikki xillik mavjud. Lekin kontur kartaga tushirayotganda atlasdagi shakl bo'yicha tushurish maqsadga muvofiqroq bo'ladi. Lekin yangi kiritilgan okruglarning o'rnini darslikdan foydalangan holda, mos ravishda joylashtirish lozim.



g'arbdan tog'lar bilan o'ralganligi bois, sovuq havo massalari kirib kelishiga to'sqinlik qiladi. Yanvarning o'rtacha harorati tekislik qismida  $+2,8^{\circ}\text{C}$  ni tashkil etsa, ba'zan sovuq havo tog'lardan oshib o'tganda, harorat  $-20, -25^{\circ}\text{C}$  gacha pasayadi. Tekislik qismida yillik yog'in 133- 230 mm bo'lsa, bu ko'rsatkich Hisor tog'larida 800- 900 mm gacha yetadi. Yog'inning atigi 1- 2 % qismigina yozga to'g'ri keladi. Joylashgan o'rni va relyefiga bog'liq holda, tabiati shakllangan.

Har bir okrug bir- biridan u yoki bu xususiyatlariga ko'ra farq qiladi, shunday bo'lsada, umumiylik kuzatiladi. Okruglarga ajratish va ularni o'rganish hududlar orasidagi tafovutlarga bog'liqlikdan tashqari, yana tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, o'ziga xos tabiatini muhofaza qilish, xo'jalik tarmoqlarini ixtisoslashuviga ham bog'langan. Zero, okruglarga ajratish mamlakat hududlarini o'rganishni tizimli tashkil etishda katta ahamiyatga ega.



4. Atlantika- (yunoncha "Atlanta"- yelkasida osmon gumbazini ko'tarib turuvchi pahlavon) kattaligiga ko'ra II o'rinda turuvchi okean. Maydoni 91 mln  $\text{km}^2$  va suv hajmi 330 000 000  $\text{km}^3$  ni tashkil etadi, o'rtacha chuqurligi 3 926 m, eng chuqur joyi esa Puerto- Riko botig'ida 8 742 m ga teng. Dengizlarining soni 20 ta bo'lib, ichki dengizlar sonining ko'pligiga ko'ra I o'rinda turadi.

Dengiz- yarimorollar, orollar va suv osti qirlari bilan ochiq okeandan ajralib turadigan Dunyo okeani qismlari bo'lib, joylashish o'rniga ko'ra,

- ✓ materiklar chekkasida joylashgan (masalan, Ueddell va h.z.);
- ✓ materiklar orasida joylashgan (masalan, O'rta Yer va h.z.);
- ✓ materiklar ichkarisida joylashgan (masalan, Azov dengizi) kabi guruhlarga bo'linadi.

Yuqorida keltirilganidek, okeanda har qanday joylashish o'rniga ega dengizlar topiladi, xatto, boshqa okeanlarda uchramaydigan qirg'oqsiz- Sargasso dengizi bor. Okean Lavraziya va Gondvana materiklarining gorizantal parchalanishidan hosil bo'lgan, qirg'oqlarining bundan darak berishi natijasida "materiklar dreyfi gipotezasi"ga asos bo'lgan.





Shimoldan janubga 12 000 km dan ortiq masofaga cho'zilgan. Ayniqsa, shimoliy yarimshardagi qismi kuchli parchalangan. Yevrosiyo va Afrika materiklari orasida 12 ta ichki dengizlar joylashgan. Ammo, janubiy yarimsharda Afrika va Amerika qit'alarining qirg'oqlari tik(Afrikada) va ochiq okean shakliga ega. Antarktida atrofida esa 3 ta dengiz joylashgan. Dengizlarining umumiy soni 20 ta bo'lib, ichki dengizlar sonining ko'pligiga ko'ra I o'rinda turadi.

Quyida Atlantika okeani tarkibiga kiruvchi dengizlar berilgan:

| <i>N<sub>o</sub></i> | <i>Dengizlar nomi</i> | <i>Qaysi qit'a(lar)<br/>qirg'og'idali</i> | <i>Qaysi materik(lar)<br/>qirg'og'idali</i> |
|----------------------|-----------------------|-------------------------------------------|---------------------------------------------|
| 1                    | Adriatika             | Yevropa- Afrika                           | Yevrosiyo- Afrika                           |
| 2                    | Alboran               | Yevropa                                   | Yevrosiyo                                   |
| 3                    | Azov                  |                                           |                                             |
| 4                    | Balear                |                                           |                                             |
| 5                    | Boltiq                |                                           |                                             |
| 6                    | Egey                  |                                           |                                             |
| 7                    | Ioniya                |                                           |                                             |
| 8                    | Irlandiya             |                                           |                                             |

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

|    |           |                     |                        |
|----|-----------|---------------------|------------------------|
| 9  | Karib     | Amerika             | Sh. va J. Amerika      |
| 10 | Krit      | Yevropa             | Yevrosiyo              |
| 11 | Lazarev   | Antarktida          |                        |
| 12 | Liguriy   | Yevropa             | Yevrosiyo              |
| 13 | Marmar    | Yevropa- Osiyo      |                        |
| 14 | Oʻrta Yer |                     | Yevrosiyo- Afrika      |
| 15 | Qora      |                     | Yevrosiyo              |
| 16 | Sargasso  | Amerika             | Sh. Amerika            |
| 17 | Shimoliy  | Yevropa             | Yevrosiyo              |
| 18 | Skosha    | Amerika- Antarktida | J. Amerika- Antarktida |
| 19 | Tirren    | Yevropa             | Yevrosiyo              |
| 20 | Ueddell   | Antarktida          |                        |

Atlantika okeanidagi dengizlar barchasi katta ahamiyatga ega. Materiklar orasidagi dengizlar (O'rta, Alboran...Krit)ga umumiy holatda O'rta dengiz mintaqasi nisbati ham qo'llanadi. Bu joydagi dengiz qirg'oqlari jahon turizmida I o'rinni egallaydi; Karib dengizi bu joydagi mamlakatlar xo'jaligini belgilab beruvchi faktor bo'lsa, Antarktida atrofida tiniq va baliqlarga ham boy. Umuman olganda, okeanning ahamiyati katta.

Okean va undagi oqimlar, havo massalarining materiklar iqlimining shakllanishida tutgan o'rni beqiyos. Ayniqsa, iliq Golfstrim oqimi Shimoliy Amerika va Yevropaning tabiatiga katta ta'sir ko'rsatgan, Osiyoning g'arbiy qismlariga ham Atlantika okeanidan keladigan nam havo massalari yog'in keltiradi. Shuleykin ta'biri bilan aytganda, ekvatorida isitkich, qutblarda sovutkich mexanizmlari joylashgan, ular orasidagi modda va energiya almashinuvi oqimlar, havo massalari va shamollar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Okean kengayish zonasida joylashgan. Olimlarning taxminlariga ko'ra, kelajakda okean yanada kengayishi mumkin. Xususan, misol tariqasida keltirish mumkinki, so'nggi 1 mln yil ichida Yevrosiyo va Shimoliy Amerika bir- biridan 40 km ga

uzoqlashgan. Qolaversa, yana bir guruh olimlar Atlantikaning janubiy qismini Janubiy okeanga kiritishadi. Lekin shunday bo'lsada, hozirda, asosan, 4 ta okean borligi uqtiriladi va o'rganiladi.

5. Atmosfera havosining umumiy harakati atmosfera sirkulyatsiyasini vujudga keltiradi. Uni vujudga kelishini asosiy omili issiqlikni atmosferada bir tekis taqsimlanmagani, ya'ni termik omil hisoblanadi. Vujudga kelgan harakat Yerni o'z o'qi atrofida aylanishi ta'sirida (Koriolis kuchi), Yer yuzasiga ishqalanishi va boshqa bir qator omillar ta'sirida murakkab ko'rinishga ega bo'ladi. Havo harakatining asosiy qonuniyatlari haqidagi umumiy tushuncha atmosfera bosimining o'rtacha ko'p yillik ko'rsatkichi va yanvar, iyul oylarida esuvchi asosiy shamollar tahlili asosida olinishi mumkin. Atmosfera bosimining joylashishi ikkita asosiy qonuniyat: zonallik va regionallikka bo'ysunadi. Ma'lum ma'lumotlar tahlili yer yuzasida atmosfera bosimining joylashishida aniq qonuniyat mavjudligini ko'rsatdi. Yuqori va past bosim zonalarining geografik kengliklar bo'ylab almashib turishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ekvator atrofidagi bosim tropik va subtropik mintaqalarga nisbatan past. O'z o'rnida, tropik va subtropik mintaqalardagi yuqori bosim mo'tadil mintaqa sari yana pasayib boradi. Qutblarda esa bosim yana biroz ko'tariladi. Bosimni bunday joylashishiga mos ravishda, shamollar tizimi shakllanadi. Subtropik va tropik yuqori bosim mintaqasidan ekvator tomon passat shamollari esadi. Koriolis kuchi ta'sirida ular biroz qiyalashib sharq tomondan esa boshlaydi. Mo'tadil mintaqalarda g'arbiy shamollar hukmronlik qiladi. Atmosfera sirkulyatsiyasining eng asosiy xususiyati uni tez- tez o'zgarib turishi va turg'un bo'lmasligi hisoblanadi. Issiqlikning birlamchi taqsimlanishini kelayotgan quyosh radiatsiyasining miqdori bilan bog'laymiz. Bu holat termik tafovutni keltirib chiqaradi va atmosfera bosimini notekis taqsimlanishiga, pirovard natijada, shamollarni shakllanishiga olib keladi. Yuqorida ko'rsatilgan omillar ta'sirida shakllangan shamol o'z o'rnida ularni o'ziga faol ta'sir ko'rsata boshlaydi, ya'ni


havo massalari bilan birgalikda issiqlik, namlik, mineral tuzlar bir joydan ikkinchi joyga ko'chadi.

Yer yuzasida energiya qayta taqsimlanadi, o'z o'rnida, bu holat atmosfera bosimini qayta o'zgartiradi, shamollar tizimiga ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonga bulutlarning ta'siri ham juda kuchli, chunki u koinot va yer yuzasi orasidagi radioatsion va issiqlik almashinishini tartibga solib turadi, natijada atmosfera sirkulyatsiyasi nihoyatda murakkablashadi. O'rta va yuqori kengliklarda katta hajmdagi havo massalari siklon (past bosimli oblastlar yoki barik minimum)lar va antisiklon (yuqori bosimli oblastlar yoki barik maksimum)lar ta'sirida harakat qiladi.

*Siklon*- burama (quyun) hosil qilib yuqoriga harakat qiluvchi, markazida bosim past va atrofga tomon ortib boruvchi havo massalarida iborat bo'lib, shimoliy yarimsharda soat strelkasiga qarshi, janubiy yarimsharda soat strelkasiga mos aylanma harakat (masalan, Eron- Txar minimum)ni vujudga keltiradi. Shuning uchun shimoliy yarimsharda siklonlar g'arbdan sharqqa qarab harakat qilganda uning old qismida havo massalari janubdan shimolga tomon, orqa qismida esa shimoldan janubga tomon harakat qiladi. Janubiy yarimsharda esa buni aksi kuzatiladi. Bir vaqtning o'zida siklonlarda havoning vertikal harakati ham amalga oshib, uning markazidagi havo yuqoriga ko'tariladi. Siklonlar yaqinlashayotganda osmonda, dastavval, patsimon bulutlar paydo bo'lib, ular sharqqa tomon tez yurib turadi. So'ngra ular ketidan patsimon qat- qat, baland qat- qat va qat- qat bulutlar keladi. Bular bilan bir vaqtda atmosfera bosimi pasaya boradi, shamol kuchayadi, namlik ortadi, sovuq fasllarda kun iliydi, yozda havo salqinlashadi.

Quyida antisiklon va siklonning sxemasi berilgan. Bunda o'ng tomonda antisiklon, chap tomonda esa siklon berilgan. Chiziqdan yuqoridagi ko'rinishlari shimoliy yarimshardagi holati bo'lsa, chiziqdan pastdagilari janubiy yarimshardagi ko'rinishlaridir. Yuqori bosimli mintaqadan past bosimli mintaqaga havo gorizantal oqadi va shamol hosil bo'ladi. Bosimlar orasidagi farqqa bog'liq holda, shamolning kuchi shakllanadi.

Quyida siklon<sup>16</sup> va antisiklonning<sup>17</sup> sxemasi keltirilgan bo'lib, yuqori qismidagilari shimoliy, past qismidagilari janubiy yarimsharga xosdir:



*Antisiklon*– yuqori bosim oblasti (masalan, Markaziy Osiyo antisikloni). Antisiklonlarda havo yuqoridan pastga tomon harakat qiladi, zichlashadi va yer yuzasiga bosiladi. Havo pastga tomon harakat qilganligidan u adiabatik ravishda isiydi va quruqlashadi. Shu sababli antisiklonda havo ochiq va quruq, bulutsiz yoki kam bulutli bo'ladi. Yozda harorat yuqori, issiq, qishda esa sovuq bo'ladi; qishda havo pastga tushib isishiga qaramay, ob- havo sovuq bo'lishiga sabab shuki, yuqoridagi havo bundan ham sovuqdir. Antisiklon markazida shtill bo'ladi, chekka qismlarida esa bir tekis shabada esib turadi, yuqoridan tushayotgan havo atrofga asta tarqalib ketadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shularni aytish mumkinki, siklon yoki antisiklon hukmronlik qilgan joyda ob- havo o'ziga xos bo'ladi. Siklon hukmronlik qilgan hududda bosim pasayib, shamol yo'nalishi keskin o'zgaradi va, odatda,

<sup>16</sup> Chap tarafdagi havo girdobi. Siklonda shamollar shimoliy yarimsharda soat strelkasiga qarama- qarshi, janubiy yarimsharda soat strelkasi bo'yicha harakat qiladi

<sup>17</sup> O'ng tarafdagi havo girdobi. Antisiklonda shamollar shimoliy yarimsharda soat strelkasi yo'nalishiga to'g'ri, janubiy yarimsharda soat strelkasiga qarama- qarshi yo'nalishda harakat qiladi

yog'ingarchilik bo'ladi. Antisiklonlar hukmronlik qilgan hududlarda havo bosimi yuqori bo'lib, havo ochiq, yog'ingarchilik bo'lmaydi.

### Nazorat savollari:

1. Azimut va rumb burchaklari qanday aniqlanadi?
2. Geografik o'rin deb nimaga aytiladi?
3. Geotizimlarni qanday taksonomik birlilarga bo'lish mumkin?
4. Atlantika okeani atrofidagi materiklar iqlimiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
5. Bosimli oblastlar qanday vujudga keladi?

### Test savollari:

1. III chorakda rumb burchagini aniqlash uchun quyidagilarning qaysi biridan foydalaniladi?

A)  $r_3 = 180 - A_3$

B)  $r_3 = A_3$

C)  $r_3 = A_3 - 180$

D)  $r_3 = 360 - A_3$

2. O'zbekistonning qaysi o'rni noqulayligi bilan ajralib turadi?

A) nanogeografik

B) mikrogeografik

C) mezogeografik

D) makrogeografik

3. Quyidagilar orasidan tekislik mintaqasida joylashgan O'zbekistondagi tabiiy geografik okrugni toping.

A) Orolbo'yi qumli cho'llari

B) Quyi Zarafshon

C) Mirzacho'l

D) Chirchiq- Ohangaron

4. Atlantika okeanining suv hajmi qanchani tashkil etadi?

A)  $330\,000\,000\text{ km}^3$

B)  $282\,700\,000\text{ km}^3$

B)  $392\,900\,000\text{ km}^3$

D)  $419\,500\,000\text{ km}^3$

5. Siklon deb nimaga aytiladi?

A) havo bosimi markazida yuqori bo'lib, atrofga tomon pasayib boradigan, shamollar soat strelkasiga teskari yo'nalishda esadigan havo girdobi

B) *havo bosimi markazida past bo'lib, atrofga tomon ortib boradigan, shamollar soat strelkasiga teskari yo'nalishda esadigan havo girdobi*

C) yuqori va past bosimli mintaqalarning to'qnashgan joyida vujudga keladigan shiddatli havo girdobi

D) havo bosimi markazning o'zida ham yuqori, ham past bo'lishi natijasida aylanma girdob hosil qiladigan, soat strelkasiga to'g'ri yo'nalishda esadigan shamol girdobi

Mustaqil ta'lim

• O'zbekiston sanoat va qishloq xo'jalik kartasini ishlash

**Bilasizmi???**

- Finlyandiya va Islandiyada aholisi 200 kishidan ortiq aholi punktlariga shahar maqomi berilishi mumkin;
- Yevropadagi eng ko'p shamol esadigan hudud Shotlandiya hisoblanadi;
- Yaponlar o'z mamlakatlarini Nippon deb atashadi. Bu so'z yapon iyeroglifidagi ikki belgidan tarkib topgan bo'lib, uning birinchisi- "Quyosh", ikkinchisi- "asos", ya'ni *Quyoshning ildizi* degan ma'noni bildiradi.

### Amaliy mashg'ulot № 10

#### • Jahon transporti

**Topshiriqlar:**



1. Transportning xo'jalik tizimidagi o'rni. Ishlab chiqarishni joylashtirishda transportning roli.
2. Transportning asosiy ko'rsatkichlari. Transport tarmoqlarining joylanish omillari.
3. Transport turlari, temiryo'l, avtomobil, quvur, suv va havo transportlari.
4. O'zbekiston transporti. Transport turlari va davlatlarning tashqi iqtisodiy aloqalarida transportning roli.

### Qo'shimcha topshiriqlar:

1. Kemadan exolot orqali dengizga yuborilgan signal 5 sekundda qaytib chiqqan bo'lsa, (suvda tovush tezligi 1500 m/sek. ekanligini unutmagan holda) dengiz chuqurligini aniqlang.

2. Quyidagi eng yirik orollarning maydonini yozing.

- 1) Grenlandiya;    2) Yangi Gvineya;    3) Kalimantan;  
4) Madagaskar;    5) Baffin Yeri;    6) Sumatra;  
7) Tasmaniya;    8) Kanar o-lari;    9) Olovli Yer;    10) Marajo.

3. Jadvalda berilgan daryolar qaysi materikka tegishli ekanligini aniqlang.

| <i>№</i> | <i>Daryo nomi</i> | <i>Qaysi davlat(lar) hududidaligi</i> |
|----------|-------------------|---------------------------------------|
| 1        | Missuri           |                                       |
| 2        | Darling           |                                       |
| 3        | Rio- Grande       |                                       |
| 4        | Ili               |                                       |
| 5        | Avlio-Lavrentiy   |                                       |
| 6        | Amur              |                                       |
| 7        | Niger             |                                       |



|    |        |  |
|----|--------|--|
| 8  | Temza  |  |
| 9  | Oranj  |  |
| 10 | Parana |  |

4. Quyidagi tog'lar qaysi materikda joylashgan?

- 1) And;            2) Appalachi;    3) Karpat;            4) Alp;    5) Tibet;  
6) Kordilyera;    7) Kavkaz;        8) Hisor;            9) Atlas;    10) Terror;  
11) Makdonnel; 12) Xamersli;    13) Denali;        14) Kap;    15) Gviana;  
16) Zagros;        17) Elsuert;       18) Serra- Nevada.

5. Quyidagi geografik atama va tushunchalarga tavsif yozing.

- Konfederatsiya
- Maorilar
- Megalopolis
- Paramos
- Landshaft

### *Javoblar:*

1. *Exolot*- suv tubiga tovush yuborib, qaytgan tovush tezligini hisoblash orqali suv havzalarining chuqurligini o'lchovchi asbob. Ishi kemaga o'rnatilgan ultratovushni uzatuvchi va qabul qiluvchi qurilma(vibrator)dan uzatilgan tovush signallari suv tubiga borib, qaytib kelguncha o'tgan vaqtni o'lchashga asoslangan. Maxsus elektr generator vibratorga dam- badam elektr impulslarini yuborib turadi, vibrator ularni akustik tebranishlar(tovush)ga aylantirib uzatadi. Suv tubidan qaytgan akustik tebranishlarni o'sha vibratorning o'zi qabul qilib, ularni elektr impulslariga o'zgartiradi. Kuchaygan impulslar chuqurlik indikatoriga kelib tushadi. Bu indikator impulslarning borib kelishi uchun ketgan vaqtni aniqlaydi.

Ya'ni suvda tovush tezligi 1500 m/sek.ga teng Bu qiymatni formulaga qo'yib, suv havzasining chuqurligini aniqlaydi.

IV. Agar tovush yuborilib, qaytib chiqqan vaqti ma'lum bo'lsa, quyidagidek proporsiya usulidan foydalaniladi:

1 sek. ----- 1 500 m/sek.

$\Delta$  sek. ----- x

Masalan, agar dengizga exolot orqali yuborilgan tovush 5 sekundda qaytib chiqqan bo'lsa, ushbu dengizning chuqurligini aniqlang.

Yechish: yuborilgan tovush qaytib chiqqanda, suvda tovush tarqalish tezligiga ko'paytirishdan avval vaqtni 2 ga bo'lish kerak. Chunki tovush yuborilganda suv tubiga tegib, urilib qaytadi. Demak, chuqurlik bir tomonlik masofaga 1 500 ni ko'paytirish orqali topiladi.

3) 5 sekund : 2 = 3,5 sekund

4) 1 sek. ----- 1 500 m.

2,5 sek. ---x= 3 750 m.

Demak, dengiz botig'ining chuqurligi 3 750 metr ga teng bo'ladi.

V. Agar suv havzasining chuqurligi ma'lum bo'lsa-yu, bu chuqurlikni exolotdan yuborilgan tovush qancha vaqtda bosib o'tishi so'ralgan bo'lsa, quyidagi usuldan foydalaniladi:

1 sek. ----- 1 500 m.

x-----  $\Delta$  m (bizga ma'lum chuqurlik)

Masalan, agar Kaspiy dengizining eng chuqur joyi 1 025 metrliki ma'lum bo'lsa, yuborilgan tovush botiqning tubiga qancha vaqtda yetib tushadi?

1 sek. ----- 1 500 m.

0,683 sek.=x -----1 025 m.

Demak, exolotdan yuborilgan tovush Kaspiy dengizining janubidagi botiq tubiga 0,683 sekundda yetib tushar ekan.

- VI. E'tibor berish lozimki, agar mashqlarda yuborilgan tovush faqat suv tubiga yetib tushgani ta'kidlansa, avvalgidek vaqtni 2 ga bo'lmaymiz. Aksincha, bir yo'la 1500 ga ko'paytiriladi.

Masalan, Tinch okeanining sharqidagi botiqqa exolotdan yuborilgan tovush 5,75 sekundda yetib tushganligi ma'lum bo'lsa, okean botig'i chuqurligini aniqlang.

1 sek. ----- 1 500 m.

5,75 sek. --- x= 8 625 m

Demak, botiqning chuqurligi 8 625 metrga teng bo'ladi.

2. Yer sayyorasining maydoni 510 mln km<sup>2</sup> ga teng bo'lib, shundan 149 mln km<sup>2</sup> i quruqlik maydoniga to'g'ri keladi. Quruqlik(quri+q= quruq, ya'ni suvlikdan ko'tarilib turuvchi hudud)lar materik va orollar tashkil topgan.

Materik- tektonik tuzilishiga ko'ra bir butun, suvlikdan ko'tarilib turgan ulkan yaxlit quruqlik. Materiklar eng ulkan quruqlik bo'laklari bo'lib, ular oltita: Yevrosiyo, Afrika, Shimoliy Amerika, Janubiy Amerika, Antarktida, Avstraliya.

Orol- atrofi suv bilan o'ralgan nisbatan kichik quruqlik. Yer yuzidagi barcha orollarning umumiy maydoni 9,9 mln km<sup>2</sup>, shundan deyarli 79 % ga yaqini maydoni 50 000 km<sup>2</sup> dan katta bo'lgan 28 ta orolga to'g'ri keladi. Quyida materiklar (Antarktidadan tashqari) bo'yicha ayrim orollar (maydoni bilan) keltirilgan:

| <i>Yevrosiyo</i>                      | <i>Afrika</i>                         | <i>Sh. Amerika</i>                       | <i>J. Amerika</i>                    | <i>Avstraliya</i>                      |
|---------------------------------------|---------------------------------------|------------------------------------------|--------------------------------------|----------------------------------------|
| Kalimantan<br>744 100 km <sup>2</sup> | Madagaskar<br>587 041 km <sup>2</sup> | Grenlandiya<br>2 175 600 km <sup>2</sup> | Olovli Yer<br>48 200 km <sup>2</sup> | Ya. Gvineya<br>792 540 km <sup>2</sup> |
| Sumatra<br>435 000 km <sup>2</sup>    | Kanar<br>7 300 km <sup>2</sup>        | Baffin Yeri<br>507 000 km <sup>2</sup>   | Marajo<br>4 800 km <sup>2</sup>      | Tasmaniya<br>68 400 km <sup>2</sup>    |

Orollar yaxlit va yakka holatda yoki bir joyda to'ppak holatda bir- biriga yaqin joylashgan (arxipelag shaklida) bo'lishi mumkin. Arxipelag- (yunoncha "arcepe"- hukmron, "pelagos"- dengiz) bir- biriga yaqin joylashgan orollar to'plamidir.

Barcha orollarni kelib chiqishiga ko'ra quyidagi tiplarga ajratish mumkin:

*I. Materik orollari:*

- 1) platforma orollari;
- 2) materik yonbag'ri orollari;
- 3) orogen orollar;
- 4) qirg'oq bo'yi orollari:
  - a) shxera;
  - b) delmatsion shxeralar;
  - c) fyord tipli;
  - d) qum tillaridan hosil bo'lgan;
  - e) delta orollari.

*II. Mustaqil orollar:*

- 1) vulkanik orollar:
  - a) yoriqlardan lavaning oqib chiqishidan hosil bo'lgan;
  - b) lavaning markaziy vulkandan oqib chiqishidan hosil bo'lgan qalqonsimon va konussimon orollar.
- 2) marjon orollari:
  - a) qirg'oqbo'yi riflari;
  - b) to'siq riflari;
  - c) atollar.

Orollar qulay joyda joylashgan bo'lsa, ayni muddao. Chunki qulay geografik o'ringa ega orol tez rivojlanadi. Chunki dengiz transporti xalqaro iqtisodiy aloqalarda eng muhim omillardan hisoblanib, eksport- import va mahsulotlar ayirboshlash jarayonlari yaxshi yo'lga qo'yiladi. Geografik o'ringa ega bo'lgan

orollarda joylashgan mamlakatga misol tariqasida Singapur, Buyuk Britaniya va hokazolarni keltirish mumkin.

3. Daryo- tabiiy ravishda vujudga kelgan chuqurlikda oquvchi suv massasi. Yer yuziga tushayotgan atmosfera yog'inlarining bir qismi bug'lanadi, bir qismi yerga shimiladi, yana bir qismi yuzada oqib, daryo va daryochalarni hosil qiladi. Binobarin, shu kabi atmosfera yog'inlari mahsuli bo'lgan suv oqimi daryo hisoblanadi. Har bir daryo quyidagi xossalarga ega bo'ladi:

- ✓ manba- boshlanish joyi;
- ✓ mansab- quyilish joyi;
- ✓ daryo vodiysi- daryo oqadigan soyluk;
- ✓ o'zan- daryo vodiysining suv to'lib oqadigan qismi;
- ✓ qayir- daryo suvi toshganda, suv ostida qoladigan yon atrofidagi qismi;
- ✓ havza- barcha suvi shu daryoga oqib tushadigan quruqlik maydoni.

Har bir hududda oqadigan bosh daryo va uning irmoqlari daryo tizimini hosil qiladi. Quyida ayrim yirik daryolar nomi va ularning joylashgan o'rni keltirilgan:

| <i>№</i> | <i>Daryo nomi</i> | <i>Qaysi davlat(lar) hududidaligi</i>    |
|----------|-------------------|------------------------------------------|
| 1        | Missuri           | Avstraliya                               |
| 2        | Darling           |                                          |
| 3        | Rio- Grande       | AQSh, Meksika                            |
| 4        | Ili               | Xitoy, Qozog'iston                       |
| 5        | Avliyo-Lavrentiy  | AQSh, Kanada                             |
| 6        | Amur              | Mongoliya, Xitoy, Rossiya                |
| 7        | Niger             | Gvineya, Mali, Niger, Benin,<br>Nigeriya |
| 8        | Temza             | Buyuk Britaniya                          |
| 9        | Oranj             | Lesoto, JAR, Namibiya                    |
| 10       | Parana            | Braziliya, Paragvay, Argentina           |

Daryolarning ahamiyati tabiatda beqiyos: modda va energiya­ning migratsiyasida ishtirok etadi, organik hayot, xususan, o'simlik va hayvonot dunyosining joylashishi va rivojlanishida asosiy o'rin egallaydi, eng asosiy xususiyatlaridan yana biri- inson uchun eng muhim bo'lgan chuchuk suv bilan ta'minlovchi asosiy manba hisoblanadi. Lekin dunyodagi daryolarning suvi cheklangan bo'lib, sayyoramizdagi suv zaxirasining faqat 0,0002 % ini tashkil qiladi. Quruqliklardagi daryo o'zanlaridan bir vaqtning o'zida, taxminan, 2 100 km<sup>3</sup> suv oqib o'tadi yoki yiliga o'rtacha 47 000 km<sup>3</sup> ni tashkil etadi. Binobarin, daryolardagi suvning hajmi har 16 kunda yangilanib turadi.

Afsuski, sanoat rivojlangani va aholining ko'payib, zichlashib borgani sayin daryolar suvi ifloslanib bormoqda. Achinarlisi, bir hududda daryoga tashlangan zararli birikma yoki chiqindi daryoning tashish funksiyasi tufayli boshqa hududga ham "yetkaziladi". Ularning ekologik holatini toza saqlash va saqlashga urinish har tomonlama foydali va, ayni paytda, juda zaruriydir.

**4.** Yer yuzi turli notekisliklardan iborat bo'lib, relyef (fransuzcha "do'nglik") atamasi bilan yuritiladi. Yer yuzi relyef shakllarining eng asosiylari esa tog' (quruqlikning 40 % i) va tekisliklar (quruqlikning 60 % i)dir.

Xususan, tog'lar quruqlikdagi mutloq balandligi 500 metrdan ortiq bo'lgan, atrofidagi tekis joylardan ko'tarilib qolgan gumbazsimon yoki konussimon shaklga ega relyef shakllaridir. Tog'lar tektonik jarayonlarning hosilasi bo'lib, yer taraqqiyotining bir necha milliard yillik faoliyati ta'sirida shakllanib, o'zgarib hozirgi ko'rinishiga kelgan. Olimlar tog' jinslarini radiaktiv va boshqa usullar orqali o'rganib, ularning geologik yoshini hisoblab chiqqanlar. Taqqoslama geologik nisbiy yoshga muvofiq quyidagicha geoxronologik jadval (yunoncha "ge"- Yer, "xronos"- vaqt, "logos"- ta'limot, ya'ni geologik yilnoma)ni shakllantirish mumkin:

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

| Eonlar    | Eralar     | Davrlar                          | Tog' burmalanishlari | Hosil bo'lgan tog'lar                                                                        |
|-----------|------------|----------------------------------|----------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------|
| Kriptozoy | Arxey      |                                  |                      |                                                                                              |
|           | Proterozoy |                                  | Baykal               | Baykalbo'yi, Sharqiy Sayon, Lunda-Katancha                                                   |
| Fanerozoy | Paleozoy   | Kembriy                          |                      |                                                                                              |
|           |            | Ordovik                          | Kaledon              | Oltoy, Tyanshan, Shim. Appalachi va Shimoliy Skandinaviya, G'arbiy Qozog'iston past tog'ligi |
|           |            | Silur                            |                      |                                                                                              |
|           |            | Devon                            | Gersin               | Ural, Janubiy Appalachi,                                                                     |
|           |            | Karbon                           |                      | Turkiston, Oloy, Katta                                                                       |
|           |            | Perm                             |                      | Suvayarg'ich, Patagoniya                                                                     |
|           | Mezozoy    | Trias<br>Yura<br>Bo'r            | Mezazoy              | Yuqori Yana, Sixotealin, Sharqiy hamda Markaziy Kordilyera, Chukotka                         |
|           | Kaynozoy   | Paleogen<br>Neogen<br>Antropogen | Alp                  | Alp hamda Himolay zanjirli tizmasi, And, Atlas, G'arbiy Kordilyera                           |

Asosan, Alp burmalanishida ko'tarilgan tog'lar tizmalanib, zanjir ko'rinishini hosil qilgan va ko'plari baland hisoblanadi. Oldin ko'tarilgan tog'larning ko'plari

esa turli ichki va tashqi omillar ta'sirida denutatsiya va nurashga uchrab, pasayib qolgan.

*Quyida esa 18 ta tog' va tog' tizmalarining qaysi materikda joylashganligi keltirilgan:*

- ✓ Yevrosiyo- Karpat, Alp, Tibet, Kavkaz, Hisor, Zagros;
- ✓ Afrika- Atlas, Kap;
- ✓ Shimoliy Amerika- Appalachi, Kordilyera, Denali, Serra- Nevada;
- ✓ Janubiy Amerika- And, Gviana;
- ✓ Antarktida- Terror, Elsuert;
- ✓ Avstraliya- Makdonnel, Xamersli

Tog'lar iqlimning shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, nam havo massalari harakati davomida tog' yonbag'irlariga kelib uriladi. Nam havoning yuqoriga ko'tarilishi davomida haroratga bog'liq holda, ortiqcha namlik yog'in tariqasida yer yuzasiga tushadi. Yuqoriga ko'tarilgan sari harorat va bosimning pasayishi, namlikning esa ortishi hisobiga qulay sharoit vujudga keladi. Natijada o'simlik va hayvonlar uchun muhit yaraladi, qolaversa, inson faoliyati, xususan, qishloq xo'jaligi uchun ham qulay sharoit vujudga keladi. Shuningdek, baland tog'larda to'plangan qor va muzliklar daryolarga suv berib turadi va ahamiyati yanada ortadi. Demak, tog'lar relyefning asosiy shakllaridan bo'lib, ko'p hollarda, xo'jalik va ixtisoslashuvni belgilab beradi.

### 5. Geografik atamalarning tavsifi:

**1) konfederatsiya-** (lotincha "konfederatio"- birlashma) mustaqilligini saqlagan holda, o'z davlat hokimyatiga ega bo'lgan, muayyan (harbiy, siyosiy) maqsadlarda birlashgan organlar ittifoqi. Misol tariqasida, Yevropa Ittifoqini keltirish mumkin. Unda Yevropa qit'asining 27 ta mamlakati birlashgan bo'lib, savdo- iqtisodiy va boshqa masalalarda ham barcha davlatlar bir uyushma sifatida faoliyat olib boradi. Undagi ko'p mamlakatlar ham kelishgan holda, yagona valuta- yevrodan foydalanadi.



Konfederatsiya deyilganda, faqatgina organlar uyushmasi yoki davlatlar ittifoqini tushunmaslik kerak. Yana boshqa bir, torroq ma'noda biror- bir ijtimoiy yoki boshqa tashkilotlarning nomini ham anglatadi. Masalan, Fransiya Umummehnat konfederatsiyasi, Osiyo futbol konfederatsiyasi va h.z.

**2) *maorilar***- Yangi Zelandiyaning tub joy aholisi. Umumiy soni 800 000 kishi atrofida bo'lib, mamlakat jami aholisining 20%, Okeaniya jami aholisining 9 %ini tashqil qiladi. Tili- maori. Maorilarning ajdodlari X- XIV asrlar davomida Markaziy Polineziyadan Yangi Zelandiya orollariga kelib o'rtnashib, melanezlarning qadimiy ajdodlariga qardosh bo'lgan tub aholi bilan chatishib ketganlar. Ularning asosiy mashg'uloti termachilik, baliqchilik va ovchilik bo'lgan. Qabilalarda sardorlar, ozod va qaram aholi qatlamlari mavjud bo'lib, patriarxal tuzum mavjud bo'lgan. Maorilar qadimiy an'analarni ming yillar davomida ajdodlardan avlodlarga yetkazib keladilar. Lekin XIX asrning I yarmidagi Buyuk Britaniya istilosi davrida ko'p sonli maori qabilalari ibtidoiy jamiyatining yemirilishi kuzatildi. XX asrda maorilarning ingliz yangi zelandiyaliklar bilan murakkab aralashuv jarayoni boshlangan. Shunday bo'lsa-da, maorilarning milliy udumlari Yangi Zelandiya madaniyatining ajralmas qismidir.

**3) *megalopolis***- (yunoncha “mega”- katta, “lo”- cho'ziq, “polis”- shahar) shahar aglomeratsiyalarining qo'shilib ketishi natijasida hosil bo'lgan yirik shaharlar zanjiri. Bu tushunchani Qadimgi Yunonistondagi arkadiylarning 29 ta qishlog'i qo'shilib ketishidan hosil bo'lgan Megapol shahri bilan bog'lash mumkin. Megalopolis kategoriyasini fransuz Jan Gottman ishlab chiqqan. Ya'ni urbanizatsion jarayonlarning eng yirik ko'rinishlaridan bo'lib, shaharlarning o'zaro tutashib ketishida ko'zga yaqqol tashlanadi. Bungacha bo'lgan davrda, avval, shahar punkti shakllanadi. So'ng unda aholi va xo'jalikning to'planishi natijasida yiriklashib, bora- bora atrofida boshqa o'zidan nisbatan kichikroq aholi punktlarini to'play boshlandi va aglomeratsiyani shakllantira boradi. Rivojlanish

kuchayib, infratuzilmalarning taraqqiy etgani sayin aglomeratsiya yanada kengayib, yoyilib, qo'shni aglomeratsiyaga qo'shilib ketadi va megalopolisni shakllantiradi.

Megalopolislar, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda ko'p bo'lib, ularning eng yiriklari quyidagilar hisoblanadi:

- BosVash: AQShda, Boston va Vashington shaharlari hamda ular oralig'idagi shaharlarning tutashib ketishidan hosil bo'lgan;
- Tokaydo: Yaponiyada, Kanto pasttekisligi bo'ylab Tokio-Osaka-Iokagama shaharlarining tutashib ketishidan hosil bo'lgan;
- SanSan: AQShda, San- Fransisko va San- Xose shaharlarining zanjirmonand tutashib ketishidan hosil bo'lgan;
- ChiPits: AQShda, Buyuk ko'llar bo'ylaridagi, xususan, Chikago va Pitsburg hamda ular oralig'idagi punktlarning qo'shilib ketishidan hosil bo'lgan.

O'rta Osiyo hududida ham megalopolis shakllanishi uchun sharoit mavjud. Kichik va taraqqiyoti shiddatkor bo'lmasa-da, FANO'X megalopolisi sekin- asta shakllanmoqda. Bunda Farg'ona, Andijon, Namangan, O'sh va Xo'jand shaharlari hamda ularning oralig'idagi punktlarning tutashib ketishi nazarda tutiladi.

**4) *paramos***- (ispancha “paramo”- aholisiz joy) amerika qit'asidagi tog'lar, xususan, And tog'laridagi balandlik mintaqasining nomi, 3000- 4500, o'rtacha 4000 metr balandlikdagi tog' o'tloqlari zonasi. Paramos o'tloqlar zonasi tog'ning qaysi davlatda joylashuviga qarab turlicha omlanadi. Masalan, Ekvador va Peruda Markaziy Kordilyera (ispancha “tog'lar zanjiri”) paramosi, Kolumbiyada Santa Marta paramosi, Venesuelada Kordilyera de Merida paramosi va h.z.

Bu zonada yog'in miqdori 500 mm bo'lib, namlik ko'pincha 79- 82 % bo'ladi. Tuproqlari o'tloq, jigarrang- o'tloq va botqoq. O'simliklardan, asosan, azonella pedukulata, espelitiya, festuka, kalamagrostis kabilar o'sadi. Yuqoriga ko'tarilgan sari bosim va haroratning pasayishi hisobiga o'simliklarning bo'yi pastlasha boradi. Hayvolardan quyonlar, lamalar, burgut, kondor va boshqalar yashaydi.

Mantiqan qaraganda, paramos baland tog' o'tloqlari zonasi bizning hududimizdagi, boshqa tog'lardagi tog' yaylovlari (alp va subalp)ga to'g'ri keladi.

**5) *landshaft***- (nemischa "land- joy, "schaft"- ko'rinish, ya'ni manzara) geologik tuzilishi, iqlimi va relyefi faqat shu joy uchungina xos bo'lgan o'zaro bog'liq kichik geotizimlar yig'indisidan iborat genetik jihatdan bir xil yaxlit geotizimning taksonomik birligi. Landshaft bir jihatdan qaraganda, zona, provinsiya, okrug, rayon kabi regional geotizimlarni tashkil qiluvchi eng oddiy geotizim, geografik qobiqning eng oddiy va eng kichik birligidir. Ikkinchi tomondan esa o'zidan kichik bo'lgan joy, urochishe, fatsiya kabi qismlar va oddiy geotizimlar bog'lamidan hosil bo'lgan murakkab ko'p yarusli va dinamik geotizimdir.

Landshaftlar tabiiy va antropogen landshaftlarga bo'linadi. Tabiiyki, tabiiy landshaftlar faqat tabiiy omillar ta'sirida shakllangan va shakllanayotgan geotizimdir. Antropogen landshaft esa tabiiy va antropogen omillar ta'sirida shakllangan va shakllanayotgan hududlardir.

G. Isochenko antropogen ta'sir oqibatida geotizimlarning qay darajada o'zgarganligini asos qilib oladi va barcha antropogen landshaftlarni quyidagicha o'zgarish darajalariga bo'ladi:

- ✓ shartli o'zgartirilmagan (ibtidoiy) landshaftlar;
- ✓ kuchsiz o'zgartirilgan landshaftlar;
- ✓ kuchli o'zgartirilgan (buzilgan) landshaftlar;
- ✓ madaniy landshaftlar.

Umuman olganda, landshaft yon- atrofdagi hududlar bilan modda va energiya almashinuvi orqali doim o'zaro ta'sirda bo'lib turadigan ochiq geotizim hamda tabiatning bir qismidir.

### Nazorat savollari:

1. Exolotning ishlash mexanizmi qanday?

2. Orol deb nimaga aytiladi?
3. Daryolarning tabiatdagi ahamiyati qanday?
4. Geoxronologik jadval nima va u nimalardan tashkil topgan?
5. Konfederatsiya deb nimaga aytiladi?

### Test savollari:

1. Dengiz tubiga exolot orqali yuborilgan tovush 3 sekundda dengiz tubiga tushganligi ma'lum bo'lsa, dengizning chuqurligi qanchani tashkil etadi?

- |               |               |
|---------------|---------------|
| A) 2 250 metr | B) 4 500 metr |
| C) 3 000 metr | D) 6 750 metr |

2. Shxera va delmatsion shxera orollari vujudga kelishiga ko'ra materik orollarning qaysi tipiga kiradi?

- |                               |                           |
|-------------------------------|---------------------------|
| A) platforma orollari         | B) orogen orollar         |
| C) materik yonbag'ri orollari | D) qirg'oq bo'yi orollari |

3. Niger bosh daryosi qaysi davlatlar hududidan oqib o'tadi?

- |                  |               |              |
|------------------|---------------|--------------|
| 1) Gvineya;      | 2) Mali;      | 3) Benin;    |
| 4) Niger;        | 5) Liberiya;  | 6) Nigeriya. |
| A) 1, 2, 4, 5    | B) 2, 3, 5, 6 |              |
| B) 1, 2, 3, 4, 6 | D) 2, 4, 5, 6 |              |

4. Qirg'oqbo'yi, Serra- Nevada tizmalari va Denali cho'qqisi qaysi materikda joylashgan?

- |                     |                    |
|---------------------|--------------------|
| A) Shimoliy Amerika | B) Janubiy Amerika |
| C) Avstraliya       | D) Afrika          |

5. G. Isochenko antropogen ta'sirida geotizimlarning qay darajada o'zgarganligini asos qilib olib, landshaftlarni necha guruhga bo'ladi?

A) 2 ta

B) 4 ta

C) 3 ta

D) 7 ta

Mustaqil ta'lim

O'zbekiston transport kartasini ishlash

**Bilasizmi???**

- Gollandiya Niderlandiyaning ikkinchi nomi. Aslida mamlakatning rasmiy nomi Niderlandiya (nemischa “nieder”- quyi, “land”- yer) bo'lib, aholisi gollandlar bo'lganligi bois Gollandiya ham deb ataladi;
- Eng qadimgi bayroq Daniyaga tegishli bo'lib, 1219- yil qabul qilingan;
- O'lik dengizining maydoni o'rtacha 728 km<sup>2</sup> nigina tashkil qilsa-da, o'zida, taxminan, 10 523 000 000 tonna tuzni mujassam qilgan.

### Amaliy mashg'ulot № 11

#### • Xalqaro iqtisodiy aloqalar va ularning shakllari

##### Topshiriqlar:

1. Xalqaro savdo aloqalarining xalqaro iqtisodiy munosabatlarda tutgan o'rni.
2. Xalqaro savdoning o'sishi, tuzilishi va geografiyasi.
3. Xalqaro turizm.
4. Jahondagi asosiy hududiy integratsion uyushmalar.

##### Qo'shimcha topshiriqlar:

1. Quyidagi ko'llarning maydoni va joylashgan materigini yozing.  
1) Kaspiy;                      2) Yuqori;                      3) Viktoriya;                      4) Baykal;  
5) Balxash;                      6) Morakaybo;                      7) Tanganika;                      8) Eyr- Nord.
2. Havo bosimi va uning o'zgarishiga ta'rif bering.
3. Jahondagi xalqaro va regional tashkilotlar, ittifoq va assotsiatsiyalardan na'munalar keltirgan holda, jadval shakllantiring.
4. Kongo daryosining nishabligini (boshlanish joyi dengiz sathidan 1 430 metr balandda, quyilish joyi esa dengiz sathiga mos balandlikda ekanligini unutmagan holda) aniqlang.
5. 34° parallel(janubiy kenglik)da joylashgan ikki shahar oralig'i xaritada 15° ga teng bo'lsa, shaharlar orasidagi haqiqiy masofa qanchani tashkil etadi?

### *Javoblar:*

1. Ko'l- tabiiy ravishda vujudga kelgan chuqurlikda to'plangan suv massasi. Ko'llar quruqlik ichkarisida, dengiz yoki okeandan, albatta, uzilgan bo'lishi lozim (laguna ko'llar bundan mustasno). Qolaversa, yana shuni ham inobatga olish lozimki, har qanday chuqurlikda to'planib qolgan suvlik ko'l bo'lavermaydi, ya'ni maydoni ham nisbatan katta bo'lishi kerak.

Quyida dunyodagi eng yirik ko'llardan na'munalar keltirilgan:

*Kaspiy*- dunyodagi eng yirik ko'l. Kattaligi bois dengiz nisbati berilgan. Maydoni 376 000 km<sup>2</sup>, lekin unga quyiladigan suv miqdori kamayib borayotganligi va iqlimning isib borishi tufayli maydoni qisqarib, hozirda 371 000 km<sup>2</sup> ni tashkil qilmoqda. Shimoldan janubga 1 030 km, g'arbdan sharqqa 435 km masofaga cho'zilgan. O'rtacha chuqurligi 187 m, eng chuqur joyi 1 025 m bo'lib,

suv hajmi  $69\,400\text{ km}^3$  va qirg'oq chizig'ining uzunligi  $7\,000\text{ km}$  ni tashkil etadi. Ko'lga Volga, Ural, Kura, Terek, Emba, Atrek, Samur, Sulak, Safedrud kabi yirik daryo va kichik daryochalar quyiladi.

*Yuqori-* Shimoliy Amerikada joylashgan o'lchamining kattaligiga ko'ra, dunyodagi eng yirik chuchuk suvli ko'l. Vujudga kelishiga ko'ra, muz hosil qilgan ko'l hisoblanadi. U kaskad ravishda Guron, Michigan, Eri va Ontario bilan tutashib ketgan hamda bu ko'llar sistemasi Buyuk ko'llar deb ataladi. Maydoni  $82\,100\text{ km}^2$ , shimoldan janubga  $613\text{ km}$ , g'arbdan sharqqa  $256\text{ km}$  masofaga cho'zilgan. Ko'l Sent- Meris daryosi bilan Guron ko'li bilan bog'lanib turadi. Yuqori ko'li AQSh va Kanada davlatlari chegarasida joylashgan. Qirg'oqlarida Dulut, Syupirior, Ashlend, Markett, Tander- Bey kabi yirik portlar joylashgan.

*Viktoriya-* Afrikada materigida joylashgan sharqiy yarimshardagi eng yirik chuchuk suvli ko'l. Maydoni  $68\,870\text{ km}^2$  ni tashkil etib, o'rni tektonik botiqda joylashgan. Shu bois chuqur bo'lib, eng chuqur joyi  $1\,134\text{ m}$  ga yetadi. Suv hajmi esa  $2\,760\text{ km}^3$  ga teng. Ko'l Sharqiy Afrikada bo'lib, Tanzaniya, Keniya va Uganda davlatlari orasida joylashgan. Ko'lga yirikroq Kagera daryosi quyiladi va Oq Nil oqib chiqib ketadi. Demakki, ko'l oqar ko'llar toifasiga kiradi.

*Tanganika-* Afrika materigining sharqidagi tektonik yer yorig'ida joylashgan eng yirik chuchuk suvli ko'l bo'lib, maydoni  $34\,032\text{ km}^2$  ni tashkil etadi. Shimoldan janubga  $750\text{ km}$ , kengligi esa  $70\text{--}80\text{ km}$  gacha boradi. Ko'l KDR, Tanzaniya, Zambiya va Burundi davlatlari oralig'ida joylashgan bo'lib, qirg'oqlari tik va baland. Tanganikaga Malagarasi va Ruzizi daryolari quyiladi, Lukuga va Lualoba daryolari oqib chiqib ketadi. Qirg'oqlarida Kigoma, Bujumbura, Kalima kabi shaharlar joylashgan bo'lib, port shaharlar hisoblanadi.

*Baykal-* Yevrosiyo materigida, Sharqiy Sibirning janubida joylashgan dunyodagi eng chuqur ko'l bo'lib, chuqurligi  $1\,620\text{ m}$  ga yetadi. Maydoni  $31\,500\text{ km}^2$  ni tashkil etadi. Ko'l ham Tanganika ko'li singari tektonik yoriqda joylashgan va shimoldan janubga  $636\text{ km}$ , g'arbdan sharqqa  $48\text{ km}$  ga yetadi. Ko'l o'rnida kengayish jarayoni davom etmoqda. Ko'plab olimlarning taxminlariga ko'ra,

kelajakda Baykal kengayib, kattalashib ketishi mumkin. Unga 336 ta daryo quyiladi, yirik Angara daryosi oqib chiqib ketadi. Bundan ko'rinadiki, u oqar ko'llar toifasiga kiradi. Ko'l o'zgacha organik dunyoga ega. 1 800 tur flora va faunaga ega. Sohillarida Baykalsk, Slyudyanka shaharlari joylashgan.

*Balxash-* Yevrosiyo materigida, Qozog'istonning sharqiy qimida joylashgan O'rta Osiyo tabiiy geografik o'lkasidagi eng yirik ko'l. Maydoni suvi ko'payganda 22 000, ozayganda 17 000 km<sup>2</sup> ni, ko'pincha esa o'rtacha 18 200 km<sup>2</sup> ni tashkil etadi. Uzunligi 605 km, kengligi 41 km, eng keng yeri 74 km ga yetadi. Shimoli sharqdan janubi g'arbga yarim oy shaklida joylashgan. Suv hajmi 112 km<sup>3</sup> ga yetadi. Chuqurligi 26,3 m gacha yetadi. U yarmi chuchuk, yarmi sho'rliги bilan ajralib turadi. Ko'lga Ili, Qorator, Oqsuv, Lepsa, Ayag'oz kabi daryolar quyiladi. Quyilayotgan suvning 75- 80 % i Ili daryosiga to'g'ri keladi. Shu bois daryo quyiladigan ko'lning janubi chuchuk hisoblanadi.


*Eyr- Nord-* Avstraliya materigida joylashgan ko'l. Hududining o'rni dengiz sathidan 16 metr pastda joylashgan. U arid zonada joylashgan va suv bilan ta'minlovchi daryolari vaqtincha qurib qoladigan krik daryolardir. Shunga bog'liq holda, ko'lning maydoni mavsum bo'yicha o'zgarib turadi. Maydoni suv bilan to'lgan paytda 15 000 km<sup>2</sup> ni tashkil etadi. Ko'lga Kuper, Eyr kabi vaqtincha qurib qoluvchi daryolar quyiladi. Ko'l joylashgan zona Markaziy havza, Kriklar o'lkasi deb ham ataladi.

*Morakaybo-* Janubiy Amerika materigining shimolida joylashgan ko'l. Maydoni 14 343 km<sup>3</sup> ni tashkil etadi. Vujudga kelishiga ko'ra, laguna ko'llar turiga kiradi, ya'ni Morakaybo qo'ltig'ining qum tillari orqali Karib dengizidan uzilib qolishidan hosil bo'lgan. Qirg'og'ida Morakaybo port shahri joylashgan. Ko'l laguna tipli bo'lganligi bois, ba'zi yillari dengiz bilan tutashib, bog'lanib turadi.

2. Atmosfera- Yerni o'rab turgan, turli gazlardan iborat havo qobig'i. Atmosfera go'yoki bo'shliqday tuyilgani bilan tarkibidagi gazlarga bog'liq holatda,




ma'lum og'irlikka ega. Umumiy massasi garchi gidrosferadan 10 marta, litosferadan esa 1 000 marta yengil bo'lsada, salkam  $5,15 \cdot 10^{15}$  tonna og'irlikka ega. Yerning yadrosida bo'ladigan geofizik va geokimyoviy jarayonlar natijasi o'laroq, Yer markazida magnitlanish vujudga keladi va ular yuqori harakatlanib, magnit qutblari orqali ko'tariladi va magnitosferani hosil qiladi. Ana shu magnitosferaning- tortish kuchi natijasida hamma narsa Yerga tortilib turadi. Jumladan, atmosfera va uning tarkibidagi gazlar ham. Gazlarni Yer tortganda ularning massasi yer yuzasiga kuch bilan bosadi va atmosfera bosimi vujudga keladi. Havoning og'irlikka ega ekanligini oddiy usulda, ya'ni quyidagicha o'lchash mumkin. Bunda sharga havo to'ldirib, og'irligi tarozida o'lchanadi. Tabiiyki, bo'sh holatidan ko'ra og'irlashib, ko'rsatkich og'adi. Demakki, massa havo bilan birga kirgan bo'ladi.




Dengiz bo'yida normal sharoitda  $1 \text{ m}^3$  havoning og'irligi 1 330 grammni tashkil etadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, Yerning tortish kuchi atmosfera gazlarini tortadi va gazlar kuch bilan yer yuzasini bosib turadi. Yuqoriga ko'tarilgan sari tortish kuchi kamaya boradi. Natijada gazlar ham erkinlasha boradi va tarqoq bo'lib, havoning massasi va bosimi kamayadi. Havo bosimini simobli va metall barometr bilan o'lchanadi. Oddiy sharoitda simobli barometrdan foydalanish mumkin. Normal sharoitda simobning zichligi 13,595 bo'ladi, shu sababli ko'ndalang kesimi 1 sm bo'lgan 760 mm simob ustunining massasi 1 330 gramm bo'lib, havoning og'irligiga teng keladi. Simobli barometrdan foydalanishda tovaga(a) simob to'ldiriladi va balandligi 100, diametri 1 sm bo'lgan yuqori qismi

berk naycha simobga tik o'rnatiladi. Havo simobga kuch bilan bosadi va naychanning botirilgan ochiq qismidan simob kirib, yuqoriga ko'tarila boradi va qaysi qimatga borib to'xtasa, shu qiymat havoning qancha kuch bilan bosayotganligini bildiradi. Metall barometr(b)dan foydalanganda ko'rsatkichlar avtomatik ravishda asbob tomonidan aniqlanadi. Yana boshqa(c) simobli barometrda esa tutash idish ko'rinishidagi probirkaning idishchasiga simob to'ldiriladi, og'zi ochiq bo'lib, bu joydan havo bosim bilan bosib turadi. Simob bosimga bog'liq holatda o'zgarib qiymat aniqlanadi.



Havo bosimi balandlikka ko'tarilishda o'zgarishdan tashqari, yuzada Yerning sharsimonligiga bog'liq ravishda haroratning noto'g'ri taqsimlanishi, Yerning aylanishi va boshqa omillarga bog'liq holda ham o'zgaradi. Xususan, iliq havo sovuq havoga nisbatan zichligi kamroq bo'ladi, shuning uchun iliq havo yuqoriga ko'tariladi va bu yerda bosim kamayadi. Yuqoriga ko'tarilgan iliq havo soviydi va zichligi yana ortadi. Atmosfera sirkulatsiyasi tufayli boshqa joy ustiga borib pastlaydi va o'sha joyda yuqori



bosimli mintaqa vujudga keladi. Masalan, ekvatorda iliq havo yuqoriga ko'tarilib, ma'lum balandlikda soviydi va bosimi ortib tropiklar ustida yana yer yuzasiga taqsimlanib, bosa boshlaydi va yuqori bosim shakllanadi. So'ng yuqori bosimli tropiklardan past bosimli ekvatorga havo gorizantal oqadi va shamol hosil bo'ladi. Bunday shamollar passatlar deb ataladi.

Yuqori bosimli mintaqalar- barik maksimum, past bosimli mintaqalar esa barik minimum yoki depressiyalar deb ataladi. Masalan, Azor maksimumi va Eron- Txar minimum va h.z.

Yuqoriga, o'rtacha, har 1 000 metr ko'rilganda bosim 100 mm simob ustuniga pasayadi. Shuni inobatga olgan holda, quyidagicha masalani ishlash mumkin:

- tog'ning etagida havo bosimi 740 mm s.u ga teng bo'lib, balandligi 3309 metrni tashkil etsa, cho'qqidagi havo bosimi qanday bo'ladi?

Yechish: bunda quyidagi amallarni bajarish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- tog'ning balandligi aniqlanadi: 3 309 m;
- bosimni o'zgarishini asos qilib olib, proporsiya qilinadi:

1 000 metrda ----- 100 mm s.u

3 309 metrda ----x= 330,9 mm s.u

- chiqqan natija hali javob emas, u shunchaki yuqorigacha necha mm s.u ga pasaygani. Shuni inobatga olgan holda, tog' etagidagi bosimdan cho'qqidagi bosimni ayiriladi:

$$740 \text{ mm s.u} - 330,9 \text{ mm s.u} = \underline{409,1 \text{ mm s.u}}$$

Demak, tog' cho'qqisida havo bosimi 409,1 mm s.u ga teng bo'lar ekan.

**!** Shuni unutmaslik kerakki, bosimning o'zgarishi yuqoriga ko'tarilganda bir xil pasayib bormaydi. Gazlarning zichligi, tarkibi va xossalarning o'zgarishiga bog'liq ravishda, bosim ma'lum balandlikdan har 1 000 metrda 100 mm s.u. dan pasaymaydi, balki ancha kamroq birlikda pasayib boradi. Aytaylik, stratosferaning quyi, masalan, yerdan 18 km balandlikdagi qismida (agar doimiy pasayib borganda, mantiqan, bosim qolmasligi kerak edi. Lekin aytilganidek, bosim bor)

52,5 mm s.u. ni tashkil etadi. Shu bois bosimni o'zgarish qiymati- barik bosqichni troposferaning yer yuzasining yaqin qismiga mos keladi, deyish mumkin.

3. Modeli tobora murakkablashib borayotgan dunyoda davlatlar o'rtasidagi integratsion aloqalarsiz jahon xo'jaligi va bugungi davrni tasavvur etib bo'lmaydi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya ayrim mamlakatlar guruhlarining ular tomonidan kelishilgan davlatlararo siyosatni o'tkazishga asoslangan juda chuqur va barqaror o'zaro aloqalarining ifodasidir. Shu xususida ikki va undan ortiq davlatlardan tuzilgan tuzilmalarning o'zni va ahamiyati beqiyosdir. Quyida jahondagi ayrim xalqaro hamda regional tashkilotlar, ittifoq va assotsiatsiyalar keltirilgan:

| <i>Tuzilma nomlari</i>                                          | <i>Abbreviaturasi</i> | <i>Tashkil topgan yili</i> | <i>Shtab kvartirasi</i> |
|-----------------------------------------------------------------|-----------------------|----------------------------|-------------------------|
| Afrika Birligi tashkiloti                                       | ABT                   | 1963                       | Addis- Abeba            |
| Amerika davlatlari tashkiloti                                   | ADT                   | 1948                       | Vashington              |
| Arab davlatlari ligasi                                          | ADL                   | 1945                       | Tunis                   |
| Atom energetikasi bo'yicha Xalqaro vakillik                     | MAGATE                | 1957                       | Vena                    |
| Birlashgan Millatlar Tashkilot                                  | BMT                   | 1945                       | Nyu- York               |
| BMTning bolalarga yordam ko'rsatish Jamg'armasi                 | UNISEF                | 1946                       | Nyu- York               |
| BMTning maorif, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti | UNESKO                | 1946                       | Vena                    |
| BMTning oziq- ovqat va                                          | FAO                   | 1945                       | Rim                     |

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

|                                                  |          |                    |               |
|--------------------------------------------------|----------|--------------------|---------------|
| q/x tashkiloti                                   |          |                    |               |
| BMTning sanoatni rivojlantirish tashkiloti       | UNIDO    | 1966               | Vena          |
| Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti                   | EKO      | 1985               | Tehron        |
| Islom Konferensiyasi tashkiloti                  | IKT      | 1969               | Jidda         |
| Jahon sayyohlik tashkiloti                       | UNWTO    | 1934               | Madrid        |
| Jahon sog'likni saqlash tashkiloti               | JSST     | 1946               | Jeneva        |
| Janubi- sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi | ASEAN    | 1967               | Bankok        |
| Jinoyat politsiyasining xalqaro tashkiloti       | InterPol | 1923               | Lion          |
| Lotin Amerikasi integratsion assotsiatsiyasi     | LAIA     | 1980               | Montevideo    |
| Lotin Amerikasi iqtisodiy tizimi                 | LAIT     | 1975               | Karakas       |
| Mustaqil davlatlar hamdo'stligi                  | MDH      | 1991               | Minsk, Moskva |
| Neftni eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti     | OPEK     | 1960               | Vena          |
| Parlamentlararo ittifoq                          | PI       | 1889               | Jeneva        |
| Qo'shilmaslik harakati                           | QH       |                    | Jakarta       |
| Shanxay hamkorlik tashkiloti                     | ShHT     | 1996               | Pekin         |
| Shimoliy Amerika erkin                           | NAFTA    | 1994 <sup>18</sup> | Mexiko        |

<sup>18</sup> AQSh va Kanada o'rtasida "Erkin savdo to'g'risida"gi kelishuv 1989- yil imzolangan, lekin Meskika, AQSh va Kanada o'rtasidagi Shimoliy Amerika integratsiyasi tashkil etilgan yil sifatida 1994- yil olingan

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

|                                                   |       |      |             |
|---------------------------------------------------|-------|------|-------------|
| savdo assotsiatsiyasi                             |       |      |             |
| Shimoliy Atlantika<br>shartnomasi tashkiloti      | NATO  | 1949 | Bryussel    |
| Tinch okeani xavfsizligi<br>Pakti                 | ANZUS | 1951 | Sidney      |
| Xalqaro mehnat<br>tashkiloti                      | XMT   | 1946 | Jeneva      |
| Xalqaro moliya<br>korporatsiyasi                  | XMK   | 1956 | Vashington  |
| Xalqaro Qizil xoch va<br>Qizil yarim oy qo'mitasi | XQXQY | 1863 | Jeneva      |
| Xalqaro valuta fondi                              | XVF   | 1944 | Vashington  |
| Yevropa Ittifoqi                                  | YI    | 1957 | Lyuksemburg |
| Yevropa xavfsizlik va<br>hamkorlik tashkiloti     | YXHT  | 1975 | Jeneva      |

Yuqorida keltirilgan tuzilmalar davlatlar o'rtasida o'zaro aloqalarning mustahkamlanishi hamda sherikchilik munosabatlarini kuchaytiradi. Qolaversa, ko'p davlatlar o'rtasida ko'plab muammolarga javob chiqishi osonroq bo'ladi. Axir xalqimiz aytadi-ku, "Bitta kalla- kalla, o'nta kalla- tilla" deb.

4. Kongo daryosi Afrikaning ekvatorial mintaqasida joylashgan. Uzunligi 4 320 km ni tashkil etadi. Joylashgan o'rniga muvofiq holda, to'yinishida eng asosiy o'rinni yomg'ir suvlari tashkil etadi. Bosh daryo Kattanga tog'ligidan 1 430 metr balandlikdan boshlanadi. Bundan ko'rinadiki, daryo unchalik nishab emas.

Daryoning nishabligi o'lchanayotgan qismlaridagi balandliklar farqini shu daryo uzunligiga nisbati, ya'ni daryoning, masalan, boshlanish va quyilish joyigacha bo'lgan qiyalik ko'rsatkichi bo'lib, quyidagi formula orqali topiladi:

$$\gamma = \frac{(H_1 - H_2)}{L} = \frac{\Delta h}{L}$$

Bu yerda,  $H_1$  = boshlanish joyining dengiz sathidan balandligi (metrda);

$H_2$  = quyilish joyining dengiz sathidan balandligi (metrda);

$\Delta h$  = balandliklar orasidagi farq (metrda);

$L$  = bosh daryo uzunligi (kilometrda).

Nishablik ko'rsatkichining aniq belgilangan birligi yo'q, lekin ko'pincha, ‰ (promille)da, ya'ni balandlikni daryoning har 1 000 km uzunligiga to'g'ri keladigan o'rtacha pasayish ko'rsatkichida ifodalanadi.

Masalan, Kongo daryosi dengiz sathidan 1 430 m balandlikdan boshlanib, dengiz sathiga baravar balandlik(0 metr)da okeanga quyiladi. Bunda nishablikni aniqlash quyidagicha amallarni o'z ichiga oladi:

- daryoning uzunligi aniqlanadi: 4 320 km;
- boshlanish joyining dengiz sathidan balandligi aniqlanadi: 1 430 m;
- quyilish joyining dengiz sathidan balandligi aniqlanadi: 0 m.
- mos hisoblash formulasi aniqlanadi:


$$\gamma = \frac{(H_1 - H_2)}{L} = \frac{\Delta h}{L} \quad \gamma = \frac{1\,430\,m - 0\,m}{4\,320\,km} = 0,331$$

- hisoblangan natija aniqlanadi: 0,331‰;
- natija promille, ya'ni mingdan bir ulush bo'lganligi uchun qiymat 1 000 ga ko'paytiriladi:  $0,331 \cdot 1\,000 = \underline{331}$ .

Demak, daryo har 1 000 km oqqanda, 331 metrdan pasayib borar ekan.

5. Yer yuzidagi har qanday nuqtaning koordinatasi mavjud. Joyning koordinatasi deb, nuqtadan o'tgan parallel va meridian kesishmasiga aytiladi. Quyida geografik kenglik va uzunlikning vujudga kelishiga oid chizma berilgan:

Geografik uzunlik- bu yer yuzidagi istalgan nuqtadan yer markazi(yadro)ga tushirilgan xayoliy chiziq bilan meridian tekisligi orasida hosil bo'lgan burchak bo'lib,  $\lambda$  bilan belgianadi. Meridian (lotincha "tush chizig'i), xususan, Bosh meridian Yerni



shimoldan janubga teng ikki pallaga bo'lib turadi desak,  $180^\circ$  (har qanday aylana  $360^\circ$  ga teng.  $360^\circ : 2 = 180^\circ$ ) qiymatga ega bo'lgan yoyiq burchakli tekis yuza-meridian tekisligi hosil bo'ladi. Shu bois geografik uzunlik  $0^\circ$  dan  $180^\circ$  gacha bo'lgan qiymatda o'lchanadi.

Geografik kenglik- bu yer yuzidagi istalgan nuqtadan yer markazi(yadro)ga tushirilgan xayoliy chiziq bilan ekvator tekisligi orasida hosil bo'lgan burchak bo'lib,  $\varphi$  bilan belgilanadi. Geografik kenglik nuqtadan yer markaziga tushirilgan chiziq to'g'ri burchak hosil qilguncha, ya'ni  $90^\circ$  gacha o'lchanadi. Yer yuzida geografik kengligi bir xil bo'lgan nuqtalarni tutashtirish natijasida parallellar vujudga kelgan. Parallellarning eng uzuni ekvatoridir. Ekvator- (lotincha "tenglashtiruvchi") qutblardan baravar uzoqlikda yotuvchi, Yerni teng ikkiga bo'lib turuvchi aylana chiziqdır. Yer sharsimon bo'lganligi uchun parallellarning uzunligi ekvatoridan qutblar tomon qisqarib boradi.

Turli kengliklardagi  $1^\circ$  parallel yoyining uzunligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$l = \cos \varphi \cdot 111,3$$

Bu yerda,  $l = 1^\circ$  parallel yoyining uzunligi;

$\cos \varphi$  = nuqta geografik kengligining arifmetik ko'rinishi;

111,3 = ekvatoridagi  $1^\circ$  parallel yoyining uzunligi (km da).

Masalan,  $34^\circ$  parallel(janubiy kenglik)da joylashgan ikki shahar oralig'i xaritada  $15^\circ$  ga teng bo'lsa, shaharlar orasidagi haqiqiy masofa qanchani tashkil etadi?

Yechish: Masalani yechish davomida quyidagi ketma- ketlikka amal qilinsa, natijaga tartibli, tushunarli ravishda erishish mumkin.

- ✓ shaharlarning geografik kengligi aniqlanadi:  $34^\circ$  janubiy kenglik;
- ✓  $1^\circ$  parallel yoyining uzunligi aniqlanadi:

$$l = \cos \varphi \cdot 111,3$$

- $\cos 34^\circ$  da nechchiga teng bo'lishi aniqlanadi:  $\cos 34^\circ = 0,83$ ;



## AMALIY MASHG'ULOTLAR

---

- $\cos$  ning qiymatini ekvatoridagi 1 parallel yoyi uzunligiga ko'paytiriladi:  $0,83 \cdot 111,3 = \underline{92,3 \text{ km}}$ ;

✓  $15^\circ$  parallel yoyining uzunligi aniqlanadi:

1 yoy -----  $92,3 \text{ km}$

15 yoy ----x=  $\underline{1\,384,5 \text{ km}}$

Demak,  $34^\circ$  parallelda joylashgan ikki shahar orasidagi masofa xaritada  $15^\circ$  ga teng bo'lsa, bu ko'rsatkich yer yuzida  $1\,384,5 \text{ km}$  ni tashkil etadi.

### Nazorat savollari:

1. Ko'l deb nimaga aytiladi va tabiatdagi ahamiyati qanday?
2. Havo bosimi qanday vujudga keladi?
3. Xalqaro aloqalarning rivojlanishida integratsion uyushmalar qanday ahamiyat kasb etadi?
4. Daryo nishabligi nima?
5. Nima uchun ekvatoridan qutblar tomon parallel yoyi qisqarib boradi?

### Test savollari:

1. Quyidagilardan qaysi ko'l kelib chiqishiga ko'ra, laguna xususiyatiga ega?  
A) Ladoga  
B) Morakaybo  
C) Tanganika  
D) Gudzon
2. Atom energetikasi bo'yicha Xalqaro vakillik(MAGATE)ning shtab- kvartirasi qaysi shaharda joylashgan?  
A) Vena  
B) Vashington  
C) Moskva  
D) Tehron
3. Havo bosimi qaysi asbob yoramida o'lchanadi?  
A) anemometr  
B) anemorumbometr  
C) barogigrograf  
D) barometr

4. Daryoning uzunligi 258 km, boshlanish va quyilish nuqtalari orasidagi balandlik farqi 588,2 m bo'lsa, daryoning nishabligi qanday bo'ladi?

- A) 2,28                                      B) 0,44  
C) 330,2                                     D) 9,75

5. Ekvatorda joylashgan ikki shahar orasi xaritada  $18^\circ$  ga teng bo'lsa, bu ko'rsatkich yer yuzida qanchani tashkil etadi?

- A) 1 998, 5 km                              B) 1 800, 3 km  
C) 2 003, 4 km                              D) 2 453, 8 km

Mustaqil ta'lim

- O'zbekistondagi jahon mamlakatlari bilan tashkil etilgan qo'shma korxonalarni aniqlash

### Bilasizmi???

- 2737- yilning 28- noyabr kuni milodimizning millioninchi kuni bo'ladi;
- Devid Livingiston sher og'zidan omon chiqqan insondir. Gap shundaki, sher yaqin kelganda: olim ko'zini yumib, nafas chiqarmay yotib olgan, sher kelib yana qaytib ketgan. Chunki sher o'laksa bilan oziqlanmas ekan;
- Dengiz suvi tarkibida oltin juda oz miqdorda uchrasa-da, umumiy holatda, Dunyo okeanida 10 000 000 000 tonna oltin mavjud.

## Amaliy mashg'ulot № 12

### • Amerika Qo'shma Shtatlari

### Topshiriqlar:

1. Geografik o'rni va tabiiy resurslari.
2. Aholisi va demografik ko'tsatkichlari.
3. Xo'jaligining umumiy tavsifi:
  - sanoat tarmoqlari;
  - qishloq xo'jaligi.
4. Transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari.

### Qo'shimcha topshiriqlar:

1. Relyefni gorizontallar orqali topografik kartaga tasvirlanishini tahlil qiling.
2. Shimoliy Amerika makromintaqasiga kiruvchi davlatlar jadvalini to'ldiring.

| № | Davlat nomi | Poytaxti | Aholisi soni<br>(mln kishi) | Davlat tili | Ustuvor<br>dini |
|---|-------------|----------|-----------------------------|-------------|-----------------|
|   |             |          |                             |             |                 |

3. Shimoliy Amerika materining tabiiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, materikka oid quyidagi jadvalni to'ldiring.

| № | Chekka nuqtalari | Tegishli<br>yarimorollar | Daryolari | Yirik tog'lari | Ko'llari |
|---|------------------|--------------------------|-----------|----------------|----------|
|   |                  |                          |           |                |          |

4. Shimoliy Amerika materigidagi milliy bog' va qo'riqxonalarini yozing.

5. Amerika Qo'shma Shtatlarining ma'muriy- hududiy birliklari, ya'ni shtatlarining nomi va markazlarini yozing.

### *Javoblar:*

1. Topografik karta- (yunoncha “topos”- joy, “graphos”- yozaman; “kartos”- papirus qog'oziga tushirilgan tasvir”) Yer yuzasining kichik qismini 1: 200 000 va undan yirik masshtabda tushirilgan tasviri bo'lib, yuzasi kichik maydonni qamrab olganligi uchun tekislikka yaqin bo'ladi, xatolik deyarli bo'lamydi. Aytaylik, 20 km yuza tekislik deb qabul qilingan va xatolik atiga 1,64 ga teng bo'ladi. Topografik karta kichik hududni tasvirlaganligi uchun undagi obyekt va voqea-hodisalar nisbatan aniq ifodalanadi. Shartli belgilari ham o'ziga xos bo'lib, voqea-hodisalar, xususan, relyef ham imkon qadar aniqlikda tasvirlanadi.

Relyef- (fransuzcha “do'nglik”) yer yuzidagi barcha notekislik(tog', tekislik va h.z.)larning ifodasi bo'lib, ichki va tashqi kuchlar hosilasidir. Relyef shakllari, masalan, quruqlikda katta– kichikligiga ko'ra, quyidagicha: “kattasining ichida kichigi” ko'rinishida bo'lishi mumkin:

1) *makrorelyef*– yer yuzasining yirik relyef shakllari bo'lib, unga tog' tizmalari, yirik tekisliklar va h.z.


2) *mezorelyef*– o'rtacha kattalikdagi tepa, kichik vodiy va h.z.

3) *mikrorelyef*– relyefning mayda shakllari bo'lib, ular o'zidan katta shakllarni tashkil etuvchi komponent shakllar hisoblanadi, ya'ni do'ng, qo'rg'ontepa, o'zan o'rni va h.z.

Relyef shakllarini xarakteri va dengiz yuzasidan past- balandligiga ko'ra, pasttekislik, tekislik, qir, yassi tog'lik va tog'lik relyef shakllariga bo'lish mumkin. Relyef shakllari tashqi ko'rinishi bo'yicha bo'rtib chiqqan (qavariq) va botiq bo'ladi. Relyefning qavariq shakllariga – qo'rg'ontepa, tog', do'ng va shu kabilar kiradi. Relyefning botiq shakllariga – vodiy, jarlik, soy va shu kabilar kiradi.


Topografik xaritada relyef, asosan, gorizontallar bilan tasvirlanadi. *Gorizont* deb, mutloq balandligi bir xil bo'lgan nuqtalarni tutashtiruvchi chiziqqa aytiladi. Uni boshqacha nom bilan izogips deb ham atash mumkin.

*Gorizontallar hosil qilishni qo'yidagicha tushuntirish mumkin:*



Gorizontallarni tasvirlash va aniqlashda quyidagi shartlar inobatga olinishi kerak:

- yopiq egri chiziqdan iborat bo'lishi;
- kesishmasligi;
- gorizontallar oralig'ini katta yoki kichik bo'lishi yon bag'irning qiya yoki tikligiga bog'liqligi;
- gorizontallar oralig'i bilan joy qiyaligining bir- biriga bog'liqligi.



Bu yerda:


- $d$  – gorizontallar oralig'i ;
- $h$  – kesim balandligi;
- $v$  – qiyalik burchagi (gradus).

Ikki gorizont tekislik orasidagi vertikal masofa *kesim balandligi* ( $h$ ); ikki nuqta orasidagi masofa ( $A^1$  va  $A$ )ning gorizont proyeksiyasi

esa *gorizontallar oralig'i*( $d$ ) deyiladi. Yonbag'ir bilan gorizont tekislik orasidagi burchak( $\nu$ )ga *qiyalik burchagi* deyiladi.


Umumgeografik kartalarda katta hudud mayda masshtabda tasvirlangani bois, relyefning ham, ko'proq, yirik shakllari tasvirlanadi. Topografik kartalarda tasvirlanayotgan relyef shakllari va elementlari joy ko'lamiga teskari proporsionallikda, ya'ni kattaroq aniqlikda tasvirlanadi. Lekin, asosan, kichik shakllar tasvirlanadi. Quyida tasvirlanish xossalari keltirib o'tilgan.

Tepalikni bir xil balandlikdan o'tuvchi  $a$ ,  $b$ ,  $c$  gorizont tekisliklar kesib o'tgan deb faraz qilaylik, ya'ni quyidagicha:



$A$  - tekislikda gorizontallar hosil bo'ladi. Ikki gorizont tekislik orasidagi vertikal masofa ( $h$ ) kesim balandligi hisoblanadi.

Topografik kartalarda yonbag'irning nishabi gorizontallarga qisqa chiziqlar (*bergshtrixlar*) chizib ko'rsatiladi. *Bergshtrixlar* erkin uchi qaysi tomonga yo'nalgan bo'lsa, yonbag'irning nishabi shu tomonga qaragan bo'ladi, ya'ni shu tarafga qiyalab, pasayib boradi.



Ma'lum masshtabli topografik karta uchun qabul qilingan kesim balandligiga muvofiq chizilgan gorizontallar asosiy gorizontallar deyiladi. Topografik karta va planlarda asosiy gorizontallar uzluksiz egri chiziqlar ko'rinishida chiziladi. Asosiy gorizontallarning kesim balandligi kartaning ostki tomonida ramkadan tashqarida yoziladi. Relyefni o'qish oson bo'lishi uchun o'rtacha har beshinchi gorizontalar yo'g'on qilib chiziladi, agar kesim balandligi 5 m bo'lsa, 25-, 50-, 75- gorizontallar yo'g'on qilib tasvirlanadi.

Ayrim joylarning relyefini asosiy gorizontallar bilan to'la ko'rsatib bo'lmagan hollarda kesim balandligining yarmiga teng gorizontallar chiziladi. Ular qo'shimcha gorizontallar deyiladi va uzuq- uzuq chiziqlar ko'rinishida tasvirlanadi. Yarim gorizontallar kartada punktir(nuqtaviy) chiziqlar bilan beriladi. Ba'zan kesim balandligining to'rtidan biriga teng bo'lgan va yordamchi gorizontalar deb ataladigan gorizontallar chizilishi ham mumkin.

Relyefning plan, topografik va geografik kartalarda tasvirlanishi ham o'ziga xos jarayondir. Ishlab chiqarish, aholi va xo'jalikning hududiy tarqalishini joyning relyefiga ham bog'lash mumkin. Botiq, tog'larning qiya qismlari va shu kabi joylarda, tabiiyki, yuqoridagilar juda kam joylashadi, joylashgan bo'lsa ham noqulaylik kasb etadi. Geografik asar sifatida topografik kartalarni tushunish va oson o'qish uchun uni mukammal o'rganish, tasavvurni kuchaytirish va bilimni his qilib tushunish lozim. Shundagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

2. Shimoliy Amerika- Amerika qit'asining shimoliy qismini egallagan bir qismi. Tabiiy geografik nuqtai nazardan, Shimoliy Amerikaga materik sifatida qaralsa, qit'aning Panama kanalidan shimoldagi barcha hududlari kiradi. Agar iqtisodiy nuqtai nazardan makromintaqa sifatida qaralsa, faqatgina AQSh va Kanada davlatlari kiradi. Qolgan davlatlar Lotin Amerikasi mintaqasiga kiritiladi. Chunki AQShdan janubdagi Meksikadan tortib, Argentinagacha bo'lgan mamlaktlar aholisi qadimgi lotin tili negizida vujudga kelgan ispan va portugal tillarida gaplashadi.

Shimoliy Amerika makromintaqasi davlatlar soniga ko'ra juda kichik ko'rsatkichga ega bo'lsa-da, iqtisodiy- ijtimoiy, siyosiy, harbiy va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha ancha qudratli bo'lib, tarkibidagi ikkala davlat ham iqtisodiy qudratli "Katta sakkizlik" mamlakatlari qatoriga kiradi. Quyida makromintaqa mamlakatlariga oid (2017- yil bo'yicha) jadval keltirilgan:

| № | Davlatlar nomi | Poytaxti   | Aholi soni           | Davlat tili                                  | Asosiy dinlari                                                                           |
|---|----------------|------------|----------------------|----------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1 | AQSh           | Vashington | 324 459 463<br>kishi | ingliz                                       | xristian- 87%,<br>iudaizm- 2 %,<br>islom- 0,5 %,<br>boshqa- 9,7 %.                       |
| 2 | Kanada         | Ottava     | 36 624 199<br>kishi  | ingliz- 40 %,<br>fransuz- 30%,<br>hindu- 2 % | xristianlik:<br>*katolik- 46 %,<br>*protestant-25 %,<br>*uniatizm- 16 %;<br>boshqa- 13 % |

AQSh va Kanada o'rtasida 1989- yildan beri "Erkin savdo to'g'risida"gi Shimoliy Amerika kelishuvi, ya'ni NAFTA integratsion tashkiloti faoliyat



ko'rsatib kelmoqda. NAFTA doirasida YI dek yagona valuta tashkil qilish, tashqi siyosat va xavfsizlik siyosatini o'tkazish bo'yicha shartnomada belgilanmagan bo'lsa-da, integratsiya YMD hajmi bo'yicha jahondagi eng yirik tuzilmadir.

3. Shimoliy Amerika- Amerika qit'asining shimoliy qismini tashkil etgan materik. Materik maydoni 20,3 mln km<sup>2</sup>, atrofidagi orollari bilan 24,2 mln km<sup>2</sup>. Shakliga ko'ra, Janubiy Amerikadek uchburchakni eslatadi. G'arbdan Tinch, sharqdan Atlantika, shimoldan Shimoliy Muz okeanlari o'rab tursa, janubda Panama bo'yni orqali Janubiy Amerika bilan tutashib turadi (1914- yil bo'yin hududida panama kanali qazilgan).

Geologik tarixida Yevrosiyo bilan birgalikda Lavraziya materigining bir bo'lagi bo'lgan. 65 mln yil muqaddam esa mustaqil materik tariqasida ajrab, markazdan qochma kuch ta'sirida shimoli- g'arbga siljib, hozirgi o'rniga kelgan. Shu bois nisbatan boshqa materiklarga qaraganda, Yevrosiyo bilan aloqadorligi ko'zga tashlanadi (bunda deyarli bir geografik kenglikda joylashganligi ham ta'sir ko'rsatadi). Shimoldan janubga katta masofaga cho'zilganligi uning kengliklar bo'yicha tabiatining ham shakllanishiga zamin yaratgan.

Relyefi jihatidan makrorelyef shakllari aniq namoyon bo'ladi. Shunga muvofiq holda, tog'li g'arb va tekislikli sharqqa bo'linadi. G'arbiy qismida shimoli- g'arbdan janubi- sharqqa cho'zilgan Kordilyera (ispancha "tog'lar zanjiri") tizmasi joylashgan bo'lib, eng baland joyi Denali (Mak- Kinli) cho'qqisida 6 194 metrga yetadi. Sharqiy qismida Lavrentiy qirlari, Appalachi tizmasi; Markaziy, Buyuk, Missisipi va qirg'oq bo'yi tekisliklaridan iborat tekislik va yassi tog'likli sharq joylashgan. Tabiati va geografik zonalarining tarkib topishida geografik o'rni, havo massalari va okean oqimlari, Golfstrim iliq oqimi va, hatto, antropogen omil ta'sir ko'rsatgan. Quyida materikka oid ayrim tavsilotlar keltirilgan:

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

| Chekka nuqtalari                                   | Tegishli yarimorollar | Daryolari  | Yirik tog' tizmalari | Ko'llari  |
|----------------------------------------------------|-----------------------|------------|----------------------|-----------|
| <b>sh:</b> Merchison<br>(71°50' sh.k.)             | Alyaska               | Alabama    | Alyaska              | Atapaska  |
|                                                    | Butiya                | Cherchill  | Appalachi            | Eri       |
|                                                    | Florida               | Freyzer    | Kaliforniya          | Guron     |
| <b>j:</b> Maryato b.<br>(7°42' sh.k.)              | Kaliforniya           | Kolorado   | Kaskad               | K. Ayiq   |
|                                                    | Kenay                 | Kolumbiya  | Kordilyera           | K. Qullar |
|                                                    | Labrador              | Makkenzi   | Makkenzi             | K. Sho'r  |
| <b>g'r:</b> Shahzoda<br>Uels<br>(168°40' g'r. uz.) | Melvill               | Missisipi  | Qirg'oq bo'yi        | Michigan  |
|                                                    | Syuard                | Missuri    | Qoyali tog'lar       | Olene     |
|                                                    | Ungava                | Ogayo      | Serra-Madre          | Ontario   |
|                                                    | Ya. Shotlandiya       | Rio-Grande | Serra-Nevada         | Vinnipeg  |
| <b>shq:</b> Sent- Charls<br>(55°40' g'r. uz.)      | Yukattan              | Yukon      | Uitni                | Yuqori    |

Shimoliy Amerikaning tabiiy xususiyatlarini o'rganish o'sha hudud haqida bilimga ega bo'lishdan tashqari, boshqa hududlarni ham aloqadorlikda o'rganish, natijada kompleks bilimning shakllanishiga sabab bo'ladi. Chunki yerusti tuzilishiga ko'ra, materik Janubiy Amerikaga o'xshasa, ko'pchilik tabiat zonalaridagi o'simlik va hayvonot dunyosi, tuproqlari bilan Yevrosiyoga o'xshaydi. Lekin sharqiy qismida tabiat zonalarining o'ziga xosligi- meridional shakllanganligi bilan hech qaysi materikka o'xshamaydi. Nega bunday?, qanday qilib shunday jarayon va hodisalar shakllangan? degan savollarga javob topish davomida bilim, dunyoqarash va tafakkur kenggayib boradi.

**4.** Yer yuzidagi har bir hududning tabiati va xususiyatlari u yoki bu ma'noda boshqasidan farq qiladi. Xususan, Shimoliy Amerika materigining iqlim mintaqalari, ko'proq, uning geografik o'rni, shakli, havo massalariga bog'liq bo'lsa, tabiat zonalarini, yuqoridagilar bilan birgalikda, Golfstrim iliq oqimi va u

bilan bog'liq holda- sektorlik, relyefi ta'sirida shakllangan. Hamma materiklarda, asosan, tabiat zonalari kenglik bo'yicha zonal tarqalgan bo'lsa, bu materikda Buyuk ko'llardan janubda bu xususiyat meridinal xususiyatga ega. Bunga asosiy sabab sifatida Golfstrim iliq oqimining ta'sirini ko'rsatish mumkin.

Shimoliy Amerika materigining o'simlik va hayvonot dunyosi, tuproqlari ko'proq Yevrosiyoga o'xshaydi. Qadimda mustaqil flora markazlari mavjud bo'lganidan Shimoliy Amerika o'simlik turlari nihoyatda xilma- xil (30 000 turdan ortiq) va florasida endemik relikt turlar anchagina uchraydi. Kaliforniya va appalachi flora markazi uchun sekvoyya, psevdotsuga, sarv kabi turlar, Appalachi flora markazi uchun esa liriodendron, magnoliya va boshqalar xarakterlidir. Materik Neoarktika va Golarktika<sup>19</sup> fauna oblastlariga kiradi. Golarktika oblasti Yevrosiyaning katta(shimoliy) qismini ham o'z ichiga oladi. Neoarktika oblastini shimoldan janubga 3 ta kichik oblastga ajratish mumkin, ya'ni Arktika, Kanada va Sonor kichik oblastlari. Ularni tabiiy sharoitlari va geografik xususiyatlari ajoyib landshaftlarni hosil qilgan. Ularni tabiiy holatini muhofaza qilish, saqlash, shuningdek, insonning salbiy ta'sirini kamaytirish uchun ko'plab tabiatni muhofaza qilish maskanlari (milliy bog', qo'riqxonalar, buyurtmaxona va h.z.) tashkil etilgan. Tabiatni muhofaza qilish maskanlari katta ahamiyatga egaligini ular muhofaza qiladigan obyektlardan ko'rish mumkin. Maskanlar kamayib ketgan va kamayib ketayotgan, diqqatga sazovor tabiat elementlarini muhofazaga olad. Masalan, yevropaliklar ko'chib kelgunga qadar, materikda 60,0 mln. dan ziyod bizonlar yashagan bo'lsa, yevropaliklar ko'chib kelib, ularni ovlash va yo'q qilishi oqibatida keskin kamayib, qirilib ketish darajasiga kelib qolgan edi. Lekin XX asr davomida bizonlarni muhofazaga olish kuchaydi va ovlash ta'qiqlandi, ularni muhofaza qiluvchi maskanlar- qo'riqxonalar, milliy bog'lar tashkil etildi.

---

<sup>19</sup> Umumiy biologiya darsligida biogeografik o'lkalar quyidagicha keltirilgan:

- Paleoarktik (Afrikaning shimoli, Yevropa va Osiyaning katta qismi);
- Habashiston (Afrikaning Saroi Kabirdan janubdagi barcha qismi, Madagaskar va yon orollar);
- Neotropik (Markaziy va Janubiy Amerika);
- Neoarktik (Shimoliy Amerika va Kanada-Arktika arxipelagi);
- Avstraliya (Avstraliya va Okeaniya);
- Hindomalay (Janubiy va Janubi- sharqiy Osiyo hududlari).

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

| <i>Milliy bog'lar</i> |                      | <i>Qo'riqxonalar</i> |
|-----------------------|----------------------|----------------------|
| Auyuittuk             | Sh- g'r. Grenlandiya | Ajal vodiysi         |
| Buyuk Kanon           | Shahzoda Albert      | Bering- Lend- Brinj  |
| Denali                | Shimoliy Yukon       | Buyuk Kanon          |
| Geyts- of- te Artik   | Vud- Baffalo         | Natur                |
| Gleysher              | Yellouston           | Noatak               |
| Gleysher- Bey         | Leyk- Klark          | Sian- Kaan           |
| Jasper                | Naxanni              | El- Viskaino         |
| Katmay                | Rangel- Sent- Elayas | Yukon Charli         |
| Klueya Kumbres- de-   | Kobuk- Valli         |                      |
| Monterrey             | Kononlendes          |                      |

Bularni samarasi o'laroq, tur soni kamayishdan to'xtab, endilikda son barqarorligi saqlanmoqda va ko'payish davri qayta tiklandi. Kamayib ketayotgan o'simliklar va tabiatning maftunkor landshaftlarini muhofazaga olishda ham asosiy o'rin tutadi. Bunday hududlarni tashkil etish, tabiiyki, geografik sharoit, sharoitga mos ravishda shakllangan tabiat elementlari bilan bog'langan. Bunday maskanlarning geografik o'rnini bilgan holda, ko'p hollarda, unda muhofaza etilayotgan narsalarni chamalash mumkin (chunki, tabiiyki, hech qachon Shimoli-g'arbiy Grenlandiya milliy bog'ida paporotnik; Noatak qo'riqxonasida fil yoki Kumbres- de- Monterrey milliy bog'ida lemming muhofaza etilmaydi-ku, muhofaza etiladigan obyekt sharoit bilan, albatta, bog'liq bo'ladi). Shu bois tabiatni muhofaza qilish maskanlarining geografik o'rnini bilish ularni o'rganish va xulosalashda ham katta ahamiyatga egadir. Shuni hisobga olgan holda, quyida materikning tabiiy xaritasi keltirilgan bo'lib, bunda muhofaza maskanlarining geografik o'rnini, qolaversa, relyefga bog'liq holda joylashuvini tahlillash mumkin.



Umumiy qilib aytganda, tabiatni muhofaza qilish maskanlarining o'rni va ahamiyati juda kattadir. Ayniqsa, insonning tabiatga ta'siri kuchayayotgan bir davrda, ularga bo'lgan ehtiyoj yanada ortadi. Bunda tabiatni inson ta'sirisiz (ayniqsa, qo'riqxonalarda) saqlash natijasida tabiiy muvozanat ma'lum darajada saqlanib turadi, antropogen omil ta'sirida ifloslangan muhit muhofaza etilgan tabiiy muhit ta'sirida barqarorlik biroz bo'lsa-da, ta'minlanadi. Qolaversa, zamon rivojlangani sayin seliteb va texnogen landshaft(inson ta'sirida shakllangan shahar, qishloq, yo'llar va h.z.)lar bilan tabiiy landshaftlarni taqqoslash, insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'sirlarini qanchalik ekanligini ular orasidagi ulkan farq orqali ko'rsatib berishda ham katta ahamiyat kasb etadi.



5. AQSh- Amerika Qo'shma Shtatlari Shimoliy Amerika materigida joylashgan dunyodagi eng rivojlangan davlat bo'lib, maydoni 9 372 600 km<sup>2</sup> ni tashkil qiladi. Kanada bilan shimoldan va Alyaska bo'yicha sharqdan, Meksika bilan janubdan chegaradosh. Sharqdan Atlantika, g'arbdan Tinch, Alyaska bo'yicha shimoldan Shimoliy Muz okeanlari yuvib turadi.

Amerikaning, xususan, hozirgi AQShning X. Kolumb tomonidan kashf etilishidan avval uning hududida hindular ko'p yashashgan. Oq tanlilar tomonidan mamlakat hududini mustamlaka qilish XVI- XVII asrdan bir yo'la 3 tomondan: janubdan- ispan va fransuzlar; sharqdan- ingliz va gollandlar; g'arbdan- ruslar tomonidan boshlangan. 1587- yili bu yerda ilk ingliz mustamlakasiga asos solingan edi. XVIII asrning oxirlarida Angliyaning AQSh mustamlakalarida kuchli ozodlik harakatlari boshlanib, 1774- 1776- yildagi mustaqillik uchun bo'lgan urushga olib keldi va natijada Angliyaning 13 ta mustamlakasi o'z siyosiy mustaqilligini e'lon qildi va birlashib, AQSh tarkibiga qo'shildi. 1776- yil 2- iyul kuni mintaqaviy Kongress yangi mintaqaviy konfederativ davlatni tashkil etilganligi haqida e'lon qildi. 1783- yili AQSh konstitutsiyasi qabul qilinib, 1789- yil kuchga kirdi. Mamlakat hukumati 1803- yil AQSh, Yangi Orleandan to Kanadagacha cho'zilgan eng yirik Luizyana mustamlakasini Fransiyadan sotib oldi, 1819- yili esa Floridani ularga qaytarib berishiga Ispaniyani majburladi. 1845- yil Texas hududini o'ziga biriktirib, Meksika bilan bo'lgan jang (1846- 1848-yillar)dan so'ng Meksika hududining yarmi- Texas, Nyu-Meksika, Arizona va Kaliforniyaning bir qismini o'ziga qo'shib oldi. 1846- yil Angliyadan Tinch okeani qirg'oqlarini sotib oldi va 1850- yili butun Kaliforniya mamlakat tarkibiga qo'shildi. 1867- yilda Rossiyadan Alyaska va unga yondosh Aluet orollarini sotib oldi. Shuningdek, Ispan- Amerika urushi(1868-yil) natijasida AQSh Gavayi orollari, Puerto- Riko va Guam orollariga ega bo'ldi. Shu tariqa XIX- XX asrlar davomida yaxlit mamlakat- Amerika Qo'shma Shtatlari shakllandi. Hozirda mamlakatda 50 ta shtat, shtatlar tarkibida 30 mingdan ortiq graflik, grafliklar tarkibida taunship va munitsipalitet kabi ma'muriy birliklar hamda poytaxt joylashgan kolumbiya federal okrugi mavjud.

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

Quyida mamlakatning ma'muriy- hududiy tuzilishi keltirilgan:

| <i>№</i> | <i>Shtatlar nomi</i> | <i>Ma'muriy markazi</i> | <i>Ayrim shtatlarining ramziy nomlari</i> |
|----------|----------------------|-------------------------|-------------------------------------------|
| 1        | Alaba                | Montgomeri              |                                           |
| 2        | Alyaska              | Juno                    |                                           |
| 3        | Arizona              | Finiks                  | “Amerikadagi Misr”                        |
| 4        | Arkanzas             | Litl- Rok               |                                           |
| 5        | Aydaxo               | Boyse                   |                                           |
| 6        | Ayova                | De- Moyn                |                                           |
| 7        | Delaver              | Dover                   | “Birinchi shtat”                          |
| 8        | Florida              | Tallaxassi              | “Quyoshli shtat”                          |
| 9        | G'r. Virginiya       | Charlston               |                                           |
| 10       | Gavayi               | Gonolulu                |                                           |
| 11       | Illinoys             | Springfild              |                                           |
| 12       | Indiana              | Indianapolis            |                                           |
| 13       | J. Dakota            | Pirr                    |                                           |
| 14       | J. Karolina          | Kolumbiya               |                                           |
| 15       | Jorjiya              | Atlanta                 | “Oltin shtat”                             |
| 16       | Kaliforniya          | Sakramento              |                                           |
| 17       | Kanzas               | Topika                  | “Kungaboqar shtati”                       |
| 18       | Kentukki             | Frankfort               | “Ko'mir shtati”                           |
| 19       | Kolorado             | Denver                  |                                           |
| 20       | Konnektikut          | Xartford                |                                           |
| 21       | Luiziana             | Baton- Ruj              |                                           |
| 22       | Massachusets         | Boston                  |                                           |
| 23       | Men                  | Ogasta                  | “Qarag'ay shtati”                         |
| 24       | Merilend             | Annapolis               |                                           |
| 25       | Michigan             | Lansing                 | “Avtomobilsozlik shtati”                  |

## AMALIY MASHG'ULOTLAR


|    |               |                  |                    |
|----|---------------|------------------|--------------------|
| 26 | Minnesota     | Sent- Pol        |                    |
| 27 | Missisipi     | Jekson           | “Magnoliya shtati” |
| 28 | Missuri       | Jefferson- Siti  |                    |
| 29 | Montana       | Xelena           |                    |
| 30 | Nebraska      | Linkoln          |                    |
| 31 | Nevada        | Karson- Siti     |                    |
| 32 | Nyu- Gempshir | Konkord          |                    |
| 33 | Nyu- Jersi    | Trenton          |                    |
| 34 | Nyu- Meksika  | Santa- Fe        |                    |
| 35 | Nyu- York     | Ol bani          | “Olma shtati”      |
| 36 | Ogayo         | Kolumbus         |                    |
| 37 | Oklaxoma      | Oklaxoma- Siti   |                    |
| 38 | Oregon        | Seylem           |                    |
| 39 | Pensilvaniya  | Garrisberg       | “Amerika Ruri”     |
| 40 | Rod- Aylend   | Providens        |                    |
| 41 | Sh. Dakota    | Bismark          |                    |
| 42 | Sh. Karolina  | Roli             |                    |
| 43 | Tennessi      | Nashvill         |                    |
| 44 | Texas         | Ostin            |                    |
| 45 | Vashington    | Olimpia          |                    |
| 46 | Vayoming      | Shayenn          |                    |
| 47 | Vermont       | Montpiliyer      |                    |
| 48 | Virginiya     | Richmond         |                    |
| 49 | Viskonsin     | Madison          |                    |
| 50 | Yuta          | Solt- Leyk- Siti |                    |



AQSh dunyodagi eng rivojlangan davlat bo'lib, umumiy holatda, barcha-sanoat, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi kabi tarmoqlarning kompleks rivojlanishida, albatta, har bir shtatining o'рни va ahamiyati kattadir. Xususan:

- xizmat ko'rsatishning eng yuqori darajadagi tiplari Nyu- York, Massachusets, Kaliforniya, Yuta, Florida va boshqa shtatlarda rivojlangan;
- oziq- ovqat mahsulotlari yetishtirishda, asosan, shimoliy shtatlar- Vashington, Michigan, Minnesota va boshqalar katta ahamiyatga ega;
- sanoatning umumiy rivojlanishi Nyu- York, Michigan, Luiziana, Kaliforniya, Ogayo va boshqa shtatlarda katta ahamiyatga ega;
- rangli metall kombinatlari va shu kabilar Montana, Yuta, Aydaxo, Arizona va boshqa shtatlarda rivojlangan;
- neftni qayta ishlash va neft- kimyo Alyaska, Texas, Nyu- Meksika, Luiziana, Kaliforniya va boshqa shtatlarda rivojlangan.

Quyida shtatlarning joylashgan o'рни tasvirlangan bo'lib, sanoat va boshqalarning rivojlanishini uning geografik o'рни bilan bog'lab o'rganish katta samara beradi.



AQShning katta salohiyatga egaligi uni jahonda iqtisodiy, ilmiy- texnikaviy va geosiyosiy qutbga aylanishiga turtki bo'lgan.

Mamlakatda 2012- yil 15,7 trln \$ YaIM ishlab chiqarilgan. Shu jumladan, neft, tabiiy gaz, ko'mir, uran qazib olish va po'lat eritish bo'yicha jahondagi



birinchi uchlik qatorida turadi. Qolaversa, u harbiy qurol- yarog'lar eksporti, elektr- energiya ishlab chiqarish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilish; elektrotexnika, elektronika va aerokosmik mahsulotlarning sifati; avtomobilsozlik, kemasozlik va samolotsozlik tarmoqlari va kimyo sanoatining rivojlanishi bo'yicha jahondagi peshqadam davlat hisoblanadi. Rivojlangan davlat bilan hamkorlik qilish, tabiiyki, foydadan holi emas. Shu xususida O'zbekistonda ham ko'plab qo'shma korxonalar tashkil etilgan. Bunda chet el tajribalarini qo'llash bilan birgalikda, ishchi o'rni, kapital va mamlakat hayotida katta ahamiyatga ega korxonalarning vujudga kelishiga zamin yaratadi.

### Nazorat savollari:

1. Topografik karta deb nimaga aytiladi?
2. Shimoliy Amerika makromintaqasida nechta davlat joylashgan?
3. Shimoliy Amerika materigida qaysi daryo, ko'l va tog'lar joylashgan?

4. AQShda birinchi tashkil etilgan milliy bog' qaysi?
5. Amerika Qo'shma Shtatlari bugungidek ko'rinishga kelguniga qadar qanday tarixiy jarayonlarni bosib o'tgan?

### Test savollari:

1. Gorizantallar soylanishida yonbag'ir bilan gorizontal tekislik orasida hosil bo'lgan burchak nima deb ataladi?  
A) gorizantallar oralig'i                      B) kesim balandligi  
C) qiyalik burchagi                              D) gipsokesim qirqimi
2. Nechanchi yil AQSh va Kanada o'rtasida "Erkin savdo to'g'risida"gi kelishuv imzolangan?  
A) 1945- yil                                      B) 1989- yil  
C) 1967- yil                                      D) 1863- yil
3. Sent- Charls burning geografik uzunligini aniqlang.  
A)  $55^{\circ}40'$                                       B)  $71^{\circ}50'$   
C)  $168^{\circ}40'$                                       D)  $57^{\circ}42'$
4. Quyidagi Shimoliy Amrikadagi tabiatni muhofaza qilish maskanlaridan milliy bog'larni ajratib oling.  
1) Denali;    2) El- Viskaino;    3) Natur;    4) Gleysher- Bey;  
5) Katmay; 6) Jasper;                      7) Noatak; 8) Shahzoda Albert.  
A) 2, 3, 5, 6, 7                                      B) 1, 3, 5, 6, 7  
C) 1, 2, 4, 5, 8                                      D) 1, 4, 5, 6, 8
5. AQSh va Meksika o'rtasida 1846- 1848- yillarda bo'lgan urushdan so'ng AQSh qaysi shtatlarni o'z tarkibiga qo'shib oldi?  
A) Luizyana, Kaliforniya, Florida

B) Texas, Nyu- Meksika, Arizona

C) Kanzas, Kolorado, Oklaxoma

D) Yuta, Jorjiya, Tennessi

Mustaqil ta'lim

• Shimoliy Amerikadagi millioner shaharlarni o'rganish

### Bilasizmi???

- Zamonaviy kartografiya asoschisi Gerard Merkator hisoblanadi;
- “Neft” so’zi lotinchadan tarjima qilinganda, “tosh moyi” degan ma’noni anglatadi;
- Troposferaning yuqori, stratosferaning quyi, ya’ni ikki qatlam chegarasi(tropopauza)da tezligi 160- 200 km.ga yetadigan shamollar esadi. Uni fanda naysimon oqimlar deb ataladi.

## Amaliy mashg'ulot № 13

### • Yevropa makromintaqasi

#### Topshiriqlar:

1. Yevropa mintaqasining geografik tavsifi.
2. Yevropaning rivojlangan davlatlari.
3. Yevropa Ittifoqi hamda “Katta sakkizlik”ka kiruvchi Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va Italiya davlatlari.
4. Sanoat ishlab chiqarishining ixtisoslashuvi va hududiy tarkibining xususiyatlari.
5. Germaniya. Iqtisodiy geografik o’rni va tabiiy resurslari.

6. GFRning aholisi va xo'jaligining umumiy ta'rifi: sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligi va transporti.
7. Tashqi iqtisodiy aloqalari va jahon xo'jaligida tutgan o'rni.

### Qo'shimcha topshiriqlar:

1. G'arbiy Yevropa subregioniga kiruvchi davlatlarni yozing.

| <i>№</i> | <i>Davlat nomi</i> | <i>Poytaxti</i> | <i>Davlat tili</i> | <i>Din tarmog'i</i> |
|----------|--------------------|-----------------|--------------------|---------------------|
|          |                    |                 |                    |                     |

2. Yevropa qit'asiga oid quyidagi jadvalni to'ldiring.

| <i>Chekka nuqtalari</i> | <i>Tegishli orollar</i> | <i>Tegishli yarimorollar</i> | <i>Daryolari</i> | <i>Ko'llari</i> |
|-------------------------|-------------------------|------------------------------|------------------|-----------------|
|                         |                         |                              |                  |                 |

3. Yevropa qit'asidagi asosiy milliy bog' va qo'riqxonalarini yozing.

4. Yevropa makromintaqasidagi yirik korporatsiyalar jadvalini to'ldiring.

| <i>№</i> | <i>Korporatsiyalar nomi</i> | <i>Joylashgan mamlakatning nomi</i> | <i>Ishlab chiqariladigan mahsulotlari</i> |
|----------|-----------------------------|-------------------------------------|-------------------------------------------|
| 1        | «Daimler- Benz»             |                                     |                                           |
| 2        | «Fiat»                      |                                     |                                           |
| 3        | « Renault»                  |                                     |                                           |
| 4        | «Nestle»                    |                                     |                                           |
| 5        | «Adidas»                    |                                     |                                           |



5. Quyidagi okean oqimlarini haroratiga ko'ra guruhlashtiring.

- 1) Golfstrim; 2) Gviana; 3) Bengel; 4) Peru; 5) Somali;  
6) Mozambik, 7) Musson; 8) Kanar; 9) Folklend; 10) Kaliforniya;  
11) Antil; 12) Kurosio; 13) Labrador; 14) Sharqiy Avstraliya

### Javoblar:

1. Yevropa- (finikiyaliklar tilida “yerep”- g'arb) Yevrosiyo materigining g'arbiy qismini egallagan qit'a. Maydoni deyarli 10 mln km<sup>2</sup> ga yaqin bo'lib, shundan 5,9 mln km<sup>2</sup> hududi Rossiyasiz hududi, ya'ni Xorijiy Yevropaga to'g'ri keladi. Yaxlit siyosiy xaritasida 44 ta mustaqil davlat mavjud. Makromintaqa mamlakatlari tabiiy sharoiti, madaniy- tarixiy rivojlanishi va boshqa xususiyatlariga ko'ra, umumiylik kasb etuvchi bo'linish- subregionlarga taqsimlangan. Ular quyidagi subregionlardir:

- Shimoliy Yevropa- tarkibida 8 ta;
- Janubiy Yevropa- tarkibida 8 ta;
- Sharqiy Yevropa- tarkibida 17 ta;
- G'arbiy Yevropa- tarkibida 11 ta.



Shundan, masalan, quyidagi jadvalda G'arbiy Yevropa subregionida joylashgan mamlakatlar berilgan:

| <i>Nº</i> | <i>Davlat nomi</i> | <i>Poytaxti</i> | <i>Davlat tili</i> | <i>Ustun din tarmog'i</i> |
|-----------|--------------------|-----------------|--------------------|---------------------------|
| 1         | Avstriya           | Vena            | nemis              | katolik                   |
| 2         | Belgiya            | Bryussel        | flamand            | katolik                   |
| 3         | Buyuk Britaniya    | London          | ingliz             | anglikan                  |

|    |              |             |             |           |
|----|--------------|-------------|-------------|-----------|
| 4  | Fransiya     | Parij       | fransuz     | katolik   |
| 5  | Germaniya    | Berlin      | nemis       | lyuteran  |
| 6  | Irlandiya    | Dublin      | irland      | katolik   |
| 7  | Lixtenshteyn | Vaduts      | nemis       | katolik   |
| 8  | Lyuksemburg  | Lyuksemburg | lyuksemburg | katolik   |
| 9  | Monako       | Monako      | fransuz     | katolik   |
| 10 | Niderlandiya | Amsterdam   | golland     | kalvinist |
| 11 | Shveysariya  | Bern        | nemis       | kalvinist |

G'arbiy Yevropa subregionidagi mamlakatlar yuqori darajadagi postindustrial. Industrial mamlakatlardir. Ayniqsa, bu yerda iqtisodiy salohiyati ulkan, "Katta sakkizlik"ka kiruvchi- Germaniya, Buyuk Britaniya va Fransiya mamlakatlarining joylashganligi, Yevropa va butun jahon miqyosida katta ta'sir doirasiga ega London, Parij, Berlin, Gamburg, Bryussel, Amsterdam, Syurix kabi yirik shaharlarning borligi uning mavqeyini ko'rsatib beradi. Aholisining tabiiy harakati sust bo'lsa-da, migratsion oqimlar hisobiga mexanik ko'payish jadal o'smoqda. Shunday bo'lishiga qaramay, tarixiy taraqqiyoti natijasi o'laroq, aholi ko'p hamda subregionlar ichida eng zich joylashgan. Urbanizatsiya deyarli 90-100% ga teng. Shunday qilib, G'arbiy Yevropa davlatlarining barchasi rivojlangan davlatlar safiga mansub bo'lib, jahon xo'jaligining hududiy tarkibida juda muhim ahamiyatga ega. Jahon iqtisodiyotida G'arbiy Yevropa davlatlari ko'p tarmoqli mashinasozlik va kimyo; intensiv chorvachilik va dehqonchilik; bank- moliya va turizm sohalarining xalqaro ahamiyatli darajada rivojlanganligi bilan alohida ajralib turadi.

2. Yevropa qit'asining genezisi (lotincha "gen"- kelib chiqish) Yevrosiyo materigining g'arbiy qismiligi bilan tasniflanadi. Yevropa hududining eng qadimiy yadrosi Sharqiy Yevropa platformasi va Baltika qalqoni bo'lib, Tokembriy supereoniga borib taqaladi. Shimoliy Germaniya pasttekisligi hududi- baykal;

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

O'rta Yevropa tabiiy geografik o'lkasining tekislik qismi va yassi tog'lari- kaledon va gersin; Janubiy va O'rta Yevropa tabiiy geografik o'lkalaridagi, ayniqsa, baland tog'lar- alp tog' hosil qilish bosqichlarida shakllangan. Hozirgi mukammal ko'rinishiga kelganiga esa deyarli 1 mln yilcha bo'lgan.

Hududi shimoldan janubga 5 000, ga'rbdan sharqqa esa 6 000 km masofaga cho'zilgan. Tabiiy sharoiti shimolda arktika va subarktika, o'rta kengliklarida mo'tadil, janubibida subtropik iqlimdan kelib chiqqan holda shakllangan. Tabiati va morfostruktutasi (yunoncha "morphos"- shakl, "struktos"- tuzilish) o'ziga xos.

Quyida Yevropaning tabiiy xossalariga oid ayrim berilmalar keltirilgan:

| <i>Chekka nuqtalari</i>                    | <i>Tegishli orollar</i> | <i>Tegishli yarimorollar</i> | <i>Daryolari</i> | <i>Ko'llari</i> |
|--------------------------------------------|-------------------------|------------------------------|------------------|-----------------|
| <b>sh:</b> Nordkin<br>(71°08' sh.k);       | Britaniya               | Skandinaviya                 | Volga            | Ladoga          |
|                                            | Islandiya               | Pireniy                      | Dunay            | Onega           |
|                                            | Irlandiya               | Bolqon                       | Dnepr            | Venern          |
| <b>j:</b> Marroki<br>(36°01' sh.k);        | Sitsiliya               | Kola                         | Dnestr           | Chud            |
|                                            | Sardiniya               | Yutlandiya                   | Reyn             | Sayma           |
|                                            | Nov. Zemlya             | Qrim                         | Visla            | Vettern         |
| <b>g'r:</b> Rok<br>(9°34' g'r.uz);         | Korsika                 | Peloponnes                   | Oder             | Inari           |
|                                            | Krit                    | Kornuol                      | Elba             | Balaton         |
|                                            | Kolguyev                | Salentina                    | Shim. Dvina      | Ilmen           |
| <b>shq:</b> Qutbiy Ural<br>(67°20' shq.uz) | Vaygach                 |                              | Luara            | Jeneva          |
|                                            | Malyorka                |                              | Taxo             | Boden           |
|                                            | Zelandiya               |                              | Gvadiana         | Firvaldshtet    |

Demak. Yevropa qit'asining eng asosiy xarakteristikasini geografik o'rni va relyefi belgilab beradi. Shularga bog'liq holda, boshqa tabiiy sharoiti va geografik muhitlari shakllangan. Paleontologik davrlar mobaynidagi jarayonlar, xususan,



quruqlik hududining siljishi, harakatlanishidan kelib chiqib yaxlit hududi, orol hamda yarimorollar; tog'larining joylashuvi va balandligiga bog'liq tarzda, daryo va boshqa oqar suvlar hamda, ayniqsa, to'rtlamchi davrdagi muzliklarning ishi hamda neotektonik jarayonlardan ekzaratsion relyef shakllari va ko'llar; keyingi davrlardagi faol antropogen ta'sirlar natijasida antropogen landshaftlar tarkib topgan va davom etmoqda. Bularning hammasi Yevropaning o'ziga xosliklarini keltirib chiqaradi va bir- biriga bog'liq holda, juda qulay makromintaqani shakllantiradi.

3. Yevropaning tabiiy geografik o'рни va unga bog'liq holdagi boshqa omillar ta'sirida uning o'zgacha tabiiy sharoiti shakllangan. Lekin bu tarixiy taraqqiyot davomida bugungi davrdagi holati, xolos. Xususan, to'rtlamchi va yuqori uchlamchi davrlarda iqlimi ancha nam bo'lgan va, ayniqsa, o'simliklar dunyosi barq urib rivojlangan. Biroq keyinroq iqlim o'zgarib, muzlik davri boshlangan. To'rtlamchi davr muzliklarining samarasi o'laroq, shimoliy qismlarida yosh tabiiy landshaft- tundralar shakllangan.

Osiyo, Afrika va Shimoliy Amerika bilan Yevropa qadimgi o'tmishda uzoq davr mobaynida va hozirgi paytda ham quruqlik bilan bog'langanligidan flora va faunasi unchalik endemik emas. Bu yerda yel daraxtining bazi bir turlari, jumladan, fin yeli, dub, pixta, tilog'och, vereskning bazi turlari endemikdir. O'rta dengiz bo'yida endemiklar ko'pligiga (o'simliklardan- qarag'ay, kedr, domiy yashil dub kabi daraxtlarning janubiy turlari; hayvonlardan- serna, muflon, Yevropa tog' echkisi, qor dala sichqoni) flora va faunaning qadimiyligigina emas, balki quruqlikning juda parchalanib ketganligi ham sababdir. Ana shuning uchun ham o'simlik va hayvonot dunyosi bir- birlaridan ajralib qolgan. Qolaversa, shu kabi Bolqon va Pireniy yarimorollarida ham endemiklar ko'p tarqalgan. Ammo qit'aning hamma joyida tabiiy muhit ahamiyatga molikdir. Shunday ajoyib tabiatni muhofaza qilish, antropogen "bosqin" bostirib kelmasligi uchun tabiatni muhofaza qilish maskanlari tashkil etilgan. Quyida ulardan na'munalar keltirilgan:

| <i>Milliy bog'lar</i> |                         | <i>Qo'riqxonalar</i> |                         |
|-----------------------|-------------------------|----------------------|-------------------------|
| <i>Nomi</i>           | <i>Joylashgan o'rni</i> | <i>Nomi</i>          | <i>Joylashgan o'rni</i> |
| Leyk- Distrikt        | Buyuk Britaniya         |                      |                         |
| Yekren                | Fransiya                | Pinega               | Rossiya                 |
| Kasorea               | Ispaniya                | Qora dengiz          | Rossiya                 |
| Gauya                 | Latviya                 | Astraxan             | Rossiya                 |
| Belovej Pushchasi     | Belarus                 |                      |                         |

Yevropa hududining deyarli 80 % qismi to'liq o'zlashtirilgan bo'lib, inson faoliyati fantastik tarzda namoyon bo'lsa-da, Yevropa xalqlarida tabiatni toza saqlash, muhofaza qilish hissi yuqori bo'ladi. Shahar va qishloqlar ham juda ozodaligi bilan ajralib turadi. Mintaqada rekultivatsiya (buzilgan yerlarni qayta tiklash) ishlari juda yaxshi qo'yilgan; tabiatni muhofaza qilib, tabiiy- estetik zavq beradigan hududlardan turizm va rekreatsion markaz sifatida foydalaniladi.

**4.** Yevropa dunyoda iqtisodiy, fan- texnika va madaniy salohiyatining ulkanligi, serqirraligi, industrial tarmoqlar, aholi va shaharlarning juda yuqori darajada konsentratsiyalashganligi, rivojlangan infratuzilmasi bilan ajralib alohida turadi. Bu yerda qadimgi va yangi davrlar, an'anaviy sohalar va eng yangi texnologiyalar, tarixiy shaharlar va o'ta madaniy landshaftlar, ulkan aeroportlar va transkontinental tezyurar magistrallar o'zining yorqin ifodasini togan.

Makromintaqadagi mamlakatlarning iqtisodiyoti ham juda yuqori darajada taraqqiy etgandir. Xususan, 100 ta dunyodagi eng katta TMK (transmilliy korporatsiya)ning deyarli 1/3 qismi shu qit'ada joylashgan. Quyida eng yirik korporatsiyalardan ayrim na'munalar keltirilgan:

| <i>№</i> | <i>Korporatsiyalar<br/>nomi</i> | <i>Joylashgan<br/>mamlakatning nomi</i> | <i>Ishlab chiqariladigan<br/>mahsulotlari</i> |
|----------|---------------------------------|-----------------------------------------|-----------------------------------------------|
| 1        | “Daimler- Benz”                 | Gemaniya                                | avtomobil                                     |
| 2        | “Fiat”                          | Italiya                                 |                                               |
| 3        | “Renault”                       | Fransiya                                |                                               |
| 4        | “Nestle”                        | Shveysariya                             | sut mahsulotlari                              |
| 5        | “Adidas”                        | Germaniya                               | sport kiyim va jihozlari                      |

Shunday yirik korporatsiyalar iqtisodiyotga katta foyda keltiradi, qolaversa, jahon talablariga moslikni ta'minlab turish uchun doimo “qaynoq” sifatga ega bo'lib, raqobatbardosh muhitni shakllantiradi. Natijada o'sish va rivojlanish yanada taraqqiy etadi.

5. Yer sharining yuzasi 510 mln km<sup>2</sup>dan ortiq bo'lsa, shundan deyarli 361 mln km<sup>2</sup> hududi suvlik muhit- Dunyo okeaniga to'g'ri keladi. Yer shari ulkan va yaxlit suvli qobig'ining turli qismlaridagi harorat va zichlik turlichadir, okeanlarning turli qismlaridagi atmosfera bosimi o'zgarib turadi va har xil shamollar esadi. Dunyo okeani har doim atmosfera sirkulatsiyasi ta'sirida bo'ladi. Tabiiyki, shu sababli okeanlar va barcha dengizlar suvi doimo harakatda bo'ladi. Bu harakatlarning eng muhimlari: okean oqimlari, to'lqinlar, suv qalqishlari, suvning aralashuvi va vertikal sirkulatsiya kabilardir. Shular ichidan okean oqimlari haqida to'xtalib o'tamiz.

Bir tarafga doimiy esadigan shamollar ta'sirida okean suvlarining gorizantal harakati- okean oqimlari deyiladi. Okean suvlari sirkulatsiyasi, shu jumladan, oqimlar ham bir qancha sabablarga ko'ra vujudga keladi. Mana shu sabablarga qarab, oqimlar zichlik oqimlari, dreyf oqimlari va quyilma oqimlarga bo'linadi<sup>20</sup>.

*Zichlik oqimlari*- okean yoki dengizlarning turli qismlaridagi suvning zichlik

<sup>20</sup> Shubayev L. Umumiy yer bilimi. –T.; “O'qituvchi”, 1975. -386 b.

ko'rsatkichlari har xilligi natijasida harakatlanishidan vujudga keladigan oqimlar. Masalan, Qora dengiz bilan O'rta dengiz suvlarining zichlik ko'rsatkichlari orasidagi tafovut o'laroq, ular orasida suvning oqishi- oqimlar vujudga kelgan.

*Dreyf oqimlari*- doimiy va asosiy shamollar ta'sirida vujudga keladigan, havoning suv yuzasiga ishqalanishi va shamolning to'lqin yonbag'riga bosimi natijasida hosil bo'ladigan okean suvlarining gorizantal harakati.

*Quyilma oqimlar*- dengiz va okeanlarning dreyf oqimlari kelishi natijasida suv sathi ko'tarilishidan so'ng hosil bo'ladigan suvning gorizantal oqish harakati. Bu oqim suv sathidagi farqning yo'qolishiga, natijada suv yuzasining tekislanishiga sabab bo'ladi<sup>21</sup>.

Yana bir narsani ta'kidlab o'tish joizki, asosiy oqimlarni vujudga keltiruvchi faktor bo'lmish shamol ham o'zi bosim tufayli shakllanadi. Bosim esa quyosh nurining yer yuzasi bo'ylab notekis taqsimlanishiga bog'liq ravishda hosil bo'ladi. Harorat ta'sirida dengiz va okeanlarning turli qismlarida harorati bo'yicha har xil bo'lgan suvli basseynlar vujudga keladi. Sovuq suv bilan issiq suvning zichliklari o'rtasidagi farq okeanning ekvatorial qismlari bilan qutbiy qismlari o'rtasida suv massalarining almashinuviga sabab bo'ladi. Arktika va Antarktidada sovuq va zich suvlar okeanning tagidagi suv qatlamlarida yuqori bosim hosil qiladi. Ekvator atroflarida yuza qatlamdagi suvlar issiq bo'lganidan chuqurdagi suvlar zichligi qutblardagiga qaraganda kamroq bo'ladi. Shu sababli okean tagidagi suvlar qutblardan ekvator tomon, yuza suvlar esa ekvatoridan qutblar tomon harakatlanadi.

Quyida haroratiga ko'ra, iliq va sovuq okean oqimlaridan na'munalar berilgan:

| <i><b>Iliq oqimlar</b></i> |                                 |
|----------------------------|---------------------------------|
| <i><b>Nomi</b></i>         | <i><b>Joylashgan okeani</b></i> |
| Golfstrim                  | Atlantika                       |
| Gviana                     | Atlantika                       |

| <i><b>Sovuq oqimlar</b></i> |                                 |
|-----------------------------|---------------------------------|
| <i><b>Nomi</b></i>          | <i><b>Joylashgan okeani</b></i> |
| Bengel                      | Atlantika                       |
| Peru                        | Tinch                           |

<sup>21</sup> j

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

|           |                    |             |                    |
|-----------|--------------------|-------------|--------------------|
| Mozambik  | Hind               | Somali      | Hind               |
| Musson    | Hind               | Kanar       | Atlantika          |
| Norvegiya | Atlantika, Sh. Muz | Foklend     | Atlantika          |
| Kurosio   | Tinch              | Kaliforniya | Tinch              |
| Antil     | Atlantika          | Labrador    | Sh. Muz, Atlantika |

Oqimlarning tabiatdagi ahamiyati ham juda katta. Xususan, ular quruqliklarda yog'inning taqsimlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Iliq oqimlar o'zi bilan sernam havo va iliq muhitni tashib, ayniqsa, qirg'oq bo'yi hududlarining iqlimini namchil bo'lishiga sharoit yaratadi. Aksincha, sovuq oqim o'zi bilan birga mutloq namligi kam havo massasini ham keltiradi. Sovuq havoning 1 m<sup>3</sup> hajmi iliq havoga nisbatan kam suv bug'ini sig'dira oladi. Natijada yog'in yog'ishi uchun namlik yetarli bo'lmay, quruq sharoit vujudga keladi.

Shuningdek, okeanda iliq oqimlar sovuq oqimlar bilan to'qnashib, suvlarning pastdan yuqoriga ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Buning natijasida esa chuqurdagi ozuqa tuzlar va CO<sub>2</sub> ga boy suvlar yuqoriga ko'tariladi. Bu suvlar quyosh nurlari yoritadigan qatlarga ko'tarilgach, planktonning, so'ngra nekton, ayniqsa, baliqlarning rivojlanishiga qulaylik yaratadi. Masalan, Labrador sovuq oqimi va Golfstrim iliq oqimlarining kesishadigan Nyufaundlend sayozliklari baliqlarga eng boy hududlardan sanalib, baliqchilikda katta ahamiyatga ega. Yana shunday joylarga Barens, Bering, Oxota dengizlari; Janubiy Amerikaning Tinch okeani sohillarini keltirish mumkinki, ularning jahon xo'jaligidagi o'rni beqiyosdir.

### Nazorat savollari:

1. Yevropa qit'asi qaysi subregionlarga bo'linadi?
2. Yevropa qit'asi g'arbdan sharqqa va shimoldan janubga qancha masofaga cho'zilgan?

3. Iflos ishlab chiqarish muassasalari Yevropada juda ko'p bo'lsa ham tabiatining xushmanzara ekanligini qanday omillarga bog'lash mumkin?
4. Jahondagi yirik TMK (transmilliy korporatsiya)lardan qaysilari mazkur makromintaqada joylashgan?
5. Okean oqimlari qanday vujudga keladi?

### Test savollari:

1. G'arbiy Yevropa subregionida nechta mamlakat joylashgan?  
A) 8 ta                                      B) 11 ta  
C) 17 ta                                      D) 9 ta
2. Yevropa qit'asining shimoliy eng chekka shimoliy nuqtasini aniqlang.  
A) Marroki                                      B) Qutbiy Ural  
C) Nordkin                                      D) Murmansk
3. Quyidagi tabiatni muhofaza qilish maskanaridan qaysi biri qo'riqxona ekanligini aniqlang.  
A) *Pinega*                                      B) Leyk- Distrikt  
C) Yekren                                      D) Kasorea
4. Avtomobil ishlab chiqaruvchi Fiat korporatsiyasi qaysi davlatda joylashgan?  
A) *Italiya*                                      B) Germaniya  
C) Portugaliya                                      D) Fransiya
5. Doimiy va asosiy shamollar ta'sirida vujudga keladigan, havoning suv yuzasiga ishqalanishi va shamolning to'lqin yonbag'riga bosimi natijasida hosil bo'ladigan oqimlar nima deb ataladi?  
A) zichlik oqimlari                                      B) naysimon oqimlar  
C) quyilma oqimlar                                      D) *dreyf oqimlari*

### Mustaqil ta'lim

- Yevropa mamlakatlarini yozuvsiz kartaga tushirish

### Bilasizmi???

- Aysbergning 1/10 qismi suv yuzasida ko'rinadi, xolos. Qolgan 9/10 qismi suv ostida bo'ladi;
- 100 gr asal yig'ish uchun asalari o'rtacha 46 000 km masofani bosib o'tadi;
- Kuril arxipelagidagi Paramushir orolida Kar (Gluxoye) deb ataluvchi ko'l joylashgan.

## Amaliy mashg'ulot № 14

### • Xorijiy Osiyo makromintaqasi

#### Topshiriqlar:

1. Janubi - g'arbiy Osiyo mintaqasi.
2. Markaziy va Sharqiy Osiyo mintaqasi.
3. Sharqiy Osiyoning katta salohiyatga ega rivojlangan davlatlari:
  - 1) Xitoy;
  - 2) Koreya Respublikasi;
  - 3) Yaponiya.
4. Janubiy Osiyo mintaqasining iqtisodiy tayanch mamlakati:
  - 1) Hindiston.

#### Qo'shimcha topshiriqlar:

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

1. Quyidagi «O'zbekiston qo'shma korxonalari» jadvalini to'ldiring:

| <i>Qo'shma korxonalar nomi</i> | <i>Ishlab chiqariladigan mahsulotlar</i> | <i>Qaysi davlatlar bilan hamkorlikda</i> |
|--------------------------------|------------------------------------------|------------------------------------------|
| «Farmed»                       |                                          |                                          |
| «O'z ELLAS»                    |                                          |                                          |
| «Marmar»                       |                                          |                                          |
| «SamAvto»                      |                                          |                                          |
| «Zarafshon – Nyumont»          |                                          |                                          |

2. Xorijiy Osiyo makromintaqasiga kiruvchi davlatlarni subregionlar bo'yicha joylashuviga oid quyidagi jadvalni to'ldiring.

| Sharqiy Osiyo | Janubi- sharqiy Osiyo | Janubiy Osiyo | Markaziy Osiyo | Janubi- g'arbiy Osiyo |
|---------------|-----------------------|---------------|----------------|-----------------------|
|               |                       |               |                |                       |

3. Osiyo qit'asi bo'yicha quyidagi jadvalni to'ldiring.

| Yirikroq orollar | Tegishli yirik yarimrollar | Daryolari | Yirik tog' tizmalari | Ko'llari |
|------------------|----------------------------|-----------|----------------------|----------|
|                  |                            |           |                      |          |

4. Osiyo qit'asidagi milliy bog' va qo'riqxonalarni yozing.

5. Osiyo qit'asidagi chuqurliklari keltirilgan botiqlar nomini yozing.

- - 132 metr;



- - 12 metr;
- - 154 metr;
- - 405 metr;
- - 28 metr.

### *Javoblar:*

1. O'zbekiston iqtisodiyoti tez rivojlanayotgan davlat. Hududi yadroviy quroldan holi bo'lgan, qo'shilmaslik siyosatini qo'llab- quvvatlovchi davlatga aylanishi o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan O'zbekiston siyosiy, ijtimoiy- iqtisodiy muammolarni hal qilish, iqtisodiy rivojlanishga erishish uchun qator davlatlar bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Xususan, 140 dan ortiq davlat bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'ygan, 130 dan ortiq davlat bilan diplomatik munosabatlarga faol kirishgandir. Xorijiy davlatlar O'zbekistonning salohiyati va imkoniyatlarini yuqori baholagan holda, qo'shma korxonalar tashkil etishgan. 2012- yil hisobi bo'yicha 4 200 dan ortiq xorijiy qo'shma korxona qayd etilgan bo'lsa, ularning soni hozirgi davrda 1,5 barobardan ortiq ko'paygan. Quyida ayrim qo'shma korxonalar keltirilgan:

| <i>Qo'shma korxonalar nomi</i> | <i>Ishlab chiqariladigan mahsulotlar</i> | <i>Qaysi davlatlar bilan hamkorlikda</i> |
|--------------------------------|------------------------------------------|------------------------------------------|
| "Bux- Tel"                     | mayonez                                  | Isroil                                   |
| "O'z Ellas"                    | gugurt                                   | Gretsiya                                 |
| "Marmar"                       | qurilish materiallari                    | AQSh                                     |
| "Sam Avto"                     | og'ir mashinalar                         | Yaponiya                                 |
| "Zarafshon – Nyumont"          | rangli metallar                          | AQSh                                     |

Mamlakat miqyosida qo'shma korxonalarning ko'payishi iqtisodiyotning o'sishida tub burilishlar yasaydi. Chunki dunyo tajribalariga tayangan holda

yaratilgan mahsulot sifat va ahamiyat jihatidan yuqori hisoblanadi. Bunday korxonalarda yaratilgan yuqori sifatli mahsulotlardan ichki bozorni boyitish bilan bir qatorda, chetga eksport qilish mamlakat iqtisodiyotiga ham katta foyda keltiradi, qolaversa, aholining maishiy ehtiyojlari qondiriladi.

2. Xorijiy Osiyo makromintaqasi Osiyo qit'asining Rossiyasiz hududini, ya'ni 53° shimoliy kenglikdan 12° janubiy kenglikkacha bo'lgan qismini egallaydi. Mintaqa hududi tabiiy, tarixiy, etnik, diniy va boshqa xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farq qiladigan madaniy- tarixiy mintaqa- subregionlarga bo'linadi. Ularning soni 5 ta bo'lib, tarkibidagi davlatlarning deyarli hammasida yuqorida sanab o'tilgan omillar yuzasidan mushtaraklik mavjud.

Quyida har bir subregion bo'yicha mamlakatlarning taqsimlanishi berilgan:

| Sharqiy Osiyo | Janubi-sharqiy Osiyo | Janubiy Osiyo | Markaziy Osiyo | Janubi-g'arbiy Osiyo |
|---------------|----------------------|---------------|----------------|----------------------|
| J. Koreya     | Bruney               | Bangladesh    | O'zbekiston    | Afg'oniston          |
| KXDR          | Filippin             | Butan         | Qirg'iziston   | Armeniya             |
| Mongoliya     | Indoneziya           | Hindiston     | Qozog'iston    | BAA                  |
| Xitoy         | Kampodja             | Maldiv        | Tojikiston     | Bahrayn              |
| Yaponiya      | Laos                 | Nepal         | Turkmaniston   | Eron                 |
|               | Malayziya            | Pokiston      |                | Gruziya              |
|               | Myanma               | Shri-Lanka    |                | Iordaniya            |
|               | Singapur             |               |                | Iroq                 |
|               | Tailand              |               |                | Isroil               |
|               | Timor Leshti         |               |                | Kipr                 |
|               | Vyetnam              |               |                | Kuvayt               |
|               |                      |               |                | Livan                |
|               |                      |               |                | Ozarbayjon           |
|               |                      |               |                | Qatar                |

|  |  |  |  |                |
|--|--|--|--|----------------|
|  |  |  |  | Sa. Arabistoni |
|  |  |  |  | Suriya         |
|  |  |  |  | Turkiya        |
|  |  |  |  | Ummon          |
|  |  |  |  | Yaman          |

Osiyo qit'asi jahon quruqligining 29,2 % ini egallagan holda, o'zida yer shari aholisining 59,5 % ini to'plagan. Hozirgi davrda siyosiy xaritasida, yuqorida ko'rsatilganidek, 47 ta mustaqil davlat mavjud bo'lib, ularning ichida iqtisodiy salohiyati ulkan "Katta sakkizlik"ka kiruvchi Yaponiyadan tortib, taraqqiyoti qoloq darajada bo'lgan Afg'oniston kabi davlatlar mavjud. Shunday bo'lsada, har bir davlat hayotida o'sish davom etmoqda. Misol tariqasida, yaqin davrlarda sodir bo'lgan "Yapon mo'jizasi", "Koreys mo'jizasi", Yangi industrial davlatlarda kuzatilgan "Katta sakrash"ni keltirish mumkin. Ayniqsa, Fors ko'rfazi mamlakatlari qora oltin savdosidan tushayotgan mablag'lar evaziga iqtisodiy ahvolini ancha yaxshilab oldi, hatto, ko'plari aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaMD bo'yicha jahonning eng oldingi pog'onalariga ko'tarilib oldi. Ko'rinib turibdiki, qit'ada sharoitlar yetarlicha bo'lib, ulardan foydalanish yo'llarini to'g'ri tanlay olgan iqtisodiyot jadal o'sib ketaveradi.

3. Osiyo (finikiyaliklar tilida "osu"- sharq) qit'asi doimiy quruqlikka ega eng katta qit'a hisoblanadi. Maydoni 43,4 mln km kv. Umuman, Osiyo qit'asi Yevrosiyaning bir qismi bo'lib, genetik jihatdan "uka"si bo'lgan Yevropadan hududining yaxlitligi, tabiiy sharoiti va tabiat zonalari, iqlimiy ko'rsatkichlari, relyefi, aholisi va boshqa ko'plab xususiyatlari orqali farq qiladi. Yevropa bilan bir xil kenglikda joylashgan hududlari ham iqlimiy va morfologik jihatdan o'zgachalik kasb etadi.

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

Qit'a g'arbdan sharqqa ham katta masofaga cho'zilgan bo'lib, eng g'arbiy nuqtasi Bobo burnida-  $26^{\circ}10'$  sharqiy uzunlik, eng sharqiy nuqtasi Dejnev burnida-  $169^{\circ}10'$  sharqiy uzunlikda joylashgan.

Quyida qit'aning tabiiy obyektlaridan na'munalar keltirilgan:

| Yirikroq orollar | Tegishli yirik yarimrollar | Daryolari   | Yirik tog' tizmalari | Ko'llari   |
|------------------|----------------------------|-------------|----------------------|------------|
| Kalimantan       | Arabiston                  | Yanszi      | Himolay              | Kaspiy     |
| Sumatra          | Hindiston                  | Xuanxe      | Tyanshan             | Baykal     |
| Xonsyu           | Hindixitoy                 | Ob          | Verxoyansk           | Balxash    |
| Sulaveli         | Taymir                     | Mekong      | Eron                 | Orol       |
| Yava             | Kichik Osiyo               | Yenisey     | Katta Xingan         | Issiqko'l  |
| Luson            | Kamchatka                  | Lena        | Hindikush            | Tayxu      |
| Mindanao         | Koreya                     | Amur        | Pomir                | Tuz        |
| Xokkaydo         | Malakka                    | Iravadi     | Dekan                | Van        |
| Saxalin          | Gidan                      | Hind        | Stanovoy             | Urmiya     |
| Shri- Lanka      | Lyadon                     | Braxmaputra | Ural                 | Lobnor     |
| Kotelniy         | Shandun                    | Gang        | Oltoy                | Ubsu- Nur  |
| Tayvan           | Mang'ishloq                | Sirdaryo    | Tibet                | Kukunur    |
| Xaynan           | Katxirvar                  | Dajla       | Kunlun               | Sariqamish |
| Timor            | Sinay                      | Amudaryo    | Kavkaz               | Aydarko'l  |

Osiyo qit'asi hududida arktika, subarktika, mo'tadil, subtropik, tropik, subekvatorial, ekvatorial va janubiy subekvatorial iqlim mintaqalari va ularning xususiyatlariga bog'liq ravishda tabiat zonalari shakllangan. Genezisi va morfostrukturalaridan kelib chiqqan holda tabiiy resurslar va minerallarning barcha turlari tarkib topgan. Qit'ada (Rossiyani hisobga olmaganda) Xitoy, Hindiston, Indoneziya, Malayziya, Qozog'iston, Fors ko'rfazi mamlakatlari kabi foydali qazilmalarga boy; Sharqiy, Janubi- sharqiy va Janubiy Osiyo mintaqalaridek

o'rmon resurslari bilan yetarlicha ta'minlangan, Yaponiya, Xitoy, Hindiston, Koreya Respublikasi, Fors ko'rfazi mamlakatlari, Singapur, Malayziya kabi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar joylashgan. Qit'a geosiyosiy jihatdan ham strategik ahamiyatga ega bo'lib, amerikalik geosiyosatchi Nikolas Spaykmen ta'biri bilan aytganda, kim bu joylarni idora qilsa, u dunyoni boshqaradi.

4. Osiyo qit'asi hududi katta maydonni egallagani bois, shimoldan janubga va g'arbdan sharqqa katta masofaga cho'zilgan. Shunga bog'liq holda, flora va faunasi tarkib topgan. Xususan, 2 ta floristik oblast- Paleotropik(Janubiy, Janubi-sharqiy Osiyo) va Golarktika(Sharqiy, Markaziy va Janubi-g'arbiy Osiyo)ga bo'linadi. Faunistik oblast ham floristik oblastga mos tushadi, lekin Paleotropik-Hindomalay, Golarktika- Paleoarktik deb nomlanadi. O'ziga xos bunday landshaftlar inson ta'sirida katta o'zgarishlarga uchramoqda. Shu bois ma'lum hududlar muhofazaga olinib, tabiiy holati nazorat qilib turiladi. Osiyoda ham shunday tabiatni muhofaza qilish maskanlari ko'p bo'lib, quyida ularning ayrimlaridan na'munalar keltirilgan:

| <i>Milliy bog'lar</i> |                         | <i>Qo'riqxonalar</i> |                         |
|-----------------------|-------------------------|----------------------|-------------------------|
| <i>Nomi</i>           | <i>Joylashgan o'rni</i> | <i>Nomi</i>          | <i>Joylashgan o'rni</i> |
| Kirtxar               | Pokiston                | Issiqko'l            | Qirg'iziston            |
| Taman                 | Malayziya               | Kronotskiy           | Rossiya                 |
| Negara                | O'zbekiston             | Kutai                | Indoneziya              |
| Ugom-                 |                         | Kxaukxiau            | Tailand                 |
| Chotqol               |                         | Markaziy             | Rossiya                 |
|                       |                         | Sibir                | Rossiya                 |
|                       |                         | Olekmin              | Rossiya                 |
|                       |                         | Taymir               | Rossiya                 |
|                       |                         | Yugan                | Rossiya                 |

Shiddat bilan antropogen landshaft quloch yoyayotgan bir paytda, tabiiy landshaftlarni saqlab qolish juda muhimdir. Bunda, albatta, milliy bog', qo'riqxonalar, buyurtmaxona, tabiat yodgorliklari muhofaza etiladigan joy kabi maskanlarning o'rni beqiyos. Zero, tabiiy muhit muvozanatini ma'lum meyorda ushlab turish ahamiyatlidir. Chunki ularda kelajak avlodlarning ham ulushi bor.

5. Yer yuzi ekzogen va endogen kuchlar ta'sirida shakllangan notekisliklardan iborat relyef shakllaridan iborat. Yer yuzi gipsometrik egri chizig'iga e'tibor beradigan bo'lsak, quyidagicha pog'onalanish ko'rinadi:

- 0 metr(dengiz sathi)dan past yerlar- botiq yoki cho'kma;
- 0 metr(dengiz sathi)dan 200 metr balandlikkacha- pasttekislik;
- 200 metrdan 500 metr balandlikkacha- qir;
- 500 metrdan 1 000 metr balandlikkacha- past tog';
- 1 000 metrdan 2 000 metr balandlikkacha- o'rtacha tog';
- 2 000 metrdan 3 000 metr balandlikkacha- o'rtacha baland tog';
- 3 000 metrdan 5 000 metr balandlikkacha- baland tog';
- 5 000 metrdan baland relyef shakllari- eng baland tog'lar deb yuritiladi.

Eng yirik morfostrukturalar tog' (500 metrdan baland joylar bo'lib, quruqlikning 40 % ini egallaydi) hamda tekisliklar( 500 metrgacha joylar bo'lib, quruqlikning 60 % ini egallaydi) deyish mumkin. Quyida dengiz sathidan past bo'lgan Osiyodagi botiqlar keltirilgan:

- - 132 metrli botiq Qoragiyo bo'lib, Kaspiybo'yidagi Mang'ishloq yarimorolida joylashgan. Bu botiq O'rta Osiyo tabiiy geografik o'lkasining eng past nuqtasi hisoblanadi.
- - 12 (atlasda -12,8) metrli botiq Mingbuloq bo'lib, Qizilqum cho'lining markazida joylashgan. Bu botiq O'zbekistonning eng past nuqtasi hisoblanadi.

- - 154 metrli botiq To'rfon bo'lib, Taklamakon cho'lining shimolida joylashgan hamda Markaziy Osiyo tabiiy geografik o'lkasining eng past nuqtasi hisoblanadi.
- - 405 metrli butun quruqlikdagi eng chuqur botiq O'lik dengizi bo'lib, Janubi- g'arbiy Osiyo tabiiy geografik o'lkasida joylashgan.
- - 28 metrli botiq Kaspiybo'yi pasttekisligidir<sup>22</sup>.

Bunday quruqlik botiqlari yer yuzidagi tektonik harakatlar, masalan, zilzila, o'pirilish ta'sirida vujudga kelgan chuqurliklarga to'g'ri keladi.

### Nazorat savollari:

1. O'zbekiston jahon iqtisodiy maydonida qanday aloqalar olib boradi?
2. Osiyo qit'asi qaysi subregionlarga bo'linadi?
3. Hududining katta masofaga cho'zilganligi tabiatining shakllanishida qanday ahamiyat kasb etadi?
4. Osiyo qit'asida qanay tabiatni muhofaza qilish maskanlari tashkil etilgan?
5. Yer yuzi relyefi vertikal ravishda qanday kesmalardan iborat?

### Test savollari:

1. Zarafshon iqtisodiy rayonidagi "Bux- Tel" qo'shma korxonasi Isroil bilan hamkorlikda nima ishlab chiqaradi?  
A) mo'yna buyumlari  
B) qurilish materiallari  
C) mayonez  
D) gugurt
2. Maldiv Respublikasi Osiyoning qaysi subregionida joylashgan?  
A) Sharqiy Osiyo  
B) Janubiy Osiyo  
C) Janubi- g'arbiy Osiyo  
D) Janubi- sharqiy Osiyo
3. Quyidagi geografik obyektlardan qaysilari orollar hisoblanadi?

---

<sup>22</sup> Agar botiq katta maydonni egallasa, pasttekislik deb atash mumkin

- 1) Xonsyu;                      2) Xaynan;                      3) Mindanao;  
4) Kotelniy;                    5) Luson;                        6) Timor.  
A) 1, 2, 3, 5                                              B) 1, 2, 4, 6  
C) 3, 4, 5, 6                                              D) 1, 2, 3, 4, 5, 6

4. Kxaukxiau qo'riqxonasi qaysi davlat hududida joylashgan?

- A) Kampodja                                              B) Indoneziya  
C) *Tailand*                                                  D) Hiniston

5. Necha metrgacha bo'lgan relyef shakllari *o'rtacha baland tog'lar* hisoblanadi?

- A) 500 metrdan 1 000 metr balandlikkacha  
B) 1 000 metrdan 2 000 metr balandlikkacha  
C) *2 000 metrdan 3 000 metr balandlikkacha*  
D) 3 000 metrdan 5 000 metr balandlikkacha

Mustaqil ta'lim

• Osiyodagi davlatlarni yozuvsiz xaritaga tushurish

### Bilasizmi???

- Marvaridgul Finlyandiyaning milliy ramzi hisoblanadi;
- Eng mitti qurbaqa Markaziy Amerikada tarqalgan bo'lib, kattaligi xattoki, o'rtacha yoshli odam tinog'ichalik kelmaydi;
- Yevropaliklardan, dastlab, kenguruni ko'rgan inson gollandiyalik dengizchi Frans Pelsarddir. Shunda u mahalliy aholidan Bu qanday hayvon deb so'ragan, ular esa “kenguru” (tushunmadim) deb javob berishgan. Shundan keyin bu so'z hayvon nomiga aylanib ketgan.



Amaliy mashg'ulot № 15

• **MDH va Markaziy Osiyo davlatlari  
makromintaqasi**

**Topshiriqlar:**

1. MDH davlatlari va Markaziy Osiyo davlatlarining geografik xususiyatlari.
2. O'tish iqtisodiyoti davlatlari.
3. Iqtisodiy geografik o'rni va tabiiy resurslari. Aholisi va xo'jaligining umumiy ta'rifi.
4. Sanoati.
5. Qishloq xo'jaligi.
6. Transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari.

**Qo'shimcha topshiriqlar:**

1. O'zbekistondagi aholisi 100 mingdan ortiq bo'lgan shaharlarni (Toshkent shahrini "millioner" shahar sifatida ular qatoriga kiritmagan holda) yozing.

2. Markaziy Osiyo va O'rta Osiyo mintaqasini iqtisodiy subregion va tabiiy geografik o'lka nuqtai nazaridan izohlang.

3 MDH davlatlari makromintaqasi jadvalini to'ldiring.

| <i>T/r</i> | <i>A'zo davlatlar</i> | <i>Mustaqillik<br/>sanasi</i> | <i>Poytaxti</i> | <i>Maydoni</i> |
|------------|-----------------------|-------------------------------|-----------------|----------------|
|            |                       |                               |                 |                |

4. O'zbekistonning foydali qazilma konlari (oltin, kumush, marmar, mis, neft va tabiiy gaz resurslari misolida) jadvalini shakllantiring.

5. Quyidagi atamalarga ta'rif bering.

- Siyosiy konsensus
- BMT
- Ko'l
- Efemer o'simliklar
- Favela

### *Javoblar:*

1. O'zbekiston aholi soni bugungi kunda 32,5 mln dan ziyod. Demografik ko'rsatkichiga ko'ra O'zbekiston MDH davlatlari orasida (Rossiya va Ukrainadan keyin) II, Markaziy Osiyo mintaqasida esa I o'rinda turadi.

Amerikalik mashhur olim U. Ayzardning fikricha, u yoki bu hududning xo'jaligi murakkab jumboq bo'lib, uni yechishda aynan aholi bo'g'inidan boshlamoq kerak. Darhaqiqat, aholi murakkab ijtimoiy- iqtisodiy tushunchadir, u bilan ishlab chiqarish "boshdan oyoq" chambarchas bog'liq.

Mamlaktimizning demografik tarixi uning aholisini turli davrlarda har xil sur'atlarda o'sib borganligi bilan tavsiflanadi. Masalan, 1897- yilda o'tkazilgan Umumrossiya aholi ro'yxati bo'yicha, O'zbekiston hududida 3 948 000 kishi yashagan. 1913- yilga kelib 4 331 000, 1926- yilda esa 4 629 000 kishini tashkil etgan. Yillar davomida aholi soni mamlakatimizda o'sib bordi. Mustaqillikka erishish yillarida aholi soni 20 320 000 kishiga yetgan edi. Aholining o'sish sur'atlari qishloq joylarida yuqori bo'lsa, zich joylashishi va lekin pastroq o'sishi, asosan, shaharlarga to'g'ri keladi. Bugungi unga umumiy aholining deyarli 51,3 %i shaharliklardir.

XX asr boshida yurtimizda 20 ga yaqin shahar bo'lib, ular, ayniqsa, suv bo'ylari va yo'l yoqalarida joylashgan edi. Hozirgi kunda 119 ta shahar, 1 065 ta shaharcha qayd qilingan.

Shahar maqomini olishi uchun aholi punktining aholisi 7 000 kishidan ortishi, aholisining kamida 2/3 qismi qishloq xo'jaligi bilan band bo'lmagan sohada ishlovchi ishchi- xizmatchilar va ularning oilalaridan iborat bo'lishi lozim. Qolaversa, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari rivojlangan bo'lishi kerak. O'zbekistonda hozirda aholisi 100 000 kishidan ortiq 17 ta katta (ulardan 10 tasining aholisi 100 000 dan 250 000 kishigacha katta shaharlar, 5 tasi 250 000 dan 500 000 kishigacha yirik shaharlar, 1 tasi 250 000 kishidan ko'p juda yirik va yana 1 tasi 1 000 000 kishidan ko'p aholiga ega millioner) shaharlar, 50 000 dan 100 000 kishigacha yashaydigan 19 ta o'rta shaharlar, 20 000 dan 50 000 kishigacha yashaydigan 69 ta yarim o'rta shaharlar mavjud. Qolgan 1 079 ta shahar va shaharchalarning har birida 20 000 kishidan kam aholi yashaydi.

Toshkent- mamlakat poytaxti. Markaziy Osiyodagi aholisi eng ko'p muhim iqtisodiy megapolis. Toshkent shahrining taraqqiyoti tezlashgani sayin aholi sonining o'sish sur'atlari ham nisbatan pasaymoqda. Xususan, aholisi 2002- yil 2 149 000 kishi bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich keyingi o'n yilliklar ichida pastroq o'sishga ega bo'lgan: 2012-yil 2 309 300, 2013-yil 2 340 900, 2014-yil 2 351 800, 2015- yil 2 371 300, 2016-yil 2 402 200, 2017-yil 2 465 030 kishini tashkil etgan.


Boshqa aholisi 100 000 kishidan ortiq shaharlar aholisi quyidagicha o'sish dinamikasiga ega bo'lgan:

| № | Shaharlar nomi | Aholisi<br>(ming kishi) |            | Aholining<br>o'sishi |              |
|---|----------------|-------------------------|------------|----------------------|--------------|
|   |                | 2002-yil                | 2012-yil   | (ming kishi)         | (foizda)     |
| 1 | Samarqand      | 363                     | <u>501</u> | <u>138</u>           | <u>38,02</u> |
| 2 | Namangan       | <u>397</u>              | 461        | 64                   | 16,12        |
| 3 | Andijon        | 343                     | 394        | 51                   | 14,87        |

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

|              |           |              |              |            |              |
|--------------|-----------|--------------|--------------|------------|--------------|
| 4            | Nukus     | 214          | 286          | 72         | 33,64        |
| 5            | Buxoro    | 240          | 271          | 31         | 12,92        |
| 6            | Farg'ona  | 186          | 254          | 68         | 36,56        |
| 7            | Qarshi    | 207          | 247          | 40         | 19,32        |
| 8            | Qo'qon    | 202          | 228          | 26         | 12,87        |
| 9            | Marg'ilon | 160          | 209          | 49         | 30,62        |
| 10           | Angren    | 130          | 171          | 41         | 31,54        |
| 11           | Jizzax    | 134          | 160          | 26         | 19,40        |
| 12           | Chirchiq  | 142          | 145          | 3          | 2,11         |
| 13           | Urganch   | 138          | 137          | -1         | -0,725       |
| 14           | Termiz    | 117          | 136          | 19         | 16,24        |
| 15           | Navoiy    | 141          | 134          | -7         | -4,96        |
| 16           | Olmalik   | 114          | 117          | 3          | 2,63         |
| <i>Jami:</i> |           | <i>3 228</i> | <i>3 851</i> | <i>623</i> | <i>≈19,3</i> |

Aholisi 100 000 kishidan ko'p shaharlar aholi sonining 2002- 2012- yillardagi o'zgarish dinamikasi:



Shaharlarda aholi sonining ortib borishi bir tarafdin ekologik holatni yomonlashishiga olib kelsa-da, ikkinchi tomondan ilmiy, texnik, madaniy va iqtisodiy sohalarda raqobat muhiti kuchayadi va ishlab chiqarish infrastrukturalari rivojlanadi. Natijada tobora taraqqiy etib, iqtisodiy markazlarga aylana boradi.

Buning orqasidan esa mamlakat miqyosida shaharning ahamiyati ortadi va shaharlashuv jarayoni davomida aholining turmush darajasi hamda mamlakatning o'sishi yanada ortadi.

2. Ko'pincha, O'rta Osiyo va Markaziy Osiyo haqida gap ketganda O'zbekiston hududi joylashgan mintaqqa tushuniladi. Ammo Osiyo qit'asini subregionlarga, Yevrosiyo materigini esa tabiiy geografik rayonlarga bo'lganda bular boshqa-boshqa hududlarni ifodalaydi.

### Tabiiy geografik rayonlashtirish:

- *Markaziy Osiyo*- Osiyo qit'asining markaziy qismini egallagan, Tyanshan va Jung'oriya Olatovi tizmalarining sharqiy yonbag'ridan Buyuk Xitoy pasttekisligining g'arbiy chegarasigacha, janubda Himolay tog'larining shimoliy yonbag'ridan shimolda Oltoy, Sayan tog'larining janubiy, Katta Xingan tog'larining g'arbiy qismigacha bo'lgan hudud. Rayon hududi, asosan, Xitoyning katta qismi va Mongoliyadan iborat.
- *O'rta Osiyo*- Yevrosiyo materigining o'rtasiga to'g'ri keladigan, g'arbda Kaspiy dengizining g'arbiy qirg'og'idan sharqda Sharqiy Qozog'iston tog'lari, Tyanshan va Sariko'l tog'larining suvayarg'ichigacha, janubda Turkman- Xuroson tog'larining suvayarg'ichidan shimolda Qozog'iston past tog'ligining shimoliy chegarasigacha yastanib yotgan hudud. Bu hududga O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistonning to'liq, Qozog'istonning markaziy va janubiy qismlari; Eron va Afg'onistonning shimoliy, Xitoyning chekka shimoli-g'arbiy qismlari kiradi.

### Siyosiy- geografik subregionlashtirish:

- *Markaziy Osiyo*- davlat chegaralari bo'yicha ajratilgan, tarkibiga to'liqligicha kiradigan Qozog'iston, Turkmaniston, O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlaridan iborat yaxlit hududiy birlik.

Demak, mamlakatimiz hududi tabiiy geografik nuqtai nazaridan O'rta Osiyo o'lkasiga, siyosiy geografik jihatidan esa Markaziy Osiyo subregioniga kiradi.

3. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi- 1991- yil 8- dekabrda SSSRning parchalanishi munosabati bilan yuzaga kelgan davlatlarning o'zaro hamkorlik maqsadida kelishuvidan keyin yuzaga kelgan iqtisodiy integratsiya. Hozirda:

- ✓ a'zo davlatlar: Rossiya, Belarus, Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston, Moldova, Ozarbayjon va Armaniston;
- ✓ assotsialashgan davlat: Turkmaniston;
- ✓ MDH de'yure a'zosi emas, de'fakto a'zosi bo'lgan davlat: Ukraina;
  - kuzatuvchi davlatlar: Mongoliya va Afg'oniston;
  - MDHni tark etgan davlat: Gruziya.

Hamdo'stlik nizomiga ko'ra, a'zo davlatlardagi inson huquqlari va erkinligini ta'minlash, davlatlar tashqi siyosatini nazorat qilish, iqtisodiy hamkorlik, transport va aloqa tizimini rivojlantirish, tabiat va aholi salomatligini muhofaza qilish, ijtimoiy va migratsion siyosat masalalarini hal qilish, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish masalalari hamkorlikda hal qilinishi lozim.

Quyida MDH davlatlariga oid jadval berilgan:

| <i>T/r</i> | <i>A'zo davlatlar</i> | <i>Mustaqillik sanasi</i> | <i>Poytaxti</i> | <i>Maydoni (km kv)</i> |
|------------|-----------------------|---------------------------|-----------------|------------------------|
| 1          | Armaniston            | 21.09.1991                | Yerevan         | 29 743                 |
| 2          | Belarus               | 25.08.1991                | Minsk           | 207 600                |
| 3          | Moldova               | 27.08.1991                | Kishinyov       | 33 846                 |
| 4          | O'zbekiston           | 31.08.1991                | Toshkent        | 448 970                |
| 5          | Ozarbayjon            | 30.08.1991                | Boku            | 86 600                 |
| 6          | Qirgiziston           | 30.08.1991                | Bishkek         | 198 500                |
| 7          | Qozog'iston           | 16.12.1991                | Astana          | 2 700 100              |
| 8          | Rossiya               | 24.08.1991                | Moskva          | 17 075 400             |
| 9          | Tojikiston            | 09.09.1991                | Dushanbe        | 143 100                |
| 10         | Turkmaniston          | 27.10.1991                | Ashhabat        | 488 100                |

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

|    |         |            |       |         |
|----|---------|------------|-------|---------|
| 11 | Ukraina | 24.08.1991 | Kiyev | 603 700 |
|----|---------|------------|-------|---------|

MDHning quyidagi organlari tashkil etilgan: Davlat boshliqlari kengashi, Hukumat boshliqlari kengashi, Tashqi ishlar vazirlari kengashi, Davlatlararo iqtisodiy qo'mita, Parlamentlararo assambleya, Muvofiqlashtiruvchi maslahat qo'mitasi. Xususan, Davlat boshliqlari kengashi bir yilda kamida ikki marta o'tkaziladi, bunda MDH organlarining faoliyati va Nizomi tartibga solib turiladi.

**4.** O'zbekiston hududining yer usti tuzilishining har xilligi, geologik tarixi davomida sodir bo'lgan geokimyoviy va geofizik jarayonlar ta'sirida turli xildagi mineral xomashyo resurslari, foydali qazilmalar tarkib topgan. Mamlakatimizda 120 turga oid foydali qazilmalarning 2 700 dan ortiq konlari mavjud bo'lib, minerallarning umumiy miqdori 3,3 trln \$ ni tashkil qiladi.

Quyida ayrim foydali qazilma (oltin, marmar, mis, neft, tabiiy gaz) konlaridan na'munalar keltirilgan:

| <i>Mineral resurslar</i> | <i>Joylashgan viloyati</i> | <i>Qazilma konlarining nomi</i>                                                                                                                      |
|--------------------------|----------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <i>oltin</i>             | Buxoro                     | Yangiqazg'an                                                                                                                                         |
|                          | Jizzax                     | Konsoy, Kattang,<br>Marjonbuloq                                                                                                                      |
|                          | Namangan                   | Karalevskaya, Oqbuloq                                                                                                                                |
|                          | Navoiy                     | Qoraqo'ton, Beshquduq,<br>Jelsoy, Aytimtov, Muruntov,<br>Ko'kpatas, Turboy,<br>Balpantov, Davgiztov,<br>Omontoytov, Aristantov,<br>Qumli, Kosmonachi |
|                          | Qashqadaryo                | Zarmas                                                                                                                                               |

|               |                  |                                                                              |
|---------------|------------------|------------------------------------------------------------------------------|
|               | Samarqand        | Oqbel, Zarmitan                                                              |
|               | Toshkent         | Qizilolmasoy, Qo'shbuloq, Kauldi                                             |
| <i>marmar</i> | Buxoro           | Tozbuloq                                                                     |
|               | Jizzax           | Sharaksoy, Oqtosh, Qoratosh, Uzun                                            |
|               | Navoiy           | Oqtov, Qoratosh, G'ozg'on, Bushan, Turi-Tov, Ko'kpatas                       |
|               | Qashqadaryo      | Isxona, Burkunli, Bodomzor                                                   |
|               | Qoraqalpog'iston | Qahralisoy                                                                   |
|               | Samarqand        | Zarband, Chingalli, Jam, Tim                                                 |
|               | Toshkent         | Orkutsoy                                                                     |
| <i>mis</i>    | Toshkent         | Qalmoqqir, Sariqcheku, Dalnoye                                               |
|               | Navoiy           | Qoramurum                                                                    |
| <i>neft</i>   | Namangan         | Sho'rbuloq, Kosonsoy, Tergachi, Namangan                                     |
|               | Andijon          | Xartum, Janubiy Olamushuk, Sharqiy Xartum, Xoji Osmon                        |
|               | Farg'ona         | Gumxona, G'arbiy Polvontosh, II Variq, IV Sho'rsuv, Chimyon Chovur-Yorqo'ton |
|               | Buxoro           | Mullaxol, Qandim                                                             |
|               | Qashqadaryo      | Qo'shquduq, G'arbiy Toshli                                                   |
|               | Surxondaryo      | Uchqizil, Xovdog', Ko'kaydi, Jaloyir, Karsag'di, Amudaryo, Qo'shtor,         |



|            |                  |                                                                                                                                                                                                |
|------------|------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|            |                  | Mirshadi                                                                                                                                                                                       |
| Tabiiy gaz | Buxoro           | G'arbiy, Uchqir, Qandim, Oqqum, Xaqko'l, G'arbiy Xoji, Quvakchi, Toshquduq, Olot, Yangiqazg'an, Havzak, Shadi, Shimoliy Shadi, Sharqiy Dengizko'l, Chandir, Doyaxotin, Xojiqazg'an, Porsonko'l |
|            | Farg'ona         | Shimoliy Xonqiz                                                                                                                                                                                |
|            | Qashqadaryo      | Janubiy Kemachi- Kenja, Shimoliy Muborak, Janubiy Muborak, Qoraqum, Uvada, Odamtosh, Gumbuloq, Sho'rtan, Qirqquloq, Girson, Qultoy, Alan, Janubiy Pomuq, Qamashi                               |
|            | Qoraqalpog'iston | Urg'a, Shoxpaxta, Kuanish, Aqsho'laq, Qorasho'laq                                                                                                                                              |
|            | Samarqand        | Chembar                                                                                                                                                                                        |
|            | Surxondaryo      | Gajak                                                                                                                                                                                          |

Mamlakat rivojlanishida tabiiy resurslarning ahamiyati beqiyosdir. Ayniqsa, mineral resurslarni bu borada keltirib o'tish joiz. Jahonning minerallarning deyarli barcha xillari bilan yaxshi ta'minlangan mamlakatlar iqtisodiyoti tadrijiy o'sib borayotganligi hech kimga sir emas. O'zbekistonda ham foydali qazilmalarning juda ko'pi tarqalgan. Xususan, yurtimiz jahonda 230 ga yaqin mamlakat ichida oltin zaxiralari bo'yicha IV (MDH da II, Markaziy Osiyoda I), uran bo'yicha VII, molibden bo'yicha VIII, mis bo'yicha X, tabiiy gaz zaxiralari bo'yicha esa XIV

o'rinda turadi. Demak, bu va boshqa mineral resurslarning ulkan zaxiralari yurtimizda rangli metallurgiya, yoqilg'i, kimyo va qurilish materiallari sanoatini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratadi.

### 5. Atamalarga ta'rif berish.

**1) siyosiy konsensus-** (lotincha “consensus”- hamjihatlik) ikki va undan ortiq davlatlar o'rtasida imzolangan siyosiy kelishuv to'g'risidagi shartnoma. Ya'ni uni xalqaro muzokaralar, siyosiy va boshqa kengashlar ishtirokchilari nuqtai nazarlarining yaqinlashuvi va munozaralar natijasida nizoli, baxsli masala bo'yicha erishilgan umumiy bitim deb qabul qilish mumkin.

Masalan, o'ziga xos geosiyosiy va iqtisodiy qutbni shakllantirgan Xitoy mavqeyining kun sayin oshib borishi AQShni taxlikaga solmoqda. Shu sababli iloji boricha AQSh Xitoyga mintaqaviy muammolar bilan cheklanib, global muammolarga aralashmaslik tamoyilini tushuntirishga urinmoqda. Lekin bunday keskinlik AQSh- Xitoy munosabatlariga putur yetkazishi hamda AQShni Sharqiy va Janubi- sharqiy Osiyodagi geostrategik manfaatlardan mahrum qilishi mumkin. Shu sababli Pekin- Vashington o'rtasida siyosiy konsensus imzolanib, Xitoy AQShni “tabiiy ittifoqdoshi” sifatida qabul qilishi AQSh uchun ham yaxshi bo'ladi.

**2) BMT-** Birlashgan Millatlar Tashkiloti, yer yuzida tinchlikni mustahkamlash va xavfsizlikni ta'minlash, davlatlarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan xalqaro tashkilot.

BMTni tashkil etish haqidagi qaror SSSR, AQSh, Angliya va Xitoy tashqi ishlar vazirlarining Moskvadagi kengashida 1943- yilda, ustavi esa San- Fransisko konferensiyasida 1945- yil 24-oktabrda qabul qilingan. Ustavga, dastlab, 51 ta davlat imzo chekkan. 2000- yilga kelib davlatlar soni 189 tani tashkil etgan bo'lsa, hozirda 193 taga yetgan. Shtab kvartira(doimiy ish o'rni)si Nyu-York shahrida. Ustavida ko'rsatilganidek, u xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash, xalqlarning teng huquqli bo'lishi va o'z taqdirini o'zi belgilashi qoidasiga amal qilib, millatlar

o'rtasida do'stlik munosabatlarini rivojlantirishni, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy muammolarni hal etishda xalqlar o'rtasida hamkorlik bo'lishini ta'minlashni ko'zda tutib, shu umumiy maqsadlarga erishishda millatlar harakatini uyg'unlashtirib turadigan tashkilot hisoblanadi. BMTning rasmiy tillari- ingliz, rus, fransuz, ispan va xitoy tillari bo'lib, shundan ingliz, fransuz va ispan tillarida ish yuritiladi.

Uyushma quyidagi organlardan iborat:

- Bosh Assambleya: o'ziga xos butunjahon parlamentining insoniyat uchun eng dolzarb muammolari ko'rib chiqilayotgan majlislarda a'zo barcha mamlakatlar qatnashadigan BMT organi;
- Xavfsizlik Kengashi: xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash bo'yicha BMT organi. Kengash 15 a'zodan iborat bo'lib, ularning 5 tasi Xitoy, Rossiya, B.Britaniya, AQSh va Fransiya doimiy a'zolardir. Qolgan a'zolar Bosh assambleya tomonidan 2 yil muddatga tayinlanadi;
- Iqtisodiy va ijtimoiy Kengash: BMT tizimidagi muassasalar faoliyatini ijtimoiy va iqtisodiy sohada muvofiqlashtirib turuvchi va tavsiyalar ishlab chiquvchi organ;
- Vasiylik Kengashi: 7 ta a'zo mamlakat qo'l ostidagi 11 vasiylik hududida xalqaro nazoratni ta'minlash, shuningdek, ularning hukumatlari bu hududlarda o'z- o'zini boshqarish yoki mustaqillikning zarur choralarini ko'rishlari uchun tuzilgan BMT organi. Lekin keying vaqtda uning tartibi o'zgartirilib, zarur paytdagina yig'ilish o'tkaziladigan bo'ldi.
- Xalqaro Sud: butunjahon mamlakatlari o'rtasidagi sud ishlarini olib boruvchi BMTning bosh sud organi;
- Kotibyat: Bosh assambleya, Xavfsizlik Kengashi va boshqa organlar ko'rsatmalariga muvofiq tezkor va ma'muriy ishlarni amamlga oshiruvchi organ. BMT Bosh kotibi boshqaradi. Bugungi kunda bu vazifani Portugaliya sobiq Bosh vaziri Antonio Guterrish bajarmoqda.

3) *ko'l*- quruqliklardagi tabiiy chuqurliklarni to'ldirgan va yuzasi gorizantal bo'lgan suv havzasi. Lekin shunday bo'lsada, har qanday chuqurlikda to'planib qolgan suv massasi ko'l bo'lavermaydi. Uning ko'l sifatida qabul qilinishi uchun yetarli xususiyatlari bo'lishi kerak:

- yagona yoki bir- biri bilan tutashib ketgan bir necha botiqlar suv bilan to'la (ba'zan qisman to'la) bo'lishi;
- okean yoki dengiz bilan ma'lum uzoqlikda bo'lishi;
- quyiladigan suv miqdori ko'ldagi suvdan kam bo'lishi;
- havzadagi oqim tezligi yotqiziqlar cho'kishi uchun sharoit hosil qiladigan darajada kichik bo'lishi;
- o'rtacha yuzasi 0,01 km kv dan katta, uzunligi 200 m dan uzun bo'lishi;
- havzaning chuqurligi to'lqin hosil qila olish darajasidagi qiymatda va u qirg'oqlarni yuva oladigan kuchga ega bo'lishi kerak.

Yer sirtida turli jarayonlar ta'sirida hosil bo'lgan va ko'l suvi to'planadigan chuqurlik *ko'l botig'i* deyiladi. Ana shu ko'l botiqlarining qay yo'sinda paydo bo'lganligiga ko'ra ko'llar quyidagicha klassifikatsiya qilinadi:

- tektonik (yunoncha "qurilish") ko'llar tektonik harakatlar ta'sirida yer yuzasining yorilib, suvga to'lishidan hosil bo'ladi. Masalan, Baykal va h.z.

- morena (fransuzcha "muz uyumi") ko'llar muzliklarning ko'p vaqt turib qolishi natijasida vujudga kelgan chuqurlikda suv to'lishidan hosil bo'ladi. Masalan, Chud ko'li va h.z.

- laguna (ispancha "qo'ltiqcha") ko'llar nisbatan kichik qo'ltiqlarning qum tillari orqali dengiz yoki okeandan uzilib qolishi natijasida hosil bo'ladi. Masalan, Morakaybo va h.z.

- liman (portugalcha "kichik qo'ltiq") ko'llar daryo etagini dengiz suvi bosishi va qum tillari orqali bu suvning to'silib qolishidan hosil bo'ladi. Masalan, Yeya va h.z.

- delta (yunonlarning  $\Delta$  harfi nomidan) ko'llar daryolarning tarmoqlanib, uchburchaksimon quyiladigan mansabida hosil bo'ladi. Masalan, Sudoche va h.z.

- karst (Dinara tog'ligi yaqinidagi Karst platosi nomidan) ko'llar suvda oson eriydigan jinslarning suv ta'sirida yemirilib, o'pirilib tushishidan hosil bo'lgan chuqurlikda hosil bo'ladi. Masalan, Imandr va h.z.

- to'g'on ko'llar tog' jinslarining turli jarayonlar (zilzila, surilish, ko'chki) ta'sirida daryo vodiysini to'sib qo'yishidan hosil bo'ladi. Masalan, Sarez va h.z.

- lava (italyancha "ko'chki")- to'siq ko'llar daryo vodiysini lava oqimi to'sib qo'yishidan hosil bo'ladi. Masalan, Sevan va h.z.

- o'zan ko'llar daryo eski o'zanining chuqurroq va kengroq joyida suvning qolib ketishidan hosil bo'ladi. Masalan, Amazoniyadagi ko'l va h.z.

- qoldiq ko'llar, ayniqsa, katta suv havzalarining chekinishidan so'ng chuqurliklarda suvning qolib ketishidan hosil bo'ladi. Masalan, Kaspiy va h.z.

- vulkanik ko'llar o'chgan vulqon kraterlaridagi konussimon chuqurliklarda atmosfera yog'inlari va boshqa omillar ta'sirida suvning to'planishidan hosil bo'ladi. Masalan, Kronoki va h.z.

Ko'llarning tabiatdagi ahamiyati beqiyos. Ular suvga moslashgan organizmlarning makoni, chuchuk ko'llar esa chuchuk suvning beminnat ombori, sho'r ko'llar tuz manbai, qolaversa, ko'llar rekreatsiya, elektr energiya olish, sug'orish, baliqchilik kabi tarmoqlar uchun juda muhim, shuningdek, mikro va mezoiklim muvozanatini boshqaruvchi mexanizmdir.

**4) efemer** (yunoncha "bir kunlik") *o'simliklar*- asosan, cho'l, chalacho'l va adirlarda o'sadigan bir yillik o'simliklar. Vegetatsiya davri qisqa bo'lgan joylarda o'sadi. Ular yo issiq boshlangungacha yo sovuq boshlangungacha o'z hayot faoliyatini davom ettiradi. Shu bois efemer o'simliklar bahorgi efemer o'simliklar va kuzgi efemer o'simliklarga bo'linadi.

O'rta Osiyoning cho'l, ayniqsa, adirlarida efemerlar ko'p uchraydi. Qishning oxiri iliq kelganda rivojlanishi tezlasha boradi va erta bahorning sernam, iliq kunlari boshlangach, efemer o'simliklar tez rivojlanib, bir necha haftada gullab, urug'lari pishib yetiladi. Keyin issiq kunlar kelganda qurib, qovjirab qoladi.

Masalan, Mirzacho'l tabiiy geografik okrugining cho'l zonasida uchraydigan sho'ro'zak, qorabosh, burgan, lolaqizg'aldoq kabi efemerlar.

Efemer o'simliklarning quyidagi kabi turlari mavjud:

- ✓ ozuqabop- qo'ng'irbosh, tariqbosh, arpag'on, no'xotak va h.z.
- ✓ dorivor- jag'-jag' va h.z.
- ✓ zaharli- uchma va h.z.

Efemerlar haqida gap ketganda, efemer ko'llarni ham aytib o'tish mumkin. Masalan, Ustyurtda bahorda berk botiqchalar va pastqam yerlar yomg'ir va erigan qor suvlari bilan to'lib, vaqtinchalik kichik- efemer ko'llar hosil bo'ladi. Havo isib, bug'lanish kuchayganda yana ular qurib qolib, chuqurlikning o'zi qoladi.

**5) kreollar-** yevropoid irqiga mansub, asosan, yevropaliklar bilan qora va qizil tanli aholining nikohidan tug'ilgan avlod vakillari. Ularning quyidagi tiplari bor:

- mulat- yevropaliklar bilan indeyslar chatishmasidan tug'ilgan avlod vakillari. Bunday aholi vakillari Lotin Amerikasida ko'pchilikni tashkil qiladi. Ayniqsa, Meksikani yaqqol misol qilib keltirish mumkin;
- metis- yevropaliklar bilan negrlar chatishmasidan tug'ilgan avlod vakillari. Bunday aholi vakillari Amerika, Afrika hamda Avstraliya va Okeaniya qit'alarida tarqalgan. Masalan, Braziliyani keltirib o'tish mumkin.

Ayniqsa, Buyuk geografik kashfiyotlardan so'ng yevropaliklarning yangi hududlarni o'zlashtirib, u yerlarga kelib o'rnasha boshlaganlaridan so'ng kreollar keng tarqala borgan. XVII- XIX asrlar davomida ularga pastroq nazar bilan qaralgan bo'lsa, bugungi kunda ular regional milliy- etnik birlik sifatida boshqalar bilan teng huquqli kishilardir. Kreol qatlamning tili ham asrlar mobaynida o'z tili va yevropaliklar tilining aralashuvidan shakllangan. Shunday kreol tillarida jahonning Seyshel, Gaiti kabi mamlakatlaridagi ko'plab aholi vakillari gaplashadi.

**Nazorat savollari:**

1. O'zbekiston aholisi milliy chegaralanish olingan 1924- yildan to hozirga qadar qay yo'sinda o'sib borgan?
2. Markaziy Osiyo tabiiy geografik o'lkasi bilan subregioni qaysi hududga to'g'ri keladi?
3. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi qaysi mamlakatlarni o'z ichiga oladi?
4. O'zbekistonda qanday foydali qazilmalar tarqalgan?
5. Siyosiy konsensus nima?

### Test savollari:

1. Qaysi amerikalik olimning fikriga ko'ra, u yoki bu hududning xo'jaligi murakkab jumboq bo'lib, uni yechishda, aynan, aholi bo'g'inidan boshlamoq kerak?

A) *U. Ayzard*

B) *F. Ratsel*

C) *A. Soliyev*

D) *S. Losensua*

2. O'rta Osiyo tabiiy geografik rayonida kichkinagina hududi bo'lsa ham joylashmagan davlatni toping.

A) *Pokiston*

B) *Xitoy*

C) *Eron*

D) *Tatariston*

3. Mustaqil davlatlar hamdo'stligida de'yure a'zosi emas, lekin de'fakto a'zosi bo'lgan davlat qaysi?

A) *Moldova*

B) *Gruziya*

C) *Ukraina*

D) *Rossiya*

4. Namangandagi oltin konlarini aniqlang.

A) *Oqtepa, Chorkesar*

B) *Pag'di II, Oltinkon*

C) *Korolevskaya, Oqbuloq*

D) *Guzaksoy, Pirmirob*

5. Efemer o'simliklar tarkibiga kirmaydigan o'simliklar tipini aniqlang.

A) ozuqabop

B) fotosintez qilmaydigan

C) zaharli

D) dorivor

Mustaqil ta'lim

• Markaziy Osiyodagi davlatlarni kontur kartaga tushirish

**Bilasizmi???**

- Andijon viloyati aholi zichligi(2018- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, 3,01 mln kishi: zichlik 716,6 kishi/ km<sup>2</sup>)ga ko'ra, nafaqat O'zbekistonda, balki butun MDH davlatlarida I o'rinda turadigan ma'muriy birlikdir;
- Ko'rinishidan kompasga o'xshaydigan daraxt Kosta- Rikada o'sadigan Strixnos hisoblanadi;
- Quddusda yerdan 2 metr balandlikda havoda muallaq turuvchi tosh mavjud bo'lib, sathi 7- 8 m<sup>2</sup> ga teng.

### Amaliy mashg'ulot № 16

#### • Lotin Amerikasi

#### Topshiriqlar:

1. Tabiiy resurslari. Aholisi. Mintaqaning madaniy xususiyatlari.
2. Xo'jaligining umumiy ta'rifi.
3. Braziliya. Iqtisodiy geografik o'rni va tabiiy resurslari.
4. Demografik vaziyati. Braziliyaning jahon xo'jaligida tutgan o'rni. Sanoat tarmoqlari. Qishloq xo'jaligi. O'zbekiston- Braziliya munosabatlari.

#### Qo'shimcha topshiriqlar:



## AMALIY MASHG'ULOTLAR

1. Farg'ona iqtisodiy rayonida mamlakat aholisining 28,5% i yashagani holda, iqtisodiy rayon pillaning 45% ini yetkazib bersa, ixtisoslashish koeffitsiyentini aniqlang.

2. "Shamol guli" grafigiga ta'rif bering.

3. Janubiy Amerika materiga oid quyidagi jadvalni to'ldiring.

| Chekka nuqtalari | Tegishli orollari | Daryolari | Baland cho'qqilari | Ko'llari |
|------------------|-------------------|-----------|--------------------|----------|
|                  |                   |           |                    |          |

4. Janubiy Amerika makromintaqasidagi davlatlar jadvalini to'ldiring.

| № | Davlatlar nomi | Aholisi soni (mln kishi) | Boshqaruv shakli | Davlat tili | Ustuvor Dini |
|---|----------------|--------------------------|------------------|-------------|--------------|
|   |                |                          |                  |             |              |

5. O'rta Osiyodagi eng yirik suv omborlarni yozing.

### *Javoblar:*

1. Har bir mamlakat iqtisodiy, tabiiy va ma'muriy birliklarga bo'lib o'rganiladi. Chunki rayonlashtirib, tizimga solib o'rganilmagan mamlakat geografiyasiga chinakam geografik asar sifatida qarash mantiqsizlik bo'ladi. Shu xususida, O'zbekistonning iqtisodiy rayonlaridan Farg'ona haqida to'xtalinadi.

Iqtisodiy rayon- mehnatning geografik taqsimlanishi asosida o'z ixtisoslashuviga ko'ra bir- biridan farq qiladigan hududlar bo'lib, asosan, quyidagi omillar ta'sirida shakllanadi:

- ✓ hududning yaxlitligi va o'ziga xos geografik o'rni;
- ✓ xo'jaligining ixtisoslashuvi;
- ✓ rayon hosil qiluvchi markazlarning mavjudligi;
- ✓ tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari;
- ✓ transport va boshqa infratuzilmalarning rivojlanganligi;
- ✓ demografik vaziyati va mehnat resurslari;
- ✓ joyning tarixiy rivojlanish xususiyatlari va h.z.

O'zbekistonda 6 ta iqtisodiy rayon ajratiladi, ya'ni Toshkent, Farg'ona, Zarafshon, Quyi Amudaryo va Janubiy iqtisodiy rayonlari<sup>23</sup>.

Farg'ona iqtisodiy rayoni ma'muriy jihatdan Farg'ona vodiysi tabiiy geografik rayonining O'zbekiston qismini o'z ichiga oladi. Tarkibiga Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlari kirib, maydoni deyarli 18,3 ming km<sup>2</sup> yoki



mamlakat umumiy maydonining 4,1% ini egallaydi. 2014- yil ma'lumotlariga ko'ra, aholi soni 8 284 000 kishi yoki mamlakat aholisining 28,5 % ini tashkil qiladi. Rayon mamlakatimiz hududiy mehnat taqsimotida qishloq xo'jaligi, xususan, paxta va pilla, meva va uzum; sanoatida esa avtomobilsozlik, to'qimachilik, kimyo va neft- kimyoga ixtisoslashgan.

Iqtisodiy rayonlar uchun butun mamlakat miqyosida ixtisoslashuv o'ziga xos bo'lib, mahsulot almashinuvi juda keng qamrovda amalga oshadi. Bunday rayonlarning bir necha ixtisoslashgan tarmoqlari bo'lishi mumkin. Mamlakat

<sup>23</sup> A. Soliyev. "O'zbekiston geografiyasi". T.; "Universitet", 2014. 98- 99- betlar

miqyosida rayonning ma'lum bir tarmoqqa ixtisoslashgan yo ixtisoslashmaganligini quyidagi formula orqali topiladi:

$$K = M / A$$

Bu yerda,  $K$  = rayonning biror tarmoqqa ixtisoslashish ko'rsatkichi;

$M$  = rayon mahsulotining shu tarmoq bo'yicha mamlakatdagi xissasi;

$A$  = rayon aholisining mamlakat aholi sonidagi ulushi.

✚ Ishni bajarish davomida natija 1 dan katta chiqsa, ushbu rayon berilgan tarmoqqa ixtisoslashgan bo'ladi. Masalan, Farg'ona iqtisodiy rayonida mamlakat aholisining 28,5% i yashagani holda, iqtisodiy rayon pillaning 45% ini yetkazib bersa, ixtisoslashish koeffitsiyentini aniqlang.

*Yechish:* Bunda kerakli ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, ishni tartib bo'yicha quyidagicha bajarish mumkin:

- 1) rayon mahsulotining mamlakat umumiy ko'rsatkichidagi ulushi aniqlanadi. Bunda, xususan, pillaning 45 % i;
- 2) rayon aholisining mamlakat umumiy aholi sonidagi ulushi aniqlanadi. Bunda, xususan, umumiy aholining 28,5 % i.
- 3) ixtisoslashish formulasi asosida ko'rsatkichlar tahlil qilinadi:

$$K = 45 \% : 28,5 \% \approx 1,58.$$

Demak, Farg'ona iqtisodiy rayoni mamlakat bo'yicha pillachilikka ixtisoslashgan. Chunki natija 1 dan katta chiqsa, tarmoq ixtisoslashgan bo'ladi.

✚ Ba'zan ixtisoslashish ko'rsatkichi 1 dan katta chiqmasligi, lekin mamlakat bo'yicha ixtisoslashgan bo'lishi mumkin. Masalan, Farg'ona iqtisodiy rayoni mamlakatda yetishtiriladigan paxtaning 25 % ini yetkazib beradi. Rayonga mamlakat aholisining 28,5 % i to'g'ri kelsa, paxtachilikka ixtisoslashish qanday bo'ladi?

*Yechish:* Bunda ham yuqoridagidek amallar ketma- ketligi bajariladi:

- 1) rayon mahsulotining mamlakat umumiy ko'rsatkichidagi ulushi aniqlanadi. Bunda, xususan, paxtaning 25 % i;

2) rayon aholisining mamlakat umumiy aholi sonidagi ulushi aniqlanadi. Bunda, xususan, umumiy aholining 28,5 % i.

3) ixtisoslashish formulasi asosida ko'rsatkichlar tahlil qilinadi:

$$K = 25 \% : 28,5 \% \approx 0,88$$


Izoh: Bunda ko'rsatkich 1 dan kichik chiqdi, ya'ni ixtisoslashmagan bo'lishi kerak. Lekin shunday hollar bo'ladiki, ixtisoslashgan desa bo'laveradi. Xususan, Farg'ona IR ning aholisi juda ko'p. Aholining ko'pligi hisobiga ko'rsatkich 1 dan kichik bo'lib qolyapti, vaholanki, rayon paxtachilikka ixtisoslashgan. Demak, ixtisoslashish 1 dan kichik chiqqan bo'lsa-da, aholining juda ko'pligi hisobga olinadi va tarmoqni ixtisoslashgan deyish mumkin, ammo bu rivojlangan va, haqiqatda, ixtisoslashish darajasidagi hududlar uchun tegishli bo'lib, har qanday aholisi ko'p rayonda ko'rsatkich 1 dan kichik chiqib qolsa, tarmoqni nisbiy ravishda ixtisoslashgan, deb olishga asos bo'la olmaydi.

Farg'ona iqtisodiy rayoni yuqori darajadagi infratuzilmaga ega bo'lib, iqtisodiy rayonga mamlakat yalpi ichki mahsulotining 17,5 % i, sanoat mahsulotlarining 23,9 % i, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 26,1 % i, tashqi savdo aylanmasining 16 % i to'g'ri keladi. Demakki, Farg'ona IR mamlakat bo'yicha katta ahamiyatga ega.

2. Shamol- havoning gorizantal harakati bo'lib, havoning yuqori bosimli mintaqalardan past bosimli mintaqalarga oqishi natijaida vujudga keladi.

Meteorologik stansiyalarda shamolning yo'nalishi (flyuger orqali) va kuchi (anemometr orqali) kuzatib turiladi. Shamol ufqning qaysi tomonidan essa, o'sha tomon nomi bilan yuritiladi. Masalan, g'arbdan esgan bo'lsa, g'arbiy shamol kabi. Har bir joyda kuchi va yo'nalishiga ko'ra, eng ko'p esadigan tomoni bo'ladi. Agar haroratning o'zgarishi haqida harorat grafigiga qarab fikr bildirilsa, biror joyda esadigan shamollarning asosiy yo'nalishlari "shamollar guli" orqali aks ettiriladi va u tushunishni yanada osonlashtiradi. Uni chizishda shamolning qaysi yo'nalishdan esganligi haqida ma'lumotlar kerak bo'ladi.

Qaysi tomondan necha marta esganligi aniqlangandan so'ng, aytaylik, o'rtacha 1 kun oralig'i 0,5 sm.dan qilib bo'lingan chiziqchalar orqali bo'lib chiqiladi (ba'zida ufq tomonidan necha kun emas, necha foizdan esganligi berilishi mumkin. Bunda mos kelishiga qarab yo masshtab qabul qilib olinadi yoki 1% 0,5 sm oraliqqa teng deb olinadi). Kunlar soniga mos ravishda chiziqchalar joylashtiriladi, ish yakunida oxirgi qismlari bir- birisiga tutashtirib qo'yiladi. Ayrim hollarda o'rtasiga doira chizib, o'rganilgan vaqt davomidagi shamolsiz kunlar yozib qo'yilishi ham mumkin.



“Shamollar guli” orqali shamolning qaysi tarafdin ko'p esganligi haqida aniq tushuncha shakllanishidan tashqari, muhandislik ishlarida ham shamolning yo'nalishi inobatga olinadi. Mukammal tatqiqotlarning aniq faktlariga asosan grafikni shakllantirib, bog'liq ravishda inshootlarni joylashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. Janubiy Amerika- Amerika qit'asining bir qismi, kattaligiga ko'ra IV o'rinda turuvchi materik. Maydoni atrofidagi orollar(Folklend, Galagapos va Chili arxipelaglari, Chiloe va boshqalar)ni ham qo'shib hisoblaganda 18 mln km<sup>2</sup> ga yetadi. G'arbdan sharqqa 5 150, shimoldan janubga 7 150 km masofaga cho'zilgan. Shakli uchburchakni eslatadi, bunga ko'ra shimoldagi qit'adoshi Shimoliy Amerikaga o'xshaydi. Sharqda Atlantika, g'arbda Tinch okeanlari o'rab turadi. Materik qadimgi Gondvana quruqligining bir qismi bo'lib, kamida bo'r davridan boshlab boshqa materiklardan uzilib qolgan, faqatgina tor Panama bo'yni uni Shimoliy Amerikaga tutashtirib turadi. Materiklardan uzoqlashgandan so'ng

organizmlar migratsiyasi uzilib qolgan yoki qiyinchilik bilan juda kam hollarda amalga oshgan, natijada endemik flora va fauna tarkib topgan.

Relyefiga ko'ra ikkiga- tog'li g'arb va tekislikli sharqqa bo'linadi. G'arbiy qismida shimoldan janubga 9 000 km masofaga cho'zilgan tog' tizmasi bo'lib, Tinch okeanidan bo'ladigan ta'sirlarni to'sib qo'ygan. Sharqiy qismida Amazonka, La- Plata, Orinoko pasttekisliklari, ular oralig'ida esa Braziliya, Gviana kabi yassi tog'liklar joylashgan.

| <i>Chekka<br/>nuqtalari</i>                          | <i>Tegishli<br/>orollari</i>                      | <i>Daryolari</i>                               | <i>Baland<br/>cho'qqilari</i>                          | <i>Ko'llari</i>                          |
|------------------------------------------------------|---------------------------------------------------|------------------------------------------------|--------------------------------------------------------|------------------------------------------|
| <b>shimoliy:</b><br>Galinas burni<br>(12°25' sh.k.)  | Olovli Yer<br>Marajo<br>Chiloe<br>Soledad         | Amazonka<br>Parana<br>San-Fransisko<br>Madeyra | Akonkagua<br>Oxos-de-Salado<br>Tupungato<br>Mersedario | Morakaybo<br>Titikaka<br>Putus<br>Poopo  |
| <b>janubiy:</b><br>Frouerd burni<br>(53°54' j.k.)    | G'r. Malvin<br>Isabela<br>Santa- Ines<br>Trinidad | Tapajos<br>Orinoko<br>Riu- Negru<br>Purus      | Uaskaran<br>Lyulyaylyako<br>Yerupaxa<br>Galan          | Uyuni<br>Mangeyra<br>Sapatosa<br>Rogagua |
| <b>sharqiy:</b><br>Kabu- Branku<br>(36°27' g'.uz.)   | Kaviana<br>Desolosan<br>Oste<br>Meshiana          | Paragvay<br>Urugvay<br>Tokantins<br>Magdalena  | Ilyampu<br>Sexama<br>Koropuna<br>Toro                  | Musters<br>Vyedma<br>Lagoa-<br>Keya      |
| <b>g'arbiy:</b><br>Parinyas burni<br>(81°36' g'.uz.) | Kampana<br>Fernandina<br>Santa- Krus              | Japura<br>Ukayali<br>Maranon                   | Ankouma<br>Chimbaraso<br>San- Pedro                    | Lago-<br>Mirin<br>Arxentino              |

Materikning shimoliy qismidan ekvator kesib o'tgan. Hududining katta qismida 2000- 3000 mm yog'in yog'adi, hatto, bu ko'rsatkich Kolumbiyaning Tinch okeani qirg'og'ida 10 000 mm gacha yetadi. Shunga bog'liq ravishda

ekvatorial o'rmonlar (Selva), fasliy nam va tropik o'rmonlar, savannalar tarkib topgan. Peru sovuq oqimi ta'sirida Atakama cho'ligina tarkib topgan. Janubiy qismida iqlim continental bo'lib, Patagoniyada 300- 400 mm yog'in tushadi. Tabiati o'ziga xos bo'lib, ayrim joylari (Amazoniya, Braziliya va And tog'liklarikabilar) haligacha to'liq o'rganilmagan. Yovvoyi tabiatiga inson ayovsiz ta'sir ko'rsatayotganligini inobatga olgan holda, tabiatni muhofaza qilish maskanlari tashkil etilgan. Eng yirik milliy bog' va qo'riqxonalar- Jau (UNESCO ro'yxatiga kiritilgan), Chako, Manu, Parakas, Podokarpus va h.z.

4. Janubiy Amerika makromintaqasi Lotin Amerikasining bir qismi bo'lib, Janubiy Amerika materigidagi davlatlardan tashkil topgan. 2016- yil bo'yicha aholisi 419,0 mln kishi bo'lib, kishilar materikka bundan 20 ming yillar oldin kelib o'rnamagan. Yevropaliklar kelgan vaqtda hindu xalqlarining ko'pchiligi taraqqiyotning urug'chilik- qabilachilik darajasida bo'lgan. Faqat And tog'larida inklarning qadimgi davlati bo'lgan. Ularda madaniyat va xo'jalik rivojlangan bo'lib, ularning ulkan saroy va ibodatxona xarobalari, yo'l-u sug'orish inshootlari hozirgacha insoniyatni lol qoldirib kelmoqda. Inklar davlatining yevropaliklar tomonidan xonavayron qilingandan keyin Ispaniya, Portugaliya, keyinchalik, Buyuk Britaniya va Fransiya kabi mamlakatlardan aholi ko'chib kela boshladi, ular hindular, qolaversa, afrikalik negrlardan plantatsiyalarida ishlovchi qul sifatida foydalanganlar. Shunday qilib asta- sekin yevropaliklar, hindular va negrlar chatishib, kreol (yevropaliklar va mahalliy aholidan tug'ilgan)lar qatlami shakllana borgan, Yevropadan madaniyat kirib kelib davlatlar shakllana borgan. Lekin bu dominionlar mustaqil davlat sifatida ajrab chiqish uchun XIX- XX asrlar davomida harakat qilib, nihoyat oxiri XX asrning 60- 70-yillarida (Fransiya Gvianasidan boshqa davlatlar) mustaqillikka erishgan. Hozirda siyosiy xaritasida 12 ta mustaqil va 1 ta mustamlaka davlat joylashgan.

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

| №  | Davlatlar nomi             | Poytaxti     | Aholi soni<br>(mln kishi) | Davlat tili | Ustuvor dini |
|----|----------------------------|--------------|---------------------------|-------------|--------------|
| 1  | Argentina                  | Buenos-Ayres | 42,2                      | ispan       | xristian     |
| 2  | Boliviya                   | La- Pas      | 10,4                      |             |              |
| 3  | Braziliya                  | Brazilia     | 205,7                     | portugal    |              |
| 4  | Chili                      | Santyago     | 17,5                      | ispan       |              |
| 5  | Ekvador                    | Kito         | 13,0                      |             |              |
| 6  | Gayana                     | Jorjtaun     | 0,8                       | ingliz      | induizm      |
| 7  | Fr. Gvianasi <sup>24</sup> | Kayenna      | 0,2                       | fransuz     | xristian     |
| 8  | Kolumbiya                  | Bogota       | 47,8                      | ispan       |              |
| 9  | Paragvay                   | Asunson      | 6,0                       |             |              |
| 10 | Peru                       | Lima         | 29,9                      |             |              |
| 11 | Surinam                    | Paramaribo   | 0,5                       | golland     |              |
| 12 | Urugvay                    | Montevideo   | 3,4                       | ispan       |              |
| 13 | Venesuela                  | Karakas      | 30,1                      |             |              |

Janubiy Amerikadagi mamlaktlar jahon xo'jaligida ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, o'z ixtisoslashuviga ega. Mintaqada tashqi iqtisodiy aloqalar yaxshi rivojlanmoqda. 2012- yilda amalga oshirilgan tovarlar eksporti bo'yicha Braziliya (250 mlrd \$), Argentina (70 mlrd \$), Venesuela (69,2 mlrd \$), Chili (67,6 mlrd \$) va Kolumbiya (30,6 mlrd \$) katta o'rin tutsa, import ko'rsatkichlarida ham Braziliya (170 mlrd \$), Argentina (60 mlrd \$), Venesuela (45,5 mlrd \$) va Chili (44,0 mlrd \$) kabi davlatlar yetakchidir. Qolaversa, boshqa mamlakatlar ham rivojlanayotgan davlatlar bo'lib, keying paytlarda qoloq davlatlar amalda qolmadi.

5. Yer yuzida odamlar soni ko'paygani sayin boshqa resurslar qatori suvga bo'lgan talab ham oshib bormoqda. Xususan, jahonda chuchuk suvdan

<sup>24</sup> mustamlaka shakliga ega davlat



foydalanish hajmi 1950- yil 1 100 km<sup>3</sup>, 1980- yil 3 300 km<sup>3</sup>, 1990- yil 4 100 km<sup>3</sup>, 2000- yil 4 780 km<sup>3</sup> ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2012- yilda 5 500 km<sup>3</sup> dan ortib ketdi. Suvdan samarali foydalanish, ayniqsa, suv taqchil bo'lgan paytlarda ishlatish uchun suvlar to'plab, suv omborlari- sun'iy ko'llarga jamg'ariladi. Hozirgi kunda suv omborlarining soni jahonda 40 000 tadan oshib ketgan. Shu qatori O'rta Osiyo mintaqasida ham ko'plab suv omborlari bunyod etilgan bo'lib, ularning yiriklari quyidagilardir:

| <i>№</i> | <i>Suv omborlari<br/>nomi</i> | <i>Maydoni<br/>(km<sup>2</sup>)</i> | <i>Suv hajmi<br/>(mln m<sup>3</sup>)</i> | <i>Qaysi gidrogen<br/>obyektdaligi</i> |
|----------|-------------------------------|-------------------------------------|------------------------------------------|----------------------------------------|
| 1        | Buxtarma                      | 5 500,0                             | 53 000                                   | Irtish daryosi                         |
| 2        | To'xtag'ul                    | 284,0                               | 19 000                                   | Norin daryosi                          |
| 3        | Rog'un                        | 180,0                               | 12 400                                   | Vaxsh daryosi                          |
| 4        | Nurek                         | 98,0                                | 10 500                                   |                                        |
| 5        | Tuyamo'yin                    | 790,0                               | 7 300                                    | Amudaryo                               |
| 6        | Chordara                      | 900,0                               | 5 700                                    | Sirdaryo                               |
| 7        | Qayroqqum                     | 513,0                               | 4 200                                    |                                        |
| 8        | Chorvoq                       | 40,3                                | 2 006                                    | Chirchiq daryosi                       |
| 9        | Andijon                       | 55,5                                | 1 900                                    | Qoradaryo                              |
| 10       | Tallimarjon                   | 77,35                               | 1 525                                    | Amu- Qarshi kanali                     |

O'zbekistonda ham juda ko'p suv omborlari barpo etilgan bo'lib, ularning soni 53 tani tashkil etadi hamda foydali suv sig'imi 15 km<sup>3</sup> ga teng. Suv omborlari daryo, kanal kabi suv hazalaridagi oqimni tartibga solish, kerak pallalarda yerlarni sug'orish uchun to'plash, elektr- energiya olish, rekreatsiya va turizm, sel hodisalarining oldini olish, baliqchilikni tashkil etish va boshqa maqsadlarda barpo etiladi. Suv omborlarini ekspertiza nazoratida, maxsus tekshiruvlardan so'ng, qulay va tabiatga salbiy ta'siri yo'q sharoitda qurilsa, ahamiyati yanada yuqori bo'ladi.

### Nazorat savollari:

1. Farg'ona iqtisodiy rayoni qaysi ma'muriy birliklardan tashkil topgan?
2. Shamol qanday vujudga keladi?
3. Janubiy Amerika materigining yer usti tuzilishi qanday?
4. Janubiy Amerika makromintaqasida nechta davlat joylashgan?
5. Suv ombor nima va qanday maqsadlarda bunyod etiladi?

### Test savollari:

1. Rayonning ma'lum mahsulotga ixtisoslashuvi qaysi formula asosida aniqlanadi?

A)  $K = O/M$

B)  $M = I/A$

C)  $I = A/K$

D)  $K = M/A$

2. Flyuger qanday asbob?

A) *shamol yo'nalishini aniqlaydigan*

B) shamol tezligini aniqlaydigan

C) shamol yo'nalishi va qaysi tarafdin esayotganini birdaniga aniqlaydigan

D) shamol esishini oldindan sezaigan

3. Janubiy Amerika materigining eng g'arbiy nuqtasi hisoblanmish Parinyas burnining geografik uzoqligini aniqlang.

A)  $123^{\circ}25' \text{ g'r.uz.}$

B)  $53^{\circ}54' \text{ g'r.uz.}$

C)  $81^{\circ}36' \text{ g'r.uz.}$

D)  $89^{\circ}27' \text{ g'r.uz.}$

4. Janubiy Amerika makromintaqasidagi ispan tilida gaplashuvchi davlatlarni aniqlang.

1) Argentina;

2) Boliviya;

3) Braziliya;

4) Chili;

5) Ekvador;

6) Gayana;

7) Gviana;

8) Peru;

9) Paragvay;

10) Kolumbiya;

11) Surinam;

12) Urugvay;

13) Venesuela.

- A) 1, 2, 4, 5, 6, 8, 9, 10, 12, 13
- B) 1, 2, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 12
- C) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13
- D) 2, 4, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13

5. Nurek suv ombori qaysi daryoga qurilgan?

- A) Voxon
- B) Surxob
- C) Vaxsh
- D) Panj

Mustaqil ta'lim

• Lotin Amerikasi mintaqasini subregionlarga ajratish

**Bilasizmi???**

- Eng bo'ydor xalq Afrikadagi tuts va ximlar bo'lib, ularning o'rtacha bo'yi 180- 200 sm. ni tashkil etadi;
- Avstraliyaning tub joy aholisi aborigenlar Yerni "onamiz" desa, Panama mamlakati aholisi davlatini "boshida" ko'tarib yuradi;
- Dunyodagi sathi eng chuqurda joylashgan ko'l O'lik dengizi bo'lib, dengiz sathidan 405 metr chuqurlikda joylashgan. Rivoyat qilinishicha, u Lut payg'ambarning Allohga ishonmagan qavmiga osmondan tosh yog'ishi natijasida yerning cho'kishidan hosil bo'lgan ekan. Hozir ko'lda Lut deb ataluvchi orol ham mavjud.

### Amaliy mashg'ulot № 17

- **Afrika makromintaqasi**

### Topshiriqlar:

1. Afrika mintaqasining geografik tavsifi.
2. Tabiiy resurslari. Aholisi va mintaqaning madaniy xususiyatlari.
3. Xo'jaligining umumiy ta'rifi.
4. Iqtisodiyotining rivojlanish muammolari.
5. JAR. Iqtisodiy geografik o'rni va tabiiy resurslari, demografik vaziyati.
6. JARning jahon xo'jaligida tutgan o'rni. O'zbekiston- JAR munosabatlari.

### Qo'shimcha topshiriqlar:

1. O'quvchi maktabga  $45^0$  azimut yo'nalish bo'yicha yo'lga chiqqan bo'lsa, maktabdan uyga u qanday azimutda qaytadi?
2. Afrika daryolaridan Nil va Kongo daryolariga tavsif bering.
3. Afrika makromintaqasiga kiruvchi davlatlarni yozing.

| <i>№</i> | <i>Davlat nomi</i> | <i>Poytaxti</i> | <i>Davlat tili<br/>(ustvori)</i> | <i>BTM ga<br/>a'zo yili</i> | <i>Ustuvor<br/>dini</i> |
|----------|--------------------|-----------------|----------------------------------|-----------------------------|-------------------------|
|          |                    |                 |                                  |                             |                         |


4. Afrika materigidagi milliy bog' va qo'riqxonalarini yozing.
5. Quyidagi geografik atama va tushunchalarga ta'rif bering.
  - Sharqiy Afrika yer yorig'i
  - Bentos
  - Millat
  - Xalqaro iqtisodiy integratsiya
  - Yaren

### *Javoblar:*

1. Azimut- (arabcha “as- sumut”- yo'l) boshlang'ich deb olingan nuqta, ya'ni koordinata boshidan shimolga yo'nalish bilan kerakli predmetgacha bo'lgan yo'nalish orasida hosil bo'lgan burchak. Premetlarning bir- biriga nisbatan qanday burchakda joylashganligini o'lchashning turli xillari mavjud. Masalan:

- ✓ azimut burchagi:
  - haqiqiy azimut;
  - magnit azimuti.
- ✓ rumb burchagi;
- ✓ direksion burchak.

Shularning ichidan azimut burchagi haqida to'xtalib o'tamiz. Odatiy holdagi ko'p qo'llaniladigan burchak bu oddiy azimut yoki haqiqiy azimut. Bunda asos qilib geografik meridianning shimol tomoni olinadi va boshlang'ich deb olingan nuqtadan kerakli predmetgacha yo'nalish chizig'i olinadi. Shu chiziq bilan boshlang'ich deb olingan nuqta(koordinata boshi) ustidan o'tgan meridian orasidagi burchak soat strelkasi yo'nalishida gradus qiymatlarida (  $0^{\circ}$  dan  $360^{\circ}$  gacha) o'lchanadi.



Magnit azimuti- boshlang'ich deb olingan nuqtadan o'tgan magnit meridianining shimol tomoni bilan kerakli predmet orasida hosil bo'lgan burchak. U ham soat strelkasi yo'nalishida gradus qiymatlarida ( $0^{\circ}$  dan  $360^{\circ}$  gacha) o'lchanadi.

Bu chizmada “A”- haqiqiy azimut, ya'ni geografik meridianning shimol tomoni bilan kerakli predmet orasidagi burchak bo'lsa, “ $A_m$ ”- magnit azimuti, ya'ni magnit azimutining shimol tomoni bilan kerakli predmet orasida hosil

bo'lgan burchakdir. “+δ” esa magnit og'ish burchagi (haqiqiy va magnit meridianlari orasidagi farq) hisoblanadi.

Endi azimut bo'yicha yurishga oid masalaga e'tibor beramiz. Koordinata boshidan ufqning qaysi tarafiga yurishdan qat'i nazar, orqaga ushbu azimutning qarama- qarshisi bilan qaytiladi. Masalan, o'quvchi maktabga 45° azimut yo'nalish bo'yicha yo'lga chiqqan bo'lsa, maktabdan uyga u qanday azimutda qaytadi?

Yechish: Bunda maktab uydin 45° shimoli- sharqda joylashgan bo'lib, orqaga qaytish uchun 225° janubi- g'arb yo'nalish bo'yicha yuradi. Chunki to'g'ri yo'ldan boriladi, orqaga shundoq burilinadi-yu, yana o'sha yo'ldan ters qaytiladi.

❖ agar borilgan yo'nalish azimuti 180° dan kichkina bo'lsa, qaytish azimuti quyidagicha topiladi:

$$Q_a = 180^\circ + B_a$$

Bu yerda,  $Q_a$  = qaytish azimuti;

180° = janubning azimuti, yoyiq burchak qiymati;

$B_a$  = borish azimuti.

Masalan,  $B_a$  = borish azimuti, bunda 45°.

$$Q_a = 180^\circ + 45^\circ = 225^\circ$$

Demak, 225° janubi- g'arb yo'nalish bo'yicha orqaga qaytgan.

❖ agar borilgan yo'nalish azimuti 180° dan katta bo'lsa (masalan, 315°), qaytish azimuti quyidagicha topiladi:

$$Q_a = B_a - 180^\circ$$

Masalan,  $B_a$  = borish azimuti, bunda 315°.

$$Q_a = 315^\circ - 180^\circ = 135^\circ$$

Demak, 135° janubi- sharq yo'nalish bo'yicha orqaga qaytadi.

Shu formuladan foydalangan holda, har qanday azimutda borilgan obyektidan orqaga qaytish azimutini aniqlash mumkin. Oraliq tomonlar azimutini qarama qarshisini hisoblash kerak, asosiy tomonlar qiymati esa o'zi tayyor yozilgan bo'ladi. Xususan, qaytish qiymati  $0^\circ (360^\circ) \leftrightarrow 180^\circ$ ,  $90^\circ \leftrightarrow 270^\circ$  kabi.

2. Yer yuzida daryolar juda ko'p bo'lib, ular uzunligi, havzasining maydoni, meandralar hosil qilishi va boshqa morfometrik xususiyatlariga ko'ra, klassifikatsiya qilinadi. Xususan, quyida sharqiy yarimshardagi eng uzun (Nil) va eng sersuv (Kongo) daryolar haqida ma'lumotlar keltirilgan:

**a) Nil-** (misrliklar tilida “al- Bahr”- dengiz) sharqiy yarimshardagi eng uzun daryo. Uzunligi 6 671 km, shu masofada Burundi, Ruanda, Tanzaniya, Uganda, KDR, Janubiy Sudan, Sudan, Efiopiya, Misr davlatlari hududlaridan oqib o'tadi, havzasining maydoni 2 870 000 km<sup>2</sup>. Daryoning bosh irmog'i Sharqiy Afrikadagi Virunga tog'laridan Kagera nomi bilan boshlanib, Viktoriya ko'liga quyiladi. Daryo mazkur ko'ldan Oq Nil nomi bilan oqib chiqadi. So'ng Koga va Albert ko'llaridan o'tgach, dastlab, Albert- Nil, so'ngra Bahr ul- Jabal deb ataladi. Yassitog' chegarasida ko'plab ostona va sharshara (Merchison kabi)lar hosil bo'lgan. Sudan tekisligida vodiysi botqoqlashgan, bu qismida daryo juda sekin oqadi. Suvning katta qismi bug'lanishga sarf bo'ladi. Nil chapdan Bahr ul- G'azab va Bahr ul- Arab daryolari bilan qo'shilgach, Bahr ul- Ab'az (Oq Nil) deb ataladi va Xartum shahrigacha cho'l va chalacho'l zonasidan o'tadi. O'ngdan Asva, Sabat irmoqlarini qo'shib oladi. So'ngra Efiopiya tog'ligidan boshlanuvchi Ko'k Nil (Bahr ul- Azraq) va Oq Nil (Bahr ul- Ab'az) Xartum shahri yaqinida birlashib, Nilni hosil qiladi. Atbara esa oxirgi yirik irmog'idir. So'ng 3 000 km irmoqlarsiz oqadi va O'rta Yer dengiziga 24 000 km<sup>2</sup> ga teng delta hosil qilib quyiladi. Deltada katta va kichik juda ko'p tarmoqlarga bo'lingan ko'llar mavjud. Daryo suvining bir qismi Ibrohimiya kanali va Yusuf tarmog'i orqali Birkat ul-Karun ko'liga quyiladi. Nildan chiqarilgan Ismoiliya kanali suvayish kanali sohilidagi aholi punktlarini, Mahmudiya kanali Iskandariya shahrini chuchuk suv bilan ta'minlaydi.

Nilning suv rejimi mavsumlarga qarab keskin o'zgarib turadi. Asvon shahri yonida o'rtacha suv sarfi 2 600 m<sup>3</sup>/sek. ga teng bo'lsa, bu ko'rsatkich mansabida 2 900 m<sup>3</sup>/sek.ni tashkil qiladi. Nilning ekvator qismidagi havzasida yoz va qish mavsumlarida, Misr va Sudanning markaziy va shimoliy hududlarida yoz va kuz oylarida to'lib oqadi.. Ayniqsa, sentabr oyida daryo juda sersuv bo'ladi, bu paytda

suv sarfi 15 000 m<sup>3</sup>/sek.gacha yetadi. O'rtacha yillik oqim 73,1 km<sup>3</sup>, ba'zan 85 km<sup>3</sup> ni tashkil qiladi. Baland Asvon to'g'oni qurilgunga qadar daryo quyi oqimiga yiliga 62 mln m<sup>3</sup> loyqa keltirgan. Nil suvi oqimini tartibga solib turish maqsadida Asvon, Baland Asvon to'g'onlari; Asvon, Nag al- Hammadi, Ul- Fuyyum, Ouen- Fols GESlari qurilgan. Daryoning quyilish joyidan Asvon to'g'oni va o'rta qismlarigacha kema qatnaydi.

Nilda organizmlar, ayniqsa, baliqlarning juda ko'p turlari yashaydi. Yirtqich sudralib yuruvchi Nil timsohi Qadimgi Misr afsonalarida ham o'lim nishonasi sifatida qaralgan. Darhaqiqat, bir yilda Nil timsohi hujumi tufayli 1 000 dan ziyod inson halok bo'ladi.

Daryo vodiysida sug'oriladigan dehqonchilik asosida dastlabki sivilizatsiya o'choqlari vujudga kelgan. Qadimgi Misrda hayotning gurkirab rivojlanishi (mil. avv. IV ming yillikdayoq) bevosita Nil bilan bog'liq. Fir'avnlr davridayoq daryo suvining toshish vaqtini hisobga olib, yil taqvimlari ishlab chiqilgan. Undan tashqari Nubiya va boshqa janubdagi hududlardan mahsulotlar, aynan, Nil orqali keltirilgan. Nil toshgan davrda yotqiziladigan alluvial (loyqa) jinslar qishloq xo'jaligida unumdor tuproq sifatida foydalanilgan. Misr so'zi ham bir tarafdin "Qora tuproq" ma'nosini bildirsa, ikkinchi tarafdin "Nil in'omi" ma'nosini ifodalaydi. Uni morfometriyasini qadimdan o'lchab kelingan. IX asrga kelganda, o'lchov ishlarini o'rta osiyolik allomalar ham olib borishgan. Xususan, Ahmad al-Farg'oniy boshchiligida abbosiy xalifa al- Mutavvakkilning buyrug'i bilan 861-yilda Nil daryosining suv sarfini o'lchaydigan "Miqyos an- Nil" (keyinchalik "Nilometr") qurilmasi yasalgan. U hozirgi vaqtga qadar Ravzo orolidagi Sayyolat ul- Rod mavzeyida saqlanmoqda.

**b) Kongo-** Markaziy Afrika (ekvatorial Afrika)da joylashgan daryo. Uzunligi 4 320 km, havzasining maydoni 3 691 000 km<sup>2</sup>. Ekvatorial nam zonada joylashganligi uchun suvi ko'p, o'rtacha suv sarfi 1 414 (ba'zan 1 430) km<sup>3</sup> ni tashkil qiladi. Sersuvligi jihatidan sharqiy yarimsharda I o'rinda turadi.



Kongo Kattanga qirlaridan 1 430 metr balandlikdan boshlanadi va Boyoma sharsharasigacha Lualaba deb ataladi. Daryo Atlantika okeaniga chuqur (ba'zi joylari 70 metrli) o'zanda oqib, Nildan farqli ravishda, delta hosil qilmay quyiladi. Yirik irmoqlari:

- o'ngdan: Lufira, Luvua, Aukuga, Avruvimi, Itimbiri, Mongala, Ubangi va Sanga;
- chapdan: Lomami, Lulonga, Ruki, Kasai.

Kongo irmoqlari orqali Mveru (Luvua irmog'i), Bangveulu, Kivu, Tanganika (Lukuga oqib chiqadi) ko'llari bilan tutashgan. Kongoning bosh- Lualaba qismi yassitog'likdan, Boyoma sharsharasidan Kinshasa sharsharasigacha tekislikdan (1 700 km) oqadi. Daryoning quyi oqimida sharshara va ostonalar ko'p. Xususan, Kinshasa va Matadi shaharlari orasida 70 ga yaqin sharsharalardan iborat Livingston sharsharalar guruhi hosil bo'lgan. Matadidan o'tgach, dengizbo'yi pasttekisligida oqadi (bu yerda daryo o'zanining kengligi 1- 2 km, chuqurligi farvaterida 25- 30 m). estuariysining kengligi o'rtacha 19 km. Daryo, asosan, yomg'ir suvlaridan to'yinadi. Quyi oqimida yillik o'rtacha suv sarfi  $46\,000\text{ m}^3/\text{sek}$ . (maksimal  $75\,000\text{ m}^3/\text{sek}$ , minimal  $23\,000\text{ m}^3/\text{sek}$ )ga teng. Quyi va o'rta oqimida may- iyun, yuqori oqimida noyabr-dekabr oylarida suvi ko'payadi. Daryo loyqa bo'lib, yiliga 50 mln tonna oqiziq oqizadi. Kongo va uning barcha irmoqlarida suv yo'llarining uzunligi 20 000 km, gidroenergiya resurslariga boy.

**3. Afrika-** kattaligiga ko'ra, Yevrosiyodan keyin ikkinchi o'rinda turuvchi, to'rttala yarimsharda joylashgan yagona materik. U ekvatorga simmetrik holatda joylashgan. Qit'a sifatida umumiy holatda oladigan bo'lsak, tarkibida 62 ta davlat joylashgan, shundan;

- 54 ta mamlakat mustaqil;
- 1 ta maqomi noma'lum;
- 7 ta mustamlaka va boshqa shakldagi davlatlar.

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

Bu makromintaqaning umumiy maydoni 30,3 mln km<sup>2</sup> bo'lib, mavjud davlatlarning 10 tasi orolda, 15 tasi materik ichkarisida, 37 tasi okean va dengiz chegaralariga ega qirg'oqbo'yida joylashgan. Quyida Afrikadagi mustaqil davlatlar (bitta maqomi noma'lum davlat bilan birga) keltirilgan:

| <i>No</i> | <i>Davlat nomi</i>              | <i>Poytaxti</i> | <i>Davlat<br/>tili<br/>(ustvori)</i> | <i>BTMga<br/>a'zo yili</i> | <i>Ustuvor<br/>dini</i> |
|-----------|---------------------------------|-----------------|--------------------------------------|----------------------------|-------------------------|
| 1         | Angola                          | Luanda          | portugal                             | 1976                       | Xristian                |
| 2         | Benin                           | Porto- Novo     | fransuz                              | 1962                       | majusiy                 |
| 3         | Botsvana                        | Gaborone        | ingliz                               | 1966                       | mahalliy                |
| 4         | Burkina- Faso                   | Uagadugu        | fransuz                              | 1960                       | mahalliy                |
| 5         | Burundi                         | Bujumbura       | fransuz                              | 1962                       | xristian                |
| 6         | Chad                            | Njamena         | arab                                 | 1960                       | islom                   |
| 7         | Efiopiya                        | Addes-Abeba     | amxar                                | 1945                       | xristian                |
| 8         | Ekvatorial Gvineya              | Malabo          | ispan                                | 1968                       | xristian                |
| 9         | Eritreya                        | Asmera          | tigre                                | 1993                       | islom                   |
| 10        | G'r. Sahroi Kabir <sup>25</sup> | Al- Ayun        | arab                                 |                            | islom                   |
| 11        | Gabon                           | Librevil        | fransuz                              | 1960                       | xristian                |
| 12        | Gambiya                         | Banjul          | ingliz                               | 1965                       | islom                   |
| 13        | Gana                            | Akkra           | ingliz                               | 1957                       | xristian                |
| 14        | Gvineya                         | Konakri         | fransuz                              | 1958                       | islom                   |
| 15        | Gvineya- Bisau                  | Bisau           | portugal                             | 1974                       | islom                   |
| 16        | Janubiy Sudan                   | Juba            | ingliz                               | 2011                       | mahalliy                |
| 17        | JAR                             | Pretoriya       | ingliz                               | 1945                       | xristian                |
| 18        | Jazoir                          | Jazoir          | arab                                 | 1962                       | islom                   |
| 19        | Jibuti                          | Jibuti          | arab                                 | 1977                       | islom                   |
| 20        | Kabo- Verde                     | Praya           | portugal                             | 1975                       | xristian                |

<sup>25</sup> Ma'qomi noma'lum davlat shakliga ega

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

|    |                     |              |          |      |          |
|----|---------------------|--------------|----------|------|----------|
| 21 | Kamerun             | Yaunde       | fransuz  | 1960 | xristian |
| 22 | KDR                 | Kinshasa     | fransuz  | 1960 | xristian |
| 23 | Keniya              | Nayrobi      | suaxil   | 1963 | xristian |
| 24 | Komor               | Moroni       | arab     | 1976 | islom    |
| 25 | Kongo               | Brazzavil    | fransuz  | 1960 | xristian |
| 26 | Kot- d'Ivuar        | Yamusukro    | fransuz  | 1960 | mahalliy |
| 27 | Lesoto              | Maseru       | ingliz   | 1966 | xristian |
| 28 | Liberiya            | Monroviya    | ingliz   | 1945 | xristian |
| 29 | Liviya              | Tripoli      | arab     | 1955 | islom    |
| 30 | Madagaskar          | Antananarivu | malagas  | 1960 | mahalliy |
| 31 | Malavi              | Lilongve     | chicheva | 1954 | xristian |
| 32 | Mali                | Bamako       | fransuz  | 1960 | islom    |
| 33 | MAR                 | Bangi        | fransuz  | 1960 | xristian |
| 34 | Marokash            | Rabot        | arab     | 1956 | islom    |
| 35 | Mavrikiy            | Port- Lui    | ingliz   | 1968 | induizm  |
| 36 | Mavritaniya         | Nuakshot     | arab     | 1961 | islom    |
| 37 | Misr                | Qohira       | arab     | 1945 | islom    |
| 38 | Mozambik            | Maputu       | portugal | 1975 | xristian |
| 39 | Namibiya            | Vindxuk      | ingliz   | 1990 | xristian |
| 40 | Niger               | Niamey       | fransuz  | 1960 | islom    |
| 41 | Nigeriya            | Abuja        | ingliz   | 1960 | xristian |
| 42 | Ruanda              | Kigali       | ingliz   | 1962 | xristian |
| 43 | San-Tome & Prinsipi | San- Tome    | portugal | 1975 | xristian |
| 44 | Senegal             | Dakar        | fransuz  | 1963 | islom    |
| 45 | Serra- Leone        | Fritaun      | ingliz   | 1961 | islom    |
| 46 | Seyshell            | Viktoriya    | kreol    | 1976 | xristian |
| 47 | Somali              | Magadisho    | somali   | 1960 | islom    |
| 48 | Sudan               | Xartum       | arab     | 1956 | islom    |
| 49 | Svazilend           | Mbabane      | ingliz   | 1968 | xtistian |

## AMALIY MASHG'ULOTLAR

|    |           |         |         |      |          |
|----|-----------|---------|---------|------|----------|
| 50 | Tanzaniya | Dodoma  | ingliz  | 1961 | xristian |
| 51 | Togo      | Lome    | fransuz | 1960 | mahalliy |
| 52 | Tunis     | Tunis   | arab    | 1956 | islom    |
| 53 | Uganda    | Kampala | ingliz  | 1962 | xristian |
| 54 | Zambiya   | Lusaka  | ingliz  | 1964 | mahalliy |
| 55 | Zimbabve  | Xarare  | ingliz  | 1980 | mahalliy |

Afrika katta miqdorda tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy resurs imkoniyatlariga ega bo'lsa-da, mintaqa davlatlarining ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanish darajasi pastligi, aholisining milliy va diniy tarkibidagi o'ziga xosliklar uning turmush hamda savodxonlik darajasining past ko'rsatkichlari, siyosiy mustaqillikka erishish davrida etnik xususiyatlar hisobga olinmagan holda, milliy chegaralanishning amalga oshirilganligi kabi holatlar ko'plab geosiyosiy muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Makromintaqadagi davlatlarning juda ko'pi qoloq va rivojlanayotgan davlatlar toifasiga kiradi. Qulay tabiiy sharoit va tarixiy, zamonaviy infratuzilma hamda imkoniyatlarga ega JAR, Misr, Liviya, Seyshel kabi mamlakatlar mintaqadagi yetakchi mamlakatlar hisoblanadi. Xususan,

- JAR, ya'ni Janubiy Afrika Respublikasi ko'chirilgan kapitalistik xarakterga ega davlat bo'lib, iqtisodiyoti ancha rivojlangan hamda jahondagi iqtisodiy qudratga ega "Katta yigirmalik" davlatlari qatoriga kiradi.

- Misr juda qadimiy davlat bo'lib, 6000 yillik tarixga ega sivilizatsiya o'chog'idir. U industrial- agrar davlat, tarixiy- me'moriy ruhdagi turistik qutbdir.

- Liviya keyingi yillarda neft eksport qilish natijasida iqtisodiy ahvolini yaxshilab oldi. Ixtisoslashgan neft- kimyo va neftni qayta ishlash tarmog'iga ega, undan tashqari xizmat ko'rsatish ham rivojlangan bo'lib, jahondagi postindustrial mamlakatlar qatorida turadi.

- Seyshel orollari mamlakati qulay tabiiy sharoitga ega bo'lib, rekreatsiya resurslariga boy hamda turizm rivojlangan "kurort orol"lardan hisoblanadi.

4. Afrika materigi o'zining geografik o'rni, iqlim xususiyatlari tabiat zonalarining joylashuvi, ayniqsa, flora va faunasi bilan o'ziga xos materikdir. Har bir tabiat zonasiga mos holda endemik, shuningdek, antiqa organizmlar mavjud. Ekvatorial o'rmonlardagi karlik begemot, setse pashshasi; cho'llar(Namib cho'li)dagi velvichiya o'simligi; subtropiklardagi kumush daraxt kabilar noyob turlardir. Ayniqsa, savanna zonasi dunyodagi eng yirik va ko'p hayvonlar to'plangan maskandir. Bu yerda fil, karkidon, begemot, sher, zebra, jirafadan tortib, 90 kg li tuyaqushgacha uchratish mumkin. O'simliklari ham oziga xos, aylanasi 45 metr keladigan baobabdan tortib barglari ignaga aylangan yantoqqacha uchratish mumkin. Umuman olganda, tabiati o'ziga xos. Bunday muhitni saqlab qolish yoxud muhofaza qilish uchun esa ko'plab milliy bog' va qo'riqxonalar tashkil etilgan. Quyida Afrikadagi ayrim tabiatni muhofaza qilish maskanlari keltirilgan:

| <i>Milliy bog'lar</i> |                 | <i>Qo'riqxonalar</i> |
|-----------------------|-----------------|----------------------|
| Bamingo-              | Bereg- Skeletov | Ansongo- Menaka      |
| Bangoran              | Chobe           | Massai- Mara         |
| Dubl- V               | Etosha          | Nyasa                |
| Janubiy               | Gemsbok         | Rungva               |
| Komoe                 | Iona            | Selus                |
| Kryugera              | Kafue           | Sentral Kalaxari     |
| Salonga               | Kameya          | Ngorongoro           |
| Sayo                  | Namib- Naukluft |                      |
| Serengeti             |                 |                      |
| Upemba                |                 |                      |

Afrika tabiatini muhofaza qilish dolzarb masalaga aylangan. Flora va faunasini arsash va muhofaza qilish maqsadida 392 ta milliy bog' va qo'riqxonalar tashkil etilgan. Qo'riqxonalar qat'iy muhofazaga olingan, u yerga faqat ilmiy ish

bilan shug'ullanuvchilargina kiritiladi; milliy bog'ga esa ma'lum qoidalarga amal qilgan holda, sayyoh va tabiatni o'rganuvchi qiziquvchilar ham kirsa bo'ladi. Ayrim davlatlarda muhofaza qilinadigan hududlar davlat xalqaro miqyosda ahamiyatga ega. Masalan, Keniya davlatining 10 % hududi shunday tabiatni muhofaza qilish maskanlaridan iborat. Uning hududidagi Massai- Mara qo'riqxonasi o'zining boy tabiati va muhofazasi bilan dunyoga mashhur.

### 5. Atamalarga ta'rif berish:

**1) Sharqiy (Buyuk) Afrika yer yorig'i-** Akoba qo'ltig'i (Qizil dengizning shimoliy qismi)dan Zembezi daryosing quyi oqimiga qadar cho'zilgan yer yorig'i. Uzunligi 6 500 km ni tashkil etadi. Ma'lumki, Qizil dengizning tubida hamda janubga yo'nalgan yo'nalishda kengayish hodisasi kuzatilib, rift zonasiga kiritiladi. Buyuk Afrika yer yorig'i Qizil dengiz tubidan boshlanadi, quruqlikda esa Jibutidan boshlangan. Hozirgi vaqtda yer yoriqning ayrim joylarida tektonik ko'llar (Tanganika, Nyasa) joylashgan. Kelajakda, olimlarning taxminlariga ko'ra, yer yorig'idan sharqdagi hududlar Madagaskar orolidek ajrab chiqib ketadi.

**2) bentos-** (yunoncha "benthos"- chuqurlik) dengiz va boshqa suv havzalari tubidagi yotqiziqlar ustida hamda orasida yashaydigan organizmlar. Bentos organizmlar suvda yashaydigan organizmlarning yashash sharoitiga ko'ra guruhlaridan biridir, ya'ni:

- ✓ nekton- suvda erkin harakat qilib, suzib yuruvchi organizmlar;
- ✓ plankton- suv harakatiga qarshilik ko'rsata olmay, suv harakatiga bog'liq holda mullaq harakatlanadigan organizmlar;
- ✓ bentos- suv tubida, yotqiziqlar orasida yashaydigan organizmlar.

Bentos organizmlar o'z navbatida ikki turga bo'linadi:

✚ zoobentos (suv tubida yashaydigan hayvonlar):

- ✓ infauna (loyqada yashaydigan- ko'p tuklilar, ikki pallali moluskalar, exiuridlar, sipunkulidlr, ayrim ignaterililar va h.z);

- ✓ onfauna (loyqa ustida o'rmmalab yuruvchilar- moluskalar, qisqichbaqasimonlar va h.z);
- ✓ epifauna (substratga yopishib yashovchilar- g'ovak tanlilar, gidroidlar, aktiniya, korallar, dengiz yopishqoqlari va h.z);
- ✓ nektobentos (suv tubi yaqinida suzib yuradigan, ba'zan suv tubiga tushadiganlar- krivetka, mizid, golotoriya, suv tubi baliqlari va h.z).

 fitobentos (suv tubida o'sadigan o'simliklar).

Zoobentoslar tana o'lchami bo'yicha makrobentos (5-10 mm va undan yirik), mezobentos (0,5 mm dan 10 mm gacha) va mikrobentos (0,5 mm dan kichik)ga bo'linadi. Bentos organizmlar baliq va boshqa organizmlar uchun oziq bo'lib ham xizmat qiladi. Okeanlarda bentos biomassasi 10- 12 mlrd tonnani tashkil etadi.

**3) *millat***- bu ijtimoiy- iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning har xil bosqichlarida turuvchi xalqlarning eng yuqori darajasi bo'lib, u hududi, iqtisodiyoti va madaniyati, tilining barqaror tarzda umumiyligi bo'yicha ajralib turuvchi insonlar yig'indisidir. Millat a'zolarida milliy o'zligini anglash xissiyoti kuchliroq bo'ladi.

Mamlakatlar aholisi ko'p hollarda, turli millat vakillaridan iborat bo'ladi. Misol tariqasida aytish mumkinki, umumiy aholisi tarkibida Hindiston va Indoneziyada 150 dan ortiq; O'zbekistonda 130 dan ortiq; Filippin va Rossiyada 100 dan ortiq; Vyetnamda 50 dan ortiq; Eron, Afg'oniston, Myanma, Tailandda 30 xildan ortiq millat vakillari mavjud. Buni aksi sifatida Yaponiyani ko'rsatish o'rinli bo'lib, aholisining 99 %i yapon millatiga mansub aholidan tashkil topgan.

**4) *xalqaro iqtisodiy integratsiya***- (lotincha "integratio"- to'ldirish) ayrim mamlakatlar guruhlarining ular tomonidan kelishilgan davlatlararo siyosatni o'tkazishga asoslangan juda chuqur va barqaror o'zaro aloqalari rivojlanishining obyektiv jarayoni, ya'ni bir necha mamlakatlarning o'zaro birlashishidan tashkil

topgan uyushma. Bunda umumiy bozor, ko'pincha umumiy pul birligi, iqtisodiy va siyosiy hamkorlik bir butunligi kuzatiladi.

Quyida jahondagi yirik mavjud integratsion uyushmalardan keltirilgan:

- Yevropa Ittifoqi. “Umumiy bozorni tashkil etish to'g'risida”gi 1957- yil Rimda imzolangan shartnomadan so'ng Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati sifatida tashkil topgan.
  - a'zo davlatlar soni hozirda 27 ta: 1957-yil Germaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg; 1973-yil Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya; 1981-yil Gretsiya; 1986-yil Ispaniya, Portugaliya; 1995-yil Avstriya, Shvetsiya, Finlyandiya; 2004-yil Polsha, Chexiya, Vengriya, Slovakiya, Sloveniya, Estoniya, Latviya, Litva, Kipr, Malta; 2007-yil Ruminiya, Bolgariya; 2013-yildan Xorvatiya (2017- yilning yozida Buyuk Britaniya rasman integratsiyadan chiqib ketgan).
- Mustaqil davlatlar hamdo'stligi. 1991- yil 8- dekabrda Belovej Pushchasi qo'riqxonasida SSSRning rasman tugatilishi munosabati bilan asos solingan, o'sha yilning 21- dekabrda faoliyatini boshlagan.
  - a'zo davlatlar: Rossiya Federatsiyasi, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Tojikiston, Moldova, Ozarbayjon, Armaniston;
  - assotsialashgan davlat: Turkmaniston;
  - kuzatuvchi davlatlar: Mongoliya, Afg'oniston.
- Shanxay hamkorlik tashkiloti. 1996-yil 26-aprelda Shanxay shahrida “Shanxay beshligi” sifatida asos solingan.
  - a'zo davlatlar: 1996-yil Qozog'iston, Qirg'iziston, Xitoy, Rossiya, Tojikiston; 2001-yil O'zbekiston; 2017-yildan Hindiston va Pokiston.
  - kuzatuvchi davlatlar: Belarus, Mongoliya, Eron, Afg'oniston;
  - nomzod davlatlar: Bangladesh, Suriya;



- muloqot hamkor davlatlar: Turkiya, Nepal, Shri- Lanka, Kampodja, Ozarbayjon, Armaniston.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyalar (masalan, ASEAN, NATO, NAFTA, OPEK, LAIA, OTIK, YIHTT va h.z) ko'p bo'lib, hammasining zahirida a'zo davlatlar o'rtasida hamkorlik va aloqalarni rivojlantirish, taraqqiyotga tezroq erishish yotadi. Integratsiyalar tuzishdan maqsadni MDH integratsiyasi misolida ham ko'rib chiqish mumkin, ya'ni inson huquqlari va erkinligini ta'minlash, davlatlar tashqi siyosatini nazorat qilish, iqtisodiy hamkorlik, transport va aloqa tizimini rivojlantirish, tabiat va aholi salomatligini muhofaza qilish, ijtimoiy va migratsion siyosat masalalarini hal qilish, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish hamkor davlatlarning ustuvor maqsad va vazifalariga kiradi.

**5) Kosova-** Bolqondagi Serbiyadan bir taraflama mustaqillik (2008- yil 17-fevralda) e'lon qilgan hudud. Davlat sifatida BMT tomonidan rasman tan olinmagan. Lekin dunyoning boshqa ko'plab- AQSh, Kanada, Avstraliya, Misr, Peru, Germaniya, Fransiya, Turkiya kabi mamlakatlari davlat sifatida tan olgan. Poytaxti Prishtina shahri. Maydoni 10 908 km<sup>2</sup>. Aholisi 1 850 000 kishi, ularning 92 % ini albanlar tashkil qiladi. Ustuvor dini- islom.

Mamlakatda geosiyosiy nuqtai nazardan taxlikali vaziyatlar ko'p bo'lib turadi. Yaqin vaqtlargacha mustaqillikka erishish va qo'shnichilik munosabatlarida nizolar bo'lib turgan bo'lsa, keyingi paytlarda BMT va NATO faoliyatining ijobiy natijasi o'laroq, bu yerdagi mintaqaviy mojaro va nizolar tinch yo'l bilan hal qilishga erishildi.

### Nazorat savollari:

1. Oriyentirlash nima?
2. Afrikadagi eng uzun va eng sersuv daryolar qaysi?
3. Afrika mamlakatlari nima uchun sust rivojlangan?
4. Afrika materigida qanday tabiatni muhofaza qilish maskanlari mavjud?

5. Millat deb nimaga aytiladi?

### Test savollari:

1. O'quvchi maktabga  $225^{\circ}$  azimut orqali brogan bo'lsa, orqaga qaysi azimutda qaytadi?

- A)  $135^{\circ}$
- B)  $315^{\circ}$
- C) 45
- D)  $360^{\circ}$

2. Mahalliy aholi Oq Nilni nima deb ataydi?

- A) *Bahr ul- Ab'az*
- B) al- Bahr fit- Qohirun
- C) Bahr ul- G'azab
- D) Bahr ul- Azraq

3. Afrika makromintaqasida 62 ta davlat mavjud bo'lib, ular qanday davlatlardan iborat?

- A) 52 ta mustaqil, 3 ta ma'qomi noma'lum, 6 ta mustamlaka, 1 ta boshqa
- B) 58 ta mustaqil, 1 ta ma'qomi noma'lum, 3 ta mustamlaka
- C) *54 ta mustaqil, 1 ta ma'qomi noma'lum, 7 ta mustamlaka*
- D) 50 ta mustaqil, 12 ta mustamlaka

4. Afrikada nechta milliy bog' va qo'riqxonalar tashkil etilgan?

- A) 347 ta
- B) 875 ta
- C) *392 ta*
- D) 1 032 ta

5. Zoobentos qanday tiplardan tashkil topgan organizmlar yashash muhiti hisoblanadi?

- 1) infauna;                      2) onfauna;                      3) epifauna;                      4) nektobentos.
- A) 1, 2, 4
- B) 1, 3
- C) 2, 3
- D) 1, 2, 3, 4

### Mustaqil ta'lim

- Afrika makromintaqasini subregionlarga ajratish

### Bilasizmi???

- Atlantika okeanidagi qalqish tufayli Amazonka daryosining suvi 1400 km gacha orqaga qaytadi, natijada “teskari oqish” kuzatiladi;
- Vasko da Gama o'z ekspeditsiyalarida idishlarda balchiq olib yurishni kema a'zolariga tayinlagan. Balchiqdan dengizning sho'r suvini filtrlab, chuchutishda foydalanishgan;
- Ali Qushchi o'z shogirdlariga sayyoralarning orbitalarini tushuntirishda piyozdan foydalangan. Piyozni ko'ndalangiga teng ikki pallaga bo'linganda ko'rinadigan xalqalardan sayyoralarning Quyosh atrofida aylanish orbitalarini tushuntirgan.

### Amaliy mashg'ulot № 18

#### • Avstraliya va Okeaniya mintaqasi

#### Topshiriqlar:

1. Avstraliyaning geografik o'rni va tabiiy resurslari.
2. Demografik vaziyati. Avstraliyaning jahon xo'jaligida tutgan o'rni.
3. Xo'jaligi: sanoat va qishloq xo'jaligi.
4. O'zbekiston- Avstraliya munosabatlari.
5. Okeaniya davlatlari rivojlanishining asosiy muammolari.

#### Qo'shimcha topshiriqlar:

1. *O'zbekiston yer fondining tuzilishi* nomli doiraviy diagrammani quyidagi ma'lumotlar asosida shakllantiring.

- o'tloq, yaylov – 33%
- ishlov beriladigan yerlar – 31 %
- yaroqsiz yerlar – 13 %
- aholi punktlari va sanoat obyektlari bilan band bo'lgan yerlar – 20%
- o'rmonlar – 3%

2. Agar Yer yuzida o'rtacha harorat 3- 4°C ga ko'tarilsa, qanday iqlimiy o'zgarishlar bo'lishi mumkin?

3. Lotin Amerikasi mintaqasining subregionlarga bo'linishini yozing.


4. Avstraliya materigidagi milliy bog' va qo'riqxonalarini yozing.

5. O'zbekistondagi har bir tabiiy okrugning eng baland nuqtalarini grafik asosida tushiring.

### *Javoblar:*

1. O'zbekiston Respublikasining umumiy yer maydoni 448 969 km<sup>2</sup> yoki 44,8969 mln gektar, shundan 44,4103 mln gektari turli xil korxona, tashkilot va muassasalar, fermer xo'jaliklari va fuqarolar foydalanadigan yerlar bilan band. O'z navbatida, bu yerlarning 4,3133 mln gektar (9,7 %)ini sug'oriladigan yerlar tashkil etadi. Yer fondi qaysi maqsadda foydalanishiga qarab, 8 toifaga bo'linadi, ularning eng asosiysi qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar hisoblanadi. Ushbu toifadagi yerlar mamlakatimizda 25,2585 mln gektarga teng bo'lib, u jami yer fondining deyarli yarmiga yaqin. Miqdor jihatidan keyingi o'rinlarda zaxira yerlar (23,4 %) hamda o'rmon fondi yerlari ajralib turadi (19,5 %).

Quyida (aholi punktlari va sanoat obyektlari bilan band bo'lgan yerlar – 20%, o'tloq, yaylov – 33%, ishlov beriladigan yerlar – 31 %, o'rmonlar – 3%, yaroqsiz yerlar – 13 %) umumiy yer fondini aks ettiruvchi diagramma keltirilgan:



Jami ekin maydonlari 4,0710 mln gektar. U qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlarning 18,3 % iga teng, shundan sug'oriladigan yerlar 3,3131 mln gektar. Shuningdek, mamlakatimizda, xususan, Qashqadaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlarida tabiiy holda sug'oriladigan yoki lalmi (bahorikor) yerlar ham ancha ko'p. Ular nisbatan kam miqdorda bo'lsa-da, Surxondaryo, Navoiy va Toshkent viloyatlarida ham bor. Lalmikor yerlarning umumiy maydoni 758 ming gektar. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan boshqa yerlar orasida yaylov va pichanzorlar ajralib turadi. Ularning maydoni 20,756 mln gektarga yoki qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning 82,2 % ini tashkil etadi. Qolaversa, ko'p yillik daraxtzorlar 351 ming gektar, bo'z yerlar esa 80,5 ming gektarni tashkil etadi. Hozirgi davrda mamlakatimiz yerlaridan unumli va oqilona foydalanish kuchaymoqda. Yerlardan intensiv foydalanish natijasida maydon birligida yuqori hosil olinmoqda, mahsulotlar yetishtirish hajmi oshib bormoqda.

2. Hozir yer yuzida 7,4 mlrd aholi istiqomad qiladi. Ayniqsa, aholining o'sishi XX asrning 50- yillaridan ortib ketdi. FTI ga o'tilishi bilan tabiatga ta'siri har doimgidan ham yuqori cho'qqiga chiqdi. Atmosferaga chiqariladigan

chiqindilar miqdori 5,0 mlrd tonnadan ortmoqda. Natijada atmosfera tarkibida CO<sub>2</sub> ko'payib, o'rtacha harorat ko'tarilishi kuzatilgan. Misol tariqasida keltirish mumkinki, Yerdagi o'rtacha harorat 1890- 1980- yillar oralig'ida 14,5° C dan 15,2° C ga, ya'ni 0,7° C ga ko'tarilgan. Bu bir qaraganda, juda kichik qiymat bo'lib ko'rinsa-da, statistik tahlil davomida 0,7° C ning kuchini ko'rish mumkin.

Xususan, agar Yer yuzida o'rtacha harorat 3- 4° C ga ko'tarilsa, iqlim mintaqalari yuzlab kilometr ga surilishi, dehqonchilik chegaralari shimolga kirib borishi va juda katta maydondagi doimiy muzliklar erib ketishi mumkin. Shimoliy Muz okeanini qoplab yotgan muzlar yozda erib ketib, kemalar bemalol suzib yurishi mumkin. Ikkinchi tomondan esa Moskva va uning yon atrofidagi shaharlar iqlimi Kavkaz ortining hozirgi iqlimiga o'xshab qolar edi. Afrikadagi ekvatorial zona shimolga surilib, Sahroi Kabirni egallashi mumkin. Antarktida va Grenlandiya muzliklari erib ketib, natijada Dunyo okeani sathi 66 metr ga ko'tarilgan bo'lar edi. Buning natijasida esa hozirgi insoniyat yashab turgan 25 % qirg'oqlar suv ostida qolgan bo'lar edi.

Yuqoridagidek, haroratning ko'tarilishidan vujudga kelayotgan "issiqxona samarasi" ni yanada avj olib ketmasligi uchun atrof- muhitga oqilona munosabatda bo'lish, ekologik madaniyat darajasida munosabatda bo'lish lozim.

**3. Lotin Amerikasi-** Amerika qit'asining Kanada, AQSh va Grenlandiyadan tashqari barcha mamlakatlari joylashgan qismi. Aholisining ko'pchilik qismi qadimgi lotin tili negizida vujudga kelgan ispan va portugal tillarida so'zlashayotganligi bois bu mintaqa Lotin Amerikasi deb ataladi.

Iqtisodiy geografik o'rni, ijtimoiy- iqtisodiy salohiyati, xalqaro ixtisoslashuvi, aholining irqiy, etnik va diniy tarkibi hamda davlatlararo iqtisodiy integratsiya jarayonlarini hisobga olgan holda, Lotin Amerikasi mintaqasi quyidagi 7 ta subregionga ajratiladi:

- Meksika;
- Markaziy Amerika;

- Vest- Indiya;
- And mamlakatlari;
- “Gviana uchburchagi” mamlakatlari;
- Braziliya;
- La- Plata mamlakatlari.

1) *Meksika*- shu nomdagi davlat nomi bilan ataluvchi subregion. Meksika rivojlanayotgan davlatlar ichida tayanch mamlakatlardan biri bo'lib, mintaqa miqyosidagi ahamiyati ham ancha katta.

2) *Markaziy Amerika*- Meksikadan to Janubiy Amerika materigigacha bo'lgan oraliqda joylashgan mamlakatlardan iborat subregion. Tarkibiga Beliz, Gvatemala, Salvador, Gonduras, Nikaragua, Kosta- Rika va Panama kabi mamlakatlar kiradi.

3) *Vest- Indiya*- Karib dengizidagi orol mamlakatlardan iborat bo'lib subregion. 1492- yil X. Kolumb bu joylarga yetib kelib, Vest- Indiya, ya'ni G'arbiy Hindiston deb o'ylagan. Keyinchalik bu joylar Amerika qit'asining bir qismiligi aniqlagan bo'lsa-da, mazkur nom hozirgacha saqlanib qolgan. Tarkibiga Kuba, Gaiti, Dominikana Respublikasi, Dominika, Yamayka, Antigua va Barbuda, Barbados, Grenada, Sent- Vinsent va Grenadina, Sent- Kits va Nevis, Sent- Lyusiya, Trinidad va Tobago, Bagama davlatlari kiradi.

4) *And mamlakatlari*- Janubiy Amerika materigining g'arbidagi, xususan, And tog' tizmasi hududida joylashgan mamlakatlardan iborat subregion. Tarkibiga Venesuela, Kolumbiya, Ekvador, Peru, Boliviya, Chili davlatlari kiradi.

5) *“Gviana uchburchagi” mamlakatlari*- fransuz, golland va ingliz tillarida gaplashuvchi ketma- ket joylashgan uchta davlatdan iborat Janubiy Amerika materigining shimoli- sharqida joylashgan mamlakatlardan iborat subregion. Tarkibiga Fransiya Gvianasi, Surinam va Gayana davlatlari kiradi.

6) *Braziliya*- shu nomdagi davlat nomi bilan ataladigan subregion. Braziliya davlati kattaligiga ko'ra 5- o'rinda turadi va bunga bog'liq holda tabiiy

resurslarning deyarli barcha xillari(yoqilg'idan tashqari) bilan yaxshi ta'minlangan hamda rivojlanayotgan davlatlar ichidagi tayanch mamlakatlardan biri hisoblanadi.

7) *La- Plata mamlakatlari*- Parana daryosi havzasi, xususan, La- Plata pasttekisligida joylashgan davlatlardan iborat subregion. Tarkibiga Argentina, Urugvay, Paragvay kabi mamlakatlar kiradi.

Lotin Amerikasi mamlakatlarining geografik o'rni qulay hamda resurslar bilan yaxshi ta'minlangan. Shu bois rivojlanish jarayoni oshib bormoqda, buning natijasi o'laroq, mintaqada keyingi paytda qoloq davlatlar deyarli qolmadi (Gaitidan tashqari). Davlatlarning ko'pchiligi jahon miqyosida o'z ixtisoslashuv tarmog'iga ega hamda asosiy iqtisodiy- savdo markazlaridan hisoblanadi.

4. Avstraliya- eng kichik materik. Qadimgi o'tmishda Gondvana, undan oldin yagona- Pangeya materigining bir bo'lagi bo'lgan. Mezozoy erasining oxirlariga kelganda esa mustaqil materik tariqasida ajrab chiqqan. Avstraliyaning organik dunyosi bo'r davri o'rtalaridan boshlab ajralib, yuqoridan ta'kidlanganidek, alohida rivojlana boshlagan. Shuning uchun, ayniqsa, materikdagi flora (o'simliklari) tarkibida endemiklar (75 %) ko'p. Materik maxsus flora oblastini tashkil qilgan. Fauna (hayvonot dunyo)sida ham yuksak sut emizuvchi hayvonlar (odamlar chetdan keltirgan dingo itidan tashqari) deyarli yo'q. Lekin mezozoy va uchlamchi davr faunasining vakillari hozirgacha saqlangan. Misol tariqasida tuxum qo'yib, bolasini suti bilan boqatigan o'rdakburun, yexidna; baliqlardan ikki xil nafas oluvchi seratod; qopchiqli sut emizuvchilardan kenguru, koala ayig' va h.z.larni keltirish mumkin.

Avstraliyaning noyob tabiatini saqlash va muhofaza qilish maqsadida ko'plab milliy bog' va qo'riqxonalar tashkil etilgan.

*Milliy bog'*- alohida muhofaza etiladigan hududlarning eng yirik shakli bo'lib, ilmiy, madaniy, estetik yoki tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan tabiat komplekslarini, nodir tabiat obyektlari, xushmanzara landshaftlarni saqlash uchun tashkil qilinadi va tabiatni muhofaza qilishning maxsus rejimi bilan saqlanadi.



“Milliy” so’zi mazkur hududning xususiy mulki emas, balki butun millatga qarashli ekanligini bildiradi va muhofaza tadbirlari davlat tomonidan qilinadi.

*Qo’riqxona*- har qanday xo’jalik faoliyati taqiqlangan, tabiat komponentlari va landshaftlar qonun asosida qat’iy muhofazaga olingan tabiatni muhofaza qilish maskanlari. Ularning asosiy vazifasi tabiatni o’zgarmagan yoki kam o’zgargan hududlarni, qimmatli landshaftlarni jamiyat manfaatlari uchun, kelajak avlod uchun saqlashdan iborat. Bunda bira to’la o’zgarmagan (qo’riqxonadagi) va o’zgargan (inson o’zgartirgan, ayniqsa, seliteb) landshaftlarni taqqoslash mumkin.

➤ Avstraliyadagi ayrim yirik milliy bog’lar:

- ✓ Kokadu;
- ✓ Draysdeyl- River;
- ✓ Staten- River;
- ✓ Rudal- River;
- ✓ Xamerstli- Renjer;
- ✓ Simpson Dezert;
- ✓ Maunt Buffalo;
- ✓ Kossyushko;
- ✓ Saut- Uest;
- ✓ Uayperfild;
- ✓ Uilsons- Promontori;

➤ Avstraliyadagi ayrim yirik qo’riqxonalar:

- ✓ Tanami Dezert;
- ✓ Viktoriya Katta cho’li;
- ✓ Braun- Reynj.


Avstraliyada landshaftlar juda tartibli muhofaza qilinadi. Shu bois endemiklar ta’sirga uchragan bo’lsa-da, saqlanib qolgan. Avstraliya hududidagi tabiatni muhofaza qilish maskanlarining ishi natijasi o’laroq, materikka “sayyoramizning yaxlit noyob qo’riqxonasi” deb nom berilgan.

5. O'zbekiston- O'rta Osiyo tabiiy geografik o'lkasining markaziy qismida joylashgan. Relyefi jihatidan tog'lik va tekislik mintaqalari oralig'ida joylashib, o'zida dengiz sathidan past bo'lgan botiqlardan to balandligi 4000 metrdan ortadigan tog'lardan iborat relyef tizimini shakllantirgan. Hududining joylashgan o'rni va relyefiga bog'liq holda tabiati shakllangan. Bu yerda o'simliksiz ko'chma qumlarni ham, bog'-u rog'lardan tortib, go'zal aholi manzilgohlarini ham uchratish mumkin. Quyida o'simliklarning yer yuzasida joylashuvi berilgan bo'lib, u hududning arid yoki gumidligini, qulay tog' oldi yoki noqulay cho'l ekanini ko'rsatadi.




O'zbekiston hududining 78,7 % ini tekisliklar tashkil etsa, 21,3 % ini tog'lar egallagan. O'zbekiston hududida Tyanshan va Pomir- Oloy tizmalarining bir qismi joylashib, mamlakatning sharqiy va janubi- sharqiy qismlarida joylashgan. Tog'lari, asosan, gersin va alp tog' hosil bosqichida ko'tarilgan.

Mamlakatimiz hududi tabiiy geografik, geologik va boshqa tabiat elementlari bir xil bo'lgan landshaftli hududlardan iborat 11 ta okrukka bo'linadi. Lekin, avval, ularni relyef nuqtai nazaridan tekislik hamda tog' va tog'oldi qismlariga bo'linadi, keyin ular o'z navbatida quyidagidek okruglarga bo'linadi :



O'zbekistonning, ayniqsa, sharqiy va janubi- sharqiy qismi tog'lardan, qolgan qismlari esa qir va tekisliklardan iborat. Mamlakatimiz hududidagi ko'pgina orografik obyektlarning hosil bo'lishi gersin va alp burmalanishi bilan bog'liq. Tashqi ta'sirlar natijasida o'zgarishlarga uchrab, shakllanib, hozirgi ko'rinishini olgan. Bundan tashqari, neotektonik jarayonlar bugungi kunda ham davom etayotganligi kuzatishlar orqali ko'rish mumkin.



Yuqorida okruglar bo'yicha baland nuqtalarning grafigi berilgan bo'lib, bunda hududlar bo'yicha relief farqini yaqqol ko'rish mumkin.

Okruglarning chegaralari tabiiy obyektlardan o'tkaziladi, tabiiyki, bunda chegaralar ma'muriy- hududiy birliklar chegaralariga to'g'ri kelmaydi. Shu bois ma'muriy birlikning orografiyasida e'tiborni yanada kuchaytirish kerak.

- 1) *Farg'ona* okrugining eng baland joyi shimoli- g'arbiy qismida, Pop tumani hududida joylashgan bo'lib, balandligi 3 410 metrga yetadi;
- 2) *Chirchiq- Ohangaron* okrugining eng baland joyi eng shimoli- sharqida, Qirg'iziston Respublikasi bilan chegarada joylashgan Talas Olatovidagi Manas cho'qqisi bo'lib, balandligi 4 484 metrga yetadi;
- 3) *Mirzacho'l* okrugining eng baland joyi Zomin tumanining chekka janubidagi Shavkartov bo'lib, balandligi 4 029 metrga yetadi;
- 4) *Qashqadaryo* okrugining eng baland joyi sharqida- Janubiy Tyanshan tog'laridagi G'ova dovonida bo'lib, balandligi 4 415 metrga yetadi;
- 5) *Surxondaryo* okrugi O'zbekistonning eng janubida joylashgan bo'lib, bu hududda respublikamizning eng baland joyi 4 643 metrga yetadigan Hazrati Sulton cho'qqisi joylashgan;
- 6) *O'rta Zarafshon* okrugi Zarafshon daryosining o'rta oqimini egallaydi. Shimol, janub va sharqqa brogan sari relyef balandlashib, tog'larga tutashib ketadi. Balandlik Zarafshon tog'larida 2 197 metrgacha yetadi.
- 7) *Quyi Zarafshon* okrugi Zarafshon daryosining quyi qismini tashkil etib, relyef jihatidan hududi tekislikka tog'ri keladi. Eng baland joyi Qiziltepa yaqinida bo'lib, balandligi 362 metrga teng.
- 8) *Qizilqum* okrugi hududi o'rtacha balandligi 200- 300 metrni tashkil etadigan cho'l zonasidan tashkil topgan. Tizma tog'lar yo'q bo'lib, asosan, markaziy qismida qoldiq past tog'lar joylashgan. Eng baland joyi Tomditovdagi Oqtov cho'qqisi bo'lib, balandligi 974 metrga yetadi.

- 9) *Quyi Amudaryo* okrugi Amudaryoning qadimgi va hozirgi zamon deltasini o'z ichiga oladi. Okrug janubi- sharqdan shimoli- g'arbga nishab va shu yo'nalishda kengayib boradi. Balandlik Pitnak hududida 200 metrga yetadi.
- 10) *Orol* okrugi Orol dengiz(ko'l)ining qurigan o'rnini egallaydi. Yerusti tuzilishi eng yosh tekislikka tog'ri kelib, asosan, eol qumlik va sho'rxoklar egallagan. Eng baland joyi okrugning janubi- sharqida 73 metrga teng.
- 11) *Ustyurt* okrugi O'zbekistonning eng shimoli- g'arbiy qismini, Quyi Amudaryodan, xususan, sharqiy Ustyurt chinklaridan sharqdagi hududlarni egallaydi. Eng baland joyi Qorabovur qirlarida bo'lib, 292 metrga yetadi.

Tabiatda har bir narsaning o'z ahamiyati va roli bo'lganidek, O'zbekistonning relyef tuzilishi va xususiyatlari ham iqtisodiyot, madaniyat va geopsixologiya; hududiy mehnat taqsimoti; tabiiy va rekreatsion resurslarning tarqalishi, ularning umumiy ko'rinishi sifatida mamlakatning rivojida katta ahamiyatga ega. Jumladan, masalan, foydali qazilmalardan cho'kindi foydali qazilmalar, asosan, tekisliklar va tog' oralig'i botiqlarida joylashgan bo'lsa, rudalilik xususiyatini namoyon qiluvchilari tog'lik va tekisliklarda qad ko'targan yassi tog'liklarda tarqalgan. Tabiiy sharoit relyefga bog'liq holda shakllanishi ma'lum. Hududda qishloq xo'jaligining ma'lum tarmog'i yoki sanoatning tarkib topishi uning tabiiy sharoiti, imkoniyatlari, qolaversa, mehnat resurslari va talabga bevosita bog'liq. Shulardan kelib chiqqan holda, hududiy mehnat taqsimoti tarkib topadi. Shunday qilib, relyef va tabiiy sharoitning xususiyatlari ham mamlakat hayotida katta ahamiyatga egadir.

### Nazorat savollari:

1. O'zbekistonning yer fondi qanday yerlardan tashkil topgan?
2. Yer yuzida harorat ko'tarilib boraverishi natijasida qanday jarayonlar yuz berishi mumkin?
3. Lotin Amerikasi mintaqasi qanday subregionlarga bo'lingan?

4. Avstraliyaning flora va faunasi tarkibida nima uchun endemiklar ko'p uchraydi?
5. O'zbekiston tabiiy sharoiti va genezisiga ko'ra bir- biridan farq qiladigan qanday okruglarga bo'linadi?

### Test savollari:

1. O'zbekistonda qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar maydoni qancha?  
A) 25,2585 mln gektar  
B) 4,3133 mln gektar  
C) 44,4103 mln gektar  
D) 23,4571 mln gektar
2. Agar yer yuzida harorat 3- 4° C ga ko'tarilsa, Moskva va uning atrofidagi yerlar iqlimi qayerning iqlimiga o'xshab qolishi mumkin?  
A) Sahroi Kabirning o'tgan asrdagi iqlimiga  
B) O'rta dengiz bo'yining hozirgi iqlimiga  
C) Kavkaz ortining hozirgi iqlimiga  
D) O'rta Osiyoning mingyillik boshidagi iqlimiga
3. Kuba, Gaiti, Sent- Vinsent va Grenadina.....Bagama kabi mamlakatlar Lotin Amerikasi mintaqasining qaysi subregionida joylashgan?  
A) Markaziy Amerika  
B) Vest- Indiya  
C) Gviana uchburchagi  
D) Antil mamlakatlari
4. Avstraliya materigi qachon Gondvana materigidan mustaqil materik tariqasida ajrab chiqib ketgan?  
A) Paleozoy erasining birinchi yarmida  
B) Kaynozoy erasining neogen davrida  
C) Paleozoy erasining oxiri, Mezozoy erasining boshlarida  
D) Mezozoy erasining oxirida

5. O'zbekiston hududining qanchasi tekisliklardan iborat?

A) 89,3 %

B) 78,7 %

C) 71,3 %

D) 68,4 %

Mustaqil ta'lim

• O'zbekistonning tabiiy geografik okruglarini kontur kartaga tushirish

**Bilasizmi???**

- Jahonda ikkita davlat to'rt tarafdin dengizga chiqish uchun ikkitadan davlatni bosib o'tishi kerak. Ularning biri Lixtenshteyn bo'lsa, ikkinchisi O'zbekistondir;
- O'zbekiston bilan eng uzoq masofada chegaradosh davlat Qozog'iston bo'lib, chegara uzunligi 2 203 km ga teng;
- Chegaradoshi bo'lmagan jahondagi eng yirik davlat Avstraliyadir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aleksandrovskaya N., Yeramov R., Ignatov G., Lukashova Y., Markov K., Mixaylova L., Ryabchikov A. Dunyo qit'alari va tabiiy geografiyasi. –T.; “O'qituvchi”, 1967. -567 b.
2. Asomov M., Mirzaliyev T. Topografiya asoslari va kartografiya: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. –T.; “O'qituvchi”, 1985. -160 b.
3. Atlas: Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi// 9- sinf. –T.; 2017. -3,5 b.t.
4. Atlas: Materik va okeanlar tabiiy geografiyasi// 6- sinf. –T.; 2017. -2,5 b.t.
5. Atlas: O'rta Osiyo va O'zbekistonning tabiiy geografiyasi// 7- sinf. –T.; 2017. -3,0 b.t.
6. Atlas: O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi// 8- sinf. –T.: 2017. - 3,25 b.t.
7. Atlas: Tabiiy geografiyaning boshlang'ich kursi// 5- sinf. –T.: 2017. -2,5 b.t.
8. Baratov P., Soatov A. Umumiy tabiiy geografiya: Akademik litsey va kasb- hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. –T.; “O'qituvchi”, 2010. - 224 b.
9. Barkov A. Tabiiy geografiyadan izohli lug'at. –T.; “O'zSSR Davlat o'quv-pedagogika”, 1956. -332 b.
10. Ergashev Sh., Bobomatov T., Tursunov N. Jahon mamlakatlari: Ma'lumotnoma. -T.; “O'zbekiston”, 2017. -320 b.
11. G'ulomov P., Qurbonniyozov R. Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5- sinfi uchun darslik. –T.; “Yangiyo'l poligraf servis”, 2015. -140 b.
12. G'ulomov P., Vahobov H., Baratov P., Mamatqulov M. O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7- sinfi uchun darslik. –T.; “O'qituvchi”, 2017. -160 b.
13. Ibragimova R., Mirakmalov M. Yer bilimi asoslari: O'quv qo'llanma. –T.;



- “Barkamol fayz media”, 2017. -188 b.
14. Jumaxanov Sh. Inson geografiyasi: Ma’ruzalar matni. –Namangan, 2017. - 216 b.
  15. Maktabda geografiya// Ma’naviy- ma’rifiy, ta’limiy jurnal, 46- son. –T.; “Ta’lim media”, 2012. -32 b.
  16. Mamatkarimov A. Geografiya: qiziqarli ma’lumotlar, tezkor javoblar/ nima? qachon? qayerda? –T.; “Dizayn Press”, 2011. -64 b.
  17. Mirakmalov M. Umumiy tabiiy geografiya: Oliy o’quv yurtlari uchun o’quv- uslubiy majmua. –T.; 2016. -495 b.
  18. Mirakmalov M., Avezov M., Nazaraliyeva E. Tabiiy geografiyadan amaliy mashg’ulotlar. –T.; “Fan va texnologiya”, 2015. -144 b.
  19. Mirzaaxmedov X. Topografiya va kartografiya, GAT texnologiyalari: O’quv- uslubiy majmua. –Namangan, 2017. -195 b.
  20. Musayev P., Musayev J. O’zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi: Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 8- sinfi uchun darslik. –T.; “Sharq”, 2014. -160 b.
  21. O’zbekiston milliy ensiklopediyasi. –T.; “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”. I- XII jildlar, 2000- 2006.
  22. Qayumov A., Safarov I., Tillaboyeva M. Jahon iqtisodiy- ijtimoiy geografiyasi: Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 9- sinfi uchun darslik. – T.; “O’zbekiston”, 2014. -224 b.
  23. Qorayev S. Toponomika: O’quv qo’llanma. –T.: “O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”, 2006. -320 b.
  24. Rafiqov A., Vahobov H., Qayumov A., Azimov Sh. Amaliy geografiya: Akademik litsey va kasb- hunar kollejlari uchun o’quv qo’llanma. –T.; “Sharq”, 2010. -160 b.
  25. Rasulov A., Hikmatov F., Aytboyev D. Hidrologiya asoslari: Oliy o’quv yurtlari uchun darslik. –T.; “Universitet”, 2003. -328 b.
  26. Sharipov Sh., Federko V., Safarova N., Rafiqov V. Amaliy geografiya:

O'rta ta'lim muassasalarining 10- sinfi va o'rta maxsus, kasb- hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik. –T.; “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. -160 b.

27. Shubayev L. Umumiy yer bilimi. –T.; “O'qituvchi”, 1975. -386 b.
28. Soatov A., Abdulqosimov A., Mirakmalov M. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6- sinfi uchun darslik. –T.; “O'qituvchi”, 2017. -160 b.
29. Soliyev A. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. –T.; “Universitet”, 2014. -404 b.
30. Soliyev E. Meteorologiya: O'quv qo'llanma. –Namangan, 2014. -180 b.
31. Toshpo'latov A. “Imtihon” gazetasi// O'zbekistondagi foydali qazilma konlari. –Marg'ilon, “Poligraf Press”, 2017. №12- 13..
32. Географический энциклопедический словарь. –М.; “Советская энциклопедия”, 1986. -528 с.

### Internet ma'lumotlari:

- 1.1 [www.ZiyoNet.uz](http://www.ZiyoNet.uz)
- 1.2 [www.Refarat.uz](http://www.Refarat.uz)
- 1.3 [www.BearingPoint.uz](http://www.BearingPoint.uz)
- 2.1 [https://googleweblight.com/i?u=https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Amudaryo\\_\(daryo\)&hl=uz-UZ](https://googleweblight.com/i?u=https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Amudaryo_(daryo)&hl=uz-UZ)
- 2.2 [https://googleweblight.com/i?u=https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sirdaryo\\_\(daryo\)&hl=uz-UZ](https://googleweblight.com/i?u=https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sirdaryo_(daryo)&hl=uz-UZ)
- 2.3 <https://googleweblight.com/i?u=https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Nil&hl=uz-UZ>
- 2.4 [https://googleweblight.com/i?u=https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Kongo\\_\(daryo\)&hl=uz-UZ](https://googleweblight.com/i?u=https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Kongo_(daryo)&hl=uz-UZ)
- 2.5 <https://googleweblight.com/i?u=https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Exolot&hl=uz-UZ>
- 2.6 <https://googleweblight.com/i?u=https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Kosova&hl=uz-UZ>

[hl=uz-UZ](#)

- 2.7 <https://googleweblight.com/i?u=https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Toshkent-aglomeratsiyasi-2/&hl=uz-UZ>
- 2.8 <https://googleweblight.com/i?u=https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Monarxiya/&hl=uz-UZ>
- 2.9 <https://googleweblight.com/i?u=https://uz.m.wikipedia.org/wiki/paramos/&hl=uz-UZ>
- 3.1 <https://googleweblight.com/i?u=https://uz.m.wikipedia.org/wiki/maori/&hl=uz-UZ>
- 3.2 [https://googleweblight.com/i?u=https://en.m.wikipedia.org/wiki/Lake\\_Tanganyika/&hl=uz-UZ](https://googleweblight.com/i?u=https://en.m.wikipedia.org/wiki/Lake_Tanganyika/&hl=uz-UZ)
- 3.3 [https://googleweblight.com/i?u=https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Xalqaro\\_iqtisodiy\\_integratsiya/&hl=uz-UZ](https://googleweblight.com/i?u=https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Xalqaro_iqtisodiy_integratsiya/&hl=uz-UZ)
- 3.4 [https://googleweblight.com/i?u=https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Mustaqil\\_davlatlar\\_hamdo'stligi%25CA%25BBstligi&hl=uz-UZ](https://googleweblight.com/i?u=https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Mustaqil_davlatlar_hamdo'stligi%25CA%25BBstligi&hl=uz-UZ)
- 3.5 [https://googleweblight.com/i?u=https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Birlashgan\\_millatlar\\_tashkiloti/&hl=uz-UZ](https://googleweblight.com/i?u=https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Birlashgan_millatlar_tashkiloti/&hl=uz-UZ)
- 3.6 <https://googleweblight.com/i?u=https://uz.m.wikipedia.org/wiki/efemer/&hl=uz-UZ>
- 3.7 <https://googleweblight.com/i?u=https://uz.m.wikipedia.org/wiki/bentos/&hl=uz-UZ>

### **MUNDARIJA:**

|                                                                |     |
|----------------------------------------------------------------|-----|
| So'z boshi.....                                                | 3   |
| 1 Geografiya fanining hozirgi zamon mazmuni va vazifalari..... | 5   |
| 2 Tabiiy sharoit va tabiiy resurslar.....                      | 13  |
| 3 Jahon tabiiy xaritasi va uning shakllanish bosqichlari.....  | 21  |
| 4 Davlatlarning tiplari.....                                   | 34  |
| 5 Jahon aholisi va aholi migratsiyasi.....                     | 46  |
| 6 Jahon urbanizatsiyasi va uning mintaqaviy xususiyatlari..... | 58  |
| 7 Jahon xo'jaligining rivojlanishi.....                        | 66  |
| 8 Jahon sanoati.....                                           | 79  |
| 9 Jahon xo'jaligi va uning tarmoqlari.....                     | 88  |
| 10 Jahon transporti.....                                       | 99  |
| 11 Xalqaro iqtisodiy aloqalar va ularning shakllari.....       | 110 |
| 12 Amerika Qo'shma Shtatlari.....                              | 120 |
| 13 Yevropa makromintaqasi.....                                 | 135 |
| 14 Xorijiy Osiyo makromintaqasi.....                           | 144 |
| 15 MDH va Markaziy Osiyo davlatlari makromintaqasi.....        | 151 |
| 16 Lotin Amerikasi.....                                        | 163 |
| 17 Afrika makromintaqasi.....                                  | 172 |
| 18 Avstraliya va Okeaniya mintaqasi.....                       | 184 |
| 19 Foydalanilgan adabiyotlar.....                              | 195 |

**Shavkatjon Zoirjonovich Jumaxanov,  
Abduqodir Maxammadjon o'g'li Toshpo'latov**

# **GEOGRAFIYA**

*(uslubiy ko'rsatma)*

|                             |                        |
|-----------------------------|------------------------|
| <b>Mas'ul muharrir:</b>     | <b>Mirzaahmedov X.</b> |
| <b>Texnik muharrir:</b>     | <b>Nomozboyev S.</b>   |
| <b>Kompyuter operatori:</b> | <b>Toshpo'latov A.</b> |

© Namangan davlat universiteti

---

2018- yil - sanasida bosishga ruxsat etildi.  
Bichimi 60×80, 1/16. Hajmi 15,8 b.t. Ofset bosma usulida bosildi.  
Times New Roman garniturası. Adadi: nusxa.